



ISSN: 2181-9416

3-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA



НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

“YURIST AXBOROTNOMASI”

huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

№3 (2026)

DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3>

Bosh muharrir:

**KANYAZOV YESEMURAT
SULTAMURATOVICH**

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktori,
yuridik fanlar nomzodi

Bosh muharrir o'rinbosari:

**MAXMUDOV FIRUZ
BAXTIYOR O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktorining
ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo'yicha
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktorining
o'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari,
yuridik fanlari doktori (DSc), dotsent

BAYMOLDINA ZAURESH XAMITOVNA

Qozog'iston Respublikasi
Oliy Sudi Akademiyasi rektori,
yuridik fanlari nomzodi

ZDROK OKSANA NIKOLAYEVNA

Belorus davlat universiteti sudyalalar hamda sud,
prokuratura va adliya muassasalari xodimlarini
qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish
instituti direktori

OQYULOV OMONBAY

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

MAMASIDDIQOV MUZAFFARJON MUSAJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Akademiyasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

TASHKULOV DJURABAY

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Davlat va huquq instituti tarixiy-nazariy, davlat-huquqiy
va konstitutsiyaviy huquqiy fanlar bo'limi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

SALAYEV NODIRBEK SAPARBAYEVICH

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi ilmiy,
innovatsiyalar va axborot-tahliliy ishlar bo'yicha prorektori,
yuridik fanlar doktori, professor

FAZILOV FARXOD MARATOVICH

Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

RAXIMOV DANIYAR BAXTIYAROVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc)

G'AFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti professori v.b., yuridik fanlar
doktori (DSc), dotsent

SHAKUROV RAFIK RAVILYEVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

RAXMONOV ZAFARJON ZAYNIDDINOVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Pedagoglar markazi mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti dotsenti v.b., yuridik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

YUNUSOVA NIGORA KAMILOVNA

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti nashrlari katta mutaxassisi

Tahririyat bilan bog'lanish:

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Xamal ko'chasi, 29-v uy
Web: yuristjournal.uz
E-mail: yuristjournal@adliya.uz
Telefon: +998 55-518-57-77 (738)

Общественно-правовой и научно-практический журнал “ВЕСТНИК ЮРИСТА”

№3 (2026)

DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3>

Главный редактор:

**КАНЬЯЗОВ ЕСЕМУРАТ
СУЛТАМУРАТОВИЧ**

Директор института переподготовки и
повышения квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции Республики
Узбекистан, кандидат юридических наук

Заместитель главного редактора:

МАХМУДОВ ФИРУЗ

Заместитель директора по научной работе и
международному сотрудничеству Института
переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан, доктор юридических
наук (DSc), доцент

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ

Первый заместитель директора по учебной работе Института
переподготовки и повышения квалификации юридических
кадров, доктор юридических наук (DSc), доцент

БАЙМОЛДИНА ЗАУРЕШ ХАМИТОВНА

Ректор Академии правосудия при Верховном Суде
Республики Казахстан, кандидат юридических наук

ЗДРОК ОКСАНА НИКОЛАЕВНА

Директор Института переподготовки и повышения
квалификации судей, работников прокуратуры, судов
и учреждений юстиции Белорусского государственного
университета

ОКЮЛОВ ОМОНБАЙ

Профессор Ташкентского государственного юридического
университета, доктор юридических наук, профессор,
заслуженный юрист Республики Узбекистан

МАМАСИДДИКОВ МУЗАФФАРЖОН МУСАЖОНОВИЧ

Начальник Академии Министерства по чрезвычайным
ситуациям Республики Узбекистан, доктор юридических наук,
профессор

ТАШКУЛОВ ДЖУРАБАЙ

Заведующий отдела историко теоретических,
государственно-правовых и конституционно правовых наук
Института государства и права Академии Наук Республики
Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

САЛАЕВ НОДИРБЕК САПАРБАЕВИЧ

Проректор по научной, инновационной и информационно-
аналитической работе Академии правосудия Республики
Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ

И.о. профессора Ташкентского государственного
юридического университета,
доктор юридических наук (DSc), доцент

РАХИМОВ ДАНИЯР БАХТИЯРОВИЧ

И. о. профессора Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров,
доктор юридических наук (DSc)

ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА

И.О. профессора Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров,
доктор юридических наук (DSc), доцент

ШАКУРОВ РАФИК РАВИЛЕВИЧ

Доцент Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
кандидат юридических наук, доцент

РАХМОНОВ ЗАФАРЖОН ЗАЙНИДДИНОВИЧ

Заведующий Центром педагогов Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров, доктор
философии по юридическим наукам (PhD)

ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМОВНА

И.О. доцента Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Ответственный секретарь:

ЮНУСОВА НИГОРА КАМИЛОВНА

Старший специалист по издательской деятельности
Института переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров

Контакт редакции журнала:

100105, город Ташкент, Мирабадский район,
улица Хамал, 29-в.

Web: yuristjournal.uz

E-mail: yuristjournal@adliya.uz

Телефон: +998 55-518-57-77 (738)

Public, legal and scientific-practical journal of
“LAWYER HERALD”

№3 (2026)

DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3>

Chief Editor:

YESEMURAT KANYAZOV

Director of the Training Institute for
Lawyers under the Ministry
of Justice of the Republic of Uzbekistan,
PhD in Law

Deputy Chief Editor:

FIRUZ MAKHMUDOV

Deputy Director for Research and
International Cooperation of the Training Institute
for Lawyers under the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law (DSc), Associate Professor

EDITORIAL BOARD:

RUSTAM KHURSANOV

First Deputy Director for Academic
Affairs at the Institute for Training
Institute for Lawyers

BAYMOLDINA ZAURESH

Rector of the Academy of Justice
at the Supreme Court of the Republic
of Kazakhstan, PhD in Law

OKSANA ZDROK

Director of the Institute for Retraining and
Qualification Upgrading of Judges,
Prosecutors and Legal professionals
at the Belarusian State University

OMONBAY OKYULOV

Professor of the Tashkent State University
of Law, professor, Honored Lawyer
of the Republic of Uzbekistan

MUZAFFARJON MAMASIDDIKOV

Head of the Academy of the Ministry of Emergency
Situations of the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Juridical Sciences Law, Professor

DJURABAY TASHKULOV

Head of the department of Historical-Theoretical,
State-Legal and Constitutional-Legal Sciences
of the Institute of State and Law of the Academy
of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law, Professor

NODIRBEK SALAEV

Vice-Rector for Research, Innovation, and
Information and Analytical Affairs of the Academy
of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Law, Professor

FAZILOV FARXOD

Professor of the Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (DSc), Associate professor

DANIYAR RAKHIMOV

Professor of the Training Institute for Lawyers,
Doctor of Law (DSc)

GAFUROVA NOZIMAXON

Professor of the Training Institute for Lawyers under
the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law (DSc), Associate professor

RAFIK SHAKUROV

Associate Professor at the Training Institute
for Lawyers, PhD in Law,
Associate professor

ZAFARJON RAKHMANOV

Head of the Pedagogical Center of the Training Institute
for Lawyers, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

FARINGIZ YUSUPOVA

Associate Professor at the Training Institute for
Lawyers, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Executive Editor:

NIGORA YUNUSOVA

Senior Publications Specialist
Training Institute for Lawyers

Contact the Editorial Office:

100105, Tashkent city, Mirabad district,
Xamal street, 29-v
Web: yuristjournal.uz
E-mail: yuristjournal@adliya.uz
Telefon: +998 55-518-57-77 (738)

YURIST AXBOROTNOMASI

3-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 3

LAWYER HERALD

ISSUE 3



MUNDARIJA

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

RO'ZINAZAROV Shuhrat Nuraliyevich, TOSHKANOV Nurbek Bahriddinovich YURIDIK KLINIK VA DUAL TA'LIM ISTIQBOLLARI	8
---	---

DALERJON Aminov MODERN MODELS AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF LEGAL EDUCATION AND PRACTICE COOPERATION IN UZBEKISTAN	16
--	----

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIIYA VA BOJXONA HUQUQI

XUJANOV Tillabek Keldibekovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA BOLANING TA'LIM Olishga BO'LGAN HUQUQLARINI TA'MINLASHGA OID NORMALARI TAHLILI	24
--	----

FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

TOSHQULOV Jo'raboy, Chervets Yevgeniya Igorevna GLOBALLASHUV SHAROITIDA TIJORAT SOHASIDAGI NIZOLARNI MEDIATSIYA USULI BILAN HAL QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XITOY TAJRIBASI	34
---	----

RAXIMOV Doniyor Baxtiyorovich FUQAROLIK-HUQUQIY SHARTNOMAVIY MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH SOHASIDAGI QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR	46
---	----

ОМОРОВА Гүлзат Сатыбалдыевна, ПАЗЫЛОВ Ниязбек Адылжанович ЭЛЕКТРОННАЯ РЕГИСТРАЦИЯ ПРАВ НА НЕДВИЖИМОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	55
--	----

КАМАЛОВА Гүлноза Абдубаситовна РЕФОРМА ИНСТИТУТА КРУПНЫХ СДЕЛОК В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: НОВЫЕ ПОДХОДЫ К КОРПОРАТИВНОМУ КОНТРОЛЮ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	65
---	----

SOLIYEVA Kamola Rustamjon-qizi POSTMORTAL REPRODUKSIYA NATIJASIDA TUG'ILGAN BOLALARNING MEROS HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI MAQOMI	74
--	----

САИДОВА Нигорахон МЕХАНИЗМ РАССМОТРЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ЖАЛОБ НА ОПЕРАТОРОВ ЭЛЕКТРОННЫХ ТОРГОВЫХ ПЛОЩАДОК: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И УЗБЕКИСТАНА	86
--	----

SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

KOMILOV Avazbek Boqijonovich PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI TASNIFLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	102
--	-----

JINOYAT HUQUQI, HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

FAZILOV Farxod Maratovich

“SINDIRILGAN OYNALAR NAZARIYASI”NING JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK

MEZONDAGI TALQINI: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI 109

JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

SUVANKULOV Mexmonali Ismoilovich

ICHKI ISHLAR TERGOV BO‘LINMALARINING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI

BILAN HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 120

ATANIYAZOV Jasurbek Kurbanbayevich

JINOYAT PROTSESSIDA ISH YURITISHNI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR BO‘YICHA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA QO‘SHNI DAVLATLAR TAJRIBASI 127

KUDRATOV Sanjar Marupovich

SUD-EKSPERTIZA MUASSASALARI XULOSALARINI BAHOLASH MEZONLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 140

XALQARO HUQUQ VA INSON HUQUQLARI

YUNUSOV Xaydarali Muratovich

MARKAZIY OSIYODA ATROF-MUHITGA TRANSCHEGARAVIY TA’SIR MASALALARI:

XALQARO-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI 148

ABDUSALOMOVA Durdonaxon G‘anijon qizi

XALQARO HUQUQDA TRANSCHEGARAVIY TA’SIR TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSIYASI:

KONSEPTUAL-HUQUQIY TAHLIL 158

ERGASHEVA Shohista O‘ktam qizi

UNIDROITNING “RAQAMLI AKTIVLAR VA XUSUSIY HUQUQ” TAMOYILLARINING

MILLIY QONUNCHILIKGA IMPLEMENTATSIYA QILISH MASALALARI 167

KORRUPSIYA MUAMMOLARI

ГАФУРОВА Нозимахон Эльдаровна

КОРРУПЦИОННЫЕ РИСКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА:

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ И ПРЕВЕНТИВНЫЕ МЕРЫ 175

FAYZIYEV Xayriddin Sirojiddinovich

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARINING YURIDIK XIZMATLARI FAOLIYATIDA

KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARI 188

NASULLAYEV Mubin Nutfullayevich

IQTISODIY SOHADA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNING OLDINI OLISH:

MEXANIZMLAR VA ILMIY ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 197

JUMAYEV Shohjahon Begimqul o‘g‘li

DAVLAT ORGANLARIDA MUROJAATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KORRUPSIYAVIY

XAVF-XATARLARNI ANIQLASH VA MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI 208

RO'ZINAZAROV Shuhrat Nuraliyevich

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy
sudi bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor
E-mail: sh.ruzinazarov@mail.ru

TOSHKANOV Nurbek Bahriddinovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Tadbirkorlik va
korporativ huquq sho'basida katta o'qituvchisi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi (DSc)
E-mail: n.toshkanov@tsul.uz

YURIDIK KLINIK VA DUAL TA'LIM ISTIQBOLLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): RO'ZINAZAROV SH.N.,
TOSHKANOV N.B. Yuridik klinik va dual ta'lim istiqbollari // Yurist axborotnomasi –
Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 8-15.



3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-001>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy yuridik ta'lim tizimini takomillashtirishda yuridik klinik va dual ta'limning o'рни hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida yuridik ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlash zarurati asoslab beriladi. Yuridik klinikalar talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, aholiga bepul huquqiy yordam ko'rsatish hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Dual ta'lim esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, talabalarni mehnat bozori talablariga mos malakali mutaxassis sifatida tayyorlashda muhim mexanizm sifatida baholanadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonunlari asosida yuridik ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasi o'rganilib, milliy tizimni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Maqolada, shuningdek, yuridik klinik va dual ta'limni joriy etish orqali bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar asosida innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, yuridik klinikalar aholining huquqiy himoyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda, talabalarni real huquqiy vaziyatlarda ishlashga tayyorlovchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Dual ta'lim tizimi esa talabalarni sud, advokatura, davlat organlari va boshqa huquqni qo'llovchi institutlarda amaliy faoliyatga jalb etish orqali ularning professional tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Xulosa sifatida, yuridik klinik va dual ta'limni uyg'unlashtirish zamonaviy yuridik ta'lim sifatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda huquqiy davlat institutlarini mustahkamlashning muhim omillaridan biri ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: yuridik ta'lim, yuridik klinika, dual ta'lim, raqamli ta'lim, amaliy ko'nikmalar, huquqiy ta'lim integratsiyasi, huquqiy xizmatlar, professional tayyorgarlik, oliy ta'lim.

РУЗИНАЗАРОВ Шухрат Нуралиевич

Начальник отдела Конституционного суда
Республики Узбекистан,
доктор юридических наук, профессор
E-mail: sh.ruzinazarov@mail.ru

ТОШКАНОВ Нурбек Бахриддинович

Старший преподаватель сектора
Предпринимательского и корпоративного права
Ташкентского государственного юридического университета,
Самостоятельный соискатель (DSc)
E-mail: n.toshkanov@tsul.uz

ПЕРСПЕКТИВЫ ЮРИДИЧЕСКОГО КЛИНИЧЕСКОГО И ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются роль и перспективы юридических клиник и системы дуального образования в модернизации юридического образования. Особое внимание уделяется необходимости интеграции образования, науки и юридической практики в условиях цифровой трансформации. Юридические клиники рассматриваются как эффективный механизм формирования практических навыков студентов, оказания бесплатной юридической помощи населению и повышения правовой культуры общества. Дуальное образование оценивается как инструмент сочетания теоретического обучения в университетах с практической деятельностью в государственных органах, юридических фирмах и иных организациях. По результатам исследования обосновывается необходимость гармоничного сочетания клинического и дуального обучения для повышения качества юридического образования и подготовки юристов, способных эффективно работать в современных условиях цифровой экономики и правового государства.

В статье также широко освещаются вопросы развития профессиональных компетенций будущих юристов путем внедрения юридической клиники и дуального образования, усиления неразрывной связи между теорией и практикой, а также формирования инновационной образовательной среды на основе цифровых технологий. Согласно результатам исследования, юридические клиники, наряду с удовлетворением потребности населения в правовой защите, выступают в качестве эффективного педагогического механизма, готовящего студентов к работе в реальных правовых ситуациях. Обосновано, что система дуального образования служит повышению профессиональной подготовки студентов путем привлечения их к практической деятельности в суде, адвокатуре, государственных органах и других правоприменительных институтах. В заключение подчеркивается, что гармонизация юридического клинического и дуального образования является одним из важных факторов повышения качества современного юридического образования, подготовки квалифицированных кадров и укрепления институтов правового государства.

Ключевые слова: юридическое образование, юридическая клиника, дуальное образование, цифровая трансформация образования, практические навыки, интеграция образования и практики, подготовка юристов, правовая помощь, высшее образование.

SHUKHRAT Ruzinazarov

Head of Department, Constitutional Court of
the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law, Professor
E-mail: sh.ruzinazarov@mail.ru

NURBEK Toshkanov

Senior Lecturer at the Sector of Business and Corporate Law,
Tashkent State University of Law,
Independent Researcher (DSc)
E-mail: n.toshkanov@tsul.uz

PROSPECTS OF LEGAL CLINICAL AND DUAL EDUCATION

ANNOTATION

This article examines the role and prospects of legal clinics and dual education in the modernization of legal education. Particular attention is paid to the integration of education, research and legal practice in the context of digital transformation. Legal clinics are considered an effective mechanism for developing students' practical skills, providing free legal assistance to the population and improving legal awareness in society. Dual education is analyzed as a model that combines theoretical studies at universities with practical training in courts, law enforcement bodies, law firms and other legal institutions. The study substantiates that the integration of clinical and dual legal education can improve the quality of legal education and develop the professional competencies of future lawyers.

The article also extensively covers issues of developing the professional competencies of future lawyers through the implementation of legal clinics and dual education, strengthening the inseparable link between theory and practice, and forming an innovative educational environment based on digital technologies. According to the research results, legal clinics serve as an effective pedagogical mechanism for preparing students to work in real legal situations, alongside satisfying the population's need for legal protection. It is substantiated that the dual education system serves to enhance the professional training of students by involving them in practical activities in the courts, the legal profession, state bodies, and other law enforcement institutions. In conclusion, it is emphasized that the harmonization of legal clinical and dual education is one of the important factors in improving the quality of modern legal education, training qualified personnel, and strengthening legal state institutions.

Keywords: legal education, legal clinic, dual education, digital transformation, practical skills, integration of theory and practice, legal training, higher education, professional competence.

Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur. Shuningdek, "dual ta'lim" asosida o'qish jarayonida daromad topish va o'qitishni samarali tashkil qilgan korxonalarga imtiyozlar berish ko'zda tutilganligi bejiz emas [1].

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi raqamli didaktik jarayonlarni transformatsiya qilish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob bera oladigan bitiruvchini tayyorlash hamda ta'lim jarayoniga samarali raqamli texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda yuridik ta'lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki talabalarda real huquqiy muammolarni tahlil qilish, hujjatlar bilan ishlash, mijoz bilan muloqot qilish va kasbiy etikaga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Ijtimoiy davlat huquqiy siyosatida raqamli transformatsiya ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Shu sababli zamonaviy yuridik ta'limni yuridik klinik va dual ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylandi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish yuridik ta'lim, ilm-fan va amaliyotni integratsiyalash, bo'lajak huquqshunoslar uchun kasbiy ish o'rinlarini topish hamda huquqni qo'llovchi organlar va tashkilotlarga malakali kadrlarni jalb etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. Konstitutsiyaning 50-moddasiga ko'ra har kim ta'lim olish huquqiga ega. Mazkur norma uzluksiz ta'lim tizimi, uning turli shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini kafolatlash orqali yuridik ta'limni modernizatsiya qilish uchun konstitutsiyaviy asos yaratadi.

Konstitutsiyaning 51-moddasida fuqarolarning davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olish huquqi mustahkamlangan. Oliy ta'lim tashkilotlarining akademik erkinligi, o'zini o'zi boshqarishi, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi ham klinik va dual ta'limni joriy etish uchun muhim tashkiliy-huquqiy zamin hisoblanadi.

"Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida ilm-fan va ta'limning uzviy bog'liqligi nazarda tutilgan. Ushbu bog'liqlik ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini yuksaltirish hamda "ustoz – shogird" an'alarini mustahkamlash orqali ta'minlanadi [2].

Mazkur Qonunning 22-moddasida ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligi belgilangan. Bunda innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tadbirkorlik subyektlari huzurida tegishli yo'nalishlarda ilmiy tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda ilmiy faoliyat natijalarini amaliyotga tatbiq etish muhim vazifa sifatida ko'rsatilgan [2].

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi dual ta'limga bag'ishlangan. Unga ko'ra, dual ta'lim zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, uning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi [3]. Mazkur norma yuridik ta'limda amaliyot bilan bog'langan ta'lim modelini rivojlantirish uchun bevosita huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim sohasidagi qator muammolar ko'rsatib o'tilgan. Xususan, amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yetarli darajada yo'naltirilmagani, oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o'rtasidagi hamkorlik samarali yo'lga qo'yilmagani qayd etilgan [4].

Shuningdek, mazkur Konsepsiyada ish beruvchilarning ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emasligi, ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilmagani hamda tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga to'liq javob bermasligi alohida ta'kidlangan [4]. Ushbu muammolar yuridik ta'limda ham klinik va dual ta'lim mexanizmlarini tizimli joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yuridik klinika raqamli yuridik ta'limni amaliyot bilan integratsiyalashda muhim vosita hisoblanadi. An'anaviy klinik faoliyatdan farqli ravishda, raqamli yuridik klinikalar talabalarga aholiga onlayn huquqiy maslahat berish, elektron murojaatlar bilan ishlash, raqamli platformalarda huquqiy hujjatlar tayyorlash va masofaviy huquqiy yordam ko'rsatish imkonini beradi. Bu, bir tomondan, talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshiradi, ikkinchi tomondan, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Dual yuridik ta'limning afzalligi shundaki, u oliy yuridik ta'lim muassasasidagi nazariy bilimni huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'laydi. Bunday model talabaga universitetda professor-

o'qituvchilardan nazariy bilim olish, amaliyot bazalarida esa tajribali mutaxassislar rahbarligida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Natijada, ta'lim mazmuni huquqni qo'llovchi idoralar, advokatura, konsalting kompaniyalari va xususiy sektor ehtiyojlariga yaqinlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrda PF-232-son Farmonida yuridik ta'lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash, amaliy o'qitish hamda klinik va dual ta'lim tamoyillarini joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [5]. Farmonda Toshkent davlat yuridik universitetida tajriba tariqasida ta'lim dasturlarining nazariy va amaliy qismlarini uyg'unlashtirish, talabalarning sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura, konsalting va sohaga oid boshqa tashkilotlarda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi [5].

Xorijiy tajribada dual, ya'ni amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni klinik yuridik ta'lim bilan uyg'unlashtirish keng qo'llaniladi. Mazkur yondashuv stajirovkalar, yuridik klinikalardagi amaliyot, simulyatsiya mashg'ulotlari va mentorlik asosidagi o'qitish orqali malakali yuristlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Nazariya va amaliyotni integratsiyalash kasbiy kompetensiya, mustaqil fikrlash, axloqiy mas'uliyat hamda mijoz manfaatlarini himoya qilish madaniyatini shakllantiradi [6].

AQSH tajribasida klinik yuridik ta'lim talabalarga professor-o'qituvchilar nazorati ostida real o'quv-amaliy ishlar bilan shug'ullanish imkonini beradi. Yuridik klinikalar kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining odil sudlovga erishish imkoniyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi [7]. Shu sababli klinik ta'lim nafaqat pedagogik usul, balki ijtimoiy-huquqiy xizmat ko'rsatish mexanizmi sifatida ham baholanadi.

Yuridik klinik ta'limning amaliy samaradorligi uning aniq metodik asoslari bilan belgilanadi. Klinik o'qitish jarayonida talaba odatdagi auditoriya topshirig'ini emas, balki real yoki real vaziyatga yaqin huquqiy muammoni hal qiladi. Bunda huquqiy intervyu olish, faktlarni saralash, huquqiy kvalifikatsiya berish, mijozga tushunarli maslahat tayyorlash va hujjat loyihasini rasmiylashtirish ketma-ketligi o'zlashtiriladi. Klinik ta'limning modernizatsiyadagi ahamiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham yuridik klinika talabada kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishi ta'kidlanadi [8].

Milliy sharoitda yuridik klinikalarni faqat bepul huquqiy maslahat beruvchi tuzilma sifatida emas, balki o'quv jarayonining ajralmas laboratoriyasi sifatida ko'rish lozim. Masalan, klinika doirasida "fuqarolik huquqi bo'yicha maslahat", "mehnat nizolari bo'yicha dastlabki huquqiy tahlil", "tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy ma'lumotnoma" kabi yo'nalishlar tashkil etilishi mumkin. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti yuridik klinikasi tajribasi klinika faoliyatini nazariy darslar bilan bog'lash, murabbiylik va talabalarni bosqichma-bosqich real murojaatlar bilan ishlashga tayyorlashning muhimligini ko'rsatadi [8].

Klinik ta'limning yana bir ustun jihati uning "yangi avlod yuristlari"ni shakllantirishga xizmat qilishidir. Zamonaviy yurist nafaqat qonun normasini bilishi, balki mijozning huquqiy ehtiyojini aniqlay olishi, manfaatlar to'qnashuvini oldindan ko'ra bilishi, axloqiy mas'uliyatni his qilishi va sodda tilda huquqiy yechim taklif eta olishi kerak. Shu ma'noda yuridik klinika talabada kommunikativ, tahliliy va axloqiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantiradi [9].

Yuridik klinikalar faoliyatida metodik ta'minot alohida ahamiyatga ega. Klinik o'qitish uchun maxsus dastur, ish papkalari, murojaatlarni ro'yxatga olish shakllari, maxfiylik kelishuvi, maslahat berish algoritmi, hujjat loyihalarini tekshirish varaqalari va baholash mezonlari ishlab chiqilishi zarur. Klinik ta'lim bo'yicha qo'llanmalarda yuridik texnika, maslahat berish uslubi, hujjat tuzish hamda amaliy mashg'ulotlarni yuritish qoidalari batafsil yoritilgani bu yo'nalishning mustaqil pedagogik metodikaga ega ekanligini ko'rsatadi [10].

Dual texnologiyalarni yuridik ta'limga tatbiq etishda ish beruvchi bilan tizimli hamkorlik asosiy shart hisoblanadi. Amaliyot bazalari faqat qisqa muddatli tanishuv amaliyoti o'tkaziladigan joy bo'lib qolmasligi, balki o'quv natijalarini shakllantiruvchi hamkor institut sifatida ishtirok etishi

lozim. Dual ta'lim bo'yicha ilmiy manbalarda ushbu model ta'lim tashkiloti, ish beruvchi va ta'lim oluvchi manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishi qayd etiladi [11].

Yuridik klinika bo'yicha o'quv qo'llanmalarida klinik faoliyatning samaradorligi uch asosiy omilga bog'liqligi ko'rsatiladi: birinchidan, talabaning real vaziyatni huquqiy baholashga tayyorligi; ikkinchidan, professor-o'qituvchi yoki amaliyotchi mentoring doimiy nazorati; uchinchidan, huquqiy maslahat sifatini baholashning aniq mezonlari. Mazkur yondashuv oliy yuridik ta'limda klinika faoliyatini tasodifiy tashabbus emas, balki rejalashtirilgan o'quv moduli sifatida tashkil etishni talab qiladi [12].

Dual ta'limni joriy etishda talabaning o'qish jarayonida mehnat bozoriga bosqichma-bosqich kirib borishi ham muhim. O'quvchi yoki talaba o'z kasbiy yo'nalishini nazariy bilimlar asosida emas, balki real ish jarayonidagi vazifalar orqali anglaganda, bitiruvdan keyingi moslashuv davri qisqaradi. "Xalq so'zi" nashrida ham dual ta'lim nazariy bilimni ish joyidagi amaliyot bilan birlashtirishi, talaba uchun kasbni auditoriyadan tashqarida ham o'zlashtirish imkoniyatini kengaytirishi qayd etiladi [13].

Oliy ta'limda dual yondashuvga ijtimoiy buyurtmaga javob sifatida qarash mumkin. Chunki mehnat bozori bitiruvchidan nafaqat diplom, balki amaliy muammo yechish qobiliyati, jamoada ishlash, hujjatlar aylanishi va raqamli platformalardan foydalanish ko'nikmalarini talab qilmoqda. Shu bois dual yondashuv an'anaviy o'quv rejasini amaliy natijalar bilan boyitadi va ta'lim sifatini baholashda ish beruvchining rolini kuchaytiradi [14].

Germaniya tajribasida dual ta'lim nazariy o'qishni korxonalar, yuridik firmalar va davlat organlaridagi haq to'lanadigan amaliyot bilan uyg'unlashtiradi. Bu tizim talabaning o'qish davridayoq kasbiy muhitga moslashishiga, ish beruvchi talablarini chuqur tushunishiga va bitiruvdan keyingi mehnat faoliyatiga tez kirishishiga xizmat qiladi [15].

Buyuk Britaniya va Avstraliya amaliyotida ham yuridik ta'limning amaliy komponentlari, jumladan, yuridik klinikalar, stajirovkalar, simulyatsion sud jarayonlari va mentorlik dasturlari keng qo'llaniladi. Bu yondashuv **"learning by doing"**, ya'ni amaliyot orqali o'rganish prinsipiga asoslanadi. Mazkur prinsip bo'lajak yuristlarda huquqiy muammoni aniqlash, dalillarni baholash, huquqiy pozitsiya ishlab chiqish va mijoz bilan kasbiy muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [16].

Germaniyadagi dual ta'lim modeli yuridik ta'lim uchun to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olinadigan tayyor sxema emas, balki moslashtirilishi lozim bo'lgan tajriba sifatida qaralishi kerak. Chunki yuridik kasblar tartibga solingan professionallik, maxfiylik, advokatlik siri va manfaatlar to'qnashuvi kabi maxsus talablar bilan bog'liq. Shunga qaramay, **"Duales Studium"** modeli amaliyotning o'quv reja bilan muntazam bog'lanishi, ish beruvchining o'quv natijalarini shakllantirishdagi ishtiroki va talabaning moliyaviy rag'batlantirilishi jihatidan muhim tajriba beradi [17].

Yuridik klinikani dual ta'lim bilan uyg'unlashtirishda "mentorlik" instituti markaziy o'rin tutadi. Mentor talabaning ishini faqat nazorat qilmaydi, balki unga huquqiy muammoni tanlash, dalillarni tahlil qilish, normani topish, hujjat loyihasini takomillashtirish va mijoz bilan muloqot etikasi bo'yicha yo'naltiruvchi rol bajaradi. Yuridik klinika kelajakdagi yuristlar uchun amaliy maktab vazifasini bajarishi haqidagi fikrlar ham aynan mentorlik va klinik rahbarlikning o'quv jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi [18].

Yuridik klinik va dual ta'limni rivojlantirish uchun ularning tashkiliy-huquqiy maqomi, faoliyat doirasi, moliyalashtirish manbalari, talabalarning vakolatlari, professor-o'qituvchilar yuklamasi va mas'uliyati aniq belgilanishi lozim. Bu borada hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud.

Birinchidan, ta'lim tashkilotlari huzuridagi yuridik klinikalar faoliyatini tartibga soluvchi namunaviy nizomni tasdiqlash maqsadga muvofiq. Ushbu nizomda yuridik klinikaning vazifalari,

talabalarining klinik faoliyatga jalb qilinish tartibi, professor-o'qituvchilar rahbarligi, mijoz bilan ishlash qoidalari, maxfiylik, manfaatlar to'qnashuvi va huquqiy maslahat sifati bo'yicha talablar belgilanishi kerak.

Ikkinchidan, yuridik klinika doirasida talabalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar chegarasi aniq belgilanishi zarur. Talabalar sud va boshqa davlat organlarida mijozlar manfaatlarini mustaqil ravishda ifoda etmasligi, biroq professor-o'qituvchi yoki mas'ul mutaxassis nazorati ostida huquqiy maslahat berish, ariza, shikoyat, e'tiroz va boshqa huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash huquqiga ega bo'lishi lozim.

Uchinchidan, dual yuridik ta'limni tashkil etishda ta'lim tashkiloti, ish beruvchi va talaba o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuzish mexanizmi joriy etilishi kerak. Ushbu shartnomada amaliyot muddati, ish joyidagi vazifalar, mentoring majburiyatlari, mehnatga haq to'lash yoki rag'batlantirish tartibi, talabaning xavfsizligi, maxfiylikka rioya qilish va amaliy natijalarni baholash mezonlari belgilanishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, yuridik klinikalar faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha yagona elektron platforma yaratish zarur. Platforma murojaatlarni qabul qilish, ishlarni taqsimlash, hujjatlar loyihalarini kelishish, rahbar tomonidan nazorat qilish, statistik hisobot yuritish hamda klinik faoliyat natijalarini baholash imkonini berishi kerak. Bu yuridik klinika faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Beshinchidan, klinik va dual ta'limda ishtirok etuvchi professor-o'qituvchilar va amaliyotchi mentorlar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish lozim. Bunday dasturlar klinik metodika, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, mijoz bilan muloqot, kasbiy etika, huquqiy hujjatlarni tayyorlash texnikasi va raqamli yuridik xizmatlar bo'yicha amaliy modullarni qamrab olishi zarur.

Oltinchidan, klinik va dual ta'lim natijalarini baholashda faqat amaliyot o'taganlik haqidagi ma'lumotnoma bilan cheklanmaslik lozim. Talabaning individual portfeli, tayyorlagan hujjat loyihalari, murabbiy xulosasi, mijoz bilan ishlash madaniyati, raqamli platformadagi faoliyati hamda kasbiy etikaga rioya qilishi kompleks baholanishi kerak. Bu amaliy ta'limni formal jarayondan real kompetensiya shakllantirish vositasiga aylantiradi.

Yettinchidan, yuridik klinika faoliyatida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar bilan ishlash alohida yo'nalish sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Talabalar aholining huquqiy muammolari bilan to'qnashar ekan, huquqning inson hayotidagi amaliy ahamiyatini chuqurroq anglaydi. Bunday yondashuv huquqshunoslik kasbining ijtimoiy vazifasini tushunishga, fuqarolarning odil sudlovga erishish imkoniyatini kengaytirishga va yuridik ta'limning ijtimoiy foydasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuridik ta'limni transformatsiya qilish sharoitida yuridik klinik va dual ta'limni uyg'unlashtirish bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu model nazariy bilimlarni real huquqiy muammolarni hal qilish jarayoni bilan bog'laydi, talabalarni mehnat bozori talablariga yaqinlashtiradi va aholiga huquqiy yordam ko'rsatish tizimini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, klinik va dual ta'limni samarali joriy etish faqat tashkiliy tadbirlar bilan cheklanmasligi kerak. Ularning huquqiy maqomi, faoliyat mezonlari, moliyalashtirish tartibi, raqamli boshqaruv mexanizmlari va sifat nazorati normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlanishi zarur. Ana shundagina yuridik klinikalar va dual ta'lim yuridik ta'lim sifatini oshirish, huquqiy xizmatlar bozoriga malakali kadrlar tayyorlash hamda huquqiy davlat institutlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. O'zbekiston Respublikasining 29.10.2019-yildagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/4571492>
3. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7864099>
6. Глузман Ю.В., Муллаширов Р.Н. Юридическая клиника как метод практического обучения будущих юристов // Мир науки. Педагогика и психология. 2019. № 5. URL: <https://mir-nauki.com/PDF/05PDMN519.pdf>
7. Худойкина Т.В., Лысенко В.В. Развитие клинического обучения как важного компонента модернизации юридического образования // Интеграция образования. 2017. Т. 21. № 1. С. 124–137. DOI: 10.15507/1991-9468.086.021.201701.124-137. URL: <https://edumag.mrsu.ru/content/pdf/17-1/10.pdf>
8. Черкашина И.А. Юридическая клиника УМЭД: 16-летний опыт теоретического и практического обучения студентов-правоведов // Международные отношения. 2017. № 1. С. 66–71. URL: <https://www.uwed.uz/ru/faculties/6/legal-clinic>
9. Наумович Т.В. Юридическая клиника – формирование нового поколения юристов // София: электрон. науч.-просветит. журн. 2021. № 2. С. 106–110. URL: <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/271393/1/106-110.pdf>
10. Обучение в юридической клинике (правовые основы, методики, юридическая техника и практикум) / С.А. Балашенко [и др.]; под общ. ред. С.А. Балашенко. Минск: ГИУСТ БГУ, 2008. 408 с. URL: <https://law.bsu.by/pub/44/2473.pdf>
11. Алимова Н.К., Семченко Е.Е., Ахатова Ж.Н. Дуальные технологии образования: отечественный и зарубежный опыт и вопросы по его применения для повышения качества в деятельности практикующих юристов // Интернет-журнал «Науковедение». 2015. Т. 7. № 5. URL: <http://naukovedenie.ru/PDF/237PVN515.pdf>
12. Махмудова М.А. Юридическая клиника. Учебное пособие. Махачкала: ДГУНХ, 2019. 90 с. URL: https://dgunh.ru/content/glavnay/ucheb_deyatel/uposob/up-gr-fgos-36.pdf
13. Усманов Б. Дуальное образование – знание, умения и навыки // Народное слово. 12 января 2025 года. URL: <https://xs.uz/uzkr/site/download?id=3708>
14. Семенова Л.М. Дуальный подход к обучению в высшей школе как ответ на социальный заказ // Мир науки. Педагогика и психология. 2022. Т. 10. № 2. URL: <https://mir-nauki.com/PDF/11PDMN222.pdf>
15. Павлова И.В., Потапов А.А. Европейский опыт использования дуального обучения (на примере Германии) // Преподаватель XXI век. 2022. № 1. Ч. 1. С. 117–125. DOI: 10.31862/2073-9613-2022-1-117-125. URL: https://prepodavatel-xxi.ru/sites/default/files/117125_0.pdf
16. Юридическое образование: международный опыт // URL: <https://yuz.uz/ru/news/yuridicheskoe-obrazovanie-mejdunarodny-opt>
17. Дуальное образование в Германии (Duales Studium) // URL: <https://euni.ru/informatsiya/statji/obrazovanie/duales-studium>
18. Лахтионов В.А., Щербаков А.В. Юридическая клиника — главный помощник в обучении будущих юристов // Молодой ученый. 2016. № 18 (122). С. 343–344. URL: <https://moluch.ru/archive/122/33819/>

DALERJON Aminov

Lecturer at the Department of
Jurisprudence Bukhara State University,
Independent Researcher at
Tashkent State University of Law
E-mail: daleraminov554@mail.ru

MODERN MODELS AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF LEGAL EDUCATION AND PRACTICE COOPERATION IN UZBEKISTAN

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): AMINOV D. Modern models and development prospects of legal education and practice cooperation in Uzbekistan // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) P. 16-23.

 3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-002>

ANNOTATION

This article scientifically analyzes theoretical models for the development of legal education and practice cooperation in Uzbekistan. The study covers the history, characteristics and role of the cluster approach, the "Triple Helix" model, clinical-practical and dual education models in the legal education system. The advantages of each model in improving the quality of legal training, the mechanisms of integration with practice and the socio-economic significance are revealed. The article also presents scientific conclusions on the prospects for the implementation of these models in the conditions of the Uzbek education system and ways to increase their effectiveness. The article also studies the experience of legal personnel training in developed foreign countries and shows how they can be used in Uzbekistan. The ways of cooperation between educational institutions, state organizations and private enterprises, as well as the role of legal clinics in student practice, are analyzed. The author gives practical suggestions and recommendations on improving the system of education in the field of law, properly organizing both study and work (dual education) of students, and training modern personnel who meet the requirements of the current labor market.

Keywords: legal education, legal practice, integration models, cluster, "Triple Helix", dual education, clinical education, staff training, foreign experience, education and practice, student practice, modern approach, legal personnel, cooperation system.

AMINOV Dalerjon Alisher-o'g'li

Buxoro davlat universiteti yurisprudensiya
kafedrası o'qituvchisi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: daleraminov554@mail.ru

O'ZBEKISTONDA HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT HAMKORLIGINING ZAMONAVIY MODELLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda huquqiy ta'lim va amaliyot hamkorligini rivojlantirishning nazariy modellari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada klaster yondashuvi, "Uch spiral" modeli, klinik-amaliy va

dual ta'lim modellarining tarixi, xususiyatlari va huquqiy ta'lim tizimidagi o'rni yoritilgan. Har bir modelning yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdagi ustunliklari, amaliyot bilan integratsiyalashuv mexanizmlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida ushbu modellarning tatbiq etilish istiqbollari va ularning samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan. Shuningdek, maqolada rivojlangan xorijiy davlatlarning yuridik kadrlar tayyorlash tajribasi o'rganilib, ulardan O'zbekistonda qanday foydalanish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va xususiy korxonalarning birgalikdagi hamkorlik yo'llari hamda yuridik klinikalarning talabalar amaliyotidagi o'rni tahlil qilingan. Muallif tomonidan huquqshunoslik yo'nalishida ta'lim berish tizimini yaxshilash, talabalarning ham o'qib, ham ishlashini (dual ta'limni) to'g'ri tashkil etish va bugungi mehnat bozori talablariga javob beradigan zamonaviy kadrlar yetishtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot, integratsiya modellari, klaster, "Uch spiral", dual ta'lim, klinik ta'lim, kadrlar tayyorlash, xorijiy tajriba, ta'lim va amaliyot, talabalar amaliyoti, zamonaviy yondashuv, huquqshunos kadrlar, hamkorlik tizimi.

ДАЛЕРЖОН Аминов

Преподаватель кафедры юриспруденции
Бухарского государственного университета,
Самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета
E-mail: daleraminov554@mail.ru

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАКТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведен научный анализ теоретических моделей развития сотрудничества юридического образования и практики в Узбекистане. В статье освещены история, особенности и место в системе юридического образования таких моделей, как кластерный подход, модель «Тройная спираль», клиничко-практическая модель и дуальное обучение. Раскрыты преимущества каждой модели в повышении качества подготовки юридических кадров, механизмы интеграции с практикой и социально-экономическое значение. Также в статье представлены научные выводы о перспективах применения этих моделей в условиях образовательной системы Узбекистана и путях повышения их эффективности. В статье также рассматривается опыт подготовки юридических кадров в развитых зарубежных странах и показывается, как его можно использовать в Узбекистане. Анализируются пути совместного сотрудничества между образовательными учреждениями, государственными организациями и частными предприятиями, а также роль юридических клиник в практике студентов. Автор дает практические предложения и рекомендации по совершенствованию системы образования в области права, надлежащей организации учебно-трудового (дуалистического) обучения студентов и подготовке современных кадров, отвечающих требованиям современного рынка труда.

Ключевые слова: юридическое образование, юридическая практика, модели интеграции, кластер, «Тройная спираль», дуальное образование, клиничское обучение, подготовка кадров, зарубежный опыт, образование и практика, студенческая практика, современный подход, юридический персонал, система сотрудничества.

In world practice, legal education is currently entering a “transformative” stage. That is, a lawyer is being formed not so much as a knowledgeable person, but as a practitioner who is well-versed in legal technologies, has the ability to communicate and feels social responsibility. In Uzbekistan, the process of harmonizing the legal training system with international standards, in particular, the requirements of the Bologna Declaration, is also ongoing. In this regard, eliminating the “gap” between education and practice is a guarantee of increasing not only the quality of education, but also the reliability of the entire judicial and legal system.

The integration of legal education and practice can be understood as a sustainable, systematic and goal-oriented cooperation between higher legal education institutions and law enforcement entities. Such integration connects the content of legal education with real legal processes, prepares students for professional activity early, and increases the adaptability of graduates to the labor market.

In recent years, special attention has been paid to the development of legal education and science in the Republic of Uzbekistan. In particular, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-5987 dated April 29, 2020, sets as an important task the fundamental improvement of the system of legal education and science, ensuring competitiveness in the international educational arena, and improving the quality of legal personnel training [1]. Also, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-232 dated November 26, 2025, places special emphasis on ensuring the inextricable link between legal education, science, and practice [2].

Several concepts are important in the theoretical substantiation of this issue. First of all, the cluster theory developed by M. Porter serves as an important methodological basis for explaining the integration of legal education and practice. Porter interprets a cluster as a systematic association of interconnected organizations, institutions and service structures within a certain field, which serves to increase competitiveness [3].

Another important theoretical basis for the integration of legal education and practice is the “Three Spirals” model put forward by H. Etzkowitz and L. Leydesdorff. In this model, cooperation between the university, the state and the industrial sector is considered as the main factor of innovative development. In the context of legal education, this model can be interpreted as “university - state - legal practice”. In this case, the university creates knowledge and scientific and methodological support, the state determines the regulatory and legal framework and strategic policy, and the subjects of legal practice act as a practical base in preparing students for professional activity.

D. Kolb’s concept of experiential learning is also an important scientific basis for linking legal education with practice. According to Kolb, knowledge is formed not only through the assimilation of theoretical information, but also through the process of experience, observation, analysis, reflection and practical application [4]. This approach is especially relevant for legal education. Because legal activity, along with theoretical knowledge, also requires the skills of analyzing a legal problem, interpreting a norm, preparing a legal opinion, developing a judicial position and communicating with a client.

The competency-based approach is a modern pedagogical basis for the integration of legal education and practice. According to this approach, the educational outcome is assessed not only by the level of knowledge of the student, but also by his ability to assess the legal situation, make independent decisions, prepare legal documents, negotiate, adhere to professional ethics and propose legal solutions. Therefore, the real effectiveness of competency-based education is ensured only when legal education is linked to practice.

In our work, we will try to classify in detail the main models of integration of legal education and practice. Based on theoretical sources and a generalization of legal education reforms in the

conditions of Uzbekistan, the following models of integration of legal education and practice can be distinguished:

Institutional-integration model. The theoretical basis of this model goes back to institutionalism in sociology. According to this approach, educational institutions should form a system of strong relationships with other institutions of society (state, court, economy). In particular, since the 1990s, the concepts of “Civic engagement” and “University partnership” have been developed in European and American universities, and the integration of universities with external institutions has reached a new level [5]. This process means that education is not “outside the system”, but an integral part of the entire social system. In the institutional-integration model, a legal higher education institution cooperates with judicial authorities, the bar, notary, prosecutor’s office, state administration bodies, legal services and employers on a permanent and contractual basis. The main difference of this model is that cooperation is carried out not on temporary or personal contacts, but through official documents (contracts, memoranda) and permanent working groups. In this case, practising specialists are involved in the teaching process, and curricula are improved based on the feedback of employers.

The main advantage of this model is the stability and practice-oriented nature of the educational process. It transforms legal education from a closed academic system into an open one. As a result of integration, students become directly acquainted with the activities of the judicial and legal system and legal services, and graduates are easier to find a job. In addition, this model enriches the university’s scientific potential and practitioners’ experience (teachers are sent to practice, and practitioners give lectures). In this model, a higher legal education institution operates based on constant cooperation with judicial and legal bodies, the bar, the notary, the prosecutor’s office, state administration bodies, legal services, and employers. The main task of the institutional-integration model is to link the educational process with a real professional environment. In this case, practising specialists are involved in the teaching process, curricula are improved based on the opinions of employers, and students become directly acquainted with the activities of the judicial and legal system and legal services.

The “University - State - Legal Practice” model. This concept is based on the Triple Helix theory proposed by Henry Etzkowitz and Loet Leydesdorff in the 1990s [6]. Initially, this model was developed to explain the relationship between university-industry-government from the perspective of the innovation economy, but was later adapted to legal education. In this model, the university is a scientific and educational center, the state is a regulatory entity, and legal practice (courts, the bar) is an environment for the formation of professional competencies. The spiral image indicates that each entity can partially perform the functions of the other (for example, the university performs the function of “practice” by engaging in legal expertise).

The importance of this model is that it presents the educational process not only as an internal affair of the university, but as a joint product of state policy and the professional community. As a result of integration, legal education policy, judicial reforms, and the legal services system are harmonized. This ensures that the content of education meets the needs of the state and society. This model is an adapted version of the “Three Spirals” theory for legal education. In it, the university is a scientific and educational center, the state is a regulatory entity, and legal practice is an environment for the formation of professional competencies. In the conditions of Uzbekistan, this model can serve as an important theoretical basis for harmonizing legal education policy, judicial reforms, and the legal services system.

Clinical-practical model. The history of clinical education dates back to the late 19th and early 20th centuries in the US legal education system. Initially, the “case method” (situation analysis) was introduced by Christopher Langdell, and later clinical education was formed, which involved

students working with real clients. This model is based on D. Kolb's theory of experiential learning: knowledge is formed through experience. The model is aimed at developing students' professional skills through legal clinics, free legal advice centers, and modelling court proceedings. Here, the student not only learns but also participates in the process of solving a real legal problem.

The clinical model is important in the formation of a student's professional responsibility and ethical standards. It connects legal knowledge with real social needs. Students acquire skills such as applying theoretical knowledge in practice, communicating with clients, and preparing documents. This model is considered one of the most effective tools in the formation of the personality of a lawyer. The clinical-practical model aims to develop students' professional skills through legal clinics, free legal consultation centers, modelling of court proceedings, case studies, and practical assignments. The advantage of this model is that it connects the student's legal knowledge with real social needs. The student not only learns, but also participates in the process of solving a real legal problem. Research scientists emphasize that the greatest advantage of the clinical-practical approach is the development of "clinical reasoning" in students and the ability to make independent decisions in non-standard problem situations [7].

Dual education model. The dual education model originated in Germany. Its roots go back to the medieval tradition of apprenticeships, but its current form was formed on the basis of the German Vocational Education Act of 1969. Currently, this model is widely used in Austria, Switzerland and other European countries [8]. In the dual education model, the educational process is carried out in a way that combines classroom training with professional activities in the workplace. The student spends part of the week studying theory at the university and the rest of the week doing practical training at an enterprise or institution.

The main advantage of this model is to accelerate the process of integration of students into the labor market. The graduate receives not only a diploma, but also work experience. For employers, this provides an opportunity to "educate" qualified personnel, and for universities, it helps to bring the content of education closer to practice. The implementation of this model in Uzbekistan is one of the urgent tasks.

Studies have shown that the dual learning method, unlike traditional forms of education, transforms the student from a passive listener to an active creator and problem solver. The student has the opportunity to learn quickly – that is, to master the theory in a short period of time and immediately apply it in practice [9].

Each of these international and national models is characterized by its focus on specific functional areas of legal education and practice integration. In particular, in the dual education model, the educational process is organized on the basis of a synergistic combination of classroom training and real professional activity in practice bases. Today, the conceptual necessity of the widespread introduction of this model in the legal education system of Uzbekistan has risen directly to the level of state policy.

In this regard, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-232 dated November 26, 2025 "On measures to further reform legal education and science in the Republic of Uzbekistan" marked a new strategic stage in radically improving the quality of legal education in our country and ensuring its continuity with practice. The implementation of the dual model within the framework of the tasks set out in this regulatory legal act will serve to consolidate the theoretical knowledge acquired by students in the classroom in an environment of direct professional law enforcement, to form professional competencies in them early, and to increase their adaptability to the labor market.

Model name	Main content and participants	Main features	Advantages and results
Institutional-integration model	Continuous cooperation between universities and judicial authorities, the legal profession, notaries, and employers	Practicing professionals are involved in the lessons; curriculums are based on the opinions of employers.	Linking the educational process with a real professional environment, increasing the adaptability of graduates.
The "University – State – Legal Practice" model ("Triple Helix")	Participants from the University (education), the State (policy/regulatory framework), and the Practice (professional environment).	Each entity performs a specific function: university - knowledge, state - regulation, practice - experience.	Harmonization of education policy, judicial reform, and the legal services system.
Clinical-practical model	Legal clinics, free consultation centers, moot courts.	The student begins working with a real client; theoretical knowledge is reinforced through social needs.	To form students' skills in independently solving legal problems.
Dual education model	Parallel cooperation between the university (theory) and employer companies (practice).	The learning process is carried out simultaneously or alternately in the classroom and at the workplace.	Rapid adaptation of the student to the workplace, the close connection of theory and practice (based on DP-232).

Based on the above analysis, all the models that have been systematically and comparatively analyzed (Triple Spiral, Dual Education, Clinical-Practical and Institutional-Integrated Models) are not isolated concepts. An analysis of scientific literature, foreign experience and theoretical sources shows that these models are the fundamental theories and conceptual foundations of the integrated "Legal Education Cluster" model that we are studying. The historical and theoretical basis of this approach goes back to the cluster theory developed by Harvard Business School professor Michael Porter in the 1990s [10]. M. Porter in his work "National Competitive Advantage" defined a cluster as a geographically concentrated group of interconnected companies, suppliers and related institutions. Later, this theory was adapted to the field of education, in particular, to the development of regional education systems. Today, the cluster model interprets legal education as a multi-subject system aimed at a single goal. In this model, universities, research centers, judicial authorities, employers, legal clinics, and civil society institutions operate in an interconnected manner [11]. In our previous study, we examined the general institutional and macro-conceptual foundations of this legal education cluster. The approach proposed in this article is a logical and consistent continuation of our research. Based on this same Porter theory, the models presented in the table to ensure horizontal connections between the subjects of the system and the flow of resources (information, materials, specialists) are presented as the following fundamental theoretical foundations that form a single model of a legal education cluster.

In the context of the transition from theoretical models to national legal reality, it is worth noting that in the conditions of Uzbekistan, the institutional framework for the integration of legal

education and practice includes a wide range of entities. In particular, this system is manifested through the functional interaction of higher legal education institutions, courts, prosecutor's offices, the bar, notary public, internal affairs bodies, state administration agencies, legal services of enterprises (employers), research institutions and civil society institutions. Each of these entities performs a separate, specific conceptual task in the process of training legal personnel and ensuring their professional adaptation.

At the same time, a number of institutional problems that hinder the systematic development of the integration of legal education and practice are also evident in the national experience. In particular, in many cases, students' production and professional practices remain declarative and formal, relations with employers are not organized on the basis of regular monitoring and a chain of legal obligations. Also, the direct participation of practising lawyers in the educational process is not sufficiently systematized, and legal clinics that provide students with the skills to provide free legal assistance do not have the same material, technical and methodological foundation in all regions. Most importantly, the criteria for assessing students' practical and procedural skills also require further improvement, based on modern digital and criminological trends.

In order to comprehensively address these systemic problems and integrate scattered entities into a single ecosystem, it is advisable, first of all, to establish permanent strategic advisory councils (cluster councils) under legal educational institutions, consisting of representatives of judicial authorities, the bar, notary public, and enterprises. Such institutional structures should regularly analyze curricula, subject programs, internship formats, and professional and qualification requirements for graduates based on the needs of the labor market, and act as a universal filter that legally adapts educational programs to practice.

In conclusion, a fundamental improvement in the quality of legal training in Uzbekistan and the elimination of institutional gaps in the system should be achieved not only through scattered educational projects, but also through the creation of a comprehensive legal-institutional integration platform. The systematic and comparative analysis conducted in the article shows that the "Triple Spiral", dual education, and clinical-practical approaches existing in international practice are not separate concepts, but are components and important theoretical foundations of the integrated "Legal Education Cluster" model that we are studying.

REFERENCES/IQTIBOSLAR/CHOCKH:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP – 5987 dated April 29, 2020 "On additional measures to radically improve legal education and science in the Republic of Uzbekistan". URL: <https://lex.uz/docs/4802181>
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP – 232 dated November 26, 2025 "On measures to further reform legal education and science in the Republic of Uzbekistan". URL: <https://lex.uz/doc-passport/-7864099>
3. Porter ME Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. 1998. - P. 77-90. URL: <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
4. Kolb DA Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – P. 38. URL: https://www.fullerton.edu/cice/_resources/pdfs/sl_documents/Experiential%20Learning%20-%20Experience%20As%20The%20Source%20Of%20Learning%20and%20Development.pdf
5. Sullivan WM, Colby A, Wegner JW, et al. Educating Lawyers: Preparation for the Profession of Law. San Francisco: Jossey-Bass, 2007. – P. 28-30. URL: https://archive.carnegiefoundation.org/publications/pdfs/elibrary/elibrary_pdf_632.pdf
6. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Triple Helix of University–Industry–Government Relations: A Laboratory for Knowledge-Based Economic Development. EASST Review. 1995. - Vol. 14, No. 1. – P. 14-19. URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2480085
7. Ismailov, O. A. (2026). Tibbiy ta'lim talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyati. Qo'qon

davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari, 8(2). URL: <https://journals-kokandsu.uz/index.php/kspi/article/view/399/390>

8. Deissinger T. The German Dual Vocational Education and Training System: Its Strengths and Weaknesses in the Context of European VET Policy. Journal of Vocational Education & Training. 2015. – Vol. 67, No. 1. – P. 3-19. URL: <https://kops.uni-konstanz.de/server/api/core/bitstreams/80a1aa48-6968-4703-82ba-68fe67258614/content>

9. Xamidova M.A. Dual talimning imkoniyatlari, afzalliklari va istiqbollari // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari: Ilmiy-amaliy jurnal. – 2025. – 23-to'plam, 1-son (Sentabr). – B. 145. URL: <https://scientific-jl.com/yan/article/view/26903>

10. Porter ME Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. 1998. - P. 77-90. URL: <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>

11. Aminov D.A. Huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasida klaster tizimining o'rni// Yurist axborotnomasi. – Toshkent, 2025. – № 4 (6-jild). – B. 87–93. URL: <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/1129>

XUJANOV Tillabek Keldibekovich

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Davlat va huquq instituti katta ilmiy xodimi

E-mail: tillabekxujanov@gmail.com

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA BOLANING TA'LIM Olishga bo'lgan huquqlarini TA'MINLASHGA OID NORMALARI TAHLILI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): XUJANOV T.K. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga oid normalari tahlili // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 24-33.

3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-003>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash sohasidagi milliy qonunchilik hujjatlari atroflicha tahlil qilingan hamda ushbu huquqning huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan normalarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash masalasiga doir xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy standartlarda belgilangan qoidalar ham o'rganilgan. Milliy va xalqaro huquq normalarining o'zaro uyg'unligi hamda ularning amaliyotdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bolaning ta'lim olish huquqini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan ayrim dolzarb muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ta'lim muassasalarida bolalarga nisbatan pedagog xodimlar, xususan tarbiyachilar va tarbiyachi yordamchilari tomonidan sodir etilayotgan jismoniy, ruhiy hamda boshqa shakldagi zo'ravonlik holatlarining ko'payib borayotganligi yuzasidan statistik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Maqolada mazkur muammoni bartaraf etishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida xorijiy davlatlar qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyoti o'rganilgan. Xorij tajribasini tahlil qilish asosida bolalarning ta'lim olish huquqini yanada samarali ta'minlash, ularni har qanday zo'ravonlik shakllaridan himoya qilish, shuningdek, pedagog xodimlarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu takliflarni amaliyotga tatbiq etish bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga hamda ta'lim muassasalarida xavfsiz va sog'lom muhitni shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, konvensiya, deklaratsiya, bola huquqi, ta'lim, inklyuziv ta'lim, pedagog, sertifikat, zo'ravonlik.

ХУЖАНОВ Тиллабек Келдибекович

Старший научный сотрудник Института
государства и права Академии наук
Республики Узбекистан
E-mail: tillabekxujanov@gmail.com

АНАЛИЗ ПРАВОВЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА РЕБЁНКА НА ОБРАЗОВАНИЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне проанализированы национальные нормативно-правовые акты, регулирующие обеспечение права ребенка на образование, а также раскрыты содержание и сущность правовых норм, направленных на укрепление гарантий реализации данного права. Наряду с этим исследованы международно-правовые документы, касающиеся обеспечения права детей на образование, в частности положения, закрепленные в универсальных и региональных международно-правовых стандартах в области защиты прав ребенка. Проведен научный анализ взаимосвязи и согласованности национальных и международных правовых норм, а также их практического значения. Кроме того, в статье особое внимание уделено отдельным актуальным проблемам, возникающим в процессе реализации права ребенка на образование. В частности, приведены статистические данные, свидетельствующие о росте случаев физического, психологического и иных форм насилия в отношении детей со стороны педагогических работников, включая воспитателей и помощников воспитателей в образовательных учреждениях. В целях совершенствования правовых механизмов предупреждения и устранения данной проблемы изучены законодательство зарубежных государств и практика его применения. На основе анализа зарубежного опыта разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на более эффективное обеспечение права детей на образование, защиту их от любых форм насилия, а также повышение ответственности педагогических работников. Обосновано, что внедрение данных предложений в практику будет способствовать совершенствованию системы защиты прав детей и формированию безопасной и благоприятной среды в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Конституция, закон, конвенция, декларация, права ребёнка, образование, инклюзивное образование, педагог, сертификат, насилие.

TILLABEK Khujanov

Senior Research Fellow at the Institute of State
and Law of the Academy of Sciences of
the Republic of Uzbekistan
E-mail: tillabekxujanov@gmail.com

ANALYSIS OF THE LEGAL PROVISIONS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ENSURING THE CHILD'S RIGHT TO EDUCATION

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of national legislation governing the protection and realization of the child's right to education and examines the substance and significance of legal provisions

aimed at strengthening guarantees for the implementation of this right. In addition, international legal instruments relating to the protection of children's right to education are reviewed, particularly the provisions established in universal and regional international standards on the protection of children's rights. The study also offers a scholarly analysis of the consistency and interaction between national and international legal norms and evaluates their practical significance. Furthermore, the article pays particular attention to several pressing issues arising in the process of ensuring the child's right to education. In particular, statistical data are presented demonstrating the increasing number of cases involving physical, psychological, and other forms of violence against children committed by educational personnel, including caregivers and assistant caregivers in educational institutions. To improve the legal mechanisms aimed at preventing and addressing such problems, the legislation and law-enforcement practices of foreign countries have been examined. Based on an analysis of international experience, scientifically grounded proposals and recommendations have been developed to enhance the protection of children's right to education, safeguard children from all forms of violence, and strengthen the accountability of educational personnel. The article substantiates that the implementation of these proposals in practice will contribute to improving the system of child rights protection and fostering a safe and healthy environment within educational institutions.

Keywords: Constitution, Law, Convention, Declaration, Child Rights, Education, Inclusive Education, Educator, Certificate, Violence.

Barchamizga ma'lumki, bolalar jamiyatning zaif qatlami ekanligini inobatga olib, ular huquqlarini ta'minlash masalasi har doim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Shu boisdan bu borada qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, sohaga oid xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish jadal suratlarda amalga oshirilib kelinmoqda. Bu islohotlar bola huquqlarini himoya qilish, ularning sog'lom va har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida amalga oshirilayotganligini e'tirof etish joiz. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bolaning maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi huquqlarini ta'minlash masalasi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q" [1].

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy jihatdan rivojlanishidagi ilk va muhim bosqich bo'lib, uning keyingi ta'lim jarayonlaridagi natijalari hamda muvaffaqiyati uchun mustahkam zamin yaratsa, maktab ta'limi shaxsning asosiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur bosqichda bola mustaqil shaxs sifatida shakllanib, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlanadi, fuqarolik ongi va pozitsiyasi rivojlanadi. Shuningdek, u ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyatini takomillashtiradi, o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini o'zlashtiradi hamda mustaqil fikr yuritish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada, maktab ta'limi shaxsning kelgusi ijtimoiy maqomi va jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim o'rin tutadigan asosiy bosqich sifatida namoyon bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda maktabgacha va maktab ta'limi shaxsni individual xususiyatlarini rivojlantirishga hamda kelgusida davlat va jamiyat taraqqiyotida ishtirok eta oladigan barkamol shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi. Zero, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turkiy xalqlarni milliy uyg'onishga chorlagan, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan taraqqiyparvar jadidlar xalqning bolalari taqdirini, millatning ertasini va jaholatdan olib chiquvchi yo'lni ta'limda, maktablarda, teatr va kutubxonalarda ekanligini bayon etadilar. Bu haqda Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [2] deb ta'kidlaydi. Ushbu fikr

ta'lim va tarbiyaning millat taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor yaqqol ifodalaydi.

Ta'lim jamiyat hayotida va shaxsni kamol topishida muhim ekanligini inobatga olib, har bir shaxsni ta'lim olishga bo'lgan huquqi Asosiy qonun ya'ni Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 50-moddasida "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" [3] – deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan XIV bobi 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari, davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlashligi" qayd etilgan [3].

Bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini konstitutsiyaviy asosda kafolatlanishi bu boradagi qonunchilikning mustahkam poydevorini yaratilishiga sabab bo'ldi va qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni [4]. Ushbu qonun 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 11 ta bob 58 ta moddadan iborat.

Mazkur Qonun bilan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda **kafolatlarini**, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari belgilab berilgan. Shuningdek, ushbu qonun bilan **maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda maktabgacha bo'lgan yosh davrlari, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish tartibi, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilishga** doir masalalar tartibga solingan. Qonunning 5-moddasida belgilangan maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash, bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish, ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish kabi yana boshqa bir qator masalalarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish mexanizmi yaratilgan hamda qonunosti hujjatlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [5]. Mazkur Qonun 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan bo'lib, 11 ta bob 75 ta moddadan iborat.

Ushbu qonunning 4-moddasida o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyigi belgilangan bo'lsa, bolaning ta'lim olish huquqi kafolatlangan, 5-moddada esa umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olishi belgilangan.

Bundan tashqari, qonuning 9-moddasida iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkinligi qayd etilgan hamda ushbu modda bilan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, inklyuziv shaklda yoki yakka tartibda ta'lim olish huquqi kafolatlangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yosh (bola)larga e'tibor va amalga oshirilayotgan siyosatning "hech bir bola e'tibordan chetda emas" tamoyili mazkur qonunda ham o'z aksini topgan bo'lib,

qonunning 54-moddasida yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qitish va ularning to'liq ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi, 56-moddada esa ozodlikdan mahrum qilish tarzida jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan bolalarning ta'lim olishi, tarbiyalanishi uchun sharoitlar yaratilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston qonunchiligidagi bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ushbu kafolatlar, xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalarga to'liq mos keladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyaning 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning 28-moddasiga ko'ra, "Ishtirokchi davlatlar bolaning ta'lim olish huquqini e'tirof etadilar hamda ana shu huquq teng imkoniyatlar asosida amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadida: bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etadilar; ham umumiy, ham kasb-hunar bo'yicha o'rta ta'limning turli shakllari rivojlanishini rag'batlantiradilar, bunday ta'limdan hamma bolalar bahramand bo'lishlarini ta'minlaydilar hamda bepul ta'lim joriy etish va zarurat tug'ilgan hollarda, moliyaviy yordam ko'rsatish singari zarur chora-tadbirlarni ko'radilar" [6].

Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" 26-moddasida "Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olishda hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak" [7] ligi kafolatlangan.

Ishtirokchi davlatlar har bir kishining ta'lim olish huquqini e'tirof etishi, boshlang'ich ta'lim hamma uchun majburiy va tekin bo'lishi, o'rta ta'limning barcha shakllari, jumladan, hunar-texnika o'rta ta'limi ochiq bo'lishi va barcha zarur choralar ko'rib, xususan, asta-sekin pulsiz ta'lim olishni joriy etish yo'li bilan barchaning imkoni yetadigan darajaga erishishi lozim [8].

O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni [9]. Mazkur Qonun 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan bo'lib, 8 ta bob 49 ta moddadan iborat.

Qonunning 11-moddasi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilangan bo'lib, unda nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'lim (maktabgacha, qo'shimcha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim) olish imkoniyatini ta'minlash, 38-moddada esa nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqi kafolatlangan va unga ko'ra, "Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha darajalardagi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish va o'z qobiliyatini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta'lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga ega. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'limini rivojlantirishni, ularning ta'lim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o'tishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi. Ta'lim tashkilotlari davlat organlari bilan birgalikda nogironligi bo'lgan bolalarning maktabgacha, qo'shimcha va umumiy o'rta ta'lim olishini, shuningdek o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni olishini ta'minlaydi" [9].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston milliy qonunchiligida nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlari yetarli darajada kafolatlangan bo'lsa-da, inklyuziv ta'lim shaklida ta'lim olayotgan bolalarga sifatli ta'lim berilishini ta'minlash maqsadida, bu borada qonunchilik mexanizmini yanada takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz. Bunda:

birinchidan, hozirgi kunda inklyuziv ta'lim yo'nalishini takomillashtirish zaruratidan kelib chiqib, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim

berish metodikasiga oid fanlarni kiritish lozim. Ushbu taklifdan kutilayotgan natija shundaki, bu borada alohida uslubdagi ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan pedagoglarning kompetensiyalari rivojlanadi, shu bilan birga, inklyuziv ta'lim muhitini yaratish bo'yicha zamonaviy metodika va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yanada oshadi.

ikkinchidan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim beruvchi pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini joriy etish hamda ularni muntazam ravishda malakasini oshirib borishlarini yo'lga qo'yish lozim. Bu inklyuziv ta'lim yo'nalishi sifatini yanada yuqori bo'lishiga, mazkur sohada vakillarini bilim va ko'nikmalari zamon talablariga mos bo'lishiga xizmat qiladi.

Zero, BMT Bosh Assambleyasining 2006-yil 13-dekabrda 61/106-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan va 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 7-moddasida "ishtirok etuvchi davlatlar nogiron bolalarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini boshqa bolalar bilan teng ravishda to'la amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rishi zarurligi" qayd etilgan [10].

O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlarida ham bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlangan bo'lib, ushbu huquqqa daxl qilishi mumkin bo'lgan holatlar qonun bilan cheklangan.

Bolalarning maktabgacha ta'lim sohasidagi huquqlarini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalasi ekanligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevral kunidagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni asosida tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan birinchi yo'nalishida o'z aksini topgan. Bunda, maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish, umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga moslashtirish, Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish, kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish kabi maqsadlar belgilangan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqlari huquqiy jihatdan to'liq kafolatlanganligini e'tirof etish bilan ushbu sohada bolaning huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda. Chunki, maktabgacha va maktab ta'limi sohasida bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari tez-tez uchrab turganligi har birimizni tashvishga solishi kerak bo'lgan muammo bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (S.Raxmanova) ning 2026-yil 19-may kuni Senat majlisidagi hisobotida ma'lum qilishicha, "2025-yilda Bolalar Ombudsmaniga 1934 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari yuzasidan 19 ta jinoyat va 26 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Bundan tashqari, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish haqidagi 20 ta qaror bekor qilinib, qo'shimcha tergovoldi tekshiruviga yuborilgan. Internet monitoringi natijasida aniqlangan bola huquqlari buzilishi holatlari yuzasidan ham 23 ta jinoyat va 28 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgani bayon etilgan. Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida bolalarga nisbatan tan jazosi qo'llagani va kasbiy faoliyatiga loqayd munosabatda bo'lgani uchun 15 nafar pedagog ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Yana 6 nafar pedagog bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabat sabab intizomiy jazoga tortilgan [11].

Bolalar Ombudsmaniga kelib tushgan 263 ta murojaatlar tahlil qilinganda, bolaga nisbatan zo'ravonlik holatlari bo'yicha kelib tushgan murojaatlarning **25 foizi** pedagog xodim zo'ravonligi

(hisobotga ko'ra, ta'lim muassasalaridagi zo'ravonlik bolalar o'rtasidagi zo'ravonlik holatlaridan tashqari, pedagog va tarbiyachining bolalarga qilgan zo'ravonligini ham qamrab oladi), 7,6 foizi tengdoshlarning zo'ravonligi ekanligi aniqlangan [11].

Shu sababli, ta'lim tizimida bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish uchun faqat jazo choralarini kuchaytirish yetarli emas, balki, zo'ravonlik holatlarini kamaytirishning eng samarali usuli sifatida pedagoglarning kasbiy faoliyatini aniq standartlar, monitoring va profilaktik mexanizmlar orqali tartibga solish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, ayni paytda hozirgi kunda o'qituvchilarni malaka sinovidan (attestatsiya) o'tkazish jarayonlarida asosiy e'tibor o'qituvchini bilimi va metodikasiga qaratilgan. Biroq pedagogning bola huquqlari, psixologik xavfsizlik va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha bilimlari alohida baholanmaydi. Shu sababli pedagoglarni kamida har 3 yilda bir marta bolalar huquqlari sohasidagi bilimlarini baholash va natijasi bo'yicha sertifikat berish tizimini joriy etish lozim. Zero, bolalarga nisbatan har qanday jismoniy, psixologik yoki jinsiy zo'ravonlik holatiga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va har bir holat bo'yicha majburiy chora ko'rish siyosatini amalga oshirilishi zarurligi, xalqaro tashkilotlar tomonidan qayd etilib kelinadi. Xususan, UNICEF va UNESCO tomonidan tayyorlangan "Maktabdagi zo'ravonlikning oldini olish" ("School-based Violence Prevention. A Practical Handbook") nomli qo'llanmasida har bir davlat maktablarda xavfsiz muhit yaratish, zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ichki siyosatlar va harakat rejalarini ishlab chiqish tavsiya etilgan [13]. Ushbu qo'llanmada bolalarga nisbatan haqorat, tahqirlash, kamsitish, jamoat oldida obro'sizlantirish, jismoniy jazolash zo'ravonlikning alohida shakllari sifatida ichki hujjatlarda aniq belgilanishi lozimligi ham qayd etilgan [12].

Shuningdek, bu borada xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalarga nisbatan zo'ravonlik qilgan pedagoglarga nisbatan faqat intizomiy jazo emas, balki ularni kelgusida ta'lim sohasida ishlash huquqidan mahrum qilishning maxsus huquqiy mexanizmlari mavjud. Masalan, Angliyada pedagog o'quvchiga nisbatan jismoniy zo'ravonlik qilsa, psixologik tazyiq o'tkazsa, jinsiy daxlsizlikka qarshi harakat qilsa, pedagog kasbiga mutlaqo nomuvofiq xatti-harakat sodir etsa maxsus kasbiy komissiya muhokamasidan o'tkaziladi va komissiya xulosasiga ko'ra, unga nisbatan ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini cheklashni nazarda tutuvchi "Ta'qiqlash qarori" ("Prohibition Order")ni qabul qilishi mumkin. Bunda, o'ziga nisbatan ushbu turdagi qaror qabul qilingan shaxs maktablarda, bolalar uylari va ta'lim bilan bog'liq boshqa tashkilotlarda pedagogik faoliyat bilan shug'ullana olmaydi. Shu bilan birga bu taqiq odatda umrbod hisoblanadi va shaxsning ma'lumotlari maxsus taqiqlangan pedagoglar ro'yxatiga kiritiladi [13].

Avstraliyada bolalar bilan ishlovchi har qanday shaxs, jumladan o'qituvchilar ham, maxsus tekshiruvdan o'tishi shart. Bu tizim "Bolalar bilan ishlash uchun tekshiruv" ("Working With Children Check") deb ataladi. Ushbu tekshiruv jarayonida, shaxs sudlanganlik holatlari, jinoiy ta'qib materiallari, bolalarga qarshi huquqbuzarliklar, kasbiy intizomiy ma'lumotlar kabilar tekshiriladi. Tekshiruv natijasida shaxs bolalar bilan ishlash uchun ruxsatnoma oladi yoki bolalar bilan ishlashdan chetlashtiriladi (ta'qiqlanadi). 2025-yilda Avstraliya shtatlari "Banned in one – banned in all" ("Bir shtatda taqiqlangan bo'lsa, barcha shtatlarda taqiqlanadi") tamoyilini joriy etishga kelishib oldilar. Bu islohotga ko'ra, bir hududda bolalar bilan ishlash huquqidan mahrum etilgan shaxs boshqa hududda yangi ruxsatnoma ola olmaydi [14].

Bu borada Kanada tajribasi ham o'ziga xos bo'lib, davlatning har bir provinsiyasi o'qituvchilarni litsenziyalash va nazorat qilish bo'yicha alohida vakolatga ega. Agar pedagog bolaga nisbatan jinsiy zo'ravonlik yoki bola xavfsizligiga tahdid tug'diradigan boshqa xatti-harakatlar sodir etilganligi aniqlansa, uning pedagogik litsenziyasi bekor qilinadi yoki umrbod chaqirib olinadi. Ushbu toifadagi shaxslar ro'yxati ochiq reyestrarda saqlanadi va ish beruvchilar tomonidan ishga qabul qilish jarayonida tekshirilishi shart hisoblanadi [15].

“Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyaning 3-moddasi 2-qismiga ko'ra, Ishtirokchi davlatlar o'z zimmasiga bolani uning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlashni zimmlariga oladilar, bunda uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo'yicha uning uchun javobgar sanalmish boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini e'tiborda tutishni hisobga oladilar hamda ana shu maqsadda barcha qonuniy va ma'muriy chora-tadbirlarni ko'radilar [6].

Bundan tashqari, bolalar manfaatlariga putur yetkazilishi xavfini oldini olish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga (shu jumladan xususiy va davlat-xususiy sherikchilik asosida faoliyat yurituvchi MTTda ham) birinchi marotaba tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi sifatida ishga qabul qilinayotgan shaxslarni maxsus tekshiruvdan o'tkazish tartibini joriy etish lozim. Mazkur tekshiruv bir nechta bosqichlardan iborat bo'lishi, bunda bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki boshqa taqiqlangan harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilganligini aniqlash, maxsus psixologik test va mutaxassis psixolog suhbatini hamda kamida 5 kishidan iborat bo'lgan mustaqil ekspertlar guruhi (komissiya) suhbatidan o'tkazilishi tartibi belgilanishi lozim.

Mazkur taklif etilayotgan mexanizm Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzurida “Bolalar bilan ishlovchilarga ruxsatnoma berish” faoliyati bilan shug'ullanuvchi Agentlik sifatida tashkil etilishi orqali amalga oshirilishi va mazkur Agentlikning faoliyati, vazifalari va tashkiliy tuzilishi qonunchilik hujjati asosida belgilanishi lozim.

Taklif etilayotgan mexanizmning ahamiyati shundaki, Bolalar bo'yicha xalqaro ishchi guruhning tavsiyalarida nazarda tutilgan inson resurslaridan foydalanishda xavfsiz yollash (“safer recruitment”) prinsipini amalda joriy etilishi hamda bolalarga nisbatan ehtiyotkorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Buyuk Britaniya tajribasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, birlashgan qirollikda tarbiyachi yoki bola parvarishi sohasidagi xodim sifatida ishga qabul qilinishida kengaytirilgan oshkor qilish va taqiqlash xizmati (Disclosure and Barring Service (DBS) hamda taqiqlangan ro'yxat (barred list) kabi tekshiruvlari majburiy talablaridan bo'lib, ushbu tekshiruv 4 bosqichdan iborat bo'ladi. Ushbu tizimni mohiyati shundaki, davlat tomonidan ish beruvchilarga xavfsiz kadr tanlashga yordam beradi, maxsus tekshiruv (shaxsni bolaga nisbatan jinoiy va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi uchun javobgarlikka tortilganligini) ni amalga oshiradi, bolalar va zaif qatlamlar bilan ishlash taqiqlangan shaxslar ro'yxatini yuritadi [16].

Oshkor qilish va taqiqlash xizmati (DBS) ish beruvchilarga har yili Angliya, Uels, Normand orollari va Men oroli uchun DBS tekshiruvlarini qayta ishlash va berish orqali xavfsizroq yollash qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. DBS shuningdek, kattalar va bolalarning taqiqlangan ro'yxatlarini yuritadi va shaxsni ushbu ro'yxatlardan biriga yoki ikkalasiga ham kiritish va tartibga solinadigan faoliyat bilan shug'ullanishdan chetlatish kerakmi yoki yo'qmi, degan qarorlarni qabul qiladi. DBS tekshiruvining 4 bosqichli yakuni bo'yicha xulosalar to'g'ridan-to'g'ri har bir ariza beruvchi (ish beruvchi)ga beriladi. Keyin ish beruvchilar o'z tashkilotlariga mos odamlarni yollashayotganiga ishonch hosil qilish uchun tekshiruv natijalari bilan tanishishni so'rashlari mumkin [16].

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, Buyuk Britaniyadagi DBS tizimi bolalarni himoya qilish sohasida eng rivojlangan preventiv huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanib, u jinoyatchilik tarixini tekshirish, xavfli shaxslarni aniqlash va ularni mehnat bozoridan cheklash orqali bolalar xavfsizligini ta'minlaydi. Mazkur tizimning to'rt bosqichli tekshiruv mexanizmi va “barred list” instituti kadrlarni tanlash jarayonida yuqori darajadagi huquqiy kafolatlarni yaratadi.

Yuqoridagi kabi tajriba Germaniyada ham mavjud bo'lib, Buyuk Britaniyadan farqli ravishda bu mamlakatda bolalar bilan bevosita ishlashga ma'sul xodimlarga ularni bolalar bilan ishlashi uchun shaxsning o'tmishini keng qamrovli tekshiruv (Nemischa. Erweitertes Führungszeugnis-kengaytirilgan tekshiruv)dan o'tishi va tekshiruv natijalari bo'yicha sertifikatni taqdim etishi majburiy hisoblanadi.

Germaniyada yo'lga qo'yilgan ushbu mexanizm "Bolalarni himoya qilish bo'yicha federal qonun" (Bundeskinderschutzgesetz) asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu qonun bolalarni himoya qilishni kuchaytirish va yoshlar farovonligi va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan, bolalarni zo'ravonlik, beparvolik va zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida 2011-yil 22-dekabrda qabul qilingan va 2012-yil 1-yanvardan kuchga kirgan [17].

Germaniyada mavjud ushbu "Erweitertes Führungszeugnis" instituti bolalar bilan ishlashga ma'sul bo'lgan shaxsni shaxsini kengaytirilgan tarzda tekshirishga asoslangan bo'lib, mazkur mexanizm bolalar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan preventiv huquqiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatdagi bu mexanizm yagona markaziy organ sifatida faoliyat yuritmasa-da, qaror qabul qilish jarayoni bir nechta subyektlarning ishtirok etishi orqali amalga oshiriladi va bu ish beruvchilar tomonidan qaror qabul qilish jarayonida asosiy axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya etish lozim deb hisoblaymiz: O'zbekistonda ijtimoiy davlatni shakllantirish sharoitida maktabgacha va maktab ta'limi sohasida bola huquqlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratib kelinayotganligi e'tirofga sazovordir. Shu bilan birga olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada bolalarning ta'lim olish huquqi mustahkam huquqiy baza – Konstitutsiyaviy normalar, sohaviy qonunchilik va xalqaro huquq standartlari asosida kafolatlangan bo'lsa-da, ijtimoiy davlat tamoyillari nuqtai nazaridan ta'lim sohasida bola huquqlarini ta'minlash faqat normativ-huquqiy baza bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy mexanizmlar orqali ham ro'yobga chiqarilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda bolalar uchun xavfsiz va inklyuziv ta'lim muhitini yaratish bu boradagi ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Bundan tashqari, bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini to'liq ta'minlash va ta'lim sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish maqsadida Ta'lim kodeksini qabul qilinishi, bunda bolaning maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim sohasidagi huquqlari, shuningdek inklyuziv ta'limni amalga oshirish tartibi va tamoyillari aniq belgilab berilgan bo'lishi hamda ta'limning barcha darajalariga joriy qilinishi kabi masalalarni o'z ichiga olishi lozim. Shuningdek, hozirgi kunda inklyuziv ta'lim sohasidagi mavjud kamchiliklarni va muammolarni bartaraf etish maqsadida qabul qilinishi taklif etilayotgan Ta'lim kodeksida mazkur yo'nalishga alohida bob ajratilishi lozim.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida Maktab ta'limini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi. 28.01.2022 yil. Manba: <https://www.president.uz/>
2. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1992. – B.14.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. URL.: <https://lex.uz/docs/6445145>
4. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son. URL.: <https://lex.uz/ru/docs/-4646908>
5. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son. URL.: <https://lex.uz/uz/docs/-5013007>
6. BMT Bosh Assambleyaning 20.11.1989 yildagi 44/25-son rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya", 28-modda. Manba: BMT rasmiy sayti- <https://childrenandarmedconflict.un.org/tools-for-action/optional-protocol/?utm>.
7. BMT Bosh Asambleyasining 10.12.1948 yildagi 217 A (III)-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" 26-modda. BMT rasmiy sayti- <https://childrenandarmedconflict.un.org/tools-for-action/>

[optional-protocol/?utm](https://childrenandarmedconflict.un.org/tools-for-action/optional-protocol/?utm)

8. BMT Bosh Assambleyasining 16.12.1966 yildagi 2200 A(XXI)-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan va 03.01.1976 yil kuchga kirgan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt”, 13-modda. BMT rasmiy sayti- <https://childrenandarmedconflict.un.org/tools-for-action/optional-protocol/?utm>

9. O'zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi O'RQ-641-son Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son. URL.: <https://lex.uz/docs/-5049511>

10. BMT Bosh Assambleyasining 2006 yil 13 dekabrda 61/106 rezolyusiyasi bilan qabul qilingan va 03.05.2008 yilda kuchga kirgan “Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya”. BMT rasmiy sayti- <https://childrenandarmedconflict.un.org/tools-for-action/optional-protocol/?utm>

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakilini 19.05.2026 yilda Senat majlisidagi hisobotidan. Manba: Senatning rasmiy veb-sayti: <https://senat.uz/plenary-sessions/post-5054>

12. UNICEF, UNESCO, End Violence Against Children. “School-based Violence Prevention. A Practical Handbook”. ISBN 978-92-4-151554-2. © World Health Organization 2019.

13. Buyuk Britaniya hukumatining rasmiy sayti. Manba: <https://www.gov.uk/>

14. Avstraliya Hukumati Ta'lim vazirligi rasmiy sayti. Manba: <https://www.education.gov.au/>

15. Kanadaning Ontario provinsiyasidagi Ontario College of Teachers (OCT) — o'qituvchilarni litsenziyalash va kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi tashkiloti rasmiy sayti. Manba: <https://www.oct.ca/en-ca>

16. Buyuk Britaniyaning GOV.UK rasmiy sayti. Manba: <https://www.gov.uk/government/organisations/disclosure-and-barring-service/>

17. Germaniya Federal hukumatining rasmiy veb-sayti – Bundesregierung. Manba: <https://www.bundesregierung.de>

TOSHQULOV Jo'raboy

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq institutining bo'lim boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor
E-mail: j.toshqulov@islas.uz

Chervets Yevgeniya Igorevna

"Chervets.Partners" yuridik firmasining boshqaruvchi sherigi,
Rossiya Sanoatchilar va tadbirkorlar ittifoqi huzuridagi
Arbitraj markazining Ural bo'limi rahbari,
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi S.S. Alekseyev
nomidagi Xususiy huquq tadqiqot markazining maslahatchisi,
yuridik fanlar nomzodi
E-mail: e.chervets@chervets.partners

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TIJORAT SOHASIDAGI NIZOLARNI MEDIATSIYA USULI BILAN HAL QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XITOIY TAJRIBASI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): TOSHQULOV J., Chervets Y.I. Globallashuv sharoitida tijorat sohasidagi nizolarni mediatsiya usuli bilan hal qilishning huquqiy asoslari: Xitoy tajribasi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 34-45.

 3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-004>

ANNOTATSIYA

Maqolada globallashuv sharoitida iqtisodiy va tijorat munosabatlarining jadallashuvi natijasida yuzaga kelayotgan nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rnini, ahamiyati va afzalliklari tahlil qilingan. Xususan, Xitoyda mediatsiya institutining shakllanish va rivojlanish tarixi, ushbu usul yordamida nizolarni hal qilish borasida erishilgan yutuqlar hamda "Tijorat mediatsiyasi to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishidan ko'zlangan maqsadlar yoritilgan. Shuningdek, tijorat mediatsiyasi faoliyatining huquqiy tabiati, mazmun-mohiyati va uni amalga oshirishning asosiy prinsiplari ochib berilgan. Tijorat mediatsiyasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, tijorat mediatsiyasi tashkilotlarini tuzish shartlari va tartibi, ularning ustaviga qo'yiladigan talablar hamda faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari tahlil etilgan. Bundan tashqari, tijorat mediatorlariga qo'yiladigan malakaviy talablar, mediatsiya jarayonini o'tkazish tartib-taomillari, taraflarning kelishuvga erishishi yoki erishmasligi bilan bog'liq huquqiy oqibatlar ham ko'rib chiqilgan. Maqolada mediatsiya natijasida erishilgan kelishuvni rasmiylashtirish va uning ijrosini ta'minlash mexanizmlari, tijorat mediatsiyasi tashkilotlari hamda mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilmagan taqdirda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar ham tahlil qilingan. Xulosa sifatida tijorat mediatsiyasi faoliyatini xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy jihatdan chuqur va atroflicha o'rganishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy Xalq Respublikasi, "Tijorat mediatsiyasi to'g'risida"gi Nizom, mediatsiya, vositachilik, tijorat mediatsiyasi, mediator, tijorat mediatsiyasi tashkiloti, kelishuv, nizolashuvchi tomonlar.

ТОШКУЛОВ Джурабой

Заведующий отделом Института государства и права
Академии наук Республики Узбекистан,
доктор юридических наук, профессор
E-mail: j.toshqulov@islas.uz

ЧЕРВЕЦ Евгения Игоревна

Управляющий партнер юридической фирмы «Chervets.Partners»,
руководитель Уральского отделения Арбитражного центра при РСПП,
консультант ИЦЧП имени С.С. Алексеева при Президенте РФ,
кандидат юридических наук
E-mail: e.chervets@chervets.partners

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗРЕШЕНИЯ КОММЕРЧЕСКИХ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ МЕДИАЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ОПЫТ КИТАЯ

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы роль, значение и преимущества института медиации при разрешении споров, возникающих в условиях стремительного развития экономических и коммерческих отношений в эпоху глобализации. В частности, освещены история становления и развития института медиации в Китае, достигнутые результаты в сфере урегулирования споров посредством данного механизма, а также цели принятия Положения "О коммерческой медиации". Кроме того, раскрыты правовая природа, сущность и содержание коммерческой медиации, а также основные принципы её осуществления. Проанализированы вопросы государственной поддержки коммерческой медиации, условия и порядок создания организаций коммерческой медиации, требования, предъявляемые к их уставам, а также правовые основы организации их деятельности. Также рассмотрены квалификационные требования к коммерческим медиаторам, порядок проведения процедуры медиации и правовые последствия, связанные как с достижением сторонами соглашения, так и с недостижением договорённости. В статье исследованы механизмы оформления медиативного соглашения и обеспечения его исполнения, взаимоотношения между организациями коммерческой медиации и органами местного управления, а также правовые последствия несоблюдения требований действующего законодательства. В заключение обоснована актуальность глубокого и всестороннего сравнительно-правового изучения деятельности коммерческой медиации с использованием опыта зарубежных государств.

Ключевые слова: Китайская Народная Республика, Положения "О коммерческой медиации", медиация, посредничество, коммерческая медиация, медиатор, организация коммерческой медиации, медиативное соглашение, спорящие стороны.

JURABOY Toshkulov

Head of Department, Institute of State and Law,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Law, Professor
E-mail: j.toshkulov@islas.uz

EVGENIA Chervets

Managing Partner of "Chervets.Partners" Law Firm,
Head of the Ural Branch of the Arbitration Center under
the Russian Union of Industrialists and Entrepreneurs,
Consultant to the S.S. Alekseev Private Law Research Centre
under the President of the Russian Federation,
Candidate of Legal Sciences
E-mail: e.chervets@chervets.partners

LEGAL FRAMEWORK FOR RESOLVING COMMERCIAL DISPUTES THROUGH MEDIATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: THE CHINESE EXPERIENCE

ANNOTATION

This article examines the role, significance, and advantages of mediation as an alternative dispute resolution mechanism in the context of globalization and the growing intensity of economic and commercial relations. Particular attention is paid to the historical development of the mediation institution in China, the achievements attained through mediation-based dispute resolution, and the objectives underlying the adoption of the Regulation on Commercial Mediation. The article further explores the legal nature, essence, and fundamental principles of commercial mediation activities. It analyzes state support measures for commercial mediation, the conditions and procedures for establishing commercial mediation organizations, the requirements applicable to their charters, and the legal framework governing their operation. In addition, the study examines the qualification requirements imposed on commercial mediators, the procedures for conducting mediation, and the legal consequences arising from either the successful settlement of a dispute or the failure of the parties to reach an agreement. The article also discusses the mechanisms for formalizing and enforcing mediation settlement agreements, the interaction between commercial mediation organizations and local government authorities, as well as the legal consequences of non-compliance with the requirements of applicable legislation. The study concludes by emphasizing the relevance and necessity of a comprehensive comparative legal analysis of commercial mediation practices based on international experience.

Keywords: People's Republic of China, Regulation on Commercial Mediation, mediation, dispute resolution, commercial mediation, mediator, commercial mediation organization, mediation agreement, disputing parties.

XX asrning ikkinchi yarmi XXI asrning birinchi choragiga kelib insoniyat tarixida yangi – globallashuv davri boshlangan. Bu davrda jahon hamjamiyatida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, mafkuraviy, ilm-fan, axborot texnologiyalari kabi sohalarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi kunda ushbu jarayon jadal sur'atlar bilan rivojlanib va mazmunan boyib bormoqda [1].

Globallashuv jamiyat taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan murakkab, serqirra, keng qamrovli, ziddiyat va qarama-qarshiliklardan xoli bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-mafkuraviy sohalariga oid muammolarni qamrab oluvchi jarayon [2].

Globallashuv – xalqaro, mintaq va alohida olgan mamlakat miqyosidagi murakkab jarayonlarni boshqarish va huquqiy tartibga solishga zamon talablaridan kelib chiqib yondashishni taqozo etuvchi

davrdir. Buning muhim sabablaridan biri – huquqiy munosabatlar subyektlari jismoniy va yuridik shaxslar oʻrtasidagi huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning kun sayin *bir tomondan*, rivojlanib va mazmunan boyib, qamrovi kengayib borayotgani boʻlsa, *ikkinchi tomondan*, ushbu munosabatlar alohida davlatlar chegarasidan chiqib, xalqaro va mintaqaviy tus olayotgani boʻlsa, *uchinchi tomondan*, mazkur munosabatlarning murakkablashayotgani, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlardan xoli emasligidir. Shu munosabat bilan huquqiy munosabatlar subyektlari oʻrtasida ijobiy munosabatlar bilan bir qatorda salbiy-nizoli munosabatlarning vujudga kelishi ehtimoldan xoli emas. Subyektlar oʻrtasidagi nizoli munosabatlarni tartibga solishda, aniqrogʻi, nizolarni hal qilishda davlat va huquq muhim rol oʻynaydi.

Lekin globallashuv subyektlararo munosabatlarni shunchalik murakkablashtirib va nizolarning haddan tashqari koʻpayib ketishiga olib keldiki, davlatning sud hokimiyati organlari ularni hal qilishga vaqti, jismoniy imkoniyatlari, kadrlar bilan taʼminlanganligi masalalarida zaiflik qilmoqda. Bu subyektlar oʻrtasidagi nizolarni sudsiz muqobil usullar yordamida hal qilishga boʻlgan ehtiyojni taqozo etmoqda. Nizolarni sudgacha muqobil hal qilishning hozirgi davrda ommalashib borayotgan shakli – *mediatsiyadir* [3].

Mediatsiya soʻzi ingliz tilida – **vositachilik** maʼnosini anglatadi. *Tor maʼnoda mediatsiya* – vositachilik, nizolarni muqobil – sudgacha hal qilish usuli boʻlib, unda nizolashuvchi taraflarga betaraf mediator kelishishga yordam beradi, lekin u nizo boʻyicha qaror qabul qilishga va taraflarga maslahat berishga haqli emas. *Keng maʼnoda mediatsiya* nizolashuvchi taraflar oʻrtasida muzokaralar olib borish, yarashuv bitimi tuzish, nizolarni mediatorlar va hakamlar vositasida hal etilishini anglatadi [4].

Huquqiy munosabatlar subyektlari – urugʻlar, qabilalar, diniy jamoalar, xalqlar, davlatlar, alohida shaxslar oʻrtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish oʻzining uzoq oʻtmishiga borib taqaladigan tarixiga ega. Bu tarix Sharqda boshlanadi, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Tinch-totuv yashash, jamiyatda, mahallada, oilada tartib-intizomni saqlash, insonlar, xalqlar oʻrtasida doʻstlik aloqalarini mustahkamlash, oʻzaro yordam, murosas, kechirimlilik, nizolarni tinch yoʻl va vositachilar orqali hal qilish, tomonlararo muammolarning yechimini topishda uchinchi shaxsga murojaat qilish kabilar Sharq xalqlarining azaliy qadriyatlaridir. Mazkur qadriyatlar doirasining kengayishi, mazmunan boyishi, rivojlanishi va ommalashishida Xitoy xalqlarining hissassi katta.

Qadimgi Xitoyda nizolarni vositachilar orqali hal qilishning falsafiy-axloqiy asoslarini Konfutsiy va daosizm taʼlimoti tashkil qilgan. Ushbu taʼlimotlarda jamoat tartibini saqlash asosiy oʻrinni egallagan. Buning uchun kishilar oʻrtasidagi buzilgan munosabatlarni tiklash va kelgusida jamoa aʼzolari oʻrtasida vujudga kelishi mumkin boʻlgan nizolarning oldini olishga jiddiy eʼtibor berilgan. Sharqning boshqa mamlakatlarida boʻlgani kabi Xitoyda ham alohida shaxslarning huquq va manfaatlaridan jamoaning huquq, manfaatlari ustun qoʻyilgan. Nizolarni vositachilar orqali hal qilishda nizo ishtirokchilarining obroʻsi va qadr-qimmatini saqlab qolishga, ularga putur yetkazmaslikka alohida eʼtibor qaratilgan. Vositachi nizolashuvchilarning “yuzini yerga qaratmaslik”, “bir-biridan xafa boʻlmasligi”, “xijolatli” holatga tushib qolmasligi uchun bilimi, tajribasi, salohiyati va nufuzini ishga solib, adolat, halollik, xolislik kabi axloqiy tamoyillarga ogʻishmay rioya qilgan holda taraflarni oʻzaro hurmat va mehr-oqibatli boʻlishga hamda kelajakda oʻzaro aloqalarni saqlab qolishga undashga harakat qilgan. U nizolashuvchi tomonlar ongiga “birovlar senga qanday munosabatda boʻlsa, sen ham ularga shunday munosabatda boʻl” tamoyilini singdirish choralari koʻrgan.

Nizolarni hal qilishda vositachilik rolini jamoaning nufuzli, obroʻli, ijtimoiy maqomi yuqori, katta hayotiy tajribaga ega boʻlgan, mahalliy urf-odatlar va anʼanalarni yaxshi bilgan qishloq, mahalla oqsoqollari va urugʻlarning sardorlari bajargan. Ularning asosiy vazifasi kim “haq” yoki kim

“nohaq” ekanligini aniqlash emas, bironi ayblab, boshqasini oqlash emas, balki nizolashuvchilarni qoniqtiradigan, murosaga keltiradigan yechimni topish bo‘lgan. Bu yechim nizolashuvchilarga foyda keltirishi shart bo‘lgan. Nizolashuvchi tomonlar o‘rtasida erishilgan kelishuv, asosan, yozma shaklda rasmiylashtirilib, jamoatchilikka e‘lon qilingan. Bu kelishuvning qonuniyligini mustahkamlagan va ijrosini kafolatlagan [5].

Globallashuv sharoitida huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolarni sud tartibida hal etish usuli sudlovning keng ko‘lamligi, uzoq vaqt talab etishi, katta miqdordagi xarajatlar bilan bog‘liqligi sababli zamonaviy tijorat talablariga mos kelmaydi. Shu munosabat bilan so‘nggi yillarda mediatsiya instituti har tomonlama qulay va maqbul yechim sifatida o‘zini namoyon etmoqda. Nizolarni mediatsiya usuli bilan hal qilishning afzalligi shundaki, nizolarni tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida, nizoni muhokama qilish jarayonida uchinchi, betaraf, xolis va mustaqil shaxs ishtirokida hal qilish imkonini beradi; mediatsiyada asosiy maqsad nizoga chek qo‘yish emas, balki taraflar o‘rtasidagi ishbilarmonlik va hamkorlik munosabatlarini saqlab qolishdir; mediatsiya nizolashuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashib ketishining oldini olishga, ziddiyatlarni yumshatishga va ularning og‘ir oqibatlariga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka sharoit yaratadi; jadal sur‘atlar bilan yil sayin o‘zgarib borayotgan global munosabatlar sharoitida mediatsiya madaniyatlararo, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy aloqalarning uzilib ketmasligiga xizmat qiluvchi zamin rolini o‘ynashi mumkin.

Globallashuv sharoitida jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi savdo aloqalari alohida olgan davlatlar va mintaqalar chegarasidan allaqachon chiqib ketgani va bu jarayon jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgani va rivojlanishi mumkinligi hech kimni ajablantirmaydi. Mazkur jarayonda ko‘p tomonlama savdo bitimlari bilan bog‘liq nizolarning yuzaga kelishi ham ehtimoldan xoli emas. Bunday nizolarni hal qilish uchun tezkor, kam xarajat va global o‘zgarishlarga moslashuvchan mexanizmlarga katta ehtiyoj tug‘iladi. **Bu birinchidan. Ikkinchidan,** globallashuv sharoitida savdo aloqalari tizimida transmilliy kompaniyalarning hal qiluvchi rol o‘ynayotgani barchaga ayon. Mazkur kompaniyalar turli huquqiy tizimlar amalda bo‘lgan davlatlar va ularning ishlab chiqaruvchi korxonalari hamda savdo tashkilotlari bilan turli munosabatlarga kirishishi tabiiy hol. Bu jarayonda ular o‘rtasida nizolar paydo bo‘lmasligini hech kim kafolatlay olmaydi. Ushbu sohada nizolashuvchilar uchun sudda nizoni hal qilish uzoq vaqtni olishi va ishning oshkora ko‘rilishi biznesga “qimmatga tushishi” ehtimoldan xoli emas. Shu munosabat bilan nizoni mediatsiya yordamida hal qilish taraflar uchun eng ma‘qul usul hisoblanadi. **Uchinchidan,** globallashuv sharoitida ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayonlari, ta‘minot tizimlari, savdo aloqalari shunday tashkil etilgan va o‘rnatilganki, bitta halqada yuz bergan uzilish butun jahondagi biznes jarayonlariga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Mediatsiya esa biznes jarayonlarni to‘xtatib qo‘ymasdan nizoni tezkorlik va kam xarajat bilan hal qilish imkonini beradi [6].

Shu munosabat bilan tijoratga oid nizolarni mediatsiya usuli asosida hal qilish bo‘yicha to‘plangan xalqaro tajribani o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarish globallashuv sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Xitoy tajribasi jiddiy e‘tiborga loyiq.

Xitoyda mediatsiya amaliyoti Sin (mil. avv. 221 – 206) va Xan (mil. avv. 206 – mil. 220) sulolalari davridan boshlangan. Tan sulolasi (923-936) Sun (960-1279), Min (1368-1644) va Sin (1644-1911) sulolalari davrida nizolarni hal qilishda mediatsiyadan foydalanilganligi haqida ma‘lumotlar bor. Madaniy inqilobgacha (1966-1976) bo‘lgan davrda ham mediatsiyadan nizolarni hal qilishda foydalanilgan. 1980-yillar boshlaridan nizolarni vositachilik, kelishuv, hakamlik, oddiy sud kabi usullardan foydalanib hal qilish ommaviy tus olgan.

1986-yilda Xitoyda 950 000 ta vositachilik qo‘mitasi va 6 000 000 ta vositachi bo‘lib, ular bir yilda 7 300 000 ta nizoni ko‘rib hal qilgan. Bular oila-nikoh, meros, aliment, qarz, uy-joy, qurilish

uchun yer uchastkalari, ishlab chiqarish va boshqaruv, fuqarolarni sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazish, iqtisodiy bahslar, ayrim ijtimoiy xavflilik darajasi past bo'lgan jinoiy ishlar bilan bog'liq nizolar bo'lgan.

2009-yil oxiri holatiga ko'ra Xitoyda xalq mediatsiyasini amalga oshiruvchi 824 ming tuzilma faoliyat olib borgan, jumladan: qishloq va shahar aholisi qo'mitalari huzurida tuzilgan 974 ming xalq mediatsiyasi qo'mitasi, korxonalar va muassasalar tomonidan tuzilgan 79 ming qo'mita, tuman va mahalla boshqaruvchilari huzuridagi 42 ming qo'mita, mintaqaviy yoki tarmoqlar bo'yicha 12 ming qo'mita. So'ngra besh yil ichida xalq mediatsiyasi qo'mitalari 27 mln 950 ming nizoni hal qilgan, ularning 96 foizi mediatsiya kelishuvi tuzilishi bilan yakunlangan. Ekspertlarning guvohlik berishlariga ko'ra, Xitoyda umumiy nizolarning 30 foizi sudgacha mediatsiya usuli bilan hal etiladi [7].

2011-yilda Xitoyda umumiy hisobda 820 mingdan ortiq xalq yarashtiruv tashkilotlari va 4 million 670 mingdan ziyod xalq vositachilari faoliyat ko'rsatgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, har yili xalq vositachilari yordamida taxminan 9 millionta nizo hal qilinadi [8].

Shuningdek, Xitoyda mediatsiya xizmatlarini professional (kasbiy) asosda va haq evaziga amalga oshiradigan bir qator maxsus muassasalar ham mavjud. Ulardan eng yiriklari va nufuzlilari Xitoy xalqaro savdoni rivojlantirish kengashi (SSRIT) va Xitoy xalqaro savdo palatasi (SSOIC) huzuridagi mediatsiya markazi. Markaz Xitoy ma'muriy-hududiy birliklarining barchasida o'z bo'linmalariga ega [9].

Tijorat bilan bog'liq munosabatlarning kundalik hayotda muhim ahamiyat kasb etishi va murakkabligini hisobga olib Xitoy Davlat Kengashining 75-yig'ilishida 2025-yil 19-dekabrda "Tijorat mediatsiyasi to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi va 2026-yil 1-maydan kuchga kirdi [10]. (Quyida ushbu nizom qoidalari batafsil tahlil qilinadi.) Nizomning 1-moddasida qayd etilishicha: "Mazkur Nizom tijorat mediatsiyasi faoliyatini tartibga solish, tijorat nizolarini samarali hal etish, tomonlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, tijorat mediatsiyasi sohasining rivojlanishini rag'batlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida qabul qilingan".

Nizomning 2-moddasida tijorat mediatsiyasi faoliyati tushunchasining izohi berilgan bo'lib, unda Nizom normalari bilan qanday munosabatlar tartibga solinishi, ular qanday munosabatlarga tatbiq etilmasligi ko'rsatilgan, ya'ni: "Ushbu Nizomda nazarda tutilgan tijorat mediatsiyasi faoliyati deganda savdo, investitsiya, moliya, transport, ko'chmas mulk, inshoot qurilishi, intellektual mulk va boshqa sohalaridagi tijorat nizolarini tomonlarning ixtiyoriy va do'stona muzokaralari, tijorat mediatsiyasi tashkiloti rahbarligida hal etishi tushuniladi". Nikoh va oila, meros, vasiylik, mehnat va kadrlar masalalari, iste'molchilar huquqlari bo'yicha nizolar, shuningdek, qonunga muvofiq boshqa usullar bilan hal qilinishi lozim bo'lgan nizolar tijorat mediatsiyasiga tatbiq etilmaydi". Tijorat mediatsiyasiga tatbiq etilmaydigan nizolarni hal qilish bilan bog'liq munosabatlar 2007-yil 29-dekabrda qabul qilinib, 2008-yil 1-maydan kuchga kirgan "Mehnat nizolarini mediatsiya va arbitraj qilish to'g'risida"gi Qonun, 2010-yil 28-avgustda qabul qilinib, 2011-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Xalq mediatsiyasi to'g'risida"gi Qonun va protsessual qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi.

Nizomda "tijorat mediatsiyasi tashkilotining" quyidagi ta'rifi berilgan: "Ushbu nizomda nazarda tutilgan tijorat mediatsiyasi tashkiloti deganda mazkur Nizomga muvofiq tuzilgan va foyda olishni maqsad qilmagan holda tijorat mediatsiyasi faoliyatini amalga oshiradigan tashkilot tushuniladi".

Nizomga binoan tijorat mediatsiyasi faoliyati quyidagilar asosida tashkil etiladi va amalga oshiriladi:

– Tijorat mediatsiya sohasining rivojlanishi Kommunistik partiya va davlatning yo'l-yo'riqlari, siyosatlar va qarorlarini izchil amalga oshirish;

- Xalqqa xizmat qilish tamoyiliga og‘ishmay amal qilish;
- Davlatning yuqori darajada rivojlanishi va tashqi ochiqlikning yuqori darajada bo‘lishiga xizmat qilish.

Nizomda tijorat mediatsiyasi faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishga rahbarlik qilishga mas’ul markaziy va mahalliy davlat organlarining quyidagi vazifalari belgilab berilgan ya’ni: “Davlat Kengashining adliya ma’muriy organi butun mamlakat bo’yicha tijorat mediatsiyasiga rahbarlik qilish, uni tartibga solish va tijorat mediatsiya sohasining rivojlanishini rejalashtirish uchun mas’uldir.

Tuman darajasidan yuqori bo‘lgan mahalliy hukumatlarning adliya ma’muriy organlari o‘z ma’muriy hududlari doirasida tijorat mediatsiyasi ishiga rahbarlik qilish va uni tartibga solish, shuningdek, tijorat mediatsiyasi va tashkilotlarining tijorat mediatsiyasi faoliyatini amalga oshirishi ustidan nazorat va boshqaruvni kuchaytirish uchun mas’uldir”.

Nizom bo’yicha tijorat mediatsiya tashkilotlari markaziy va mahalliy adliya ma’muriy organlarining rahbarligi ostida amaldagi qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va o‘zlarining ustavlari qoidalarini asosida o‘z faoliyatini tashkil qiladi va amalga oshiradi.

Nizomda davlat va uning organlari bilan tijorat mediatsiya tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar ham o‘z aksini topgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

- davlat xalqaro miqyosda faoliyat olib boruvchi tijorat mediatsiya tashkilotlarini rivojlantirish va tijorat mediatsiya tashkilotlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish choralari ko‘radi;

- adliya ma’muriy organlari tegishli idoralar bilan birgalikda tijorat mediatsiyasi bo’yicha targ‘ibotni kuchaytiradi, tijorat nizolarini hal etishda mediatsiya usulini qo‘llashni ommalashtiradi;

- tegishli shart-sharoitlarga ega bo‘lgan hududiy birliklar va idoralar mahalliy yoki sohadagi haqiqiy vaziyatni hisobga olgan holda tijorat mediatsiyasi sohasining rivojlanishiga kadrlar tayyorlash, axborot, texnologiya, mablag‘ va boshqa masalalarni hal qilishda yordam ko‘rsatganligi uchun rag‘batlantiriladi;

- davlat tijorat mediatsiyasining sud ishlari, hakamlilik, notariat va boshqa tizimlar bilan aloqa qilish tizimlarini takomillashtirish va nizolarni hal qilishga to‘sqinlik qilishning oldini olish choralari ko‘radi.

Nizomda tijorat mediatsiya tashkilotlarini tuzish shartlari, tartibi ularning ustavida o‘z aksini topishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar, ustavga o‘zgartirishlar kiritilganligini rasmiylashtirish, tashkilotning faoliyatiga ruxsat berish haqidagi guvohnomasini bekor qilinishi sabablari, ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar haqida jamoatchilikni xabardor qilish bilan bog‘liq qoidalar ham belgilab berilgan va bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tijorat mediatsiya tashkilotini tuzish tashabbuskori yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilot bo‘lishi mumkin, u o‘z nomiga ega bo‘lishi, uning nomida “tijorat mediatsiyasi” iborasi yozilgan bo‘lishi, o‘zining joylashgan manzili va ustaviga, 300 ming yuandan kam bo‘lmagan mol-mulkka, 5 nafardan kam bo‘lmagan tijorat mediatorlari va tegishli miqdordagi doimiy xodimlarga ega bo‘lishi kerak;

- tijorat mediatsiyasi tashkilotini tuzish uchun ariza tashkilot manzili joylashgan hududdagi shahar xalq hukumatining adliya ma’muriy organiga beriladi va ariza bilan birgalikda talab qilinadigan hujjatlar taqdim etiladi, ariza beruvchi hujjatlarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javob beradi;

- arizani qabul qilgan organ uni qabul qilgan kundan e’tiboran 20 ish kunida uni ko‘rib chiqishi va dastlabki xulosa hamda ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni viloyat, avtonom rayon (tuman) yoki markazga bo‘ysunuvchi shahar xalq hukumatining adliya ma’muriy organiga yuborishi lozim. So’ngra, adliya ma’muriy organi hujjatlar kelib tushgan kundan 20 ish kunida ularni ko‘rib chiqib,

tashkilotni tuzishga ruxsat berish yoki bermaslik haqida qaror qabul qiladi, agar 20 ish kuni ichida qaror qabul qilish imkoni bo'lmasa, adliya ma'muriy organi rahbarining roziligi bilan muddat 10 ish kunigacha uzaytirilishi mumkin, muddatning uzaytirilish sababi arizachiga yozma ravishda xabar qilinadi. Tashkilotni tuzishga ruxsat berilsa, arizachiga faoliyat guvohnomasi beriladi, ruxsat berilmasa rad etish sababi yozma shaklda tushuntiriladi;

- agar Tijorat mediatsiyasi tashkiloti nomini, joylashgan manzilini, ustavini va boshqa ma'lumotlarni o'zgartirsa, qonunga muvofiq faoliyat guvohnomasiga o'zgartirish kiritishi lozim;

- Tijorat mediatsiyasi tashkiloti Nizomda belgilangan tashkilotni tuzish shartlarini saqlab qola olmasa va belgilangan muddatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etmasa yoki tijorat mediatsiyasi faoliyatini to'xtatsa yoxud qonunlar yoki ma'muriy-huquqiy hujjatlarda faoliyat guvohnomasini bekor qilinishini talab qiluvchi holatlar ko'rsatilsa;

- viloyat, avtonom rayon (tuman) yoki markazga bo'ysunuvchi shahar xalq hukumatining adliya ma'muriy organi o'z ma'muriy hududidagi tijorat mediatsiya tashkilotlari ro'yxatini tuzadi va ro'yxatni jamoatchilikka e'lon qiladi.

- tijorat mediatorlari adolat va to'g'riso'zlik bilan faoliyat ko'rsatishi, yaxshi kasbiy malakaga ega bo'lishi lozim.

Nizomga binoan tijorat mediatsiya tashkilotiga quyidagi talablardan biriga javob beradigan Xitoy va xorijiy davlatlarning fuqarolari a'zosi bo'lishi va mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin:

- ular davlatning yagona yuridik kasbiy malaka imtixonidan o'tib, yuridik kasbiy malakani egallagan va mediatsiya ishi bilan 3 yildan ortiq shug'ullangan bo'lishi kerak;

- advokatlik, hakamlilik yoki notariat sohasida 3 yildan ortiq ishlagan yoki sudya, prokuror sifatida 3 yildan ortiq faoliyat olib borgan bo'lishi lozim;

- yoxud huquq, iqtisodiyot, fan va texnika kabi sohalar bo'yicha bilimga ega bo'lib, huquq, iqtisodiy savdo yoki boshqa kasbiy ishlarda faoliyat olib borgan va o'rta maxsusdan yuqori unvonga yoki shu darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lishi shart;

- "Tijorat mediatsiyasi to'g'risidagi Nizom" kuchga kirishidan oldin tijorat mediatsiyasi ishida 3 yildan ortiq shug'ullangan va oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Shuningdek, Nizomda alohida qayd etilishicha, davlat xizmatchisi bir vaqtning o'zida tijorat mediatori vazifasini bajarsa, qonunlar, ma'muriy-huquqiy hujjatlar va davlat tomonidan o'rnatilgan mediatsiya faoliyatiga oid tegishli qoidalarga rioya qilishi lozim. Tijorat Mediatsiyasi Tashkilotiga yuqori kasbiy nufuz va jamoat ishonchiga ega bo'lgan xorijiy shaxslardan ham tijorat mediatorlari tayinlanishi mumkin va Davlat Kengashining adliya ma'muriy organi qoidalariga muvofiq viloyat, avtonom rayon yoki markazga bo'ysunuvchi shahar xalq hukumatining adliya ma'muriy organiga ma'lum qilinishi lozim.

Nizom bo'yicha tijorat mediatsiyasi faoliyatini amalga oshirishda ixtiyoriylik, qonuniylik, vijdonlilik va maxfiylik prinsiplariga og'ishmay amal qilinishi shart. Ushbu prinsiplardan birontasiga amal qilmaslik mediatsiya faoliyatidan ko'zlangan maqsadga erishishni barbod qiladi.

Tijorat bilan shug'ullanuvchi har qanday jismoniy va yuridik shaxs o'z faoliyati jarayonida yuzaga kelgan nizo bo'yicha tijorat mediatsiya tashkilotiga murojaat qilishga haqli. Agar nizo taraflaridan biri mediatsiyaga rozi bo'lmasdan, uni rad etsa, mediatsiya o'tkazilmaydi.

Nizolashuvchilar o'zaro kelishib tijorat mediatsiya tashkilotining tijorat mediatorlari ro'yxatidan mediator tanlashi yoki ular birgalikda tijorat mediatsiyasi tashkilotidan tijorat mediatorini tavsiya etishni so'rashi mumkin.

Tijorat mediatsiyasi tashkiloti nizoni hal qilish bo'yicha ko'rsatilgan xizmat uchun nizolashuvchilardan tegishli haq undirish huquqiga ega. Tashkilot tomonidan talab qilinadigan

haq miqdori adolatli va oqilona prinsiplar doirasida belgilanishi va jamoatchilikka oshkor etilishi lozim.

Tijorat mediator mediatsiya faoliyatini amaldagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar normalariga muvofiq amalga oshirishi, o'z vazifasini sohaga oid qoidalar, tijoriy odat normalari, bitim va savdo amaliyoti an'alariga amal qilgan holda bajarishi lozim. Mediator mediatsiya jarayonida xolis bo'lishi, vijdonan sidqidildan vazifasini bajarishi, kasbiy odob va faoliyat qoidalariga rioya qilishi, nizolashuvchilar bilan til biriktirib, soxta mediatsiya faoliyati bilan shug'ullanmasligi kerak.

Nizomning 19-moddasida alohida qayd etilishicha, tijorat mediatsiya tashkilotlari tijorat mediatsiyasining sifati va samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar va boshqa zamonaviy texnologiya vositalaridan foydalansa, davlat tomonidan rag'batlantiriladi. Tijorat mediator va taraflarning kelishuviga muvofiq onlayn shaklda mediatsiya o'tkazilsa, u oflayn shaklda o'tkazilgan mediatsiya bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

Nizom bo'yicha umumiy qoidaga ko'ra, mediatsiya jarayoni yopiq bo'lib, taraflarning talabi bilan jarayon ochiq o'tkazilishi mumkin. Nizomga binoan, davlat sirlari, boshqa shaxslarning tijorat sirlari yoki shaxsiy hayotiga maxfiy ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan mediatsiya jarayonlari yopiq o'tkaziladi.

Nizomga ko'ra, tijorat mediatsiyasi tashkiloti va tijorat mediator mediatsiya jarayonida o'ziga ma'lum bo'lgan axborotlarni sir saqlashi lozim. Bundan taraflarning barchasi yozma ravishda mediatsiya jarayonida ularga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etishga rozi bo'lgan holatlar yoki qonun bo'yicha oshkor qilinishi shart bo'lgan holatlar mustasno.

Nizomda mediatsiya jarayonida ishtirok etayotgan mediator mediatsiya tartib-qoidalarini buzishi, ko'rilayotgan ishdan manfaatdor ekanligi aniqlanishi, uning xolisligi va betarafligiga shubha tug'ilishi oqibatlariga oid qoidalar ham o'z aksini topgan bo'lib, bular quyidagilar:

- tijorat mediator nizo predmetiga manfaatli munosabatda bo'lsa yoki uning xolisligi va betarafligiga asosli shubha tug'dirilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuz bersa, mediator bu haqda darhol taraflarga ma'lum qilishi va mediatsiya jarayonidan chetlashishi lozim;

- shunga qaramasdan, agar nizolashuvchilarning barchasi mazkur mediator mediatsiyani davom ettirishiga rozi bo'lsa, bu yozma shaklda kelishib olinsa, mediatsiya jarayoni davom etadi;

- nizo bilan bog'liq ishni sud yoki hakamlik sudi ko'rishi jarayonida tijorat mediator qonun talabi bo'yicha rad etilishi lozim bo'lgan holat aniqlansa, mediator xizmatidan foydalanish rad etiladi;

- tijorat mediatsiya jarayonida kelishuvga erishilmasa, nizolashuvchilar jarayonni davom ettirishni xohlashmasa yoki ularning mediatsiyadan noqonuniy maqsadlarda foydalanish niyati mavjudligi aniqlansa, mediatsiya to'xtatilishi lozim.

- Nizomning 22-moddasida tijorat mediatsiyasi jarayonida nizolashuvchilarning kelishuvga erishishi yoki erishmasligi oqibatlari, mediatsiya kelishuvining mazmun-mohiyatiga qo'yiladigan talablar, kelishuvga erishilganda uning ijrosi bilan bog'liq quyidagi qoidalar belgilab berilgan:

- tijorat mediatsiyasi orqali kelishuvga erishilgan taqdirda, nizolashuvchilarning boshqacha kelishuvi bo'lmasa, tijorat mediatsiyasi kelishuvi tuzilishi va unda nizo bilan bog'liq asosiy holatlar, nizo predmeti, nizolashuvchilar erishgan kelishuvning asosiy mazmuni, ijro usuli va muddati kabi ma'lumotlar o'z aksini topishi kerak;

- tijorat mediator tijorat mediatsiya kelishuvini imzolab, uni tijorat mediatsiya tashkilotining muhri bilan tasdiqlashi lozim;

- tijorat mediatsiyasi kelishuvining mazmuni davlat va jamiyat manfaatlari, boshqa shaxslarning qonuniy huquq hamda manfaatlariga ziyon yetkazmasligi, qonunlar va ma'muriy-huquqiy hujjatlarning umummajburiy normalariga, jamoat tartibi va axloq me'yorlariga zid bo'lmasligi kerak;

– tijorat mediatsiyasi kelishuvi majburiy kuchga ega bo'lib, taraflar uni bajarishi shart.

Nizomning 23-moddasiga binoan nizolashgan taraflar tijorat mediatsiya kelishuvini tasdiqlatish uchun sudga murojaat qilishi mumkin, tasdiqlash yoki tasdiqlamaslik masalasi Xitoy Xalq Respublikasi fuqarolik protsessual qonunining tegishli qoidalariga muvofiq hal qilinadi, agar tijorat mediatsiyasi kelishuvi Xitoy hududidan tashqarida ijro etiladigan bo'lsa, taraflar tegishli xalqaro shartnomalarga muvofiq vakolatli xorijiy idoraga uni ijro etishni ta'minlashni so'rab murojaat qilishi mumkin.

Nizomda tijorat mediatsiyasi tashkilotlarining xorijiy davlatlar hududida o'z faoliyatini olib borishi, xorijiy mediatsiya tashkilotlari bilan aloqasini tartibga soluvchi qoidalariga ham alohida o'rin ajratilgan:

– tijorat mediatsiya tashkilotlarining xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi muassasalarini (bo'lim, filiallari) tashkil etishi va tijorat mediatsiyasi faoliyatini olib borishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;

– ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish hamda islohot va ochiqlik ehtiyojlariga ko'ra, Jahon savdo hududlari, Xaynan erkin savdo porti kabi hududlarda o'rnatilgan qoidalariga muvofiq xorijiy tijorat mediatsiya tashkilotlariga faoliyat ko'rsatuvchi o'zlarining muassasalari (filial, bo'limlari)ni tashkil etish va tashqi tijorat mediatsiyasi faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilishi mumkin;

– Jahon savdo sinov hududlari, Xaynan erkin savdo porti kabi hududlarda mahalliy organlar tashqi savdo tijorat mediatsiyasi faoliyatini mustaqil amalga oshirishga oid tuzilmalarni sinov tariqasida tashkil etishga ruxsat berishi mumkin;

– tijorat mediatsiyasi tashkilotlari, tijorat mediatsiya sohasining o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlari (filial, bo'limlari) xorijiy mediatsiya tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar bilan ma'lumot, hujjat, tajriba almashinuvi va hamkorlik qilishiga, xalqaro tijorat mediatsiya qoidalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishga, xalqaro tijorat mediatsiya kadrlarini tayyorlashni kuchaytirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlari uchun rag'batlantiriladi;

– tijorat mediatsiyasi sohasining o'zini-o'zi tartibga soluvchi tashkilotlari va tijorat mediatsiya tashkilotlari tegishli qoidalar asosida tijorat mediatorlarini tayyorlashni tashkil etadi;

– umummilliy tijorat mediatsiyasi sohasining o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkiloti tijorat mediatorlarining qobiliyati va salohiyatini, bilimi va tajribasini xalqaro miqyosda e'tirof etilishini ta'minlashga mas'uldir;

– Guandun-Gonkong-Makao katta ko'rfaz mintaqasida tijorat mediatsiyasi qoidalarini uyg'unlashtirish, mexanizmlarini muvofiqlashtirish qo'llab-quvvatlanadi va mazkur mintaqada tijorat mediatsiyasining muvofiqlashgan rivoji rag'batlantiriladi.

Nizomda mahalliy xalq hukumatlari adliya ma'muriy organlarining tijorat mediatsiya organlari faoliyatini nazorat qilish, ularni boshqarish, ular tomonidan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etilganda jazo choralarini belgilash kabilar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar ham o'z aksini topgan:

– rayon darajasidan yuqori bo'lgan mahalliy xalq hukumatlarining adliya ma'muriy organlari tijorat mediatsiyasi tashkilotlarining faoliyatini nazorat qiladi va boshqaradi. Ular tijorat mediatsiyasi tashkilotlari faoliyati bo'yicha tekshirish, tegishli materiallarni ko'zdan kechirish va ulardan nusxa olish, tegishli holatlar yuzasidan tekshiruv o'tkazish, tegishli shaxslar bilan suhbat o'tkazish kabi vakolatlarga ega;

– adliya ma'muriy organining ruxsatisiz mazkur Nizomda nazarda tutilgan tijorat mediatsiyasi faoliyatini tijorat mediatsiyasi tashkiloti nomidan noqonuniy amalga oshirgan shaxsga viloyat, avtonom rayon (tuman) yoki markazga bo'ysunuvchi shaharning, yoxud shahar darajasidagi xalq hukumatining adliya ma'muriy organ yo'l qo'yilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatga chek qo'yishga ko'rsatma beradi, 100 ming yuandan 300 ming yuangacha jarima qo'llaydi, agar noqonuniy daromad

olgan bo'lsa, olingan daromad musodara qilinadi;

– tijorat mediatsiyasi tashkiloti mazkur Nizom talablariga muvofiq o'z faoliyatini o'zgartirish, bekor qilish yoki tegishli ma'lumotlarni oshkor etish tartibini bajarmasa, rayon (tuman) darajasidan yuqori xalq hukumati adliya ma'muriy organi uni tuzatishning majburiy choralarini ko'radi va ogohlantiradi, agar tijorat mediatsiyasi tashkiloti yo'l qo'yilgan kamchiliklarga barham berishdan bosh tortsa, uning faoliyati to'xtatib turilishi va 10 ming yuandan 50 ming yuangacha jarima qo'llashi mumkin;

– tijorat mediatsiyasi tashkiloti mazkur Nizomga zid ravishda faoliyat yuritisa yoki noqonuniy yo'llar bilan ish (nizo) izlab topsa, rayon (tuman) darajasidan yuqori xalq hukumati ma'muriy organi tashkilotni yo'l qo'ygan xatosini tuzatishga majburlaydi, ogohlantiradi va 50 ming yuandan 100 ming yuangacha jarima qo'llaydi;

– agar tashkilot mediatorining noqonuniy faoliyati og'ir oqibatlariga olib kelsa yoki nizolashuvchi taraflar bilan til biriktirib yolg'on mediatsiya faoliyati bilan shug'ullanib, davlat, jamiyat manfaatlariga, boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazsa, rayon (tuman) darajasidan yuqori xalq hukumati adliya ma'muriy organi yo'l qo'yilgan xatoni (huquqbuzarlikni) tuzatishni majburiy choralarini mediatorga nisbatan qo'llaydi, ogohlantiradi va 10 ming yuandan 100 ming yuangacha jarima qo'llaydi, agar huquqbuzarlik og'ir oqibatlarni keltirib chiqarsa, 1 yildan 3 yilgacha tijorat mediatsiyasi bilan shug'ullanishni to'xtatib turish haqida qaror chiqaradi, mediator noqonuniy daromad olgan bo'lsa, olingan daromad musodara qilinadi.

Shuningdek, Nizomda uning kuchga kirishi bilan mamlakat miqyosida ko'rilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar, Nizom kuchga kirgunga qadar faoliyat olib borgan mediatsiya tashkilotlari guvohnomalarini qayta rasmiylashtirish muddati va tartibi, Nizom qoidolari qanday munosabatlarga tatbiq etilmasligi haqida quyidagilar belgilab berilgan:

– Davlat Kengashining adliya ma'muriy organi mazkur Nizomga muvofiq tijorat mediatsiyasi tashkilotlarini boshqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilaydi;

– mazkur Nizom kuchga kirishidan oldin tashkil etilgan va tijorat mediatsiyasi bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar faoliyatini davom ettirmoqchi bo'lsa, Nizom kuchga kirgandan boshlab 1 yil ichida Nizom talablariga muvofiq faoliyat guvohnomasini rasmiylashtirishi lozim;

– alohida sohalarga oid uyushmalar, savdo-sanoat palatalari va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali mediatsiya faoliyatiga mazkur Nizom qoidolari tatbiq etilmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlar shundan dalolat beradiki, Xitoy Xalq Respublikasida yaqinda kuchga "Tijorat mediatsiyasi to'g'risida"gi nizom tijorat bilan bog'liq nizolarni sudgacha ko'rib hal qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha to'plangan milliy va xalqaro tajribani, globallashtirish sharoitida tijoriy aloqalarning bir tomondan qamrovi kengayib, ikkinchi tomondan murakkablashib borayotganini hisobga olib ishlab chiqilgan. Shu munosabat bilan mazkur nizomni chuqur va atroflicha ilmiy tahlil qilish, uning normalarini amaliyotga tatbiq qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni, boshqa rivojlangan davlatlarning tijorat bilan bog'liq nizolarni hal qilishga oid qonunlari normalari bilan qiyoslab o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish hamda ular asosida respublikamizda amalda bo'lgan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar tayyorlash ilmiy jamoatchiligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. Попов М.Ю., Бандурин А.П., Стригуненко И.К., Цымбал Е.А. Процесс глобализации: динамика, этапы и тенденции // Национальное здоровье. 2024. №3. – С. 97-105.

2. Дробот Г. А. Глобализация: понятие, этапы, противоречия, оценки // Социально-гуманитарные знания. 2008. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/globalizatsiya-ponyatie-etapy-protivorechiya-otsenki> (дата обращения: 09.06.2026). // Шишков Ю. Государство в эпоху глобализации. Мировая экономика и международные отношения,

- 2010, № 1, с. 3–13. // Yuldasheva F. Globallashuv: milliy o'zlikni anglash va madaniyatlar muloqoti. Ilmiy xabarnoma. – Andijon, 2016, №1, - В. 47-51. // Тамбиянц Ю.Г., Шалин В.В. Сущность государства в эпоху глобализации: теория и практика // Общество: философия, история, культура. 2018. №12 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-gosudarstva-v-epohu-globalizatsii-teoriya-i-praktika> (дата обращения: 09.06.2026). // Eshtayev A.A., Abdug'aniyev A.A. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: muammolar va yangi imkoniyatlar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, 2020. – В. 328-333. // Кувалдин В.Б. Глобализация и национальное государство: вчера, сегодня, завтра. Мировая экономика и международные отношения. — Москва, 2021 — № 1. Том 65. — С.5-13. // Илья Григорьевич Сараев Подходы к осмыслению государственности в условиях глобализации. Закон и право. 2025. №8. — С. 17-22. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/podhody-k-osmysleniyu-gosudarstvennosti-v-usloviyah-globalizatsii> (дата обращения: 09.06.2026). // Иглин А.В. Государство в условиях глобализации: экономика, политика, право. Научное обозрение. Экономические науки. 2016. № 6. — С. 65-74. URL: <https://science-economy.ru/ru/article/view?id=858> (дата обращения: 09.06.2026).
3. Гюльметова А. Р. Развитие института медиации в мире / А. Р. Гюльметова, З. А. Джумагишиева. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 50 (392). — С. 187-188. — URL: <https://moluch.ru/archive/392/86408>. // Липка Д.В. Медиация в зарубежных странах. Право и управление, №6, 2023. – С. 88-93.
4. Tog'ayev S. Mediatorlar kim, mediatsiya nima? // <https://sirdaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=38147>. // Калинина И.А., Федоренко Ю.В. Альтернативное разрешение споров (АРС): понятие, общая характеристика, история возникновения и развития, StudNet, 2021. № 4 (11).
5. Поступинский В. Медиация в Древней Греции и Китае // <https://vk.com/@vp192-mediatsiya-v-drevnei-grecii-i-kitae>.
POSTMORTAL REPRODUKSIYA NATIJASIDA TUG'ILGAN BOLALARNING MEROS HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI MAQOMI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SOLIYEVA K.R. Postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning meros huquqiy munosabatlardagi maqomi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 74-85.

 3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-008>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning meros huquqiy maqomi zamonaviy yordamchi reproduktiv texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan sharoitda kompleks ilmiy-huquqiy tahlil qilingan. Maqolada postmortal reproduksiya tushunchasining nazariy-huquqiy mohiyati, uning fuqarolik huquqidagi o'rni hamda shaxsning vafotidan keyingi reproduktiv huquqiy munosabatlar tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, postmortal reproduksiya institutining klassik "nassiturus" tamoyilidan farqli jihatlari chuqur asoslantirilgan bo'lib, ularning huquqiy tabiati, subyektlilik masalasi hamda meros huquqlariga ta'siri qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur yo'nalishda Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH hamda ayrim umumiy huquq tizimiga mansub davlatlar qonunchiligi va sud amaliyoti o'rganilib, postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning huquqiy maqomini belgilashga nisbatan shakllangan universal, maxsus va cheklovchi yondashuvlar tizimli ravishda tasniflangan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligida ushbu institutni tartibga solishga doir huquqiy bo'shliqlar mavjudligi aniqlanib, mazkur munosabatlarni kompleks tartibga solish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif tomonidan postmortal reproduksiyani mustaqil va murakkab fuqarolik-huquqiy institut sifatida e'tirof etish taklifi ilgari surilib, uning huquqiy oqibatlarini belgilashga doir konseptual yondashuv ishlab chiqilgan. Xususan, postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning meros huquqlarini tan olish uchun quyidagi asosiy shartlar tizimi taklif etiladi: meros qoldiruvchining oldindan berilgan aniq va erkin ifodalangan yozma roziligi; reproduktiv jarayonni amalga oshirishning qonunchilikda belgilangan muddat cheklovlari; hamda bola va meros qoldiruvchi o'rtasidagi genetik bog'liqlikni ishonchli tarzda aniqlash mezonlari. Ushbu talablarni Fuqarolik kodeksida alohida norma sifatida mustahkamlash zarurligi asoslantiriladi. Natijada, maqolada postmortal reproduksiya institutining fuqarolik huquqi tizimidagi o'rni, uning meros huquqiga ta'siri hamda kelgusida qonunchilikni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: postmortal reproduksiya, meros huquqi, merosxo'r, yordamchi reproduktiv texnologiyalar, kriokonservatsiya, genetik material, nassiturus, meros huquqiy maqomi, fuqarolik huquqi.

СОЛИЕВА Камола

Базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета
адвокат, профессиональный медиатор
E-mail: kamolasoliyeva4@gmail.com

ПРАВОВОЙ СТАТУС ДЕТЕЙ, РОЖДЕННЫХ В РЕЗУЛЬТАТЕ ПОСТМОРТАЛЬНОЙ РЕПРОДУКЦИИ, В НАСЛЕДСТВЕННЫХ ПРАВООТНОШЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен комплексный научно-правовой анализ наследственного правового статуса детей, рожденных в результате постмортальной репродукции, в условиях стремительного развития современных вспомогательных репродуктивных технологий. В статье раскрывается теоретико-правовая сущность понятия постмортальной репродукции, ее место в гражданском праве и значение в системе репродуктивных правоотношений после смерти человека. Также глубоко обоснованы отличительные аспекты института постмортальной репродукции от классического принципа «насситурус», проведен сравнительный анализ их правовой природы, вопроса субъективности и влияния на наследственные права. В данном направлении изучено законодательство и судебная практика Великобритании, Германии, США и некоторых стран, относящихся к системе общего права, систематически классифицированы сформировавшиеся универсальные, специальные и ограничивающие подходы к определению правового статуса детей, рожденных в результате постмортальной репродукции.

В статье выявлено наличие правовых пробелов в регулировании данного института в действующем гражданском законодательстве Республики Узбекистан и научно обоснована необходимость комплексного регулирования данных отношений. Автором выдвинуто предложение о признании постмортальной репродукции в качестве самостоятельного и сложного гражданско-правового института, разработан концептуальный подход к определению ее правовых последствий. В частности, предлагается следующая система основных условий для признания наследственных прав детей, рожденных в результате постмортальной репродукции: предварительное четкое и свободно выраженное письменное согласие наследодателя; установленные законодательством сроки осуществления репродуктивного процесса; а также критерии достоверного определения генетической связи между ребенком и наследодателем. Обосновывается необходимость закрепления этих требований в Гражданском кодексе в качестве отдельной нормы.

В результате в статье сформулированы научно-практические выводы о роли института постмортальной репродукции в системе гражданского права, его влиянии на наследственное право и направлениях дальнейшего совершенствования законодательства.

Ключевые слова: постмортальная репродукция, наследственное право, наследник, вспомогательные репродуктивные технологии, криоконсервация, генетический материал, насситурус, правовой статус наследства, гражданское право

KAMOLA Solieva

Doctoral student of Tashkent
State University of Law,
advocate, Professional Mediator
E-mail: kamolasoliyeva4@gmail.com

LEGAL STATUS OF CHILDREN BORN THROUGH POSTHUMOUS REPRODUCTION IN INHERITANCE RELATIONS

ANNOTATION

This article provides a comprehensive scientific and legal analysis of the inheritance status of children born through postmortem reproduction, in the context of the rapid development of modern assisted reproductive technologies. The study illuminates the theoretical and legal essence of the concept of postmortem reproduction, its place in civil law, and its significance within the system of reproductive legal relations following a person's death. Furthermore, it thoroughly substantiates the distinct aspects of the institution of postmortem reproduction compared to the classical "nasciturus" principle, offering a comparative analysis of their legal nature, the issue of legal personhood, and their impact on inheritance rights. To this end, the legislation and judicial practices of the United Kingdom, Germany, the USA, and several common law jurisdictions were examined, and the universal, special, and restrictive approaches to determining the legal status of children born from postmortem reproduction were systematically classified.

The study identifies the existence of legal gaps in the current civil legislation of the Republic of Uzbekistan concerning the regulation of this institution and scientifically substantiates the need for the comprehensive regulation of these relations. The author proposes that postmortem reproduction be recognized as an independent and complex civil law institution and develops a conceptual approach for defining its legal consequences. In particular, the following system of fundamental conditions is proposed for the recognition of inheritance rights for children born as a result of postmortem reproduction: the prior, clear, and freely expressed written consent of the decedent; legally established time limits for carrying out the reproductive process; and criteria for reliably establishing the genetic link between the child and the decedent. The necessity of enshrining these requirements as a distinct provision in the Civil Code is substantiated. As a result, the article formulates scientific and practical conclusions regarding the place of the institution of postmortem reproduction within the civil law system, its impact on inheritance law, and directions for future legislative improvement.

Keywords: posthumous reproduction, inheritance law, heir, assisted reproductive technologies, cryopreservation, genetic material, nasciturus, legal status of inheritance, civil law

Vorislik huquqi sohasidagi amaldagi tartibga solish qoidalari vorislik huquqini meros qoldiruvchining o'ziga tegishli mol-mulkni vafot etgan taqdirda tasarruf etish huquqi va merosxo'rlarning meros qoldiruvchi vafotidan keyin ushbu mol-mulkni olish huquqi sifatida tavsiflaydi. Bu ta'rif meros huquqiy munosabatlarining markaziy subyektlari: merosxo'rlarni belgilab beradi. Mazkur maqola maqsadlari uchun aynan merosxo'rlarning huquqiy maqomi alohida qiziqish uyg'otadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1118-moddasi 1-qismida vorislikka chaqirilishi mumkin bo'lgan shaxslarning ikki toifasi belgilangan:

- 1) mavjud merosxo'rlar – meros ochilgan paytda hayot bo'lgan shaxslar;
- 2) bo'lajak merosxo'rlar, ya'ni nassituruslar – meros qoldiruvchining tirikligida homila holida bo'lgan va uning vafotidan keyin tirik tug'ilgan bolalar.

Hozirgi zamonda postmortal reproduksiya tushunchasi sezilarli darajada kengayib, nafaqat FKning 1118-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan nassituruslarni, balki ushbu norma bilan to'liq

qamrab olinmagan, biroq huquqiy hamjamiyatda meros huquqi subyektliligi masalasi doirasida faol muhokama qilinayotgan postmortal bolalar toifasini ham o'z ichiga olmoqda.

Postmortal bola deganda meros qoldiruvchining vafotidan keyin homila holida vujudga kelgan va tirik tug'ilgan bola tushuniladi. "Postmortal" so'zi yunoncha post+mors – o'lim so'zlaridan olingan bo'lib, vafotdan keyingi, o'limdan so'ng yuzaga keladigan degan ma'nolarni anglatadi [1]. Bunday bolalarning dunyoga kelish imkoniyati yangi texnologiyalar va fan-texnika taraqqiyoti natijasida vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasida reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi 2019-yil 11-martdagi "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi Qonun va Sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 14-yanvardagi 106-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

"Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 1-bandiga muvofiq, yordamchi reproduktiv texnologiyalar tushunchasi sun'iy urug'lantirishning barcha usullari uchun umumiy bo'lib, ular bepustlikni davolash usullari hisoblanadi va ularni qo'llashda homiladorlikning ayrim yoki barcha bosqichlari hamda embrionlarning dastlabki rivojlanishi ona organizmidan tashqarida amalga oshiriladi.

YoRT qo'llanilishi muzlatilgan reproduktiv materiallar (jinsiy hujayralar, embrionlar) dan foydalanish imkonini berib, shaxs vafot etganidan keyin ham farzand ko'rish imkoniyatini yaratadi. Ushbu hodisa **postmortal reproduksiya** deb ataladi.

Hozirgi vaqtda postmortal reproduksiya tushunchasi va uning mazmunini belgilashga oid yagona doktrinal yondashuv shakllanmagan. Ilmiy adabiyotlarda "o'limdan keyingi tug'ilish" va "postmortal reproduksiya" tushunchalarining o'zaro nisbatiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ayrim tadqiqotchilar mazkur tushunchalarni aynan bir xil mazmunda ekanligini talqin qilsalar, ayrim tadqiqotchilar ushbu tushunchalarning bir-biriga to'liq mos kelmasligini ta'kidlaydilar. Xususan, **o'limdan keyingi tug'ilish** holatida homila ota-onaning hayotligida vujudga keladi, biroq bola ulardan birining vafotidan keyin tug'iladi. **Postmortal reproduksiyada** esa embrionni yaratish va kriokonservatsiya qilish jarayonlari ota-onalardan birining hayotligida yoki vafotidan keyin amalga oshirilishi mumkin bo'lib, embrionni bachadonga ko'chirish kamida birining vafotidan so'ng sodir etiladi [2]. A.S.Ulixinaning ta'kidlashicha, "o'limdan keyingi reproduksiya" genetik ota-onalardan biri yoki ikkalasi vafot etganidan so'ng reproduktiv texnologiyalar yordamida farzand dunyoga keltirishni anglatadi [3]. Fikrimizcha, postmortal reproduksiyaning asosiy xususiyati urug'lantirish va tug'ilish jarayonlari o'rtasida vaqt uzilishi mavjudligida namoyon bo'ladi. Bu holat esa reproduktiv materialni uzoq muddat saqlash imkonini beruvchi kriokonservatsiya usuli bilan bevosita bog'liq.

Kriokonservatsiya – bu biologik obyektlarni suyuq azotda (-200°) muzlatish va uzoq muddat saqlash usuli. U sperma va embrionlarni muzlatishda keng qo'llaniladi [4]. Bu jarayon, ayniqsa, ota-onadan biri vafot etgan va qolgan ota-ona muzlatilgan hujayralardan foydalanib, farzandli bo'lishga urinishni davom ettirmoqchi bo'lgan hollarda muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, aynan kriokonservatsiya institutining rivojlanishi postmortal reproduksiyani an'anaviy "homila paydo bo'lishi" tushunchasidan ajratib turuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Yuqoridagilarga o'xshash nuqtayi nazarni I.A.Tretyak ham ilgari surib, genetik materiali qo'llanilgan shaxsning vafotidan keyin amalga oshiriladigan urug'lantirish va tug'ilish jarayonlarini o'limdan keyingi reproduksiya sifatida tavsiflaydi [5]. Ye.V.Burmistrova ushbu tushunchani kengroq talqin qilib, postmortal reproduksiyani nafaqat urug'lantirish yoki homila paydo bo'lishi, balki tug'ilishning huquqiy oqibatlari bilan ham bog'laydi. Uning fikricha, bu – marhumning tirikligida olingan va kriokonservatsiya qilingan reproduktiv materialdan foydalanib farzand dunyoga keltirish bo'lib, bola uning oldindan berilgan yozma roziligi asosidagi farzandi sifatida e'tirof etiladi [6].

Aksincha, G.V.Anikina ushbu tushunchaning chegaralarini keng talqin qilib, ota-onadan birining vafotidan keyin, homilaning qachon vujudga kelganidan qat'i nazar, bola tug'ilishining barcha holatlarini postmortal reproduksiya doirasiga kiritadi [7]. Shu tariqa, "postmortal reproduksiya" tushunchasini terminologik jihatdan aniqlashtirishdagi asosiy masala bolaning vujudga kelish vaqtini – ya'ni uning tibbiy va huquqiy jihatdan qachon "boshlangan" deb e'tirof etilishini belgilash bilan bog'liqdir. Bir qator tadqiqotchilar homila paydo bo'lish vaqti embrionning bachadon bo'shlig'iga implantatsiya qilinganligi bilan boshlanishini ta'kidlashadi [8; 9].

Yuqoridagi fikrlardan farqli ravishda V. V. Aleynikova "homila paydo bo'lish" (zachatiye) tushunchasining so'zma-so'z mazmuni urug'lanish (fertilizatsiya) vaqti bilan bog'liqligini ta'kidlab, yordamchi reproduktiv texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ushbu tushuncha o'zining bir ma'noililigini yo'qotganini qayd etib, fuqarolik qonunchiligining merosxo'rlarga oid normasini talqin qilishda qonun chiqaruvchining pozitsiyasiga aniqlik kiritish zarurligini asoslaydi [10]. Aksincha, ayrim tadqiqotchilar "meros qoldiruvchining hayotligida homila holidi paydo bo'lgan shaxs" tushunchasi faqat embrion meros qoldiruvchining hayotlik chog'ida bachadonga implantatsiya qilingan taqdirdagina qo'llanishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Demak, mazkur yondashuvda "homila paydo bo'lish" tushunchasi tarkibiga implantatsiya jarayoni ham kiritiladi [11]. Ushbu pozitsiyani M. L.Shelyutto ham qo'llab-quvvatlaydi va uni xorijiy huquqiy tartibga solish tajribasi bilan asoslaydi. Xususan, Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasining Oila to'g'risidagi qonuniga ko'ra, YoRT natijasida tug'ilgan bola reproduktiv material ayol organizmiga implantatsiya qilingan kundan boshlab homila sifatida e'tirof etiladi [12].

Postmortal reproduksiya tushunchasiga oid ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, postmortal reproduksiyada embrionning ayol bachadoniga joylashtirilishi natijasida homila paydo bo'ladi.

Fikrimizcha, postmortal reproduksiyaning to'g'ri talqin etish uchun uni faqat biologik jarayon sifatida emas, balki muayyan huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiruvchi murakkab fuqarolik-huquqiy institut sifatida baholash lozim. Chunki bu jarayon natijasida yangi subyekt – vafot etgan shaxsning genetik materiali asosida tug'ilgan bola vujudga keladi va u bilan marhum o'rtasida kelib chiqishga asoslangan huquqiy aloqa shakllanishi masalasi yuzaga keladi.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, postmortal reproduksiya – er-xotinlarning hayotlik davrida olingan reproduktiv materialdan ulardan birining vafotidan so'ng, uning oldindan berilgan erkin va ongli roziligi asosida, yordamchi reproduktiv texnologiyalar yordamida foydalanish orqali homila hosil qilish va bola tug'ilishiga qaratilgan hamda natijada bola bilan marhum shaxs o'rtasida kelib chiqish, oilaviy va meros huquqiy munosabatlar yuzaga kelishini nazarda tutuvchi murakkab fuqarolik-huquqiy institutdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Bugungi kunga kelib roman-german va anglo-sakson huquqiy oilalariga mansub davlatlarda postmortal reproduksiyaning huquqiy tartibga solishga doir yondashuvlarni shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1) postmortal reproduksiyaning to'liq yoki qisman taqiqlash yondashuvi (Italiya[13], Belarus[14], Fransiya[15] – bunda postmortal foydalanishga faqat shaxsiylashtirilmagan gametalar doirasida ruxsat beriladi, Shveysariya[16]);

2) postmortal reproduksiyaga ruxsat berish va uni amalga oshirish tartibi, chegaralari hamda huquqiy oqibatlarini normativ tartibga solish yondashuvi (AQShning ayrim shtatlari[17], Buyuk Britaniya[18], Kanada[19], jumladan, vafotidan so'ng gametalarni olish imkoniyati nazarda tutiladi);

3) postmortal reproduksiyadan foydalanishga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri taqiq mavjud bo'lmagan, biroq ushbu munosabatlarning kompleks huquqiy tartibga solinmaganligi bilan tavsiflanadigan yondashuv (Rossiya) [20].

Mazkur yondashuvlarning xilma-xilligi postmortal reproduksiyaning huquqiy tartibga solishda yagona universal model shakllanmaganligini ko'rsatadi hamda har bir davlat ushbu masalani o'zining

ijtimoiy, diniy, axloqiy va huquqiy qadriyatlaridan kelib chiqib hal etishini tasdiqlaydi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, o'limdan keyin yordamchi reproduktiv texnologiyalarni qo'llash natijasida tug'ilgan bolalarning huquqiy maqomini belgilash, avvalo, postmortal reproduksiyaning huquqiy jihatdan ruxsat etilgan doirasi hamda reproduktiv tanlov chegaralari bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, bunday chegaralar reproduktiv tanlovni ifodalash usuli, uni qaytarib olish imkoniyati, potensial ishtirokchilar doirasini belgilash, shuningdek, uni amalga oshirish muddatlari orqali aniqlanadi.

Postmortal reproduksiya bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda nafaqat huquqiy, balki diniy va axloqiy mezonlar ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Islom ulamolari shariatda talab etilgan barcha ehtiyot choralari ko'rilgan holda quyidagi ikki yordamchi reproduktiv uslubni zarurat holatida eng oxirgi chora sifatida qo'llashlikni joiz deganlar:

Shar'iy er-xotinning urug' va tuxum hujayrasi olinib, tashqi urug'lantirish usulida urug'lantiriladi, so'ngra paydo bo'lgan embrionni yana shu xotinning bachadoniga joylashtiriladi. Erning urug'i olinib, xotinning (bachadon) bo'yinchasidagi kerakli o'ringa ichki urug'lantirish usuli bilan joylashtiriladi. Ma'lumki, Islom dini sha'riy nikohdan tashqari holatda farzandli bo'lishni qoralaydi. Islom ulamolari sun'iy urug'lantirish operatsiyasini o'ta zarur holatda va faqat o'rtalarida shar'iy aqdi nikoh bo'lgan er-xotinlar orasidagina amalga oshirishni muboh deb baholaydilar. Bunda erkak va ayolning urug'larini saqlashda begona shaxslarniki bilan aralashib ketmasligi uchun barcha ehtiyot choralari ko'rish zarurligi va albatta, ushbu ishni ishonchli mutaxassis amalga oshirishi lozimligi qayd etib o'tilgan. Sun'iy urug'lantirishning boshqa barcha turlari, jumladan, bachadonni ijaraga olish, embrionlarni muzlatib saqlash, xotinni begona erkakning urug'i bilan homilador qilish va boshqalar nasabning aralashib ketishiga sabab bo'lgani uchun shar'an man qilingan. Ushbu fatvolar Islom olami robitasining 1983-yildagi beshinchi yig'ilishi, 1985-yildagi yettinchi yig'ilishi, 1986-yildagi sakkizinchi yig'ilishi qarorlarida bayon qilingan. Shuningdek, 1983-yilda Kuvayt davlatida bo'lib o'tgan Tibbiy ilmlar bo'yicha islomiy konferensiyaning "urug'lantirish islom nazarida" nomli yig'ilishi qarori, 1986-yilda Ummonda bo'lib o'tgan Islom konferensiyasi tashkilotining fiqhiy kengashi fatvolarida ham ifodalangan. [21].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida postmortal reproduksiya dasturlaridan foydalanish masalasi bo'yicha na to'g'ridan-to'g'ri taqiq, na aniq ruxsat nazarda tutilgan. "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi Qonuni [22] va "Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom [4]da yordamchi reproduktiv texnologiyalar fuqaroning ixtiyoriy va ongli roziligi asosida genetik materialni olish hamda kriokonservatsiya qilish orqali amalga oshirish tartibi nazarda tutilgan. Biroq ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda genetik materialdan foydalanishning vaqt chegaralari, uning huquqiy taqdiri, shuningdek, reproduktiv material egasi vafotidan keyin undan foydalanishning ham diniy ham huquqiy oqibatlari aniq tartibga solinmagan. Shu sababli, mazkur sohada huquqiy bo'shliq mavjud bo'lib, u postmortal reproduksiya bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Mazkur masala yuzasidan akusher-ginekolog va reproduktolog mutaxassis N.A.Kabilova bilan olib borilgan suhbat doirasida ham u amaliyotda postmortal reproduksiya ehtiyoj borligini ta'kidlaydi [23]. Xususan, er-xotin A.S. va B.N tomonidan Eku amalga oshirish uchun murojaat qilingan. Kulvitatsiya bosqichida er A.S vafot etganligi sababli o'stirilgan tayyor embrion ayol bachadoniga o'tkazilmagan. Biroq mazkur holat postmortal reproduksiya yaqin kelajakda qo'llanilmaydi, degan xulosani anglatmaydi. Aksincha, bu postmortal reproduksiya huquqiy tartibga solish zarurati amaliyotda mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Har bir davlat qonunchiligi raqobatdosh manfaatlar va huquqiy tamoyillar o'rtasidagi ustuvorlikni turlicha belgilashi sababli, postmortal reproduksiya va undan tug'ilgan bolalarning huquqiy maqomiga nisbatan turli yondashuvlar shakllangan. Xorijiy tajribani tahlil qilish natijasida personallashtirilgan postmortal reproduksiya (PPR)ning uch modeli ajratiladi:

Cheklangan maqom modeli postmortal reproduksiya oqibatlarini faqat bolaning kelib chiqishini aniqlash bilan cheklab, unga qarindoshlikka asoslangan huquqlarni bermaslikni nazarda tutadi. Masalan, Buyuk Britaniyaning Human Fertilisation and Embryology Act 2008 [24] ga ko'ra, otalikni belgilash uchun yozma rozilik, bolani farzand sifatida tan olish, 42 kun ichida ariza berish va boshqa shartlar talab etiladi. Bunda otalikni aniqlashning asosiy maqsadi faqat tug'ilganlik yozuviga ota haqidagi ma'lumotni kiritishdan iborat bo'lib, meros va boshqa oilaviy-huquqiy oqibatlar yuzaga kelmaydi.

Maxsus maqom modeli bolaning kelib chiqishini, avvalo, oilaviy-huquqiy jihatdan tan olishni nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor bola manfaatlarini, xususan, ijtimoiy va moddiy ta'minotni himoya qilishga qaratiladi, meros masalalari esa ko'pincha sud amaliyoti orqali shakllanadi. AQSH tajribasi bu yo'nalishda evolyutsion rivojlanishni ko'rsatadi: dastlab bunday bolalar merosdan chetlatilgan bo'lsa, keyinchalik ularga vasiyatnoma, so'ng qonun bo'yicha meros huquqi tan olingan. Shu bilan birga, genetik ota-onaning roziligi, muddatlar va nazorat mexanizmlari kabi shartlar joriy etiladi, biroq ular shtatlar kesimida turlicha. Natijada, ayrim hollarda bolaning kelib chiqishi tan olinib, lekin meros huquqi berilmasligi mumkin.

Universal maqom modeli esa postmortal tug'ilgan bolalarni boshqa bolalar bilan teng huquqli deb e'tirof etadi. Masalan, Ispaniyaning "Insonning yordamchi reproduktiv texnologiyalari to'g'risida"gi Qonuniga (Ley sobre técnicas de reproducción humana asistida, 14/2006 [25]) ko'ra, postmortal reproduksiya aniq muddat (12 oy) va oldindan berilgan rozilik bilan cheklanadi, biroq natijada tug'ilgan bola huquqiy maqomi bo'yicha boshqa bolalar bilan tenglashtiriladi.

Argentinaning Fuqarolik kodeksi [26] ham o'limdan keyin tug'ilgan bolalarga ularning huquqiy maqomi uchun muhim bo'lgan meros olish huquqini tan oladi (2279-modda). Biroq mazkur huquq faqat vafotidan keyin homilador bo'lishga tegishli tartibda berilgan rozilik mavjud bo'lgan taqdirdagina yuzaga keladi (561-modda).

Mazkur yondashuvlarning xilma-xilligi postmortal reproduksiyani huquqiy tartibga solishda yagona universal model shakllanmaganligini ko'rsatadi hamda har bir davlat ushbu masalani o'zining ijtimoiy, diniy, axloqiy va huquqiy qadriyatlaridan kelib chiqib hal etishini tasdiqlaydi. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi uchun postmortal reproduksiyani to'liq erkinlashtiruvchi universal model emas, balki cheklovlar va protsessual kafolatlar bilan uyg'unlashtirilgan aralash model maqbul hisoblanadi. Chunki bunday yondashuv bir tomondan postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolaning manfaatlarini himoya qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan meros munosabatlarining barqarorligi, boshqa merosxo'rlarning huquqlari hamda milliy diniy-axloqiy qadriyatlarning saqlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtga qadar O'zbekiston sud amaliyotida postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarni merosxo'r sifatida e'tirof etish bilan bog'liq nizolar ko'rib chiqilmagan. Biroq bu holat mazkur munosabatlar kelajakda yuzaga kelmaydi degan xulosani anglatmaydi. Aksincha, yordamchi reproduktiv texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi postmortal reproduksiya bilan bog'liq murakkab meros nizolarining vujudga kelish ehtimolini oshirmoqda. Xususan, amaliyotda marhumning ota-onasi, turmush o'rtog'i yoki avvalgi nikohidan bo'lgan farzandlari tomonidan postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolaning meros huquqlariga nisbatan e'tirozlar bildirilishi mumkin. Shuningdek, vasiyatnoma mavjud bo'lgan hollarda postmortal bolaning merosdagi ulushi masalasi, reproduktiv materialdan marhumning aniq rozilgisiz foydalanish, genetik bog'liqlikni aniqlash hamda merosni qayta taqsimlash bilan bog'liq nizolar yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli, postmortal reproduksiya institutini huquqiy tartibga solishda nafaqat moddiy-huquqiy asoslarni, balki bunday nizolarni hal etishga qaratilgan aniq protsessual mexanizmlarni ham ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

M.G.Gromova postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning huquqiy maqomini umumiy maqom bilan tenglashtirish haqidagi yondashuvni qo'llab-quvvatlab, yagona cheklov

sifatida reproduktiv material egasining o'limidan keyingi reproduksiyaga bo'lgan xohish-irodasini notarial shaklda ifodalash zarurligini ta'kidlaydi [27]. V.V.Aleynikova esa postmortal reproduksiyaga yo'l qo'yilishi yuzasidan ijtimoiy konsensus shakllangan sharoitda, postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarni merosxo'r sifatida tan olish meros huquqining asosiy tamoyillariga zid kelmaydi, degan fikrni ilgari suradi [10].

Bunday bolalarning meros huquqlarini amalga oshirishi uchun ularning kelib chiqishini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Xorijiy amaliyotda bu masala, odatda, genetik ota-onaning vafotidan keyin YoRTdan foydalanishga oldindan berilgan roziligi orqali hal etiladi. Biroq milliy qonunchilikda bunday rozilikning shakli va tartibi aniq belgilab qo'yilmagan, bu esa kelajakda bolaning kelib chiqishini aniqlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 60-moddasiga ko'ra, nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bola nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi [28]. Boshqa hollarda esa kelib chiqishni aniqlash faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, kelajakda postmortal reproduksiya bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy jihatdan aniq tartibga solish maqsadida, xorijiy davlatlar amaliyoti va shariat qoidalarini inobatga olgan holda shaxsning o'z genetik materialidan vafotidan keyin foydalanishga doir oldindan berilgan yozma rozilik institutini qonunchilikda mustahkamlash zarur. Mazkur institut kelajakda tug'ilishi mumkin bo'lgan bolaning huquqiy maqomini aniqlash, xususan, unga nisbatan ota-onalikni tan olish hamda meros huquqlarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan "Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomni postmortal reproduksiyani amalga oshirish tartibi va shartlarini belgilovchi qoidalar bilan takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, yaqin vaqtgacha "homila paydo bo'lishi" tushunchasi yuridik adabiyotlarda mustaqil muammo sifatida emas, asosan fuqarolik qonunchiligini sharhlash doirasida ko'rib chiqilgan. Biroq yordamchi reproduktiv texnologiyalarning keng qo'llanilishi ushbu tushunchani qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, laboratoriya sharoitida embrion yaratishni "homila paydo bo'lishi" sifatida e'tirof etish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bunday yondashuvga ko'ra, embrion meros qoldiruvchining hayotligida yaratilgan bo'lsa, u keyinchalik implantatsiya qilingan taqdirda ham bola hayotlik davrida vujudga kelgan deb hisoblanishi mumkin.

Biroq, bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv asosli emas. Birinchidan, homiladorlik jarayoni ayol organizmida yakunlanadi, shu sababli laboratoriyada embrion yaratilishi to'liq urug'lanish amalga oshirilgan degan xulosani bermaydi. Ikkinchidan, postmortal reproduksiya tug'ilish muddatini cheklamaydi, bu esa uzoq vaqtdan so'ng yangi merosxo'r paydo bo'lishi orqali boshqa merosxo'rlarning huquqlariga zarar yetkazishi mumkin.

Shu munosabat bilan, postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning meros huquqini amalga oshirish masalasini hal etish yuzasidan huquqshunoslikda ikki asosiy yondashuv shakllangan. **Birinchi yondashuvga ko'ra**, meros qoldiruvchining vafotidan keyin homila holida vujudga kelgan bolalarning meros huquqlari inkor etiladi. Mazkur yondashuv Buyuk Britaniya va Niderlandiya [29] huquq tizimlariga xosdir. **Ikkinchi yondashuvga muvofiq** esa, bunday bolalarga muayyan shartlar asosida meros huquqini berish zarurligi asoslab beriladi. Ushbu masala ilmiy adabiyotlarda ham faol muhokama qilinmoqda, bu masala esa AQSHning ayrim shtatlarida esa qonunchilik darajasida mustahkamlangan. Ilmiy adabiyotlarda bildirilgan fikrlarga ko'ra, postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarga meros huquqini tan olish ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan asosli hisoblanadi.

Shuningdek, O.Y.Malkinning fikricha, postmortal reproduksiya bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda asosiy e'tibor shaxsning vafotidan keyin yordamchi reproduktiv texnologiyalardan

foydalanishga oldindan rozilik berish tartibini va bunday texnologiyalardan foydalanish muddatini aniq chegaralarini belgilashga qaratilishi lozim [30]. Ye.Yu.Petrov ushbu masalaga nisbatan o'ziga xos yondashuvni ilgari suradi. Uning fikricha, meros qoldiruvchining vafotidan keyin homila holida vujudga kelgan va tirik tug'ilgan shaxslar vasiyatnoma bo'yicha merosxo'r sifatida e'tirof etilishi mumkin [31]. Ko'rinib turibdiki, muallif bunday bolalarni qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblamaydi, biroq ularga vasiyatnoma asosida meros olish imkoniyatini taqdim etishni taklif etadi. Uning ta'kidlashicha, merosxo'rning paydo bo'lishi bilan bog'liq muddatsiz noaniqlik muammosi Germaniya huquq tizimida qo'llaniladigan maxsus mexanizmlar orqali hal etilishi mumkin [32].

Ushbu ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish natijasida, postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning meros huquqini to'liq inkor etish bola manfaatlarining ustuvorligi va meros huquqidagi adolatlilik tamoyillariga mos kelmasligi aniqlanadi. Shu bilan birga, bunday bolalarni hech qanday muddat va protsessual cheklovlarsiz merosxo'r sifatida tan olish ham meros munosabatlari barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ularning meros huquqini marhumning oldindan berilgan yozma roziligi, aniq muddat cheklovlari va diniy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan genetik bog'liqlikni tasdiqlash shartlari asosida tan olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko'plab xorijiy davlatlarda, xususan, AQSHning Alabama, Delaver, Kaliforniya, Kolorado, Luiziana, Shimoliy Dakota, Texas [33] shtatlarida hamda Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasida [34] postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning meros huquqi ma'lum shartlar asosida tan olinishi belgilangan.

Xorijiy davlatlarda mazkur masalaga oid sud amaliyoti shakllangan. AQSHda 1990-yillardan boshlab postmortal tug'ilgan bolalar uchun ijtimoiy nafaqalar undirish bo'yicha da'volar ko'payib, sudlar bunday bolalarning huquqlarini ularning merosxo'r sifatida tan olinishi bilan bog'lab baholay boshladi. Bu ijtimoiy ta'minot va meros huquqi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi [35]. 2002-yildagi Woodward v. Commissioner of Social Security ishida Massachusetts Oliy sudi postmortal bolalarni merosxo'r sifatida tan olish uchun muayyan shartlar zarurligini belgiladi. 2012-yilda esa AQSH Oliy sudi Astrue v. Capato ishida ijtimoiy ta'minot huquqini aniqlashda shtat meros qonunchiligiga tayanish lozimligini tasdiqladi [36].

AQSHning Yagona meros kodeksi hamda ayrim shtatlarda postmortal bolani merosxo'r sifatida tan olishda quyidagi asosiy shartlar shakllangan: marhumning genetik materialdan foydalanishga oldindan yozma roziligi; bolaning kelib chiqishini qonuniy tartibda isbotlash; muddat cheklovlari (masalan, homiladorlik 36 oy ichida, tug'ilish 45 oy ichida). Ayrim shtatlarda faqat vasiyatnomada ko'rsatilgan bolalar merosxo'r bo'ladi (Florida) [37], bola qonuniy nikoh mavjud holatda tug'ilgan bo'lishi va 3 yil ichida dunyoga kelishi lozim (Luizana) [38], yozma rozilik, 2 yil ichida homiladorlik (in utero), hamda manfaatdor shaxslarni xabardor qilish majburiyati (Kaliforniya) [39] kabi shartlar belgilangan.

Xorijiy davlatlar tajribasi postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning meros huquqini turli shartlar asosida tan olish amaliyoti shakllanganligini, MDH davlatlari va O'zbekiston huquq tizimida esa ushbu masalani tartibga soluvchi maxsus normativ asoslar yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, postmortal bolalarning merosxo'rlik maqomini belgilashda O'zbekiston Respublikasi uchun aynan AQSH tajribasini tatbiq etish eng maqbul yechim hisoblanadi. Chunki mazkur model postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, milliy huquqiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari, diniy-axloqiy qadriyatlar hamda ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda bunday bolalarning meros huquqini tan olishning aniq shartlari va chegaralarini belgilash imkonini beradi. Mazkur yondashuv bir tomondan bola manfaatlarining ustuvorligini ta'minlasi, ikkinchi tomondan meros munosabatlarining barqarorligi hamda boshqa merosxo'rlarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Bolani meros huquqidan mahrum qilish fuqarolik huquqining asosiy tamoyillariga, xususan, shaxslarning tengligi va bola manfaatlarining ustuvorligi prinsiplariga zid ekanini inobatga olgan holda postmortal bolalarning meros huquqini muayyan shartlar asosida tan olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur yondashuvni huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun Fuqarolik kodeksining 1118-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

“Meros qoldiruvchining vafotidan keyin yordamchi reproduktiv texnologiyalar qo'llanilishi natijasida tug'ilgan bola quyidagi shartlar mavjud bo'lgan taqdirda merosxo'r deb e'tirof etiladi:

meros qoldiruvchi o'z genetik materialidan vafotidan keyin foydalanishga notarial tartibda tasdiqlangan yozma rozilik bergan bo'lsa;

embrion meros qoldiruvchi vafot etgan kundan e'tiboran olti oy ichida ayol organizmiga ko'chirilgan bo'lsa;

bola meros qoldiruvchi vafotidan keyin o'n sakkiz oy ichida tirik tug'ilgan bo'lsa;

bolaning meros qoldiruvchi bilan genetik bog'liqligi sud-tibbiy ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlangan bo'lsa”.

Mazkur muddatlarning belgilanishi postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, meros munosabatlarida huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlash zarurati bilan asoslanadi. Birinchidan, embrionning meros qoldiruvchi vafotidan keyin olti oy ichida implantatsiya qilinishi sharti meros huquqiy munosabatlarining uzoq muddat noaniq holatda qolib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur muddat Fuqarolik kodeksining 1146-moddasida merosni qabul qilish uchun belgilangan olti oylik muddat bilan ham uzviy bog'liqdir. Ya'ni, qonunchilikda meros munosabatlari aynan olti oy davomida shakllanishi va asosiy merosxo'rlar doirasi aniqlanishi nazarda tutilgan. Shu sababli postmortal reproduksiya jarayonining ham ushbu muddat ichida boshlanishi meros munosabatlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, bolaning meros qoldiruvchi vafotidan keyin o'n sakkiz oy ichida tirik tug'ilishi talabi biologik va protsessual omillarni hisobga olgan holda belgilanadi. Mazkur muddat o'z ichiga embrionni implantatsiya qilish uchun zarur bo'lgan vaqt, homilaning tabiiy rivojlanish davri va yordamchi reproduktiv texnologiyalar bilan bog'liq tibbiy jarayonlarni qamrab oladi. O'n sakkiz oylik muddat bir tomondan postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolaning meros huquqini amalga oshirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan boshqa merosxo'rlarning huquqiy holatini noma'lum muddat davomida noaniq holda saqlab qolmaslikka xizmat qiladi. Chunki meros mulkining uzoq vaqt davomida taqsimlanmasligi fuqarolik muomalasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, mazkur muddatlar xorijiy davlatlar tajribasida shakllangan yondashuvlar hamda fuqarolik huquqining huquqiy aniqlik, manfaatlar muvozanati va bola manfaatlarining ustuvorligi prinsiplari asosida tanlangan. Shu jihatdan, taklif etilayotgan tartib postmortal reproduksiya natijasida tug'ilgan bolaning huquqiy maqomini tan olish bilan birga, meros munosabatlarida oqilona vaqt chegaralarini ham belgilaydi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. Словарь патофизиологических терминов. – URL: https://www.ggau.by/downloads/farmakologija/patfiziologiya/slowar_patfiziologii (дата обращения: 25.03.2026).

2. Молодяков А. М. Правовое регулирование постмортальной репродукции в России: аспекты наследственных прав // Вестник науки. – 2025. – Т. 3. – № 1. – С. 371–376.

3. Улихина А. С. Правовые особенности посмертной репродукции человека // Современные проблемы социально-гуманитарных наук : сборник докладов III Международной научно-практической заочной конференции, Казань, 29 февраля 2016 года / под ред. А. В. Гумерова. – Казань : ООО «Рокета Союз», 2016. – С. 269–274.

4. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 14-yanvardagi 106-son buyrug'iga ilova. Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom. – URL: <https://lex.uz/docs/-4728682#-4729574> (murojaat qilingan sana: 25.03.2026).
5. Третьяк И. А. Конституционно-правовые аспекты посмертной репродукции в России и зарубежных странах // Правоприменение. – 2024. – Т. 8. – № 4. – С. 44–53. – DOI: 10.52468/25421514.2024.8(4).
6. Бурмистрова Е. В. Гражданско-правовое регулирование установления происхождения детей при применении вспомогательных репродуктивных технологий : дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2025. – 216 с.
7. Аникина Г. В. К вопросу о правовом регулировании постмортальной репродукции // Наука. Общество. Государство. – 2013. – № 2(2). – С. 37–41.
8. Руководство к практическим занятиям по акушерству : учеб. пособие / под ред. В. Е. Радзинского. – М. : ГЭОТАР-Медиа, 2007. – С. 60.
9. Большая медицинская энциклопедия / под ред. Б. В. Петровского. – М. : Советская энциклопедия. – URL: <https://web.archive.org/web/20220207094940> (дата обращения: 20.04.2026).
10. Алейникова В. В. Постмортальные дети в семейном и наследственном праве: «быть или не быть, вот в чем вопрос...» // Закон. – 2023. – № 4. – С. 137–157. – DOI: 10.37239/0869-4400-2023-2-4.
11. Журавлева С. П. Правовое регулирование договора о суррогатном материнстве в Российской Федерации : дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2011. – 175 с.
12. Family Law Act (SBC 2011). – URL: https://www.bclaws.gov.bc.ca/civix/document/id/complete/statreg/11025_00 (accessed: 20.03.2026).
13. Norme in materia di procreazione medicalmente assistita (Legge 19 febbraio 2004, № 40). – URL: <https://www.normattiva.it/urires/N2Ls?urn:nir:stato:legge:20040219;40!vig> (accessed: 16.04.2026).
14. Закон Республики Беларусь «О вспомогательных репродуктивных технологиях» от 7 января 2012 г. № 341-3. – URL: <https://clck.ru/3NKHPJ> (дата обращения: 16.04.2026).
15. Кодекс общественного здравоохранения Французской Республики. Code de santé publique. – URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/ (accessed: 20.04.2026).
16. Федеральный закон Швейцарской Конфедерации «О репродуктивной медицине». Legge sulla medicina della procreazione, LPAM (18 dicembre 1998). – URL: <https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/2000/554/it> (accessed: 16.04.2026).
17. Калифорнийский кодекс о завещании. California Probate Code. – URL: https://california.public.law/codes/probate_code_section_249 (accessed: 16.04.2026).
18. Human Fertilisation and Embryology Act. – URL: <https://www.legislation.gov.uk/> (accessed: 16.04.2026).
19. Assisted Human Reproduction (Section 8 Consent) Regulations (SOR/2007-137). – URL: <https://www.canlii.org/en/ca/laws/regu/sor2007137/latest/sor2007137.html> (accessed: 10.04.2026).
20. Филатова У. Б., Усачева Е. А. Правовой статус постмортальных детей: в поисках концепции // Правосудие/Justice. – 2026. – Т. 8. – № 1. – С. 125–143. – DOI: 10.37399/2686-9241.2026.1.
21. O'zbekiston musulmonlari idorasi. Sun'iy urug'lantirish haqida fatvo. – URL: <https://muslim.uz/oz/e/post/35281-diniy-idora-sun-iy-urug-lantirish-haqida-gi-fatvoni-e-lon-qildi> (murojaat qilingan sana: 16.04.2026).
22. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida”gi Qonuni, 11.03.2019-yil. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4233891>
23. Reproductolog Nilufar Kabilova. Kriokonservatsiya nima? – URL: <https://reproduktolog.uz/doctor>
24. Human Fertilisation and Embryology Act 2008. – URL: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2008/28/contents> (accessed: 25.05.2026).
25. Закон Королевства Испания «О вспомогательных репродуктивных технологиях человека». Ley sobre técnicas de reproducción humana asistida (14/2006, de 26 de mayo). – URL: <https://www.iberley.es/legislacion/articulo9tecnicasreproduccion> (accessed: 16.04.2026).
26. Гражданский кодекс Аргентины. Código Civil y Comercial de la Nación (2014). Código Civil y Comercial de la Nación (2014). – URL: <https://www.notarfor.com.ar/codigocivilcomercialunificado/articulo561> (accessed: 10.04.2026).
27. Громова М. Г. Постмортальное оплодотворение: правовые последствия и судебная практика // Legal Bulletin. – 2025. – № 2. – С. 82–89. – DOI: 10.5281/zenodo.16202771.
28. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – URL: <https://lex.uz/docs/-104720>
29. Жирикова К. А. Охрана наследственных прав ребенка, родившегося в результате применения вспомогательных репродуктивных технологий // Наследственное право. – 2021. – № 1. – С. 40–44.
30. Малкин О. Ю. Лица, призываемые к наследованию по закону // Наследственное право. – 2014. – № 4. – С. 18–22.

31. Петров Е. Ю. Наследственное право: постатейный комментарий к ГК РФ : научно-практический комментарий. – М. : Статут, 2018. – С. 346.
32. Аминова Ф. М. Юридическая роль установления происхождения ребенка в наследственных правоотношениях при применении вспомогательных репродуктивных технологий // Lex Russica. – 2019. – № 5(150). – С. 35–42.
33. Ellis A. S. Inheritance Rights of Posthumously Conceived Children in Texas // St. Mary's Law Journal. – 2012. – Vol. 43. – P. 413–435. – URL: <http://www.stmaryslawjournal> (accessed: 16.04.2026).
34. Alberta Law Reform Institute. Succession and Posthumously Conceived Children. Report for Discussion. – January 2012. – URL: http://www.manitobalawreform.ca/pubs/pdf/additional/assisted_reproductionlegal_parentage_and_birth_registration.pdf. (accessed: 16.04.2026).
35. Шелютто М. Л. Дети, зачатые после смерти родителя: установление происхождения и наследственные права // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. – 2016. – № 4(59). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/deti-zachatye-posle-smerti-roditelya-ustanovlenie-proishozhdeniya-i-nasledstvennye-prava> (дата обращения: 16.04.2026).
36. Peebles A. T. Challenges and Inconsistencies Facing the Posthumously Conceived Child // Missouri Law Review. – 2013. – Vol. 79. – URL: <http://scholarship.law.missouri.edu/cgi/viewcontent> (accessed: 10.04.2026).
37. Fla. Stat. Ann. § 742.17(4). – URL: <https://www.flsenate.gov/Laws/Statutes/2017/Chapter742/All>
38. La. Rev. Stat. Ann. § 9:391.1. – URL: <https://law.justia.com/codes/louisiana/revised-statutes/title-9/rs-9-391-1/> (accessed: 16.04.2026).
39. California Probate Code § 249.5. – URL: http://www.leginfo.ca.gov/.html/prob_table_of_contents.html

САИДОВА Нигорахон

Central Asian University Менеджер Центра
Междисциплинарных прикладных исследований,
Самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета
E-mail: nigosh.saidi@gmail.com

МЕХАНИЗМ РАССМОТРЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ЖАЛОБ НА ОПЕРАТОРОВ ЭЛЕКТРОННЫХ ТОРГОВЫХ ПЛОЩАДОК: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И УЗБЕКИСТАНА

Для цитирования (iqtibos keltirish uchun, for citation): САИДОВА Н. Механизм рассмотрения потребительских жалоб на операторов электронных торговых площадок: сравнительно-правовой анализ опыта Китая и Узбекистана // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) С. 86-101.



3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-009>

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена сравнительному правовому анализу механизмов рассмотрения потребительских жалоб на операторов электронных торговых площадок (ЭТП) в Китайской Народной Республике и Республике Узбекистан. Актуальность исследования обусловлена стремительным ростом рынка электронной коммерции в Узбекистане, сопровождающимся опережающим увеличением числа потребительских жалоб: с 1 328 обращений в 2024 году до 3 100 в 2025 году и 1 657 только за первый квартал 2026 года. В работе применяются сравнительно-правовой и формально-юридический методы. Эмпирическую основу составляют официальные данные Государственного управления по регулированию рынков КНР (SAMR) за 2025 год и Комитета по развитию конкуренции и защите прав потребителей Республики Узбекистан за 2024–2026 годы. Анализ охватывает четыре критерия: институциональную архитектуру механизмов рассмотрения жалоб, нормативную определённость обязанностей операторов, показатели эффективности правоприменения и режим ответственности платформ. Установлено, что китайская трёхуровневая модель, включающая обязательный внутриплатформенный механизм рассмотрения жалоб, государственную ODR-платформу 12315 и административно-судебный уровень, позволила урегулировать 12,33 млн споров без участия государственного регулятора. Узбекская система, напротив, лишена первичного платформенного уровня, что ведёт к регуляторной перегрузке Комитета. Дополнительно исследован опыт Европейского союза: добровольная ODR-платформа, закрытая в 2024 году ввиду не востребоваемости, показала, что обязательный характер участия операторов является ключевым условием эффективности. Эмпирический анализ подкреплён разбором реального правоприменительного дела Uzum Market/Oila Tanlovi (2024–2025г.), прошедшего все судебные инстанции и наглядно выявившего пробел в нормах об ответственности оператора ЭТП за товары под собственной торговой маркой. По итогам исследования предлагается дополнить Закон «Об электронной коммерции» (ЗРУ-792) четырьмя взаимосвязанными статьями: ст. 13-1 (обязательный внутриплатформенный механизм рассмотрения претензий), ст. 13-2 (функциональная ответственность оператора), ст. 16-1 (стандарты публичной оферты) и ст. 28-1 (государственная ODR-платформа). Предложенные нормы совместимы с действующим ГК Узбекистана и не требуют изменения базовых норм гражданского законодательства.

Ключевые слова: электронная торговая площадка, защита прав потребителей, рассмотрение жалоб, онлайн-урегулирование споров, ODR, ответственность оператора ЭТП, ЗРУ-792, электронная коммерция.

SAIDOVA Nigoraxon

Central Asian University Fanlararo
amaliy tadqiqotlar markazi menejeri,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: nigosh.saidi@gmail.com

ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARI OPERATORLARIGA NISBATAN ISTE'MOLCHILAR SHIKOYATLARINI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI: XITOIY VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

ANNOTATSIYA

15. Uzun Market стал лидером по числу жалоб от покупателей // Nuz.uz. — 30 января 2025 г. - URL: <https://nuz.uz/2025/01/30/uzun-market-stal-liderom-po-chislu-zhalob-ot-pokupatelej/> (дата обращения: 10.05.2026).
16. Комитет по конкуренции получил 3,1 тысячи жалоб на маркетплейсы в 2025 году // Nuz.uz. - 12 февраля 2026 г. - URL: <https://nuz.uz/2026/02/12/komitet-po-konkurencii-poluchil-31-tysyachi-zhalob-na-marketplejisy-v-2025-godu/> (дата обращения: 10.05.2026).
17. Комитет по конкуренции заставил маркетплейсы пересмотреть правила работы с клиентами // Podrobno.uz. - URL: <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/komitet-po-konkurencii-zastavil-marketplejisy-peresmotret-pravila-raboty-s-klientami/> (дата обращения: 10.05.2026).

18. China bolsters online consumer protection with new regulations // The State Council of the People's Republic of China. — 9 апреля 2024 г. — URL: https://english.www.gov.cn/news/202404/09/content_WS66152385c6d0868f4e8e5e33.html (дата обращения: 10.05.2026).

19. Маркетплейсы вернули покупателям 7,3 млрд сумов по предписаниям Комитета по конкуренции // Spot.uz. — 11 февраля 2026 г. — URL: <https://www.spot.uz/ru/2026/02/11/e-commerce-complaint> (дата обращения: 10.05.2026).

20. Комитет по развитию конкуренции и защите прав потребителей Республики Узбекистан. Предписание об устранении нарушений требований к содержанию публичных ofert операторов электронных торговых площадок (по итогам мониторинга 2024 года). — Ташкент, 2024. — URL: <https://raqobat.uz> (дата обращения: 10.05.2026).

21. Постановление Государственного совета КНР «О мерах по реализации Закона о защите прав потребителей» от 19 марта 2024 г., вступило в силу 1 июля 2024 г. // Официальный вестник Государственного совета КНР. — 2024. — № 12.

22. Online Dispute Resolution Mechanism in China: Principle of Proceedings and Impact of Technologies // China and WTO Review. - 2022. - Vol. 8, No. 1. — URL: <https://cwto.net/index.php/CWR/article/view/87> (дата обращения: 10.05.2026).

KOMILOV Avazbek Boqijonovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi kafedra boshlig'i,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
ORCID 0009-0006-4834-973X
E-mail: komilov02011985@gmail.com

PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI TASNIFLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): KOMILOV A.B. Prokuror huquqiy vositalarini tasniflashning ilmiy-nazariy asoslari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 102-108.



3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-010>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada prokuror huquqiy vositalarining ilmiy-nazariy asoslari, ularning mazmun-mohiyati va tizimlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif prokuror huquqiy vositalarini tasniflash bo'yicha milliy va xorijiy olimlarning yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib, ularni ikkita asosiy guruhga ajratgan holda o'rgangan. Maqolada A.Davletov, E.Yergashev, N.Koreshnikova, A.Marinicheva, S.Filipenko va boshqa yetakchi huquqshunos olimlarning tasniflash mezonlari atroflicha muhokama qilingan va ba'zi o'rinlarda ular bilan ilmiy munozaraga kirishilgan. Prokurorning nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalari ham protsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalar va noprotsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga bo'lib tahlil qilingan. Maqola yakunida muallif tomonidan prokuror huquqiy vositalarini maqsadiga, funksional mansubligiga, normativ tartibga solish manbasiga va ifodalanish shakliga ko'ra tizimlashtirilgan mualliflik tasnifi taklif etilgan. Prokuror huquqiy vositalari maqsadiga ko'ra qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar hamda aniqlangan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir ko'rsatish vositalariga bo'linishi hamda prokuror huquqiy vositalari ifodalanish shakliga ko'ra qonunda nazarda tutilgan harakatlar (masalan, prokuror tekshiruvi) va hujjatlarga (prokuror nazorati hujjatlari va h.k.) tasniflanishi ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: prokuror nazorati, prokuror huquqiy vositalari, prokuror vakolatlari, funksional mansublik, protsessual va noprotsessual vositalar, prokuror nazorati hujjatlari, protest, taqdimnoma.

КОМИЛОВ Авазбек Бокижонович

Заведующий кафедрой Академии
правоохранительных органов
Республики Узбекистан,
доктор юридических наук (DSc), доцент
ORCID 0009-0006-4834-973X
E-mail: komilov02011985@gmail.com

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КЛАССИФИКАЦИИ ПРОКУРОРСКИХ ПРАВОВЫХ СРЕДСТВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются научно-теоретические основы, сущность и вопросы систематизации правовых средств прокурора. Автор проводит сравнительный анализ подходов

национальных и зарубежных ученых к классификации правовых средств прокурора, разделяя их на две основные группы. В статье подробно обсуждаются критерии классификации, предложенные такими ведущими учеными-юристами, как А.Давлетов, Е.Ергашев, Н.Корешникова, А.Мариничева, С.Филипенко и другие, при этом в определенных пунктах автор вступает с ними в научную полемику. Надзорные средства прокурора, не связанные с надзором, также анализируются путем их разделения на процессуальные ненадзорные средства и непроцессуальные ненадзорные средства. По итогам исследования автором предложена оригинальная классификация, систематизирующая правовые средства прокурора по их целям, функциональной принадлежности, источнику нормативного регулирования и форме выражения. Также проанализирована классификация прокурорских правовых средств по их целевому назначению на средства, направленные на выявление нарушений закона, причин их возникновения и условий, способствующих таким нарушениям, а также на средства воздействия в отношении выявленных нарушений закона. Кроме того, рассмотрена классификация прокурорских правовых средств по форме их выражения на предусмотренные законом действия (например, прокурорские проверки) и документы (акты прокурорского надзора и иные прокурорские документы)

Ключевые слова: прокурорский надзор, правовые средства прокурора, полномочия прокурора, функциональная принадлежность, процессуальные и непроцессуальные средства, акты прокурорского надзора, протест, представление.

AVAZBEK Komilov

Head of Department at the Law Enforcement
Academy of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law (DSc), Associate Professor
ORCID 0009-0006-4834-973X
E-mail: komilov02011985@gmail.com

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE CLASSIFICATION OF PROSECUTORIAL LEGAL INSTRUMENTS

ANNOTATION

This article investigates the theoretical and scientific foundations, essence, and systematization of the prosecutor's legal means. The author conducts a comparative analysis of approaches by national and foreign scholars regarding the classification of these means, categorizing them into two primary groups. The classification criteria proposed by prominent legal scholars, such as A.Davletov, E.Ergashev, N.Koreshnikova, A.Marinicheva, S.Filipenko, and others, are discussed in detail, incorporating scientific debates on specific points. The non-supervisory instruments of the prosecutor are also analyzed by dividing them into procedural non-supervisory instruments and non-procedural non-supervisory instruments. Based on the research findings, the author proposes an original classification that systematizes the prosecutor's legal means according to their purpose, functional attribution, source of regulatory framework, and form of expression. The study also analyzes the classification of prosecutorial legal instruments according to their purpose into instruments aimed at identifying violations of the law, the causes of their occurrence, and the conditions facilitating such violations, as well as instruments intended to respond to and address the identified violations of the law. Furthermore, prosecutorial legal instruments are classified, according to their form of expression, into actions prescribed by law (for example, prosecutorial inspections) and documents (such as prosecutorial oversight documents and other related prosecutorial acts)

Key words: prosecutorial supervision, prosecutor's legal means, prosecutor's powers, functional attribution, procedural and non-procedural means, prosecutorial supervision documents, protest, submission.

Ma'lumki, prokuror huquqiy vositalari turli-tuman bo'lib, ular o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq vositalar va ularning tarkibiy qismlaridan tashkil topadi. Ayni paytda, mazkur vositalarning tartibsizligi ularni muayyan belgilar asosida ma'lum bir tizimga solishni, tartibga keltirishni talab qiladi. Shu sababli, ko'plab milliy va xorijiy olimlar o'z tadqiqotlari, ilmiy va o'quv adabiyotlarida prokuror huquqiy vositalarini tasniflash bo'yicha o'zlarining alohida yondashuvlarini ishlab chiqishgan. Ular orasida S.Alekseyev, M.Byzova, O.Voronin, N.Votchel, A.Davletov, A.Dolgova, E.Yergashev, N.Koreshnikova, O.Kojevnikov, A.Marinicheva, O.Teterina, Y.Turigin, P.Prigorsha va S.Filipenko kabi olimlar alohida ajralib turadi.

Prokuror huquqiy vositalarini tasniflashga oid ilmiy-nazariy asoslarni o'rganish natijasida ushbu vositalarni tasniflagan tadqiqotchi va olimlarni ular taklif etgan tasniflash belgilariga ko'ra 2 ta katta guruhga ajratish mumkin, degan xulosaga kelindi. *Birinchi guruhga* prokuror huquqiy vositalarini bir yoki ikkita mezonga ko'ra tasniflagan olimlar (*S.Alekseyev, Y.Y.Vinokurov, A.Dolgova, O.Kojevnikov, A.Marinicheva, S.Filipenko, F.Shvaba*), *ikkinchi guruhga* tasniflash masalasiga chuqurroq yondashib, huquqiy vositalarni nisbatan kengroq belgilar asosida tizimlashtirgan olimlar (*M.Byzova, O.Voronin, A.Davletov, E.Yergashev, N.Koreshnikova, P.Prigorsha, Yu.Turigin*) kiradi.

Birinchi guruhga mansub olimlarning aksariyati prokuror huquqiy vositalarini tasniflashda asos sifatida yoki vositalarni qo'llash maqsadi yoki qo'llash sohasi yoxud ularning ifodalanish shakli kabi mezonlarga tayanadilar. Xususan, A.Dolgova 1972-yilda taklif etgan tasnifga binoan, prokuror huquqiy vositalari: umumiy – prokuror nazoratining barcha yo'nalishlarida (sohalarida) qo'llaniladigan vositalar va maxsus – alohida yoki bir necha yo'nalishlarga (sohalarga) mansub vositalarga bo'lingan [1, B.30-31]. S.Alekseyevning qarashlariga ko'ra, prokuror nazorati huquqiy vositalariga prokurorga "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunlar bilan taqdim etilgan vositalar taalluqli bo'lib, avvalo, ular: qonun buzilishini aniqlashga qaratilgan vositalar (*masalan, shaxsni prokuraturaga chaqirish yoki suddan fuqarolik ishini talab qilib olish*) va aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan vositalarga bo'linishi haqida yozadilar [2, B.31]. Shu kabi, A.Marinicheva prokuror nazoratining huquqiy vositalarini qo'llash maqsadiga ko'ra: 1) qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar (misol uchun, prokuror tekshiruvi); 2) aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etishga qaratilgan vositalar (*misol uchun, prokuror protesti*) va 3) aybdor shaxslarni javobgarlikka tortishga yo'naltirilgan vositalarga (*misol uchun, prokurorning ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarori*) bo'lib tasniflaydi [3, B.101-103].

Birinchi guruhga mansub olimlardan Y.Y.Vinokurov, O.Kojevnikov va S.Filipenkolar ilgari surgan yondashuvlar ham e'tiborga molik sanaladi. Jumladan, huquqshunos olim S.Filipenkoning yozishicha, qonunlar ijrosi ustidan nazorat jarayonida qo'llaniladigan huquqiy vositalar dastlab 2 ta katta guruhga bo'linadi: *birinchi guruh* – qonunbuzarliklarni aniqlashda qo'llaniladigan vositalar va *ikkinchi guruh* – ularni to'xtatish va oldini olishda qo'llaniladigan vositalar, ya'ni prokuror ta'sir hujjatlaridir. Uning fikricha, qonunbuzarliklarni aniqlashda qo'llaniladigan vositalarning o'zini ham 2 ta guruhga ajratish mumkin bo'lib, birinchisi – qonuniylik ahvolini monitoring qilish vositalari, ikkinchisi – prokuror tekshiruvlari mobaynida qo'llaniladigan vositalar hisoblanadi. Shuningdek, prokuror huquqiy vositalari ular kimga yo'naltirilgan bo'lsa, o'sha organning prokuror nazorati obyekti sanalishi yoki sanalmasligiga qarab: nazorat vositalari va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga bo'linadi. Bunda ikkinchi turdagi vositalar protsessual va noprotsessual vositalarga ajraladi [4, B.209]. Bizningcha, birinchi guruhga mansub olimlarning tasniflarida, birinchidan, huquqiy vositalarni tasniflash asoslari yetarlicha emas, ikkinchidan, ushbu asoslar bo'yicha mazkur vositalarni u yoki bu guruhlarga bo'lishda barcha vositalar mansubligini to'liq aniqlash imkoni yo'q. Shu jihatdan olib qaraganda, bizning qarashlarimiz ko'proq ikkinchi guruhga mansub olimlarning qarashlari bilan mos keladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ikkinchi guruhga mansub olimlarning prokuror huquqiy vositalarini tasniflash masalasidagi yondashuv va qarashlari o’zining nisbatan keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ta’kidlash kerakki, O’zbekiston mustaqillikka erishgan 1991-yildan shu kunga qadar milliy olimlar orasida prokuror huquqiy vositalarini tartibga solish masalasini o’z asarlarida ko’tarib chiqqan olim faqatgina A.Davletov hisoblanadi. U o’zining “Prokuror nazorati” darsligida [5, B.320] prokuror huquqiy vositalarini tasniflash masalasiga to’xtalib o’tadi. Muallif prokuror nazoratining huquqiy vositalarini maqsadiga ko’ra: a) qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar; b) qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan vositalar; v) qonunbuzarlarni javobgarlikka tortishga qaratilgan vositalar; g) huquqbuzar tomonidan yetkazilgan moddiy zararni undirishni ta’minlashga qaratilgan vositalar; d) qonun buzilishining oldini olishga qaratilgan vositalarga bo’ladi. U *birinchi turdagi huquqiy vositalarga*: tekshirish uchun vakolatli idoralardan ma’lumot, statistika va boshqa zaruriy hujjatlarni talab qilib olish, nazorat organlaridan tekshirish yoki reviziya o’tkazishni talab qilish, mutaxassis ajratishni talab qilish, tekshirish o’tkazish, fuqarolar va mansabdor shaxslarni chaqirish hamda ulardan qonun buzilishi holati yuzasidan yozma yoki og’zaki tushuntirishlar talab qilish kabilarni kiritadi. *Ikkinchi turdagi huquqiy vositalarga*: noqonuniy huquqiy hujjat yoki harakatga nisbatan protest keltirish, qonun buzilishini bartaraf etish to’g’risida taqdimnoma kiritish va boshqalarni kiritadi. *Uchinchi turdagi huquqiy vositalarga*: jinoyat ishi qo’zg’atish, intizomiy yoki ma’muriy javobgarlik to’g’risida ish qo’zg’atish kabilarni, *to’rtinchi turdagi huquqiy vositalarga*: fuqarolik ishlari bo’yicha yetkazilgan zararni qoplash haqida da’vo ariza kiritish kabilarni kiritadi. Va nihoyat, *beshtinchi turdagi huquqiy vositalarga*: qonunning buzilishiga yo’l qo’ymaslik haqida rasmiy ogohlantiruv e’lon qilish, protest sudda ko’rib chiqilguniga qadar huquqiy hujjat ijrosini to’xtatib qo’yish va boshqalar misol bo’lishini qayd etadi. A.Davletov xarakteri bo’yicha huquqiy vositalarni: a) majburlovchi; b) to’xtatuvchi; v) ma’muriy buyruq beruvchi vositalarga ajratadi. Uning fikricha, majburlash xarakteriga ega bo’lgan huquqiy vositalarga: tekshirish yoki reviziya o’tkazishni talab qilish, to’xtatuvchi xarakterga ega huquqiy vositalarga: sudlarning hujjatlari ijrosini to’xtatib qo’yish hamda ma’muriy buyruq beruvchi huquqiy vositalarga: yozma ko’rsatma berish, jinoyat ishini qo’shimcha tergovga qaytarish kabilarni misol qilib ko’rsatadi. Shuningdek, muallif huquqiy vositalarni shakli bo’yicha: a) harakatlar va b) hujjatlarga bo’ladi. Fikrimizcha, A.Davletov tomonidan taklif etilgan tasniflardagi prokuror huquqiy vositalarini u yoki bu guruhga mansubligini belgilash asoslari bilan kelishish mumkin, ammo, nazarimizda, muallif huquqiy vositalarni prokuror vakolatlari bilan aralashtirib yuborgan. Boisi, u misol tariqasida keltirgan vositalar huquqiy vositalar emas, balki “Prokuratura to’g’risida”gi Qonun bilan prokurorlarga berilgan vakolatlar hisoblanadi.

Shu o’rinda, O’zbekistondan farqli ravishda, MDH mamlakatlari olimlari, ayniqsa, rossiyalik olimlar tomonidan prokuror huquqiy vositalarini tasniflash masalasi keng o’rganilganligini alohida e’tirof etish zarur. Jumladan, M.Byzova prokuror huquqiy vositalarni faoliyat yo’nalishi, maqsadi, imperativlik darajasi va normativ tartibga solish manbasiga ko’ra tasniflaydi. Xususan, u huquqiy vositalarni: 1) faoliyat yo’nalishiga ko’ra: prokuror nazorati faoliyati bilan bog’liq bo’lgan vositalar va nazorat faoliyati bilan bog’liq bo’lmagan vositalarga; 2) maqsadiga ko’ra: qonun buzilishini aniqlash vositalari va aniqlangan qonun buzilishiga ta’sir ko’rsatish vositalariga; 3) imperativlik darajasiga ko’ra: imperativ, cheklangan-imperativ va dispozitiv vositalarga; 4) normativ tartibga solish manbasiga ko’ra: protsessual vositalar va noprotsessual vositalarga ajratadi [6, B.182].

Mazkur sohada maxsus o’rganishlar olib borgan olim P.Prigorsha esa prokuror huquqiy vositalarini dastlab 2 turga: 1) huquqbuzarliklarni aniqlash vositalari (*masalan, prokuror tekshiruvi*) va 2) aniqlangan huquqbuzarliklarga ta’sir ko’rsatishga (*munosabat bildirish*) qaratilgan vositalarga (*masalan, prokuror talabnomasi*) bo’ladi [7, B.84-85]. Muallif ilgari surgan yondashuvga asosan,

prokuror huquqiy vositalari o'z navbatida: nazorat va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga ajratilishi lozim. Nazorat vositalariga prokuratura organlari tomonidan nazorat funksiyasini amalga oshirish mobaynida qo'llaniladigan vositalar, nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga nazorat funksiyasidan tashqari funksiyalar, masalan, odil sudlovga ko'maklashish funksiyasini (*sudlarda jinoyat, fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokini ta'minlash*) amalga oshirish chog'ida qo'llaniladigan vositalar kiradi. Nazorat va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan huquqiy vositalar protsessual va noprotsessual vositalarga ajratiladi. Protsessual nazorat vositalari orasida: prokuror yozma ko'rsatmasi, prokuror talabnomasi, prokurorning turli xil qarorlari; noprotsessual nazorat vositalari orasida: protest, taqdimnoma, ogohlantiruv, ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror ajralib turadi. Nazorat bilan bog'liq bo'lmagan protsessual vositalarga sud hujjatlariga nisbatan prokuror taqdimnomasi va shikoyati, prokurorning da'vo arizasi va boshqa arizalari mansub bo'lsa, nazorat bilan bog'liq bo'lmagan noprotsessual vositalarga qonun buzilishlar haqidagi prokuror xabarnomasi, prokuror xati, prokuror axboroti va prokuror ma'ruzasi kiritiladi [8, B.18-20].

Bizningcha, yuqorida qayd etilgan tasniflarga nisbatan Y.Ergashev va N.Koreshnikova [9, B.25-32]lar taklif etgan tasniflash asoslari va ularning tarkibiy qismlari o'zining to'liqligi hamda keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, prokuror huquqiy vositalari, ularni anglash, qo'llash va huquqiy jihatdan tartibga solish muammolari yuzasidan alohida tadqiqot olib borgan olim Y.Ergashevning ta'kidlashicha, prokuror huquqiy vositalari, avvalo, maqsadiga ko'ra: 1) *qonun buzilishini aniqlash vositalari* – ularni qo'llashdan ko'zlangan eng asosiy maqsad – qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni, ularni sodir etishda aybdor shaxslarni aniqlash hisoblanadi. Ular orasida eng muhim vosita bu – prokuror tekshiruv sanaladi; 2) *aniqlangan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir vositalari (prokuror ta'sir vositalari)* bo'lib, ular aniqlangan qonun buzilishi, uning sababi va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadini ko'zlaydi.

Shuningdek, prokuror ta'sir vositalarini qo'llanish sohasiga ko'ra: umumiy va maxsus vositalarga, xarakteriga ko'ra: ogohlantiruvchi, oldini oluvchi va jazolovchi vositalarga bo'ladi. Shu bilan birga, uning fikricha, prokuror huquqiy vositalari: nazorat vositalari va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga ham ajratiladi. O'z navbatida ular: protsessual va noprotsessual vositalarga bo'linadi. Prokurorning protsessual ta'sir vositalarini nazorat osti subyektlarning nohuquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (*qaror, talabnoma, yozma ko'rsatma*) va huquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (prokuror tasdig'i, prokuror roziligi, prokuror sanksiyasi) vositalarga ham ajratish mumkin. Muallif yakunda, prokuror ta'sir vositalarini xarakteriga ko'ra: 1) asosiy – qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan, prokuraturaning bosh funksiyasi namoyon bo'ladigan prokuror ta'sir vositalari (prokuror nazorati hujjatlari, prokurorning protsessual vositalari) va 2) signal beruvchi – qonun buzilishini bartaraf etish talabi qo'yilmagan qonuniylik ahvoli to'g'risidagi axborotlarni qamrab oluvchi vositalarga (axborot xatlari, axborotlar, xabarnomalar, prokuror suhbatlari, ma'ruza) tasniflaydi [10, B.40-42].

Umuman olganda, mazkur mavzuni o'rgangan tadqiqotchi-olimlarning ilmiy qarashlari, milliy qonunchilik va prokuror nazorati amaliyotini umumlashtirgan holda, bizningcha, prokuror huquqiy vositalarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik. Xususan, dastlab prokuror huquqiy vositalari: 1) maqsadiga ko'ra: a) qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar hamda b) aniqlangan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir ko'rsatish vositalariga bo'linadi.

Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar 2) funksional mansubligiga ko'ra, 2 ta turga: a) prokuror nazorati vositalari (prokuror nazorati tartibidagi tekshiruvlari); va b) prokuror nazorati

bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga (prokurorning nazorat bilan bog'liq bo'lmagan tekshirishlari, masalan, huquqiy hujjatlarning qonuniyligini aniqlashga qaratilgan tekshirish, normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlashga qaratilgan tekshirish, monitoring) bo'linadi.

Aniqlangan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir ko'rsatish vositalari ham 2) funksional mansubligiga ko'ra: a) prokuror nazorati vositalari va b) prokuror nazorati bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga ajratiladi.

Nazorat vositalari 3) normativ tartibga solish manbasiga ko'ra, 2 turga: a) protsessual nazorat vositalar (protsessual qonunchilik bilan tartibga solinadi) va b) noprotsessual nazorat vositalarga (boshqa qonunchilik bilan tartibga solinadi) bo'linadi. Prokurorning protsessual nazorat vositalari: a) nazorat osti subyektlarning nohuquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (qaror, talabnoma, yozma ko'rsatma) va b) huquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (prokuror tasdig'i, prokuror roziligi, prokuror sanksiyasi) vositalarga ajratiladi. Prokurorning noprotsessual nazorat vositalariga prokuror nazorati hujjatlari (*ma'lumot uchun, 2025-yil davomida prokuratura organlari tomonidan jami 48 mingdan ortiq protest, 32 mingdan ortiq taqdimnoma, 47 mingdan ortiq qaror hamda 24 mingdan ortiq ogohlantiruv nazorat hujjatlari qo'llanilgan*) kiradi.

Prokurorning nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalari ham 2 turga: a) protsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalar (asosiy vositalar) va b) noprotsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga (signal beruvchi vositalar) bo'linadi. Protsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga: da'vo ariza, ariza, sud hujjatlariga (hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq) nisbatan protest kiradi. Noprotsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga: prokuror axboroti, prokuror xabarnomasi, prokuror ma'ruzasi kiradi.

Bundan tashqari, prokuror huquqiy vositalari 4) ifodalanish shakliga ko'ra qonunda nazarda tutilgan: a) *harakatlar (masalan, prokuror tekshiruvi)* va b) *hujjatlarga (prokuror nazorati hujjatlari va h.k.) tasniflanadi*.

Xulosa qilib aytganda, prokuror huquqiy vositalarini tasniflash ularni yanada chuqurroq anglash, ularning turlari, har bir huquqiy vositaga xos xususiyatlarni tushunib yetish va amaliyotda ularning to'g'ri qo'llanishiga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES:

1. Безсалий О.Р. Современные проблемы правовой регламентации предостережения прокурора и его применения: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Уральский государственный университет", 2018. – С. 30-31.
2. Алексеев С.Л., Вотчель Н.Р. Прокурорский надзор: Учебное пособие / под ред. д.ю.н., профессора Ф.Н.Багаутдинова. – Казань: Информационно-технологический центр АСО, 2014. – С. 31.
3. Мариничева А.Ю. Некоторые правовые средства прокурорского надзора за законностью закупочной деятельности // «Уголовная юстиция – Russian Journal of Criminal Law», №17 / 2021. – С. 101-103.
4. Филипенко С.В. Классификация правовых средств органов прокуратуры, применяемых при надзоре за исполнением законов // Вестник Саратовской государственной юридической академии, № 3 (116) / 2017. – С. 209.
5. Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: «Билим», 1999. – 320 с.
6. Бызова М.В. Представление прокурора: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования "Уральская государственная юридическая академия", 2009. – С. 182.
7. Пригорща П.А. К вопросу и сущности требования как акта прокурорского реагирования современной Российской прокуратуры // «Бизнес в законе», №1 / 2011. – С. 84-85.
8. Пригорща П.А. Требование прокурора как средство обеспечения исполнения закона: теоретические и практические аспекты: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2011. – С. 18-20.

9. Корешникова Н.Р. Основные правовые средства прокуратуры Российской Федерации как инструмент обеспечения исполнения законов: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2010. – С. 25-32.

10. Ергашев Е.Р., Е.А.Габышева. Правовые средства прокурора: проблемы осмысления, применения и правового регулирования // Российское право: образование, практика, наука. 2018. №5 (107). – С. 40-42.

FAZILOV Farxod Maratovich

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi
kurashish sho'bası professori vazifasini bajaruvchi,
yuridik fanlar doktori (DSc)
ORCID: 0000-0001-8603-1948
E-mail: f.fazilov@tsul.uz

“SINDIRILGAN OYNALAR NAZARIYASI”NING JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK MEZONDAGI TALQINI: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): FAZILOV F.M.
“Sindirilgan oynalar nazariyasi”ning jinoyat-huquqiy va kriminologik mezondagi talqini:
O‘zbekiston Respublikasida qo‘llash istiqbollari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста
– Lawyer herald. № 3 (2026) B. 109-119.



3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-011>

ANNOTATSIYA

Maqolada “siniq oynalar” nazariyasi jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan muhim kriminologik konsepsiyalardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. J. Uilson va J. Kelling tomonidan shakllantirilgan ushbu yondashuv mayda huquqbuzarliklarga, tartibsizlik belgilariga hamda ijtimoiy dezorganizatsiya holatlariga befarq munosabat asta-sekin ruxsat etilganlik muhitini yuzaga keltirishi va shu orqali yanada xavfli jinoyatlar sodir etilishi uchun shart-sharoit yaratishi mumkin, degan g‘oyaga asoslanadi. Tadqiqot doirasida mazkur konsepsiyani qo‘llashning xorijiy modellari tahlil qilinadi, shuningdek, milliy huquqni qo‘llash amaliyoti va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ma‘lumotlarini inobatga olgan holda, uni O‘zbekiston Respublikasi sharoitida qo‘llash imkoniyatlari baholanadi. Kriminologiya va jamoat xavfsizligi sohasidagi zamonaviy institutsional islohotlarga, jumladan, jinoyatchilik profilaktikasiga oid ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot tuzilmalarining tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuraturasining rasmiy statistik hamda tahliliy materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, shahar muhitini obodonlashtirish, jamoat tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish, mayda huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash hamda ijtimoiy dezorganizatsiya omillarini bartaraf etishga qaratilgan choralar sezilarli profilaktik ta‘sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan “siniq oynalar” nazariyasini repressiv nazoratning universal modeli sifatida emas, balki O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan kompleks, manzilli va ijtimoiy yo‘naltirilgan tizimni shakllantirishning metodologik asosi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Kalit so‘zlar: kriminologiya, jinoyat huquqi, sindirilgan oynalar nazariyasi, jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy tartib, huquq tartiboti, obodonlashtirish, ko‘cha jinoyatchiligi, huquqbuzarliklar, shahar muhiti.

ФАЗИЛОВ Фарход Маратович

Исполняющий обязанности профессора сектора
Уголовное право, криминология и противодействие коррупции
Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук (DSc)
ORCID: 0000-0001-8603-1948
E-mail: f.fazilov@tsul.uz

ТЕОРИЯ «РАЗБИТЫХ ОКОН» КАК УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА: ПЕРСПЕКТИВЫ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается теория «разбитых окон» как одна из значимых криминологических концепций предупреждения преступности. Подход, сформулированный Дж. Уилсоном и Дж. Келлингом, исходит из того, что безразличие к мелким правонарушениям, признакам беспорядка и социальной дезорганизации способно постепенно формировать атмосферу вседозволенности и тем самым создавать условия для совершения более опасных преступлений. В рамках исследования анализируются зарубежные модели применения данной концепции, а также оценивается возможность ее использования в условиях Республики Узбекистан с учетом национальной правоприменительной практики и данных правоохранительных органов. Особое внимание уделяется современным институциональным реформам в сфере криминологии и общественной безопасности, включая создание специализированных научно-исследовательских структур, ориентированных на разработку научно обоснованных подходов к профилактике преступности. Анализ официальных статистических и аналитических материалов Министерства внутренних дел и Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан показывает, что меры, направленные на благоустройство городской среды, усиление контроля за соблюдением общественного порядка, раннее выявление мелких правонарушений и устранение факторов социальной дезорганизации, оказывают заметное профилактическое воздействие. В этой связи теория «разбитых окон» может рассматриваться не как универсальная модель репрессивного контроля, а как методологическая основа для формирования комплексной, адресной и социально ориентированной системы предупреждения преступности в Узбекистане.

Ключевые слова: криминология, уголовное право, теория разбитых окон, профилактика преступности, социальный порядок, правопорядок, благоустройство, уличная преступность, правонарушения, городская среда.

FARKHOD Fazilov

Acting Professor of the Sector of Criminal Law,
Criminology and Fight Against Corruption of
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science (DSc)
ORCID: 0000-0001-8603-1948
E-mail: f.fazilov@tsul.uz

THE “BROKEN WINDOWS” THEORY AS A CRIMINAL-LAW AND CRIMINOLOGICAL PARADIGM: PROSPECTS FOR ITS IMPLEMENTATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

The article examines the “broken windows” theory as one of the significant criminological concepts of crime prevention. The approach developed by J. Wilson and G. Kelling is based on the assumption that indifference to minor offences, visible signs of disorder and social disorganization may gradually create an atmosphere of permissiveness, thereby generating conditions conducive to the commission of more serious crimes. The study analyzes foreign models of applying this concept and assesses the possibility of its use in the Republic of Uzbekistan, taking into account national law enforcement practice and data provided by law enforcement agencies. Particular attention is paid to contemporary institutional reforms in the fields of criminology and public security, including the establishment of specialized research institutions aimed at developing scientifically grounded approaches to crime prevention. The analysis of official statistical and analytical materials of the Ministry of Internal Affairs and the Prosecutor General’s Office of the Republic of Uzbekistan shows that measures aimed at improving the urban environment, strengthening control over public order, ensuring the early detection of minor offences and eliminating factors of social disorganization have a noticeable preventive effect.

In this regard, the “broken windows” theory may be viewed not as a universal model of repressive control, but rather as a methodological basis for developing a comprehensive, targeted and socially oriented system of crime prevention in Uzbekistan.

Keywords: criminology, criminal law, Broken Windows Theory, crime prevention, social order, law enforcement, urban improvement, street crime, offenses, public safety, urban environment.

Jeyms Uilson va Jorj Kelling tomonidan ishlab chiqilgan “siniq oynalar” nazariyasiga ko‘ra [1], shahar muhitidagi tartibsizlikning hatto uncha ahamiyatli bo‘lmagan ko‘rinishlari ham jinoyatchilikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu yondashuvga muvofiq, vandalizm, graffiti chizish, noqonuniy savdo, tashlab ketilgan chiqindilar yoki jamoat tartibini buzish kabi mayda huquqbuzarliklar e‘tiborsiz qoldirilsa, jamiyatda jazosizlik va ijtimoiy tanazzul haqidagi tasavvur shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, yanada og‘irroq jinoyatlarni sodir etish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Mazkur fenomenni izohlovchi asosiy mexanizm huquqbuzarlar hamda oddiy fuqarolar xulq-atvorining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Odamlar ayrim huquqbuzarliklar jazolanmayotganini ko‘rganida, bu holat huquq-tartibot normalariga nisbatan yanada beparvo munosabat shakllanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ko‘chada uzoq vaqt davomida siniq oyna ta‘mirlanmay qolsa, bu ushbu hududda lozim darajadagi nazorat ta‘minlanmayotgani haqidagi signal sifatida qabul qilinishi mumkin. Demak, bunday sharoitda o‘g‘rilik yoki talonchilik kabi yangi jinoyatlarni oqibatsiz sodir etish mumkin, degan tasavvur yuzaga keladi.

Bundan tashqari, “siniq oynalar” nazariyasi xavfsizlikning subyektiv idrok etilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ham ko‘rsatadi. Tartibsizlik hukm surayotgan muhitda yashovchi

shaxslar xavotir va ishonchsizlikni his qila boshlaydilar. Bu esa ijtimoiy faollikning pasayishiga, jamoat hayotida ishtirok etishdan voz kechishga va natijada ijtimoiy hamjihatlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Bunday holat hududni jinoyatchilik oldida yanada zaiflashtiradi, chunki faol fuqarolik nazoratining yoʻqligi jinoyat harakatlarini aniqlash va ularning oldini olish ehtimolini kamaytiradi.

Empirik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, tartibsizlik alomatlarini oʻz vaqtida bartaraf etish, jumladan, koʻchalarni tozalash, shikastlangan infratuzilmani tiklash, mayda huquqbuzarliklarning oldini olish hamda politsiya ishtirokini kuchaytirish jinoyatchilik darajasini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Xususan, 1990-yillarda Nyu-York shahrida “nol darajadagi bagʻrikenglik” strategiyasining joriy etilishi huquq-tartibot ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatish va mayda huquqbuzarliklarga faol munosabat bildirish umumiy jinoyatchilik, shu jumladan ogʻir jinoyatlar darajasining kamayishiga xizmat qilganini koʻrsatdi [2].

Shunday qilib, “siniq oynalar” nazariyasi jamoat tartibini saqlash hamda shahar makoni ustidan samarali nazoratni taʼminlash jinoyatchilik profilaktikasining asosiy omillaridan biri ekanligini taʼkidlaydi. Bu esa nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini, balki mahalliy hamjamiyatlarning ishtirokini, samarali shaharsozlik rejalashtirishini hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni oʻz ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi.

“Sindirilgan oynalar” nazariyasi jinoyatchilik profilaktikasiga oid eng taʼsirchan kriminologik konsepsiyalardan biri boʻlishiga qaramay, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda u biryoqlama qoʻllab-quvvatlanmaydi. Soʻnggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, jamoat makonidagi tartibsizlik belgilarini bartaraf etish jinoyatchilik darajasiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi mumkin, biroq bu taʼsirning kuchi, yoʻnalishi va barqarorligi hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati, politsiya faoliyatining modeli, mahalliy hamjamiyatning faolligi hamda huquqni qoʻllash amaliyotining mutanosibligiga bevosita bogʻliqdir.

Xususan, Braga, Welsh va Schnell tomonidan oʻtkazilgan meta-tahlil “disorder policing” jinoyatchilikni kamaytirishda muayyan samaraga ega boʻlishi mumkinligini koʻrsatsa-da, uning eng maqbul shakli agressiv “nol darajadagi bagʻrikenglik” emas, balki muammoga yoʻnaltirilgan, jamoatchilik bilan hamkorlikka asoslangan va aniq hududiy xavflarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuv ekanligini koʻrsatadi. Shu jihatdan, “sindirilgan oynalar” nazariyasini oddiy jazolash yoki ommaviy maʼmuriy bosim modeli sifatida emas, balki ijtimoiy muhit, jamoat tartibi va informal ijtimoiy nazoratni mustahkamlashga qaratilgan kompleks kriminologik konsepsiya sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir [3].

Biroq mazkur nazariyaga nisbatan jiddiy tanqidiy yondashuvlar ham mavjud. Bernard Harcourt ushbu nazariyaning empirik asoslari yetarli darajada isbotlanmaganini, “tartib” va “tartibsizlik” tushunchalari koʻpincha subyektiv, ijtimoiy va siyosiy kontekstga bogʻliq holda talqin qilinishini taʼkidlaydi. Uning fikricha, “sindirilgan oynalar” yondashuvi notoʻgʻri qoʻllanilganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatlarining haddan tashqari kengayishiga, ijtimoiy zaif guruhlariga nisbatan selektiv nazoratga hamda fuqarolarning huquq va erkinliklariga nomutanosib aralashuvga olib kelishi mumkin [4].

Zamonaviy kriminologik tadqiqotlarda, ayniqsa 2015–2024-yillar oraligʻida, mazkur nazariya koʻproq “hot spots policing”, “problem-oriented policing”, “community policing”, “situational crime prevention” va “environmental criminology” konsepsiyalari bilan bogʻliq holda qayta talqin qilinmoqda. Bu yondashuvlar jinoyatchilikni kamaytirishda faqat tartibsizlik belgilariga javob berish emas, balki aniq hududiy xavflarni aniqlash, kriminogen omillarni tahlil qilish, mahalliy aholi bilan hamkorlikni kuchaytirish va jamoat makonini xavfsiz tashkil etish zarurligini asoslaydi. Shu sababli “sindirilgan oynalar” nazariyasi hozirgi bosqichda repressiv nazorat konsepsiyasi emas, balki hududiy profilaktika, ijtimoiy ishonch va jamoat xavfsizligini taʼminlashga xizmat qiluvchi

metodologik yondashuv sifatida baholanishi lozim.

“Siniq oynalar” nazariyasi zamonaviy kriminologiya fanida eng ko‘p muhokama qilinadigan va amaliy jihatdan bahsli konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Mazkur nazariya sotsiolog Jeyms Uilson hamda kriminolog Jorj Kelling tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ilk bor 1982-yilda “Broken Windows” nomli maqolada ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga taqdim etilgan. Nazariyaning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, mayda huquqbuzarliklar va jamoat makonidagi ko‘zga tashlanadigan tartibsizlik belgilarining e‘tiborsiz qoldirilishi jamiyatda nazoratsizlik, befarqlik va jazosizlik hissini shakllantiradi. Bunday muhit esa vaqt o‘tishi bilan yanada og‘irroq jinoyatlar sodir etilishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik sharoit yaratishi mumkin.

Ushbu nazariy yondashuvga ko‘ra, shahar muhitidagi tashqi tartib-intizom holati fuqarolarning huquqiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, siniq oynalar, devorlardagi graffiti, qarovsiz qoldirilgan chiqindilar, noqonuniy savdo yoki jamoat tartibining buzilishi kabi holatlar shaxslar ongida mazkur hududda ijtimoiy nazorat sustligi haqidagi tasavvurni yuzaga keltiradi. Natijada ayrim shaxslar huquqiy normalarni buzish xavfini past baholay boshlaydi, bu esa huquqbuzarliklarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

2008-yilda Groningen universiteti olimlari guruhi Kes Keyzer rahbarligida bir qator empirik tajribalar o‘tkazib, tartibsizlikning inson xulq-atvoriga ta’siri haqidagi ilmiy farazni amaliy jihatdan asoslashga harakat qildi. Tajribalardan birida ko‘rinib turgan tartibsizlik mavjud bo‘lgan sharoitlarda, masalan, devorlarda graffiti bo‘lgan yoki atrofdagi chiqindilar tashlab ketilgan muhitda odamlar ijtimoiy normalarni buzishga ko‘proq moyil bo‘lishi aniqlangan. Xususan, bunday sharoitlarda axlatni belgilangan joyga tashlamaslik, qarovsiz qoldirilgan buyumlarni o‘zlashtirish yoki boshqa mayda nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etish holatlari ko‘proq kuzatilgan. Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, inson xulq-atvori faqat individual axloqiy tanlov yoki huquqiy ong darajasi bilan emas, balki uni o‘rab turgan ijtimoiy va jismoniy muhit bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

“Siniq oynalar” nazariyasining amaliyotdagi eng mashhur ko‘rinishlaridan biri 1990-yillarda Nyu-York shahrida amalga oshirilgan “nol darajadagi bag‘rikenglik” siyosati bilan bog‘liq. Mazkur siyosat mer Rudolf Juliani va politsiya komissari Uilyam Bratton davrida joriy etilib, mayda huquqbuzarliklarga nisbatan qat’iy munosabat bildirishni nazarda tutgan. Jumladan, jamoat transportida yo‘l haqini to‘lamasdan yurish, jamoat joylarida spirtli ichimlik iste’mol qilish, graffiti chizish va boshqa mayda tartibbuzarliklarga qarshi keskin choralar ko‘rilgan. Ushbu yondashuv natijasida shaharda jinoyatchilik darajasining sezilarli kamaygani qayd etilgan va ayrim tadqiqotchilar buni aynan mazkur siyosatning samarasi sifatida baholagan.

Shu bilan birga, “siniq oynalar” nazariyasi ilmiy adabiyotlarda biryoqlama qabul qilinmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, 1990-yillarda Nyu-Yorkda jinoyatchilik darajasining pasayishi faqat “nol darajadagi bag‘rikenglik” siyosati bilan izohlanmasligi lozim. Bunda iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishi, demografik o‘zgarishlar, politsiya faoliyatining tashkiliy jihatdan takomillashtirilishi va boshqa omillar ham muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, mayda huquqbuzarliklarga nisbatan haddan tashqari qat’iy yondashuv politsiya vakolatlarining ortiqcha kengayishiga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga nomutanosib aralashuvga hamda ayrim ijtimoiy guruhlariga nisbatan selektiv nazorat xavfiga olib kelishi mumkinligi haqida ham tanqidiy fikrlar mavjud.

O‘zbekiston sharoitida mazkur nazariyani o‘rganish jinoyatchilik profilaktikasi, jamoat xavfsizligini ta’minlash va shahar muhitini boshqarish masalalari bilan bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda mamlakatda kriminologik tadqiqotlarga, jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlarini ilmiy asosda o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024-yil 15-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PF-10-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi.

Empirik tadqiqotlar "siniq oynalar" nazariyasining jinoyatchilik profilaktikasidagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, Braga, Uelsh va Shnell tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko'ra [5], jamoat tartibi ustidan qat'iy va tizimli nazorat o'rnatilishi jinoyatchilik darajasining o'rtacha 16 foizga kamayishiga olib kelishi mumkin. AQShda 1990-yillarda amalga oshirilgan "nol darajadagi bag'rikenglik" siyosati ham jinoyatchilik ko'rsatkichlarining sezilarli pasayishiga xizmat qilgan. Shunga o'xshash natijalar Buyuk Britaniya tajribasida ham kuzatilgan [6].

O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishda hozircha keng qamrovli maxsus kriminologik tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa-da, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hisobotlari va amaliy kuzatuvlar ayrim muhim xulosalarni ilgari surish imkonini beradi. Jumladan, obodonlashtirish, jamoat joylarida tartibni saqlash, profilaktik nazoratni kuchaytirish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faol choralar amalga oshirilgan hududlarda jinoyatchilik darajasi nisbatan past bo'lishi kuzatiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bunday hududlarda jinoyatchilik ko'rsatkichlari 10 – 15 foizga past bo'lishi mumkin.

Masalan, Toshkent shahrida 2025-yil 15-yanvardan 15-fevralga qadar "Xavfsiz va sog'lom poytaxt" oyligi doirasida o'tkazilgan tezkor-profilaktik reydlar natijasida jinoyatchilik darajasi 43 foizga kamaygani qayd etilgan [7;8]. Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda faqat jinoyat sodir etilgandan keyingi javob choralariga emas, balki huquqbuzarliklarning dastlabki belgilari, tartibsizlik omillari va kriminogen muhitni erta aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuvga ustuvor ahamiyat berish lozim.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan "siniq oynalar" nazariyasini qilmishning ijtimoiy xavfliligini kengroq talqin qilish hamda deviant xulq-atvorning dastlabki bosqichlarida jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini differensiallashtirishning konseptual asosi sifatida qayta anglash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasiga muvofiq, jinoyat deb aybli, ijtimoiy xavfli qilmish, ya'ni ushbu Kodeks bilan jazo qo'llash tahdidi ostida taqiqlangan harakat yoki harakatsizlik e'tirof etiladi. Jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan, xususan, ma'muriy huquqbuzarliklardan ajratib turuvchi asosiy mezon sifatida qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi namoyon bo'ladi.

Biroq O'zbekistonning zamonaviy huquqiy doktrinasida ijtimoiy xavflilik tobora ko'proq faqat ijtimoiy munosabatlarga yetkazilgan real zarar bilan cheklanmagan holda talqin qilinmoqda. U, shuningdek, huquqiy tartibotning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yashirin va potensial tahdidlar, xulq-atvor modellaridagi salbiy o'zgarishlar hamda ijtimoiy jarayonlarda shakllanayotgan kriminogen omillar majmui sifatida ham baholanmoqda. Shu ma'noda, "siniq oynalar" nazariyasi jinoyat huquqidagi ijtimoiy xavflilik kategoriyasini faqat sodir etilgan qilmish oqibati bilan emas, balki huquqbuzarlik muhitining shakllanishi, ijtimoiy nazoratning susayishi va jazosizlik haqidagi tasavvurning mustahkamlanishi bilan ham bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Uilson va Kelling tomonidan ilgari surilgan "siniq oynalar" nazariyasiga ko'ra, vandalizm, atrof-muhitni ifloslantirish, mayda bezorilik, noqonuniy savdo kabi jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi nisbatan mayda huquqbuzarliklarning e'tiborsiz qoldirilishi jamiyatda jazosizlik kayfiyatini shakllantiradi. Bu esa shaxslarning deviant xulq-atvordan ochiq jinoyat sodir etishga o'tishini rag'batlantiruvchi kriminogen sharoitni yuzaga keltiradi.

Jinoyat-huquqiy muhofaza obyekti nazariyasi nuqtayi nazaridan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar faqat ularning moddiy mazmuni bilan cheklanmaydi. Ular, shuningdek, huquqiy tartibotning tizimli xususiyatlarini – barqarorlik, oldindan bashorat qilinuvcchanlik, ijtimoiy ishonch hamda fuqarolarning o'zini himoyalangan his etish holatini

ham qamrab oladi. Shu ma'noda, jamoat tartibi va axloqqa qarshi jinoyatlar jinoyat-huquqiy muhofazaning o'ziga xos "ikkinchi himoya konturi" sifatida namoyon bo'ladi. Ularning asosiy vazifasi nafaqat bevosita jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi qilmishlarni jazolash, balki bilvosita ravishda og'irroq jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va kriminogen shart-sharoitlarni bartaraf etishdan ham iboratdir.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 183¹-moddasida yuqori darajadagi ijtimoiy xavflilikka ega bo'lmagan mayda bezorilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa, 173-moddada mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur normalar tashqi tomondan "ikkinchi darajali" yoki uncha og'ir bo'lmagan qilmishlarga nisbatan qo'llanadigan huquqiy vositalar sifatida ko'rinishi mumkin. Biroq "siniq oynalar" nazariyasi prizmasida ular jinoyatchilik profilaktikasining muhim boshlang'ich nuqtalari sifatida baholanadi. Chunki aynan shunday qilmishlarga o'z vaqtida huquqiy baho berish, jamoat makonida tartibsizlik va nazoratsizlik muhitining shakllanishiga yo'l qo'ymaslik, huquqiy tartibotga bo'lgan ishonchni saqlash hamda fuqarolarda jazosizlik haqidagi tasavvurning paydo bo'lishining oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston jinoyat huquqi doktrinasida "institutsional prevensiya" deb ataluvchi yondashuv ham mavjud bo'lib, u huquqiy xulq-atvorni normativ tartibga solish, huquqiy tartibotni mustahkamlash hamda ijtimoiy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini anglatadi. "Siniq oynalar" nazariyasi o'z mohiyatiga ko'ra preventiv konsepsiya bo'lganligi sababli, mazkur yondashuv doirasida ma'muriy nazorat, profilaktika inspektorlari faoliyati, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik institutlari orqali muayyan normativ asosga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti ham "siniq oynalar" nazariyasining ayrim elementlari bosqichma-bosqich implementatsiya qilinayotganini ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1-son qarori bilan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. Mazkur hujjat doirasida huquqbuzarliklarning asl omillarini aniqlash va ularni manzilli bartaraf etish, og'ir kriminogen vaziyatga ega mahallalarda joyiga chiqqan holda o'rganishlar o'tkazish, "mahalla yettiligi"ning aniq mas'uliyatini belgilash, jamoatchilik vakillarini profilaktika jarayonlariga keng jalb etish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalardan foydalanish kabi mexanizmlar nazarda tutilgan.

Ushbu yo'nalish 2026-yilda yanada rivojlantirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida manzilli ishlarning yaxlit tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarorida 2025-yildagi choralar natijasida mahallalarda jinoyatchilik darajasi qariyb 1,5 baravarga kamaygani qayd etilib, mazkur sohada yaxlit va tizimli ish mexanizmlarini joriy etish vazifasi belgilandi. Qarorga muvofiq, 2026–2027-yillarda har bir hudud kesimida xavfsiz muhitni yaratish va mahallalarda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning samarali tashkiliy-texnik tizimini shakllantirishga qaratilgan asosiy maqsadli ko'rsatkichlarni tasdiqlash, og'ir kriminogen vaziyatga ega mahallalar bo'yicha "mahalla – tuman – viloyat" darajasidagi hududiy "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, shuningdek, ularning ijrosini elektron nazorat platformasi orqali qat'iy monitoring qilish belgilandi.

Mazkur chora-tadbirlar "siniq oynalar" nazariyasi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Chunki ular huquqbuzarlik sodir etilgandan keyingi javob choralaridan ko'ra, kriminogen muhitni erta aniqlash, jamoat tartibidagi mayda buzilishlarga befarq bo'lmaslik, ijtimoiy nazoratni

kuchaytirish va fuqarolarda xavfsizlik hissini shakllantirishga qaratilgan. Shu ma'noda, mahallalarda "nol darajadagi bag'rikenglik" elementlarini institutsionalizatsiya qilish og'irroq jinoyatlarning oldini olish, huquqiy tartibotga ishonchni mustahkamlash hamda profilaktik davlat siyosatining ilmiy-amaliy asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, "siniq oynalar" nazariyasi O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi nuqtayi nazaridan jinoyat siyosatining asosiy prinsiplariga zid emas. Aksincha, u ushbu prinsiplarning yanada erta, samarali va profilaktik yo'naltirilgan tarzda qo'llanishiga xizmat qiladi. Bu yerda gap jinoyat-huquqiy repressiya chegaralarini sun'iy ravishda kengaytirish haqida emas, balki ijtimoiy dezorganizatsiyaning dastlabki shakllarini keng qamrovli kriminologik profilaktika tizimida alohida e'tibor talab qiluvchi omillar sifatida huquqiy jihatdan tan olish haqida bormoqda.

"Siniq oynalar" nazariyasining jinoyat-huquqiy jihatini yanada rivojlantirar ekanmiz, mazkur konsepsiyaning jinoyat javobgarligini differensiallashtirish hamda deviant xulq-atvorning takroriy namoyon bo'lishiga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini belgilashdagi ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyatlar retsidiviga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, JKning 34-moddasida retsidiv jinoyat tushunchasi va uning turlari belgilangan. Shuningdek, ayrim jinoyat tarkiblarida qilmishning takroran, muntazam yoki tizimli tarzda sodir etilishi uning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi muhim kvalifikatsion belgi sifatida namoyon bo'ladi.

Xususan, bezorilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining 277-moddasi, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish bilan bog'liq 173-modda, shuningdek, jamoat joylarida obodonlashtirish va sanitariya qoidalarini buzishga oid Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda unga tutash jinoyat-huquqiy normalar shuni ko'rsatadiki, huquqiy tartibotga qarshi qaratilgan mayda, biroq takrorlanuvchi xatti-harakatlar davlat tomonidan e'tiborsiz qoldirilmasligi lozim. Mazkur normalar "siniq oynalar" nazariyasining ichki mantiqi bilan uzviy bog'liqdir, chunki barqaror tus olgan mayda huquqbuzarliklar, ayniqsa, boshqa shaxslarni ham o'z orbitasiga jalb etgan taqdirda, kuchaytirilgan kriminogen ta'sirni yuzaga keltiradi.

2024-yilda O'zbekistonda jinoyatchilik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada o'sgani kuzatildi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, yanvar – dekabr oylarida mamlakat bo'yicha jami 132 298 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lib, bu 2023-yil ko'rsatkichiga nisbatan 27,1 foizga yuqoridir. Shuningdek, mazkur ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan ham 19,1 foizga ko'p ekanligi qayd etiladi. Aholining har 10 ming nafariga to'g'ri keladigan jinoyatlar soni 35,6 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 28,3 tani tashkil etgan.

Mazkur statistik holat jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat sodir etilgan jinoyatlarga javob berish bilan cheklanmasdan, kriminogen muhitni shakllantiruvchi omillarni erta aniqlash va bartaraf etish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, "siniq oynalar" nazariyasi O'zbekiston sharoitida jamoat tartibi, shahar muhiti, obodonlashtirish, yoritish, sanitariya holati va huquq-tartibot ustidan kundalik nazoratning jinoyatchilik dinamikasiga ta'sirini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, shahar muhitini yaxshilash, jamoat joylarida tartibni kuchaytirish va huquq-tartibot ustidan nazoratni oshirish choralari joriy etilgan hududlarda jinoyatchilik darajasi 12 foizga kamaygan [7]. Bu holat mayda huquqbuzarliklar, tartibsizlik belgilari va nazoratsiz qolgan jamoat makonlari keyinchalik og'irroq jinoyatlar uchun kriminogen zamin yaratishi mumkinligi haqidagi nazariy yondashuvni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Xorijiy tajriba ham mazkur xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Jumladan, Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahrida ko'cha yoritish tizimining uzilishi yoki yetarli darajada ishlamasligi jinoyatchilikning o'sishiga, ayniqsa, yomon yoritilgan hududlarda huquqbuzarliklar sonining ortishiga ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan [8]. Bu misol shuni ko'rsatadiki, jismoniy muhitning xavfsizlikka oid elementlari –

xususan, ko'cha yoritilishi, ochiq jamoat joylarining nazorat qilinishi, infratuzilmaning soz holatda saqlanishi – jinoyatchilik profilaktikasida mustaqil kriminologik ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida "siniq oynalar" nazariyasining samarali qo'llanishi, avvalo, mahalla darajasida xavfsiz muhitni shakllantirish, obodonlashtirish ishlarini kuchaytirish, shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, jamoat joylarida tartibni saqlash hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini profilaktik yo'nalishda takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda patrul-post xizmati faoliyatini kuchaytirish, profilaktika inspektorlarining mahallalar bilan bevosita hamkorligini rivojlantirish, xavfli hududlarni doimiy monitoring qilish va kriminogen vaziyatni tahlil qilish muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar, intellektual videokuzatuv tizimlari va kriminogen vaziyatni analitik baholash vositalarining joriy etilishi "siniq oynalar" nazariyasining amaliy samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday texnologiyalar nafaqat sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlash, balki ularning oldini olish, xavfli hududlarni barvaqt belgilash va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor munosabat bildirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xususan, "Soy bo'yi" va "Mirzo Bobur" mahallalarida videokuzatuv tizimlarining joriy etilishi obodonlashtirish qoidalariga rioya etmaslik bilan bog'liq huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash va ularning oldini olish imkonini bergani qayd etiladi [11]. Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, mahalla darajasida texnologik nazorat, profilaktik tushuntirish ishlari va fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish o'zaro uyg'unlashgan taqdirda, jamoat xavfsizligini ta'minlashda sezilarli ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Shu bilan birga, ushbu yondashuvni qo'llashda inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi va davlat nazoratining mutanosibligi kabi masalalar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Videokuzatuv va raqamli monitoring vositalari jinoyatchilik profilaktikasida samarali instrument bo'lishi mumkin, biroq ularning qo'llanishi qonuniylik, shaffoflik, maqsadga muvofiqlik va mutanosiblik prinsiplariga asoslanishi zarur. Aks holda, "siniq oynalar" nazariyasining preventiv mohiyati haddan tashqari nazorat va repressiv amaliyot bilan almashib ketish xavfi mavjud.

Demak, O'zbekiston sharoitida "siniq oynalar" nazariyasining amaliy ahamiyati shundaki, u jinoyatchilikka qarshi kurashni faqat jazolash mexanizmlari orqali emas, balki shahar muhitini sog'lomlashtirish, mahalla institutlarini faollashtirish, fuqarolik nazoratini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini ilmiy asoslangan profilaktika modeliga yo'naltirish orqali tashkil etishni nazarda tutadi.

2025-yildan boshlab Toshkent shahri mahallalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1-son qarori ijrosi doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, ilmiy-akademik doira mutaxassislari va mahalla faollari ishtirokida kriminogen vaziyatni o'rganishga qaratilgan uchrashuvlar, profilaktik muloqotlar va amaliy tahlillar o'tkazilmoqda [12].

Mazkur yo'nalish 2026-yilda yanada tizimli tus oldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida manzilli ishlarning yaxlit tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash, jinoyatchilik darajasini keskin kamaytirish, manzilli profilaktik choralar tizimini samarali joriy etish hamda ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi [13].

2025 va 2026-yillardagi PQ-1-son qarorlar mahallalarda "nol darajadagi bag'rikenglik" elementlarini repressiv choralar shaklida emas, balki ilmiy asoslangan, manzilli va kompleks kriminologik profilaktika modeli sifatida institutsionallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston uchun "sindirilgan oynalar" nazariyasining eng maqbul talqini – bu repressiv "zero tolerance" emas, balki "ijtimoiy yo'naltirilgan barvaqt profilaktika" modelidir. Ushbu model huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashda davlat organlari, mahalla, fuqarolik jamiyati, ta'lim muassasalari va aholining o'zaro hamkorligiga tayanadi. Bunday yondashuv milliy qonunchilik, mahalla instituti va zamonaviy kriminologik talablar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Maqolada tahlil qilingan nazariy va normativ-huquqiy yondashuvlar O'zbekiston sharoitida "sindirilgan oynalar" nazariyasini qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi. Biroq mazkur konsepsiyaning milliy amaliyotdagi real samaradorligini aniqlash uchun yanada chuqurroq empirik tadqiqotlar zarur. Xususan, hududlar kesimida jinoyatchilik dinamikasi, ma'muriy huquqbuzarliklar soni, obodonlashtirish holati, ko'cha yoritilishi, videokuzatuv tizimlari qamrovi, profilaktika inspektorlarining faolligi va mahalla institutlarining ishtiroki o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bunday tadqiqotlar Toshkent shahri, viloyat markazlari va qishloq hududlari kesimida qiyosiy tarzda olib borilishi mumkin. Masalan, jinoyatchilik darajasi yuqori va past bo'lgan mahallalar o'rtasida obodonlashtirish, jamoat tartibi, aholining xavfsizlik hissi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonch darajasi hamda ijtimoiy faollik ko'rsatkichlarini solishtirish orqali "sindirilgan oynalar" nazariyasining O'zbekiston sharoitidagi amaliy qiymatini aniqroq baholash mumkin bo'ladi.

Shuningdek, respondentlar o'rtasida sotsiologik so'rovlar o'tkazish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday so'rovlar aholining o'z mahallasidagi xavfsizlik holatini qanday baholashi, qaysi omillar ularda xavotir uyg'otishi, mayda huquqbuzarliklarga befarqlik jinoyatchilikka nisbatan munosabatga qanday ta'sir qilishi va mahalla institutining profilaktik roli haqidagi tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Natijada nazariya faqat umumiy ilmiy konsepsiya sifatida emas, balki aniq hududiy, ijtimoiy va huquqiy ko'rsatkichlar asosida baholanishi mumkin.

"Siniq oynalar" nazariyasi jinoyatchilikni kamaytirish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida muhim kriminologik ahamiyatga ega konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro tadqiqotlar natijalari, shuningdek, O'zbekiston huquqni muhofaza qiluvchi organlarining tahliliy ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, jamoat joylarida tartibni saqlash, ijtimoiy dezorganizatsiya belgilarini o'z vaqtida bartaraf etish, mayda huquqbuzarliklarga befarq bo'lmaslik hamda huquq-tartibot ustidan tizimli nazoratni kuchaytirish jinoyatchilik darajasining pasayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur nazariyaning turli yurisdiksiyalarda qo'llanishi shuni tasdiqlaydiki, jinoyatchilikka qarshi kurash faqat jinoyat sodir etilganidan keyingi jazolash mexanizmlari bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, samarali kriminologik profilaktika huquqbuzarliklarning dastlabki belgilari, jamoat makonidagi tartibsizlik, fuqarolarda xavfsizlik hissining susayishi va ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi kabi omillarni erta aniqlash hamda bartaraf etishga asoslanishi zarur. Shu ma'noda, "siniq oynalar" nazariyasi jinoyatchilik sabablarini shaxsning individual xulq-atvori bilangina emas, balki uni o'rab turgan ijtimoiy, institutsional va urbanistik muhit bilan uzviy bog'liq holda tushuntirish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu konsepsiyani qo'llash, avvalo, mahalla institutining imkoniyatlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning profilaktik faoliyati, jamoatchilik nazorati, shahar muhitini obodonlashtirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirish, kriminogen vaziyatni manzilli tahlil qilish, intellektual videokuzatuv tizimlarini joriy etish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish jinoyatchilik profilaktikasining zamonaviy yo'nalishlari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida O'zbekistonning alohida hududlarida muayyan profilaktik choralar jinoyatchilik dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini chuqur empirik tahlil qilish zarur. Bu, xususan, shahar muhitini obodonlashtirish, ko'cha yoritilishi, politsiya ishtiroki darajasi, mahalla faollarining profilaktik jarayonlardagi roli, intellektual kuzatuv tizimlarining joriy etilishi va jinoyatchilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishni talab etadi.

Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda huquqbuzarliklar profilaktikasining ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish "siniq oynalar" nazariyasini O'zbekiston huquq-tartibot tizimining amaliy ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Bunda asosiy e'tibor repressiv choralarni kengaytirishga emas, balki jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlarini erta bosqichda aniqlash, kriminogen muhitni sog'lomlashtirish, fuqarolarda huquqiy mas'uliyat va xavfsizlik hissini mustahkamlash hamda davlat organlari, mahalla va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilishi lozim.

Shunday qilib, "siniq oynalar" nazariyasi O'zbekiston uchun nafaqat nazariy kriminologik model, balki jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni barvaqt oldini olish va huquqiy tartibot barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi amaliy konseptual asos sifatida baholanishi mumkin.

IQTIBOSLAR/ЧОККИ/ REFERENCES:

1. Wilson, J. Q., & Kelling, G. L. (1982). Broken Windows. *The Atlantic Monthly*, 249(3), 29-38. <https://www.theatlantic.com/magazine/archive/1982/03/broken-windows/304465/>
2. Bratton, W., & Kelling, G. (1998). Fixing Broken Windows: Restoring Order and Reducing Crime in Our Communities. Simon and Schuster. <https://archive.org/details/fixingbrokenwind000kell>
3. Braga, A. A., Welsh, B. C., & Schnell, C. (2024). Disorder policing to reduce crime: An updated systematic review and meta-analysis. *Criminology & Public Policy*. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/1745-9133.12667>
4. Harcourt, B. E. (1998). Reflecting on the Subject: A Critique of the Social Influence Conception of Deterrence, the Broken Windows Theory, and Order-Maintenance Policing New York Style. *Michigan Law Review*, 97, 291. <https://repository.law.umich.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=3724&context=mlr>
5. Braga, A. A., Welsh, B. C., & Schnell, C. (2015). Can policing disorder reduce crime? A systematic review and meta-analysis. *Journal of Research in Crime and Delinquency*, 52(4), 567-588. https://petermoskos.com/files/BW/Braga_2015_policing_disorder_reduces_crime.pdf
6. Sampson, R. J., & Raudenbush, S. W. (1999). Systematic Social Observation of Public Spaces: A New Look at Disorder in Urban Neighborhoods. *American Journal of Sociology*, 105(3), 603-651. <https://www.journals.uchicago.edu/doi/epdf/10.1086/210356>
7. Уровень преступности в Узбекистане за 2024 год вырос на 25,8%, за пять лет — в 2 раза. <https://www.gazeta.uz/ru/2025/03/03/crime-stats-uzbekistan-2024/>
8. Ichki ishlar bosh boshqarmasi rahbariyatining navbatdagi qabuli Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi ma'muriy binosida o'tkazildi <https://iibb.uz/public/uz/news/%C2%ABhavfsiz-va-solom-po'ltah>
9. Уровень преступности в Узбекистане за 2024 год вырос на 25,8%, за пять лет — в 2 раза. <https://www.gazeta.uz/ru/2025/03/03/crime-stats-uzbekistan-2024/>
10. Преступность растёт. В МВД раскритиковали идею об отключении уличного освещения https://24.kg/obschestvo/210833_prestupnost_rastet_vnbpmvd_raskritikovali_ideyu_obnbspotklyuchenii_ulichnogo_osvescheniya
11. В Ферганской области за гражданами начали «следить» на улицах <https://upl.uz/obschestvo/43974-news.html>
12. Безопасная среда в махаллях Ташкента: изучается исполнение постановления Президента <https://gov.uz/ru/iiv/news/view/35328>
13. Fazilov, F.M., Abulxayrov, R.I. Toshkent shahar Yashnobod tumanida uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning barvaqt oldini olish bo'yicha hudud metodikasi [Matn]: ilmiy-amaliy metodika / Fazilov F. – T.: TDYUU nashriyoti, 2026. – 96 b.

SUVANKULOV Mexmonali Ismoilovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Yuridik fanlar kafedrası boshlig'i, yuridik fanlar nomzodi, professor
E-mail: mexmonalisuvankulov@gmail.com

ICHKI ISHLAR TERGOV BO'LINMALARINING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI BILAN HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SUVANKULOV M.I.
Ichki ishlar tergov bo'linmalarining o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligini
takomillashtirish masalalari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald.
№ 3 (2026) B. 120-126.



3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-012>

ANNOTATSIYA

Maqolada ichki ishlar organlari tergov bo'linmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Jinoyatchilikka qarshi kurashish, tergov samaradorligini oshirish hamda jamoatchilik ishtirokini ta'minlashda mahalla organlarining o'rni yoritilgan.

Muallif Jinoyat-protsessual kodeksi hamda sohaviy qonunlar asosida surishtiruvchi va tergovchilarning fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan chaqiruv qog'ozlarini yetkazish, tintuv va olib qo'yish, mol-mulkni xatlash, "jamoat kafilligi"ni qo'llash va jinoyat sabablarini bartaraf etish kabi jarayonlardagi hamkorligini tahlil qilgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda – JPK deb yuritiladi) doirasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillarining protsessual maqomiga birinchi marta tizimli tahlil o'tkazilgan, tergov bo'linmalari bilan hamkorlikning olti yo'nalishida huquqiy bo'shliqlar aniqlanib, JPK 97, 139, 160 va 252-moddalariga kiritilishi lozim bo'lgan aniq o'zgartirish va qo'shimchalar taklif etilgan hamda qiyosiy-huquqiy tahlil metodologiyasini qo'llagan holda Germaniya, Yaponiya va Rossiya Federatsiyasi amaliyoti o'rganilgan.

Maqolada amaldagi qonunchilikda mazkur hamkorlikning ayrim jihatlari to'liq va aniq tartibga solinmagani, bu esa huquqni qo'llash amaliyotida muammolar keltirib chiqarayotgani qayd etilgan. Xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyotidagi ilg'or yondashuvlar tahlil qilinib, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlari asoslangan. Ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tergov, ichki ishlar organlari, mahalla, fuqarolar yig'ini, jinoyat protsessi, hamkorlik, huquqiy asoslar, protsessual faoliyat.

СУВАНКУЛОВ Мехмонали Исмоилович

Начальник кафедры юридических наук, Институт повышения
квалификации МВД Республики Узбекистан,
кандидат юридических наук, профессор
E-mail: mexmonalisuvankulov@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ СЛЕДСТВЕННЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ С ОРГАНАМИ САМОУПРАВЛЕНИЯ ГРАЖДАН

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются правовые основы и вопросы совершенствования взаимодействия следственных подразделений органов внутренних дел с органами самоуправления граждан. Освещается роль института махалли в борьбе с преступностью, повышении эффективности расследования и обеспечении участия общественности.

В настоящей статье впервые в рамках уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан проведён системный анализ процессуального статуса представителей органов самоуправления граждан, по шести направлениям взаимодействия со следственными подразделениями выявлены правовые пробелы и сформулированы конкретные предложения о внесении изменений и дополнений в статьи 97, 139, 160 и 252 УПК, на основе применения сравнительно-правовой методологии изучена практика Германии, Японии и Российской Федерации, а также рассмотрены возможности её имплементации в национальное законодательство.

На основе УПК и отраслевых законов рассматривается сотрудничество следователей с органами самоуправления граждан при вручении повесток, обысках, наложении ареста на имущество, применении меры пресечения в виде «общественного поручительства», а также при устранении причин совершения преступлений. Разработаны научно-практические рекомендации, направленные на укрепление правовых основ данного взаимодействия.

Ключевые слова: следствие, органы внутренних дел, махалля, органы самоуправления граждан, уголовный процесс, взаимодействие, правовые основы, процессуальная деятельность.

MEKHMONALI Suvankulov

Head of the Department of Legal Sciences,
Institute of Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs,
Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences, Professor
E-mail: mexmonalisuvankulov@gmail.com

ISSUES OF IMPROVING COOPERATION BETWEEN INVESTIGATION UNITS OF INTERNAL AFFAIRS BODIES AND CITIZENS' SELF-GOVERNMENT BODIES

ANNOTATION

The article analyzes the legal framework and issues related to improving cooperation between investigative units of internal affairs bodies and citizens' self-government bodies. It highlights the role of mahalla committees in combating crime, enhancing investigative efficiency, and ensuring public participation.

Drawing on the Criminal Procedure Code and related sectoral legislation, the author analyzes the interaction between inquiry officers and investigators and citizens' self-government bodies in procedural

actions such as serving summonses, conducting searches and seizures, seizing property, applying for "community-sponsored bail" and eliminating the causes and conditions that contributed to the commission of a crime.

The article presents the first systematic analysis of the procedural status of representatives from citizens' self-government bodies under the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan (hereinafter, the CPC). It identifies legal gaps in six areas of cooperation with investigative units and proposes specific amendments and additions to Articles 97, 139, 160, and 252 of the CPC. Additionally, the practices of Germany, Japan, and the Russian Federation are examined using a comparative legal analysis methodology.

The article notes that certain aspects of this cooperation are not fully and clearly regulated by current legislation, which creates problems in law enforcement practice. It analyzes advanced approaches in the legislation and practice of foreign countries and substantiates the feasibility of their implementation into national law. Scientific and practical recommendations are also developed.

Keywords: investigation, internal affairs bodies, mahalla, citizens' self-governance bodies, criminal procedure, cooperation, legal framework, procedural activity.

Mamlakatimizda huquq-tartibotni ta'minlash hamda tergov faoliyati samaradorligini oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasiga ko'ra, davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi [1]. Ushbu nazariyaga tayanib aytish mumkinki, tergov bo'linmalari va mahalla hamkorligi aynan huquq-tartibot xizmatlarini davlat va jamiyat o'rtasida birgalikda ta'minlashning muhim huquqiy ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda to'liq va tizimli tartibga solinmagan [2]. Ayrim protsessual harakatlarda mahalla organlarining ishtiroki nazarda tutilgan bo'lsa-da, ularning huquqiy maqomi, vakolatlari va majburiyatlari yetarlicha aniqlashtirilmagan. Bu holat tergov harakatlarining samaradorligi, protsessual kafolatlar tizimi hamda jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ichki ishlar organlari tergov bo'linmalari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlikning nazariy-huquqiy va tashkiliy jihatlarini milliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Biroq ushbu sohada ilmiy yondashuvlar o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular maqolamizning markaziy munozara nuqtasini tashkil etadi [3].

O'zbek olimlari, jumladan D.Mirazov jinoyat-protsessual faoliyatda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash sudlovning demokratik tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishini ta'kidlaydi va mahalla organlarini bunday ishtirokni ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida ko'rib chiqadi [8]. A.X. Saidov esa mahalla institutini davlat va jamiyat o'rtasidagi muhim ijtimoiy-huquqiy ko'priki sifatida baholab, uning fuqarolik jamiyati shakllanishidagi o'rnini alohida qayd etadi [9]. Agar o'zbek olimlari ushbu qamrovni maksimalashtirishni yoqlasa, rossiyalik olimlar L.V. Golovko [10], A.V. Smirnov va K.B. Kalinovskiylar [11] jamoatchilik ishtirokining ahamiyatini e'tirof etgan holda, uning aniq huquqiy chegaralari belgilanishi lozimligini qayd etadilar, ya'ni ularning fikricha, jamoatchilik institutlarining protsessual faoliyatga ortiqcha jalb etilishi tergov mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur ehtiyot-tadbirli pozitsiyasi asosan adversarial (tomon) tizimiga asoslangan sud-huquq tizimlariga nisbatan to'g'ri bo'lib, inkvizitorlik tamoyillari saqlanib qolgan hamda mahalla kabi mustahkam ijtimoiy institutlarga tayanadigan O'zbekiston tizimiga to'liq qo'llanilmaydi. Shunday bo'lsa-da, rus olimlarining aniq huquqiy cheklovlar o'rnatish zarurati haqidagi xulosalari milliy kontekstda ham e'tiborga sazovor: muallifimiz ularning ehtiyotkorlik pozitsiyasini inkor etmaydi, aksincha uni sintez qiladi, ya'ni fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari ishtiroki nafaqat ruxsat etilishi, balki qonunda aniq tartibga solinishi lozim.

Xalqaro adabiyotda R.Trojanowicz va B.Bukueroning jamoatchilik politsiyachiligi konsepsiyasi [12] hamda SIGMA/OECD hujjatlari politsiya jamiyat hamkorligini muayyan sharoitlarda tergov samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuvlar milliy an'analar hisobga olingan holda adaptatsiya qilinishi zarurligini ta'kidlaydi, bu esa o'zbek mahallasining o'ziga xos tabiatini qonunchilik darajasida aks ettirish zarurligini yanada mustahkamlaydi.

Ta'kidlash joizki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning xorijiy modellari tahlili uchta asosiy yondashuv bo'yicha o'tkazildi: qonunchilik asos, hamkorlik mexanizmlari va protsessual maqomning aniqqligi.

Shimoliy Reyn-Vestfaliya yerlagi Politsiya to'g'risidagi qonunning (Polizeigesetz NRW, 2003-yil) 1-moddasi politsiya bilan munitsipalitetlar o'rtasida Sicherheitspartnerschaften – bu xavfsizlik sheriklik shartnomalarini tuzish mexanizmini belgilaydi [13]. Bu shartnomalar doirasida mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari vakillari aniq funksional vakolatlar bilan tergov-preventiv hamkorlikka jalb etiladi: ular chaqiruv qog'ozlarini yetkazishda yordam beradi, tergov harakatlarida “uchinchi taraf guvoh” sifatida ishtirok etadi. “Bürgerpolizist” (mahalla politsiyachisi) instituti qonun doirasida mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari va fuqarolar yig'inlari bilan muntazam aloqa olib boradi. Germaniya modelining O'zbekiston uchun eng qimmatli tomoni – bu protsessual hujjatlarda mahalliy o'zini o'zi boshqarish vakillari ishtirokining yozma tartibga solinishi va ularning huquq va majburiyatlarining qonunchilikda aniq belgilanishidir.

Yaponiyaning mahalliy politsiya tizimida “Koban” institutining o'rni Politsiya to'g'risidagi qonunning (Keisatsu-hou, 1954-yil) 36-moddasi bilan tartibga solingan [14]. Koban inspektorlari mahalliy fuqarolar uyushmasi (Jichikai) va mahalliy xavfsizlik qo'mitalari bilan “Renraku-kai” – bu rasmiy aloqa yig'ilishlari o'tkazadi. Ushbu yig'ilishlar bayonnomaga kiritiladi va taraflarning protsessual majburiyatlari aniq belgilanadi. Ayniqsa e'tiborli jihati shundan iboratki, yapon modelida jamoatchilik vakillari chaqiruv qog'ozini yetkazishga majbur emas, lekin yetkazib berolmaganlik to'g'risida zudlik bilan xabardor qilish majburiyati qonunda mustahkamlangan. Mazkur yondashuv bevosita O'zbekiston JPKning 97-moddasiga kiritilishi taklif etilayotgan normaga mos keladi.

2016-yil 23-iyundagi 182-FZ-son “Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi asoslari to'g'risida”gi Federal Qonunning 17-moddasi mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining jinoyat profilaktikasidagi ishtirok shakllarini aniq belgilaydi [15]. “Politsiya to'g'risida”gi Federal Qonunning 10-moddasi esa ichki ishlar organlarining jamoat birlashmalari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini normativ jihatdan tartibga soladi. Rus qonunchiligida mahalliy o'z-o'zini boshqarish vakillari tergov harakatlarida ishtirok etgan holda protsessual maqom emas, lekin “jamoat kuzatuvchisi” sifatida aniq huquqlarga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv Golovko va Smirnov-Kalinovsky e'tiroz bildirayotgan tergov mustaqilligi masalasini hal qilishning ishonchli yo'li sifatida ko'rinadi.

Yuqorida tahlil qilingan uchala modelning umumiy tomoni quyidagidan iboratki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari tergov-protsessual faoliyatga qonunchilik darajasida aniq tartibga solingan huquq va majburiyatlar asosida jalb etiladi. Birorta ham davlat bu masalani aniqlashtirilmagan “amaliyot” darajasida qoldirmagan. Mazkur xorijiy tajribani implementatsiya qilish masalasida shuni qayd etish lozimki, Germaniya modelidan hamkorlikning shartnomaviy shakli, Yaponiyadan yetkazib berolmaslik haqida xabardor qilish majburiyati, Rossiyadan esa – jinoyat profilaktikasida ishtirokning alohida qonunchilik darajasidagi tartibga solinishi O'zbekiston qonunchiligiga adaptatsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir degan xulosaga kelamiz.

Ushbu maqolada ko'rib chiqilayotgan masalaning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, jamoatchilik ishtirokini maksimallashtirish tarafdorlari bo'lgan milliy olimlar va tergov mustaqilligini himoya qiluvchi xorijiy ekspertlar o'rtasidagi nazariy ziddiyatga yechim

topildi. Mahalla institutining o'ziga xosligi uni tergovdan chetlashtirishni emas, balki har bir ishtirok bosqichida qat'iy protsessual maqom (status) o'rnatishni talab etishi ilmiy asoslandi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi JPK normalari doirasida tergov va mahalla hamkorligining aynan 7 ta yo'nalishi (jamoatchilik nazorati, chaqiruv qog'ozlari, tintuv/olib qo'yish, kafillik, mulkni xatlash, mulkni saqlash, profilaktika) bo'yicha protsessual noaniqliklar birinchi marta tizimli tavsiflandi.

Uchinchidan, Yaponiya (Koban-Jichikai), Germaniya (Sicherheitspartnerschaften) va Rossiya tizimlarining eng ishlaydigan normalarini O'zbekiston JPK normalariga singdirish tartibi ishlab chiqildi.

Tergov departamenti va uning hududiy bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) [2], "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi [3] hamda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi [4] qonunlar asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiladi. JPKning 349-moddasiga muvofiq surishtiruvchi va tergovchilar jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish maqsadida jamoatchilikni jalb qilish huquqiga ega.

Birinchi yo'nalish – bu jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash. JPKning 21-moddasiga muvofiq surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatlarni fosh etish, aybdor shaxslarni aniqlash, shuningdek jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish jarayonida jamoatchilik yordamidan foydalanishga haqlidir. Shu doirada fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari jamoat ayblovcisi yoki jamoat himoyachisi sifatida ishtirok etishi mumkin. Mazkur qoida tergov va sud jarayonlarining ochiqligi hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish esa chaqiruv qog'ozlarini yetkazishdagi hamkorlik. JPKning 97-moddasiga ko'ra, chaqiriluvchi shaxs yashash manzilida bo'lmagan holda, voyaga yetgan oila a'zosi ham topilmagan taqdirda chaqiruv qog'ozini fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakiliga topshiriladi va tilxat olinadi. Biroq mazkur normada vakil chaqiruv qog'ozini o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra topshira olmagan taqdirda amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar aniq tartibga solinmagan. Xorijiy tajriba, xususan, Yaponiya koban modelida yetkazib berolmaslik haqida zudlik bilan xabardor qilish majburiyatining qonunchilikda mustahkamlanganligi va ushbu bo'shliqni bartaraf etishning ishonchli yo'lini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan, JPKning 97-moddasi 3-qismiga alohida xatboshi sifatida quyidagi normani kiritish taklif etiladi: "agar chaqiruv qog'ozini yetkazib berish majburiyatini olgan shaxs uni topshirish imkoniga ega bo'lmasa, bu haqda surishtiruvchi yoki tergovchini zudlik bilan xabardor qilishi shart".

Mazkur qo'shimcha bir tomondan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakilining majburiyatlarini aniqlashtirsa, ikkinchi tomondan majburiy keltirish chorasining asossiz qo'llanilishini oldini oladi.

Uchinchi yo'nalish – bu tintuv va olib qo'yish tergov harakatlarida ishtirok. JPKning 160-moddasi 2-qismiga ko'ra, uy egasi yoki uning voyaga yetgan oila a'zolari ishtirok eta olmaganida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakili taklif etiladi. 160-moddaning 3-qismida ishtirok etuvchi shaxslarga huquqlarini tushuntirish majburiyati belgilangan, ammo ushbu normada fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari alohida ko'rsatilmagan. Bu protsessual maqomning noaniqligi, ularning arz qilish huquqidan xabardor qilinmasligi yoki taklif etishga majburlash to'g'risida turli talqinlarga zamin yaratadi.

Ushbu bo'shliqni bartaraf etish maqsadida JPKning 160-moddasi 3-qismida "korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va harbiy qismlarning vakillariga" iborasidan so'ng "hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillariga" qo'shimchasini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Germaniya modelidagi protsessual hujjatlarda mahalliy o'z-o'zini boshqarish vakillari ishtirokini alohida qayd etish amaliyoti ushbu yondashuvning asosiligi uchun dalil bo'la oladi.

To'rtinchi yo'nalish esa "jamoat kafilligi" ehtiyot chorasini qo'llash. JPKning 252-moddasiga ko'ra jamoat birlashmasi yoki jamoa ayblanuvchi tariqasida ishtirok etayotgan shaxsni kafillikka olish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega. Ushbu normada qo'llanilgan "jamoat" tushunchasi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini ham qamrab oluvchi norma sifatida talqin qilinishi mumkin. Amalda mahalla yettiligi a'zolari gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining oilaviy va ijtimoiy ahvolidan xabardor bo'lgan holda qamoqqa olish ehtiyot chorasini oldini olish maqsadida murojaat qilish huquqidan foydalanadi. Shuningdek, mazkur normada fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakili yozma majburiyat topshirish tartibida kafillik beriladi; ayblanuvchi yashash joyini o'zgartirgan hollarda bu haqda darhol xabardor qilish va kerak bo'lsa, kafillikdan voz kechish huquqi ham belgilangan.

Beshinchi yo'nalish – bu mol-mulkni xatlash. JPKning 292-moddasiga asosan mol-mulkni xatlash jarayonida uyda tegishli shaxslar yoki ularning voyaga yetgan oila a'zolari ishtirok etmagan hollarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakili jalb etiladi. Mol-mulk xatlangani to'g'risidagi bayonnoma nusxasi ushbu vakilga topshiriladi. Bu holat protsessual harakatlar shaffofligi va qonuniyligini ta'minlashda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rnini mustahkamlaydi.

Oldinchi yo'nalish – bu xatlangan mol-mulkni saqlash. JPKning 294-moddasiga muvofiq mulkdor yoki uning voyaga yetgan oila a'zolari topilmagan taqdirda xatlangan mol-mulk saqlash uchun fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakiliga topshiriladi. Vakillar mol-mulkni o'zlashtirish, yashirish yoki nobud qilishga yo'l qo'ygan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi; bu qoidalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 132-son Qarori [7] bilan tasdiqlangan Nizomda ham mustahkamlangan.

Yettinchi yo'nalish – bu jinoyat sabablari va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan taqdirnomalar ijrosi. JPKning 297-moddasiga muvofiq surishtiruvchi va tergovchi jinoyat ishi davomida aniqlangan jinoyat sabablari yuzasidan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga taqdirnoma kiritish vakolatiga ega. Vazirlar Mahkamasining 565-son qaroriga muvofiq [8], jinoyatning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari mahalla darajasida muhokama qilinib, profilaktik chora-tadbirlar belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun [5] umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktika choralari belgilaydi, biroq amaliyotda tergov bo'linmalari va mahalla o'rtasidagi ushbu hamkorlik yetarli tizimlilik darajasiga ega emas.

Bundan tashqari, amaliyot tahlili ko'rsatishicha, surishtiruvchi va tergovchilarning gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi haqida tavsifnoma olish, yarashuv ishlarini tashkil etish, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish kabi jarayonlarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi mavjud, ammo bu munosabatlar ham JPKda to'liq normativ tartibga solinmagan. Xususan, JPKning 139-moddasi 2-qismida fuqaroning uyi yoki xizmat joyini ko'zdan kechirish uy egasi yoki korxona vakili ishtirokida o'tkazilishi belgilangan, lekin ular yo'q bo'lganda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakilini jalb etish mexanizmi aniq ko'rsatilmagan. Mol-mulkni xatlash uchun bunday mexanizm 292-moddada nazarda tutilganligi bilan farqlanadi. Shu boisdan JPKning 139-moddasi 2-qismiga ham mos qo'shimcha va o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiqdir.

O'tkazilgan tahlil va adabiyotlar munozarasi shuni ko'rsatadiki, MDH huquqshunoslik maktabi vakillari, shuningdek, G'arb ma'muriy-huquq olimlari o'zining "jamoatchilik politsiyasi" (community policing) konsepsiyasida jamoatchilik ishtirokining ortiqcha bo'lishi yoki protsessual chegaralarining noaniqligi tergov xolisligi va mustaqilligiga jiddiy putur yetkazishini ta'kidlashsa, ushbu maqolada biz yuqoridagi ikki qutb o'rtasidagi polemikaga kirishgan holda muqobil pozitsiyani ilgari suramiz, ya'ni mahalla organlarining tergovdagi ishtiroki rad etilmaydi (chunki bu milliy huquqiy an'anamizning uzviy qismi), biroq demokratik ishtirok tamoyilini amalda ro'yobga

chiqarish uchun fuqarolar yig'ini vakillari jarayonda shunchaki kuzatuvchi emas, balki huquq va majburiyatlari aniq belgilangan maxsus protsessual subyektlar sifatida JPKda qat'iy e'tirof etilishi shart.

Yuqorida bayon etilgan tahlil asosida quyidagi aniq o'zgartirish va qo'shimchalar taklif etiladi:

1. JPKning 97-moddasi 3-qismiga (Yapon tajribasi asosida): "Agar chaqiruv qog'ozini yetkazib berish majburiyatini olgan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakili uni topshirish imkoniga ega bo'lmasa, bu haqda surishtiruvchi yoki tergovchini zudlik bilan xabardor qilishi shart" degan norma kiritilishi;

2. JPKning 160-moddasi 3-qismiga (Germaniya tajribasi asosida): Guvohlar va xolislar ro'yxatini aniqlashtirish maqsadida "korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va harbiy qismlarning vakillariga" iborasidan so'ng "hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillariga" qo'shimchasining kiritilishi;

3. JPKning 139-moddasi 2-qismiga va 252-moddasiga: Ko'zdan kechirish hamda "jamo'a kafilligi" ehtiyot chorasini qo'llashda mahalla vakillarining arz qilish va ogohlantirish mexanizmlari bilan bog'liq aniq protsessual huquqlari yozma tarzda belgilanishi.

Umid qilamizki, ushbu qonunchilik takliflarining amaliyotga joriy etilishi jamoatchilik ishtirokini "huquqiy xira" holatdan chiqarib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda muhim ma'muriy-huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). 30.04.2023 y. // URL: <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 22.09.1994 y. // URL: <https://lex.uz/docs/111460>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/3027843>.
4. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'RQ-350-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/acts/2156899>.
5. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 371-son Qonuni // URL: <https://www.lex.uz/ru/docs/2387357>.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-sentyabrdagi "Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 565-son Qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/5623688>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-maydagi "Xatlangan va olib qo'yilgan mol-mulkni saqlash tartibi hamda shartlari to'g'risida"gi 132-son Qarori.
8. Mirazov D. Jinoyat protsessual huquq. Darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 2019. – 732 b.
9. Saidov A.X. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat nazariyasi masalalari. O'quv qo'llanma. – T., 2025. – 137 b.
10. Головкин Л.В. Курс уголовного процесса. – Москва: Статут, 2025. – С. 231.
11. Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Уголовный процесс. Учебник. – Санкт-Петербург: Питер, 2024. – С. 239.
12. Trojanowicz R., Bucqueroux B. Community Policing: A Contemporary Perspective. – Cincinnati: Anderson Publishing, 1990. – 420 p.
13. Polizeigesetz des Landes Nordrhein-Westfalen (PolG NRW) vom 25. Juli 2003. // URL: <https://recht.nrw.de>.
14. Keisatsu-hou (Закон о полиции Японии), 1954 г. // National Police Agency of Japan. // URL: <https://www.npa.go.jp>.
15. Федеральный закон Российской Федерации «Об основах системы профилактики правонарушений» от 23.06.2016 № 182-FZ. // URL: <https://www.consultant.ru>.

ATANIYAZOV Jasurbek Kurbanbayevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası dotsenti,

yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

E-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com

JINOYAT PROTSESSIDA ISH YURITISHNI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA QO'SHNI DAVLATLAR TAJRIBASI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): ATANIYAZOV J.K. Jinoyat protsessida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga qo'shni davlatlar tajribasi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 127-139.

3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-013>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar institutining nazariy-huquqiy mazmuni, jinoyat-protsessual tizimdagi o'rni hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyati kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tahlillar doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va tugatish bilan bog'liq protsessual mexanizmlarning huquqiy tabiati, ularning jinoyat-huquqiy javobgarlikdan ozod etuvchi moddiy normalar bilan o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarning jinoyat protsessida insonparvarlik tamoyilini ro'yobga chiqarish, asossiz jinoiy ta'qibning oldini olish, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmasdan turib uning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish va qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishdagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinib, ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarni qo'llash asoslari, jabrlanuvchi roziligining ahamiyati, yarashuv institutining protsessual xususiyatlari, rehabilitatsiya etiladigan va etilmaydigan asoslarning huquqiy oqibatlari hamda protsessual kafolatlarining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Tahlillar davomida xorijiy olimlarning jinoyat ishini tugatish, jinoiy ta'qibni yakunlash, dispozitiv normalarni qo'llash va protsessual adolatni ta'minlashga oid ilmiy qarashlari tanqidiy tahlil qilinib, milliy qonunchilik nuqtai nazaridan baholangan. Tahlillar natijalariga ko'ra, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarni tizimlashtirish, rehabilitatsiya institutini takomillashtirish, jabrlanuvchi hamda gumon qilinuvchi huquqlarining protsessual kafolatlarini kuchaytirish, ishni tugatishning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash hamda sudga qadar ish yuritishda insonparvarlik va protsessual adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat ishini tugatish, ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jinoyat-protsessual qonunchilik, insonparvarlik tamoyili, sudga qadar ish yuritish, rehabilitatsiya, dispozitiv normalar, jabrlanuvchi, protsessual kafolatlar, qiyosiy-huquqiy tahlil, inson huquqlari.

АТАНИЯЗОВ Жасурбек КурбанбаевичДоцент кафедры уголовно-правовых дисциплин Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

E-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com

ОПЫТ СОСЕДНИХ С РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН ГОСУДАРСТВ В СФЕРЕ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ, ИСКЛЮЧАЮЩИХ ПРОИЗВОДСТВО ПО УГОЛОВНОМУ ДЕЛУ

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно исследуются теоретико-правовые основы института обстоятельств, исключающих производство по уголовному делу, его место в системе уголовного судопроизводства, а также значение в обеспечении прав и свобод человека. Особое внимание уделено правовой природе процессуальных механизмов отказа в возбуждении уголовного дела и прекращения уголовного производства, а также их взаимосвязи с материально-правовыми нормами, предусматривающими освобождение лица от уголовной ответственности. Автором обоснована роль данного института в реализации принципа гуманизма в уголовном процессе, предупреждении необоснованного уголовного преследования, обеспечении социальной адаптации личности без применения уголовного наказания и снижении риска повторной преступности. В статье проведён сравнительно-правовой анализ уголовного и уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан, Республики Таджикистан, Кыргызской Республики, Республики Казахстан и Туркменистана, в рамках которого выявлены особенности применения оснований прекращения уголовного дела, значение согласия потерпевшего, специфика института примирения, процессуальные последствия реабилитирующих и нереабилитирующих оснований, а также механизмы обеспечения процессуальных гарантий участников уголовного судопроизводства. Существенное внимание уделено анализу научных подходов зарубежных учёных относительно прекращения уголовного дела, окончания уголовного преследования, применения диспозитивных начал и обеспечения процессуальной справедливости, которые подвергнуты критическому осмыслению с позиции национального законодательства. По результатам исследования сформулированы научно-практические предложения, направленные на совершенствование национального уголовно-процессуального законодательства, систематизацию обстоятельств, исключающих производство по уголовному делу, укрепление процессуальных гарантий прав подозреваемого и потерпевшего, совершенствование института реабилитации, а также усиление принципов гуманизма и процессуальной справедливости на стадии досудебного производства.

Ключевые слова: прекращение уголовного дела, обстоятельства, исключающие производство по делу, освобождение от уголовной ответственности, уголовно-процессуальное законодательство, принцип гуманизма, досудебное производство, реабилитация, диспозитивные нормы, потерпевший, процессуальные гарантии, сравнительно-правовой анализ, права человека.

JASURBEK AtaniyazovAssociate Professor of the Department of "Criminal Law Sciences"
of the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,

Doctor of Philosophy in Law (PhD)

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

E-mail: jasurbekataniazov91@gmail.com

THE EXPERIENCE OF STATES BORDERING THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE AREA OF CIRCUMSTANCES PRECLUDING CRIMINAL PROCEEDINGS

ANNOTATION

This article comprehensively examines the theoretical and legal foundations of the institution of circumstances precluding criminal proceedings, its place within the criminal justice system, and its significance in safeguarding human rights and freedoms. Particular attention is devoted to the legal nature of procedural mechanisms related to the refusal to initiate criminal proceedings and the termination of criminal cases, as well as their interrelation with substantive criminal law provisions governing exemption from criminal liability. The study substantiates the role of this institution in implementing the principle of humanism in criminal procedure, preventing unjustified criminal prosecution, promoting the social reintegration of individuals without imposing criminal punishment, and reducing the likelihood of recidivism. The article also provides a comparative legal analysis of the criminal and criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan, the Republic of Tajikistan, the Kyrgyz Republic, the Republic of Kazakhstan, and Turkmenistan. The research identifies specific features related to the application of grounds for terminating criminal proceedings, the legal significance of victim consent, the procedural characteristics of reconciliation mechanisms, the legal consequences of rehabilitative and non-rehabilitative grounds, and procedural safeguards for participants in criminal proceedings. Furthermore, the article critically evaluates the scholarly views of foreign legal researchers concerning the termination of criminal proceedings, the completion of criminal prosecution, the application of dispositive norms, and the maintenance of procedural justice from the perspective of national legislation. Based on the findings, the study develops scientific and practical proposals aimed at improving national criminal procedural legislation, systematizing circumstances precluding criminal proceedings, strengthening procedural guarantees for suspects and victims, improving the rehabilitation framework, and reinforcing the principles of humanism and procedural justice in pre-trial criminal proceedings.

Keywords: termination of criminal proceedings, circumstances excluding criminal proceedings, exemption from criminal liability, criminal procedural legislation, principle of humanism, pre-trial proceedings, rehabilitation, dispositive norms, victim, procedural guarantees, comparative legal analysis, human right

Barchamizga ma'lumki, dunyoda jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvini yanada insonparvarlashtirish masalalarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, shaxslarning jinoyat subyekti sifatida huquqlarini ta'minlash maqsadida qo'shimcha kafolatlarni belgilash, sudga qadar ish yurituvini yanada insonparvarlashtirishga qaratilgan yangi institutlarni joriy etish hamda amaldagilarini kengroq qo'llashga erishish, ayrim jinoyat normalarini dekriminallashtirish, jinoyat sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, shaxslarning jinoiy qilmishlari yuzasidan sudga qadar ish yuritishning o'ziga xos jihatlari va bu jarayonda protsessual huquqlarini ta'minlash, shu bilan birga jinoyat kodeksining fuqarolarning qonun oldida tengligi va ayb uchun javobgarlik prinsiplarini ta'minlash yuzasidan ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratilishini talab etadi.

Xorijiy qonunchilikning tahlili jinoyat protsessida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarda shaxslarning dispozitiv normalarni qo'llash zarurati, jinoyat ishini tugatishda inson huquq va erkinlarini ta'minlashda xalqaro standartlarni joriy qilish zarurati, jinoyat ishlarini alohida asoslar bo'yicha tugatishni takomillashtirish, rehabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra jinoyat ishini tugatish bo'yicha jabrlanuvchining roziligini olish zarurati, jinoyat ishini prokuror roziligi bilan surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida tugatishning protsessual tartibga solish muhimligi, javobgarlikdan ozod qilishning jinoyat-huquqiy va tarbiyaviy ahamiyati yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilayotganligidan dalolat bermoqda. Shu bilan birga mazkur munosabatlarda shaxslarning huquqiy kafolatlarini ta'minlash, ularning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish va tugatish institutini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini oliy darajada ta'minlash, xalqaro huquqning milliy qonunchiligimizga mos jihatlarini implementatsiya qilish va shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortmay turib axloqan tuzatish, qayta jinoyat yo'liga kirmasligi, hamda ularning ijtimoiy moslashishiga ko'maklashish borasida keng qamrovli manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish ustuvor vazifalar qatorida 87-maqсад sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlarini, qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish masalalari, shu jumladan tergov faoliyati ustidan nazoratni elektron shaklda olib borish imkonini beruvchi raqamlashtirilgan tizim yaratish, tergov faoliyati ustidan nazoratni to'liq elektron shaklda olib borish imkonini beruvchi "Elektron jinoiy-huquqiy statistika" yagona axborot tizimining "E-tergov" modulini ishlab chiqish va ushbu tizimni ishga tushirish bilan bog'liq barcha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilangan [1]. Mazkur maqsadga erishish uchun jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy ish yuritish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish muhim bo'lib, ularning bajarilishi Yangi O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida maqomini mustahkamlash, mamlakatimizdagi har bir shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlari bo'lib xizmat qiladi.

Ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatish – bu avvalo moddiy huquqda javobgarlikdan ozod etuvchi normalarda o'z aksini topganligi sababli, nafaqat protsessual qonunlar, balki jinoiy-huquqiy qonunlar bilan kompleks ravishda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatishni protsessual huquqiy tartibga solinishi bir qator qonun va qonunosti hujjatlar bilan amalga oshiriladi. Mazkur qonun hujjatlarini iyerarxik tartibda o'rganib chiqish maqsadga muvofiq.

Dastlab bu borada mavjud xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini keltirib o'tish lozim.

– Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 3,10,18-20 va boshqa bir qator normalari bilan insonning eng oliy huquqlari nazarda tutilgan [2].

– BMTning 1979-yildagi Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining axloq kodeksi - qonun va tartibni saqlovchilar bilan bog'liq muayyan ijtimoiy munosabatlar bo'yicha ko'rsatmalar beradi [3].

Shuningdek, xalqaro sudning qabul qilgan bir qator hujjatlariga ko'ra xalqaro jinoyatlarni sodir etgan quyidagi holatlarda javobgarlikdan ozod etilishi lozim:

– jinoyat sodir etgandan so'ng ruhiy kasallikka chalingan va sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligini anglamagan hollarda;

– sodir etgan harakati zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat natijasida sodir etgan va jinoyat sodir etilishi natijasida o'zi va safdoshlari yoki obyektga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni oldini olgan bo'lsa;

– Harbiyga bo'lgan hujumni darhol qaytarish lozim bo'lgan va bunda keltirilgan zarar oldi olingan zarardan kam bo'lgan hollarda va hokazo [4].

Xalqaro hujjatlarda ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq mavjud umume'tirof etilgan qoidalar eng avvalo milliy qonunchilikda o'z ifodasini topishi va tadqiqot natijalari mazkur qoidalarga muvofiq kelishi lozim.

Amaldagi milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar deganda olimlarimiz tomonidan turli xildagi qarashlar ilgari surilgan. Xususan, U.A.Tuxtashevaning fikricha, qilmishda jinoyat-protsessual munosabatlar mavjud bo'lishini inkor qiladigan yuridik faktlarning mavjudligi jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni istisno etadi [5, B. 281]. Mazkur fikrlarga qisman qo'shilgan holda, uning ta'rifida quyidagi holatlarga e'tibor qaratilmaganligini bildirish joiz, xususan jinoyat ishini tugatishda har doim ham jinoyat-protsessual munosabatlar mavjud bo'lishini inkor qiladigan holatlar bo'lmaydi, yarashuv instituti bo'yicha yoki shaxsning jinoyat ishini tugatishga qarshiligi ishni umumiy tartibda ko'rib chiqilishiga asos sifatida xizmat qiladi. Bunday vaziyatlarda jinoyat-protsessual munosabatlar mavjud bo'lishini inkor qiluvchi yuridik faktlar mavjud bo'lmaydi.

Ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar bo'yicha – “Jinoyat ishini tugatish” tushunchasiga ilmiy nuqtai nazardan yangi ta'rifni B.Murodovning nomzodlik ishida ta'rif berib o'tgan bo'lib, unga ko'ra “Jinoyat ishini tugatish – vakolatli mansabdor shaxsning ish bo'yicha to'plangan dalillarni baholash orqali yuzaga kelgan vaziyat bo'yicha qonunda qayd etilgan muayyan asosni qo'llash uchun barcha holatlar o'z isbotini topganiga ishonch hosil qilib, jinoyat ishi yurituvini tugatish to'g'risida xulosaga kelishi va ishni protsessual qaror yoki ajrim chiqarish orqali bekor qilishdan iborat bo'lgan yakunlovchi bosqichdir” [6, B.12].

Shunday bo'lsa-da, B.Murodovning mazkur ta'rifida “muayyan asos” va “ishni protsessual qaror yoki ajrim chiqarish orqali bekor qilish” degan mavhum tushunchalarning mavjudligi jinoyat ishini tugatish to'g'risida qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilishga sabab bo'ladi. Yanada aniqroq qilib aytganda, muallifning ta'rifini o'quvchi birdaniga idrok etishning imkoni mavjud emas.

Xorijiy olimlarning, xususan Rossiya Federatsiyasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning jinoyat-protsessual qonunchiliklariga ko'ra jinoyat ishini tugatishdan tashqari jinoiy ta'qibning bekor qilinishi kabi tushunchalarga ta'riflar berib o'tganlar.

Xususan, A.A.Rusman [7, B. 12-14] va Ye.A.Xabarovalarning [8, B.18] fikriga ko'ra “Ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar – bu dastlabki tergovni yakunlash shakli bo'lib, unda surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ishni sudga yubormasdan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni o'zlarining qarori bilan yakunlaydi. Shuningdek, jinoiy ta'qibni bekor qilinishi institut sifatida – bu jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan yoki ayblanayotgan muayyan shaxsga nisbatan jinoyat ishini tugatish tartibini tartibga soluvchi jinoyat-protsessual normalar tizimi. Jinoiy ta'qibni tugatish, jinoyat ishini tugatishdan farqli o'laroq, faqat individual harakatdir. Jinoiy ta'qibni tugatishda aniq jinoyat sodir etgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qaror qabul qilish bilan yakunlansa, jinoyat ishini tugatishda javobgarlikka tortilgan barcha shaxslardan gumon yoki aybning yechilishi tushunilishi lozim” degan fikrdalar.

A.Rusman va Ye.Xabarovalarning jinoyat ishini tugatish bo'yicha bergan ta'riflariga qisman qo'shilish mumkin, biroq jinoyat ishini tugatishda jinoyat ishi doirasida har doim ham barcha gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga nisbatan ularning aybsizligi e'tirof etilib, jinoyat ishi tugatilmaydi va aksariyat hollarda jinoyat ishi bo'yicha ma'lum shaxslarga nisbatan jinoyat ishining bir qismi tugatilishi to'g'risida qaror qabul qilinishi kuzatiladi, hamda bu qaror ham protsessual qoidalarga

muvofig jinoyat ishini tugatilishi bo'yicha asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. Shu sababli jinoyat ishini tugatishning ta'rifini ham uni tadqiq etilishi kabi ikkiga bo'lish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz, ya'ni rehabilitatsiya etiluvchi asoslarga ko'ra jinoyat ishini tugatish, hamda ayblilik masalasini hal etmasdan (rehabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra) jinoyat ishini tugatish kabi turlarga bo'lgan holda ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar deganda rehabilitatsiya asoslariga ko'ra yoki ayblilik masalasini hal etmay turib jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatish masalasi tushunilmog'i lozim. Bunda milliy qonunchiligimizda mavjud bo'lmagan, biroq xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud qoidalar hamda tajribalarni tahlil etish va natijasiga ko'ra, ushbu mavjud bo'lmagan asoslardan milliy qonunchiligimizga samarali implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shni davlatlardan, Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 11-bobi javobgarlikdan ozod etuvchi normalarni o'z ichiga olgan bo'lib, unda milliy jinoyat qonunchiligimizga o'xshash bo'lgan javobgarlikdan ozod qiluvchi asoslarni kuzatishimiz mumkin. Farqli jihatlaridan yarashuv to'g'risidagi ishlarda, vaziyat o'zgarishi oqibatida qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasi uchun qo'llanilishi va javobgarlikka tortish muddatlari bo'yicha muddatlarni belgilanishida tafovutlar mavjud [9].

Tojikiston Respublikasi JPKning 3-bobi jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish va tugatish uchun asoslar deb nomlangan bo'lib, tafovutlardan dastlabkisi bu – bobning nomlanishi hisoblanadi. Shuningdek, Tojikiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra ayblov xususiy, xususiy-ommaviy va ommaviy turlarga bo'linadi, hamda ayblovning xususiy va xususiy-ommaviy turlariga kiruvchi jinoyat bo'yicha faqatgina jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan berilgan ariza asosida jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin. Shu bilan birga JPKning 25-moddasida jabrlanuvchining jinoiy ta'qibda ishtirok etish huquqi alohida norma sifatida qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra jabrlanuvchi, uning qonuniy vakili yoki vakili mazkur jarayonda qatnashish huquqi mavjudligi va jinoyat ishining har qanday bosqichida ayblovdan voz kechishi mumkinligi mustahkamlangan.

Tojikiston Respublikasi JPKning 27-moddasida jinoyat ishi yuritilishini istisno qiluvchi holatlar nazarda tutilgan va ushbu asoslarda vafot etgan shaxsning biror-bir maqomda bo'lishidan qat'iy nazar unga nisbatan yuritilayotgan ish tugatilishi lozim, bunda uning aybsizligini isbotlash va yangi ochilgan holatlar bilan bog'liq vaziyatlarda qo'llanilmasligi, sudlarning aynan shu ayblov bo'yicha chiqargan hukmi, jinoyat ishini tugatish bo'yicha chiqargan ajrimi va qarori ishni tugatishga asos bo'lib xizmat qilishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu JPKning 28-moddasida ish yuritilishi rad etilishi yoki tugatilishi mumkin bo'lgan asoslar keltirilib, unda Tojikiston Respublikasi jinoyat qonunida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qiluvchi moddiy normalarning protsessual tartibi ko'rsatilgan. Milliy qonunchiligimiz bilan asosiy farqli jihatlar shundan iboratki, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining unga nisbatan ushbu asoslarga ko'ra ish yuritilishi rad etilishi yoki tugatishiga qarshilik qilgan hollarda ish umumiy tartibda olib borilishi, shu bilan birga 29-moddaning 3-bandida ish yuritilishi rad etilishi yoki tugatilishidan oldin mazkur shaxsga qabul qilinayotgan qaror asosi va qarordan norozi bo'lgan hollarda shikoyat qilish huquqi mavjudligi tushuntirilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur javobgarlikdan ozod qiluvchi asoslarni (hatto yarashuvni ham) nafaqat sud, sudya va prokuror, balki prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi va tergovchilar ham qo'llashi mumkinligi asosiy tafovutlardan sanaladi. Tojikiston Respublikasi JPKning rahbariy qoidalarida ham milliy protsessual qonunchiligimizdagi kabi muammolar mavjud, xususan davlatning JPK 26-moddasida jinoiy ta'qibni amalga oshirish majburiyati mavjud bo'lib, unda prokuror, tergovchi, surishtiruvchi o'z vakolatlari

doirasida jinoyat aniqlangan har bir holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati aks ettirilgan [10].

Qo'shni **Qirg'iziston Respublikasi** jinoyat qonuniga ko'ra javobgarlikdan ozod etishning faqatgina 4 turi mavjud, ular Qirg'iziston JKning 59-62-moddalarida o'z aksini topgan bo'lib, qonunchiligimizda nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etishdan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi. Ya'ni qilmishning dekriminallashtirilishi, yarashuv to'g'risidagi ishlar qisman ro'yxat asosida va barcha ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun qo'llanilishi, guruh tarkibida jinoyat sodir etgan shaxslarning yarashuv tartibida javobgarlikdan ozod etilmasligi, immunitetga ega bo'lgan shaxsga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa va u immunitet mavjudligi sababli to'xtatilgan bo'lsa, unda da'vo muddati to'xtatilishi kabi qoidalar shaxsni javobgarlikdan ozod qiluvchi asoslarda mustahkamlangan [11].

Mazkur moddiy asoslarni qo'llash tartibini o'zida aks etuvchi Qirg'iziston Respublikasi JPKda milliy jinoiy-protsessual qonunchiligimiz bilan quyidagi tafovutlar mavjudligi aniqlandi.

Jumladan, jinoiy ta'qibning xususiy-ommaviy va ommaviy ayblov turlariga bo'linishi, hamda xususiy-ommaviy ayblov turlariga ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat turlari kiritilganligi, mazkur ayblov turida faqatgina jabrlanuvchi yoki vakilining arizasi asosida jinoyat ishi qo'zg'atilishi;

- nafaqat prokuror, balki tergovchi ham jabrlanuvchi o'z ahvoldaligi yoki boshqa sababga ko'ra o'z huquqini himoya qila olmaydi deb topsa, jabrlanuvchining arizasi bo'lmagan hollarda ham jinoyat ishi qo'zg'atishi mumkinligi;

- prinsiplar qatorida tergovchi, prokurorni jinoyat ishini qo'zg'atish emas, balki jinoyat belgilari aniqlangan har bir holatda jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsni aniqlash choralarini ko'rish;

- jabrlanuvchining jinoiy ta'qibda ishtirok etish huquqi alohida norma sifatida qayd etilgan va jinoyat ishining har qanday bosqichida ayblovdan voz kechishi mumkinligi mustahkamlangan;

- jinoyat ishlarining yurituvini istisno qiluvchi norma yaxlit bitta moddada keltirilganligi;

- qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi, dekriminlizatsiya va jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan holatlarning ish yuritishni tugatish asoslarida mavjudligi;

- vafot etgan shaxsning biror-bir maqomda bo'lishidan qat'iy nazar unga nisbatan yuritilayotgan ish tugatilishi;

- ish yuritish davomida xususiy-ommaviy ayblov turi bo'yicha jabrlanuvchi da'vosidan ixtiyoriy qaytganda ish tugatilishi;

- prokurorning ayblovdan voz kechishi natijasida ish tugatilishi;

- jinoyat protsessi ishtirokchilari o'rtasida o'zaro yarashuvga erishish uchun mediatorlar yordami bilan hal qilishning ixtiyoriy tartibi mavjudligi;

- guruh tarkibida yoki jinoiy uyushma manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan xususiy-ommaviy ayblov jinoyat turlari bo'yicha jabrlanuvchi arzidan voz kechgan taqdirda ham tugatilishiga yo'l qo'yilmasligi;

- normada aynan qaysi asoslarning reabilitatsiyaga tegishli ekanligi alohida qayd etilishi kabi jihatlari qonunchiligimizdan farqlanadi [12].

Qozog'iston Respublikasi jinoyat qonunchiligida shaxsni javobgarlikdan ozod qilishni 65-71-moddalar nazarda tutgan. Qozog'iston Respublikasi JKda jinoiy huquqbuzarlik tushunchasi mavjud bo'lib, unga ko'ra jinoiy huquqbuzarlik – bu katta ijtimoiy xavf tug'dirmaydigan, sodir etganlik uchun jarima, axloq tuzatish ishlari, jamoat ishlariga jalb qilish, qamoq, chet el fuqarosini Qozog'iston Respublikasidan chiqarib yuborish shaklida jazolanadigan harakat yoki harakatsizlikni nazarda tutadi (10-modda).

Qozog'iston Respublikasi JKning 65-moddasida shaxs jinoiy huquqbuzarlik sodir etgan yoki

toifasidan qat'iy nazar birinchi marta jinoyat sodir etgan bo'lsa, yetkazilgan zararni qoplagan, aybiga iqror bo'lgan, jinoyatni ochilishida faol ishtirok etgan bo'lsa jinoyatchi shaxsini hisobga olgan holda javobgarlikdan ozod etilishi, biroq mazkur asosi terroristik, ekstremistik jinoyatlar, guruh tarkibida, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik, shaxsga qarshi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmasligi belgilangan. Shu bilan birga yuqoridagi javobgarlikdan ozod qilish asosida korrupsiyaga oid jinoyatlar bo'yicha faqat sud tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Qozog'iston Respublikasi JKda bir qancha milliy qonunchiligimiz bilan tafovutlanuvchi asoslar mavjud, ya'ni ular: zaruriy mudofaa chegarasidan qo'rquv va aralashuv orqali chetga chiqqan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishni alohida turi mavjudligi (66-modda), protsessual kelishuv shartlarini bajargan shaxsni javobgarlikdan ozod qilinishi (67-modda), yarashuv to'g'risidagi ishlar, jinoiy huquqbuzarliklar, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun qo'llanilishi, mediatsiya tartibida yoki mustaqil ravishda jabrlanuvchi bilan yarashgan hollarda javobgarlikdan ozod qilinishi (68-modda), ba'zi belgilangan toifadagi shaxslar (yosh bolali ayollar, homilador ayollar, voyaga yetmaganlar, 58 yosh va undan oshgan ayollar, 63 yosh va undan oshgan erkaklar va hatto yosh bollari yolg'iz qarovchisi bo'lgan erkaklar ham) birinchi marotaba og'ir jinoyat sodir etgan hollarda agar jabrlanuvchini o'limiga va og'ir jarohat olishiga sabab bo'lmagan hollarda yetkazilgan zarar o'rni qoplangan va jabrlanuvchi bilan yarashgan bo'lsa javobgarlikdan ozod qilinishi (68-modda 2-qismi), yarashuvda jabrlanuvchi tomon davlat va jamiyat manfaatlarini bo'lgan hollarda yetkazilgan zarar o'rni qoplanishi va qilmishdan pushaymonlik holati javobgarlikdan ozod qilish sharti hisoblanishi (68-modda 3-qismi), yarashuv yuqoridagi toifadagi shaxslarga va muqaddam yarashuv bilan javobgarlikdan ozod qilingan hamda javobgarlikka tortish muddatlarida qayta jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmasligi mustahkamlangan (68-modda 4-qismi).

Shuningdek, javobgarlikdan ozod etilishning "shaxsiy kafillik" turi mavjudligi (69-modda), shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi munosabati bilan toifasidan qat'iy nazar va faqatgina jinoiy huquqbuzarlik va ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi yo'qotilganligi munosabati bilan sud tomonidan javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi (70-modda), umumiy javobgarlik muddatlari har bir toifa jinoyatlar uchun alohida belgilanganligi Qozog'iston Respublikasi jinoyat qonunining o'ziga xosligidir [13].

Yuqorida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qiluvchi normalarning protsessual tartibi Qozog'iston Respublikasi JPKning 32-33, 35-36-moddalarida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra mamlakatimiz jinoyat protsessual qonunchiligida nazarda tutilmagan quyidagi jihatlar mavjud. Jumladan:

prinsiplar qatorida tergovchi, prokurorni jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyati yo'qligi, aksincha har bir jinoyat hodisasi va jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash choralarini ko'rish prinsipi mavjudligi;

- jinoyat toifalarining xususiy, xususiy-ommaviy va ommaviy ayblov turlariga bo'linishi;
- xususiy, xususiy-ommaviy ayblov turida faqatgina jabrlanuvchi yoki vakilining arizasi asosida jinoyat ishi qo'zg'atilishi;

- normaning alohida qismida kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini o'tkazish zarurati tufayli qo'zg'atilgan jinoyat ishlari jabrlanuvchining arizasi bo'lmagan hollarda 3 sutka ichida tugatilishi belgilangan;

- jinoyat ishlarining yurituvini istisno qiluvchi norma yaxlit bitta moddada (ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar) keltirilganligi;

- xususiy, xususiy-ommaviy ayblov turiga kiruvchi jinoyatlar bo'yicha jabrlanuvchining da'voda voz kechishi jinoyat ishini tugatishga asos bo'lishi;

– qilmishning dekriminalizatsiya qilinishi yoki Konstitutsiyaviy sud tomonidan kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi jinoyat qonunni konstitutsiyaga zid deb topilishi ish yuritishni tugatish asoslarida mavjudligi;

– immunitetga ega bo'lgan shaxsni javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovni rad etilganda ish tugatilishi;

– vafot etgan shaxsning biror bir maqomda bo'lishidan qat'iy nazar unga nisbatan yuritilayotgan ish tugatilishi mumkinligi, bunda vafot etganni reabilitatsiya qilish va qonunga xilof ravishda o'zlashtirilgan mol-mulkni musodara qilish bilan bog'liq holatlarda yo'l qo'yilmasligi;

– qolgan barcha JKda nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilish asoslari bitta bandda ko'zda tutilganligi;

– jinoyat sodir etish yoshiga yetmagan shaxsning yoki ruhiy nosog'lomlikni istisno qiluvchi aqlan ortda qolgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishda jinoyat tarkibi mavjud emasligi asosi bilan ish tugatilishi;

– jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi organ sudga qadar har qanday bosqichda jinoyat ishini tugatish haqida qaror chiqarishi mumkinligi;

– davlat ayblovchisi va sud ish yuritishni istisno qiluvchi asoslardan biri aniqlangan har bir holda jinoyat ishini tugatish majburiyati mavjudligi;

– gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga jinoyat ishini tugatish qarorining barcha huquqiy oqibatlari va unga e'tiroz qilish huquqi tushuntirish majburiyati mavjudligi;

– jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakiliga jinoyat ishi tugatilganligi to'g'risida xabar beriladi va mazkur qaror ustidan prokuror yoki sudga murojaat qilish huquqining mavjudligi;

– ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi qarshilik bildirishi shaxsiy kafillik bilan javobgarlikdan ozod qilishni istisno etishi asosiy farqlanuvchi jihatlar sirasiga kiradi [14].

Turkmaniston Respublikasi JKning 10-bob 70-74-moddalarida shaxsni javobgarlikdan ozod qiluvchi normalar keltirilgan bo'lib, unga ko'ra jinoyatdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida qayd etilgan bo'lib, bunda jinoiy guruh tarkibida ixtiyoriy qaytishda o'ziga xos jihatlar aks etgan, shuningdek shaxsning amalda pushaymonligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishida jabrlanuvchining da'vosi bo'lmashligi lozimligini taqozo etishi va ba'zi toifadagi shaxslarga tatbiq etilmasligi bilan o'ziga xoslikni aks etadi. Kodeksning 72-moddasiga ko'ra, faqatgina maxsus qismning 3 ta moddasida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs jabrlanuvchi bilan yarasha yarashuvga asosan javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Mazkur kodeksning 73-moddasida birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganlik uchun javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. 74-moddada javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashda va muddatlarning uzilishi masalalarida milliy qonunchiligimizdan farqlanuvchi jihatlari mavjud [15].

Mazkur moddiy normalarning protsessual tartibi Turkmaniston Respublikasi JPKning 3-bob 31 va 33-moddalarida aks etgan bo'lib, unga ko'ra rahbariy prinsiplar orasida jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyati mavjud emasligini, shu bilan birga har bir jinoyat hodisasi va jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash choralarini ko'rish majburiyati mavjudligini qayd etish lozim.

Kodeksning 31-moddasida jinoiy ta'qibni istisno qiluvchi holatlar aks etgan bo'lib, unga ko'ra jinoyat hodisasi yuz bermaganligi, jinoyat tarkibi mavjud emasligi va boshqa javobgarlikdan ozod qiluvchi asoslar yaxlit bitta normada aks ettirilgan, hamda ko'p jihatlari milliy protsessual qonunchiligimizdagi jinoyat ishini tugatish asoslariga o'xshash bo'lib, quyidagi jihatlar bilan farq qiladi. Xususan, vafot etgan shaxsning biror bir maqomda bo'lishidan qat'iy nazar unga nisbatan yuritilayotgan ish tugatilishi mumkinligi, bunda vafot etganning reabilitatsiya qilish va yangi holatlarni tergov qilish bilan bog'liq vaziyatlarda yo'l qo'yilmasligi lozimligi, 33-moddada davlat

ayblovchisi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlari bo'yicha ayblovdan voz kechgan taqdirda jabrlanuvchi bilan yarashuvga erishilgan taqdirda mansabdorlar tomonidan jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarish majburiyati mavjudligi Turkmaniston jinoyat protsessual qoidalarini o'ziga hosligi hisoblanadi [14].

Jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar hamda jinoyat ishini tugatish institutining huquqiy tabiati yuzasidan huquqshunoslik fanida yagona yondashuv shakllanmagan bo'lib, bu masala hozirga qadar keskin ilmiy bahs-munozara obyekti bo'lib qolmoqda. Xususan, L.V.Golovko jinoiy ta'qibga muqobil mexanizmlar nazariyasini asoslar ekan, jinoyat ishini tugatishni davlatning jazolash funksiyasidan qisman voz kechish shakli sifatida baholaydi va uni protsessual differentsiatsiyaning muhim vositasi deb hisoblaydi va har qanday jinoiy-huquqiy nizoni sud muhokamasi orqali hal qilish davlat va jamiyat manfaatlariga hamisha ham mos kelmaydi, shu sababli javobgarlikdan ozod qilish va ishni tugatish institutlari jinoyat protsessi iqtisodini ta'minlashga xizmat qiladi, deya ta'kidlaydi [16, B.126]. Uning fikrlari ma'lum darajada asosli, chunki haqiqatdan ham ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha protsessual resurslarni tejash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur yondashuvni mutlaqlashtirish inson huquqlari nuqtai nazaridan muayyan xavflarni keltirib chiqaradi. Zero, O'zbekiston sharoitida reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra ish tugatilganda shaxsning keyingi ijtimoiy maqomi, ishchanlik obro'si va huquqiy manfaatlariga ta'sir qiluvchi holatlar saqlanib qolishi mumkin. Shu bois, bizningcha, ishni tugatish faqat "protsessual tejamkorlik" nuqtai nazaridan baholanmasdan, shaxsning jinoiy-huquqiy siyosatdan ko'zlangan maqsadini uni jinoiy jazoga tortmasdan turib erishish huquqi bilan muvozanatlashtirilishi lozim.

Bu borada N.M.Peretyatko va A.E.Fedyunin tomonidan ilgari surilgan qarashlar alohida e'tiborga loyiqdir. Ularning fikricha, jinoyat ishini tugatish o'z mohiyatiga ko'ra ishning mazmunan hal qilinishiga yaqin huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirganligi sababli, mazkur vakolatni faqat sud amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Olimlar tergov bosqichida ishni tugatish instituti muayyan holatlarda shaxs huquqlariga zarar yetkazishi mumkinligini ta'kidlab, uning konstitutsiyaviy adolat prinsipiga muvofiqligini qayta ko'rib chiqish zarurligini ilgari suradilar [17, B.42-47]. Ushbu nuqtai nazar nazariy jihatdan asosli bo'lsa-da, mazkur fikrga qisman qo'shilmamiz. Chunki mamlakatimizda barcha ishlarni hatto reabilitatsiya etilmaydigan asoslar bo'yicha ham sud muhokamasiga olib chiqish protsessual yuklamani sun'iy ravishda oshirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, prokuror nazorati ostida surishtiruvchi va tergovchiga ayrim toifadagi ishlar bo'yicha ishni tugatish vakolatini saqlab qolish maqsadga muvofiq, ammo bunda shaxsning e'tiroz bildirish huquqi va qaror ustidan sud nazorati kafolatlanishi shart, deb hisoblaymiz.

Jinoyat ishini tugatishning huquqiy tabiatiga nisbatan boshqa bir yondashuvni A.A.Gadjieva hamda K.S.Karaev ilgari surib, jinoyat ishini tugatish va jinoiy ta'qibni tugatishni nisbatan mustaqil, biroq o'zaro bog'liq institutlar sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, mazkur institutlar o'rtasidagi farqlarning aniq belgilanmaganligi huquqni qo'llash amaliyotida statistik "sun'iy samaradorlik" holatlarini keltirib chiqaradi [18, B. 115-120]. Mazkur qarash asosli hisoblanadi, chunki huquqni qo'llash amaliyotida ayrim holatlarda ish tugatilishi statistik ko'rsatkichlarni yaxshilash vositasi sifatida qo'llanishi ehtimoli mavjud. Biroq bizningcha, yurtimiz sharoitida mazkur muammoning yechimi vakolatlarni cheklashda emas, balki raqamlashtirilgan prokuror nazorati va "E-tergov" tizimi orqali protsessual qarorlarning shaffofligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Chunki raqamlashtirilgan nazorat inson omili bilan bog'liq subyektiv xavflarni kamaytiradi hamda qaror qabul qilish jarayonini xolis baholash imkonini yaratadi.

Reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra jinoyat ishini tugatishda shaxsning roziligi masalasida ham olimlar o'rtasida jiddiy munozaralar mavjud. G.N.Kuchеров jinoyat ishini tugatishning dispozitiv asoslarini tahlil qilar ekan, ishni tugatish jarayonida ishtirokchining huquqiy

pozitsiyasi mustaqil ahamiyatga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining roziligi faqat formal talab emas, balki protsessual adolatning tarkibiy qismi hisoblanadi [19, B.25-35]. Biz mazkur yondashuvni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz, chunki mamlakatimizda amalda rehabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra ish tugatilishi shaxs tomonidan aybdorlikni bilvosita tan olish sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa ayrim holatlarda insonning sha'ni va qadr-qimmatiga ta'sir ko'rsatishi ehtimolini saqlab qoladi. Shu bois, milliy JPKda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining bunday qarorga qarshi chiqish huquqini aniq protsessual mexanizm sifatida mustahkamlash zarur, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, yarashuv va zararni qoplash asosida ishni tugatish institutiga nisbatan A.Grinenko [20, B.816], D.Ivanov [21, B.33-38] va Y.Kleshchina [22, B.17-22] tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, jinoyat ishini tugatishning asosiy sharti sifatida yetkazilgan zararning haqiqatan ham bartaraf etilganligi ishonchli isbotlanishi lozim. Olimlar jabrlanuvchining ko'rsatmalari, yarashuvning ixtiyoriyligi va zararning real qoplanganligini aniqlash tergovchining majburiyati hisoblanishini ta'kidlaydilar. Mazkur fikrlar asosli, chunki ba'zan formal yarashuv ortida protsessual bosim yoki ijtimoiy ta'sir ehtimoli saqlanib qolishi mumkin. Shu sababli, yarashuv asosida ishni tugatishda jabrlanuvchining haqiqiy irodasini tekshirishning alohida protsessual standartini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar institutini faqat jazoni liberallashtirish vositasi sifatida baholash yetarli emas. Bizningcha, mazkur institut inson huquqlari, jabrlanuvchi manfaatlari, protsessual adolat va davlatning jinoyatchilikka qarshi siyosati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi kompleks huquqiy mexanizm sifatida takomillashtirilishi lozim. Buning uchun ishni tugatish asoslarini aniq tizimlashtirish, shaxs roziligini protsessual kafolat darajasiga olib chiqish, prokuror nazoratining raqamli shakllarini kengaytirish va rehabilitatsiya etilmaydigan asoslarning huquqiy oqibatlarini qayta ko'rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish va tugatish institutining ijtimoiy zaruriyati masalasi bu davlat va jamiyatning diqqat masalasida turgan dolzarb mavzulardan ekanligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov Departamentining 18/2509-sonli xatiga ilova qilingan 2017-2025-yillarda Departament va uning quyi tergov bo'linmalari tomonidan tugatilgan jinoyat ishlari bo'yicha ma'lumotiga ko'ra, 2017-yilda butun tizim tomonidan tugatilgan ishlar soni 1 975 ta, 2018-yilda 2 152 ta, 2019-yilda 2 753 tani tashkil etgan, mazkur ko'rsatkich 2021-yilda 4 378 tani, 2022-yilda 4 643 tani, 2023-yilda 5 691 tani, 2024-yilda 6 611 tani, 2025-yilda esa 6 976 tani tashkil etgan [23].

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar tahlili shuni asoslamodaki, haqiqatan ham huquqni qo'llash amaliyoti tomonidan ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar bo'yicha qaror qabul qilish holatlari yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga mazkur asoslarni qo'llash bilan bog'liq huquqiy va amaliy muammolar mavjudligi ham ushbu asoslarni qo'llashda fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga zarar yetkazishi mumkinligi sohada keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirish lozimligini asoslaydi.

Albatta ushbu statistik ma'lumotlar faqatgina tugatilgan jinoyat ishlar yuzasidan olingan raqamlar, ya'ni ayblilik masalasini hal etmasdan turib jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan ko'rsatkichlar bundan ham yuqorini tashkil etishi tabiiydir. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur yo'nalishda ishlar jadal sur'atlarda o'sib borayotganligini, shaxslarning dispozitiv huquqlariga keng imkoniyat berilayotganligini va uni mamlakatimizda harbiy xizmatchilarga nisbatan kengroq qo'llanilishi zarurati bu borada tadqiqot ishlari olib borilishi lozimligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar instituti nafaqat jinoyat-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy mexanizm, balki shaxs

huquq va erkinliklarini himoya qilish, asossiz jinoiy ta'qibning oldini olish hamda sudga qadar ish yuritishni insonparvarlashtirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur institutning mohiyati jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatish orqali davlatning jinoiy-huquqiy siyosatini faqatgina zarur holatlarda qo'llash, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan huquqiy ta'sir choralari individuallashtirish hamda uning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashishdan iboratligini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan mazkur institutni jinoyat huquqida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qiluvchi moddiy normalar bilan uzviy bog'liq holda kompleks tadqiq etish zarurligi asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar instituti jinoyat-protsessual huquqning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, asossiz jinoiy ta'qibning oldini olish, sudga qadar ish yuritish jarayonini insonparvarlashtirish hamda jinoyat-huquqiy ta'sir choralari individuallashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tahlillar natijalari mazkur institutni faqatgina protsessual mexanizm sifatida emas, balki jinoyat huquqida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qiluvchi moddiy-huquqiy normalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks huquqiy institut sifatida baholash zarurligini ko'rsatdi. Bu esa jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va tugatish masalalarini hal qilishda moddiy va protsessual huquq normalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Tahlillar doirasida amalga oshirilgan qiyosiy-huquqiy tahlillar qo'shni davlatlar qonunchiligida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarni qo'llashning inson huquqlari ustuvorligi, dispozitivlik, protsessual adolat va rehabilitatsiya kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan o'ziga xos yondashuvlari mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, jabrlanuvchining protsessual pozitsiyasini hisobga olish, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining jinoyat ishini tugatishga e'tiroz bildirish huquqini ta'minlash, mediativ usullarni qo'llash, jinoyat ishini tugatishning huquqiy oqibatlarini tushuntirish hamda qaysi asoslar rehabilitatsiyaga olib kelishini aniq belgilash kabi huquqiy mexanizmlar jinoyat protsessida insonparvarlik tamoyilini kuchaytirishga xizmat qilishi asoslandi.

Shu bilan birga, milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarni tizimlashtirish, ularni yagona protsessual normalar doirasida aniq va izchil tartibga solish, rehabilitatsiya qilinadigan va rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslarni aniq ajratish, jabrlanuvchi roziligini talab qiluvchi holatlarni kengaytirish hamda jinoyat ishini sudga qadar bosqichda tugatishning aniq protsessual tartibini belgilash maqsadga muvofiqligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bundan tashqari, surishtiruvchi va tergovchilarning prokuror roziligi asosida javobgarlikdan ozod qiluvchi asoslarni qo'llash vakolatlarini aniqlashtirish, gumon qilinuvchiga qabul qilinayotgan qarorning huquqiy oqibatlarini tushuntirish majburiyatini mustahkamlash hamda jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga qaratilgan protsessual kafolatlarni kuchaytirish zarurligi belgilandi.

Umuman olganda, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar institutini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, jinoyat protsessida davlat va shaxs manfaatlarini o'rtasida muvozanatni saqlash, shuningdek sudga qadar ish yuritish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur sohada qonunchilikni yanada takomillashtirish esa jinoyat-protsessual munosabatlarning adolat, qonuniylik va insonparvarlik prinsiplari asosida rivojlanishini ta'minlashning muhim huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // "O'zbekiston – 2030 strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. 30.01.2025 yildagi PF-16-son <https://www.lex.uz/docs/7369703> murojaat sanasi 01.05.2026 yil

2. Всеобщая декларация прав человека 1948 г. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/

[declhr.shtml](#) murojaat sanasi 01.05.2026 yil

3. Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка ООН, 1979 г. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code_of_conduct.shtml murojaat sanasi 01.05.2026 yil

4. Статус МУС, 32. Международный уголовный суд 9.6.2. Основания для освобождения от уголовной ответственности, МУС Руководство по нормам международного права, регулирующим ведение военных действий// – Москва, – С.332 URL: https://www.icrc.org/sites/default/files/document/file_list/factsheet_icc_statute_update.pdf murojaat sanasi 01.05.2026 yil

5. Тухташева У.А. Уголовный процесс: Общая часть. Учебное пособие в 2-х частях. Часть II / Автор-составитель У.А.Тухташева. – Т., 2007. – С.281

6. Муродов Б.Б. Дастлабки терговда жиноят ишени тугатиш масалалари. Юрид. фан. номз... дис. автореферати. – Т.; 2008 –Б.12

7. Русман А.А. Прекращение уголовного дела в связи с примирением сторон на стадии предварительного расследования // Автореф. дис... кан. юрид. наук – Челябинск – 2006. – С.12-14

8. Хабарова Е.А. Прекращение уголовных дел по нереабилитирующим основаниям: система оснований и гарантии прав участников процесса. // Автореф. дис... кан. юрид. наук – Екатеринбург – 2004. – С.18

9. Уголовный Кодекс Республики Таджикистан. Общая часть раздел IV. Освобождение от уголовной ответственности и наказания. Глава 11. Освобождение от уголовной ответственности. Статья 72-75. URL: http://ncz.tj/system/files/Legislation/574_ru_0.pdf murojaat sanasi 01.05.2026 yil

10. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 19.07.2025 г. URL: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30594304 murojaat sanasi 01.05.2026 yil

11. Уголовный Кодекс Кыргызской Республики от 2 февраля 2017 года № 19. URL: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/111527> murojaat sanasi 01.05.2026 yil

12. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2025 года № 129. URL: https://continent-online.com/Document/?doc_id=36639004 murojaat sanasi 01.05.2026 yil

13. Уголовный кодекс Республики Казахстан (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.09.2025 г.) URL: <https://online.zakon.kz/> murojaat sanasi 01.05.2026 yil

14. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.09.2025 г.) URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231> murojaat sanasi 01.05.2026 yil

15. Уголовный кодекс Туркменистана от 12 июня 1997 года № 222-I (с изменениями и дополнениями по состоянию на 13.11.2025 г.) URL: https://continent-online.com/Document/?doc_id=31295286 murojaat sanasi 01.05.2026 yil

16. Головки Леонид Викторович Уголовный процесс: учебник / Л.В. Головки. – Москва: Статут, 2023. – 126 с.

17. Перетьятко Н.М., Федюнин А.Э. Прекращение уголовного дела и уголовного преследования: проблемы теории и практики // Российская юстиция. – 2021. – № 7. – С. 42–47.

18. Гаджиева А.А., Караев К.С. Соотношение прекращения уголовного дела и прекращения уголовного преследования в уголовном процессе // Закон и право. – 2022. – № 9. – С. 115–120.

19. Кучеров Г.Н. Диспозитивные начала прекращения уголовного дела в современном уголовном процессе // Вестник уголовного судопроизводства. – 2020. – № 3. – С. 28–35.

20. Гриненко А.В. Уголовный процесс: учебник / А.В. Гриненко. – 9-е изд., перераб. и доп. – Москва: Норма; ИНФРА-М, 2024. – 816 с.

21. Иванов Д.В. Примирение сторон как основание прекращения уголовного дела: вопросы правоприменения // Законность. – 2021. – № 11. – С. 33–38.

22. Клешина Е.Н. Процессуальные гарантии потерпевшего при прекращении уголовного дела // Российский следователь. – 2022. – № 5. – С. 17–22.

23. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov Departamentining 21.03.2026-yildagi 18/2509-sonli ma'lumotnomasi kirish raqami № 1645. 28.03.2026-yil

KUDRATOV Sanjar Marupovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza

qilish akademiyasi Raqamli kriminalistika

ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim katta prokurori

E-mail: sanjar1989@list.ru

SUD-EKSPERTIZA MUASSASALARI XULOSALARINI BAHOLASH MEZONLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): KUDRATOV S.M. Sud-ekspertiza muassasalari xulosalarini baholash mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 140-147.

3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-014>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jinoyat protsessida sud eksperti xulosasining dalil sifatidagi protsessual mohiyati, uni baholash mezonlari va amaliyotda yuzaga kelayotgan nazariy-huquqiy muammolar kompleks tahlil qilinadi. Maqolada ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi, maqbulligi hamda boshqa dalillar bilan o'zaro muvofiqligi uning isbotlash jarayonidagi ahamiyatini belgilaydigan asosiy omillar sifatida yoritiladi.

Muallif amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda ekspert xulosasini baholashga doir maxsus va differensial tartib yetarlicha mustahkamlanmaganini asoslab, bu holat huquqni qo'llash amaliyotida turlicha yondashuvlarga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Maqolada protsessual talablarga rioya etish, ekspertning vakolati va xolisligini aniqlash, tadqiqot obyektlari hamda qiyosiy namunalarning haqiqiyliigi, qo'llanilgan metodikalarning ilmiy ishonchliligi, xulosaning mantiqiy izchilligi va tushunariligi alohida mezonlar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari xulosalarini baholashda yagona normativ-metodik yondashuvni shakllantirish zarurati asoslanadi. Xulosa qismida taklif etilgan mezonlarni amaliyotga joriy etish dalillarni baholash samaradorligini oshirish, protsessual xatolarning oldini olish va odil sudlov sifatini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etiladi. Maqolada jinoyat ishlarida maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual kafolatlarini kuchaytirish, ekspert xulosasining daliliy qiymatini xolis baholash va sud-tergov faoliyatida yagona standartlarni qaror toptirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir hamda nazariy jihatdan muhim sanaladi.

Kalit so'zlar: sud ekspertizasi, davlat va nodavlat sud eksperti, ekspert xulosasi, dalillar, jinoyat protsessi, baholash mezonlari, protsessual talablar, ilmiy asoslanganlik, xolislik, ishonchlilik.

КУДРАТОВ Санжар Марупович

Старший прокурор отдела

Научно-исследовательского института цифровой криминалистики

Правоохранительной академии Республики Узбекистан

E-mail: sanjar1989@list.ru

КРИТЕРИИ И ОСОБЕННОСТИ ОЦЕНКИ ЗАКЛЮЧЕНИЙ СУДЕБНО-ЭКСПЕРТНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно анализируются процессуальная сущность заключения судебного эксперта как доказательства в уголовном процессе, критерии его оценки, а также

теоретико-правовые проблемы, возникающие в правоприменительной практике. В исследовании научная обоснованность, достоверность, допустимость заключения эксперта и его согласованность с иными доказательствами рассматриваются в качестве основных факторов, определяющих его значение в процессе доказывания.

Автор обосновывает, что в действующем уголовно-процессуальном законодательстве специальный и дифференцированный порядок оценки заключения эксперта закреплён недостаточно, что обуславливает формирование различных подходов в правоприменительной практике. В статье в качестве самостоятельных критериев рассматриваются соблюдение процессуальных требований, установление компетентности и объективности эксперта, подлинность объектов исследования и сравнительных образцов, научная надёжность применённых методик, логическая последовательность и ясность заключения. Кроме того, обосновывается необходимость формирования единого нормативно-методического подхода к оценке заключений государственных и негосударственных судебно-экспертных организаций.

В заключительной части отмечается, что внедрение предложенных критериев в практику будет способствовать повышению эффективности оценки доказательств, предупреждению процессуальных ошибок и обеспечению качества правосудия. Результаты исследования имеют значение с точки зрения укрепления процессуальных гарантий использования специальных знаний по уголовным делам, объективной оценки доказательственного значения экспертного заключения и формирования единых стандартов в судебно-следственной деятельности.

Ключевые слова: судебная экспертиза, государственный и негосударственный судебный эксперт, экспертное заключение, доказательства, уголовный процесс, критерии оценки, процессуальные требования, научная обоснованность, объективность, достоверность.

SANJAR Kudratov

Senior Prosecutor of the Department,
Research Institute of Digital Forensics,
Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
E-mail: sanjar1989@list.ru

CRITERIA FOR EVALUATING THE CONCLUSIONS OF FORENSIC EXPERT INSTITUTIONS AND THEIR SPECIFIC FEATURES

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of the procedural nature of a forensic expert's opinion as evidence in criminal proceedings, the criteria for its assessment, and the theoretical and legal issues arising in law enforcement practice. The study examines the scientific validity, reliability, admissibility, and consistency of an expert opinion with other evidence as key factors determining its significance in the process of proof.

The author substantiates that the current criminal procedural legislation does not sufficiently establish a special and differentiated procedure for assessing expert opinions, which leads to divergent approaches in law enforcement practice. The article considers compliance with procedural requirements, determination of the expert's competence and impartiality, authenticity of the objects of examination and comparative samples, scientific reliability of the applied methodologies, logical consistency, and clarity of the opinion as separate assessment criteria. In addition, the necessity of developing a unified regulatory and methodological approach to the assessment of opinions issued by both state and non-state forensic expert institutions is substantiated.

The conclusion notes that the implementation of the proposed criteria in practice will contribute to improving the effectiveness of evidence assessment, preventing procedural errors, and ensuring the quality

of justice. The findings of the study are significant in terms of strengthening procedural guarantees for the use of special knowledge in criminal cases, ensuring an objective assessment of the evidentiary value of expert opinions, and establishing unified standards in judicial and investigative practice.

Keywords: forensic examination, state and non-state forensic expert, expert conclusion, evidence, criminal proceedings, evaluation criteria, procedural requirements, scientific validity, impartiality, reliability.

O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritishda maxsus bilimlardan foydalanish, xususan jinoyat protsessida sud ekspertizasining isbotlashdagi ahamiyati ortib bormoqda. Sud-ekspertiza tadqiqotlari ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlashda obyektiv va ishonchli dalil manbai sifatida muhim o'rin tutadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot sud ekspertizasining yangi turlari va metodikalarini joriy etish, mavjud usullarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi va protsessual ahamiyatini baholash tergovchi, prokuror va sud uchun muayyan murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Sud eksperti xulosasi jinoyat protsessidagi boshqa dalillar kabi tekshirish va baholashning umumiy protsessual talablariga bo'ysunadi. Ekspertizaning samaradorligi tadqiqot turini to'g'ri belgilash, obyektlarni to'liq taqdim etish hamda ekspert oldiga qo'yiladigan savollarni aniq, mantiqiy va protsessual jihatdan asosli shakllantirishga bog'liq. Ekspertiza qonunchilikda belgilangan tartibda tayinlanib, materiallarni taqdim etish, ekspertni huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish, tadqiqot o'tkazish va xulosani rasmiylashtirish bosqichlarini qamrab oladi.

Ekspert xulosasining protsessual mohiyati – jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yuzasidan mustaqil dalil manbai bo'lishidir. U ekspertning maxsus bilimlari asosida, jinoyat ishi materiallarini o'rganish natijasida shakllantiriladi.

Olimlarimiz D. Bazarova va I. Astanovlarning fikriga ko'ra sud ekspertiza xulosasi muayyan huquqiy (protsessual-huquqiy) xususiyatga ega. "Ekspertiza xulosasi – ekspertiza tadqiqoti natijasida ekspertning fan, texnika, san'at, kasb-hunar sohalari bo'yicha maxsus bilimidan foydalanib, surishtiruvchi, tergovchi, sud tomonidan yuborilgan ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror, ajrimda aks etgan savollariga bergan javobi aks etgan dalil manbai hisoblangan protsessual hujjatdir" [1].

O'zbekiston Respublikasi JPKning 184-moddasiga muvofiq, ekspert tekshiruvi natijalari bo'yicha ekspert yoki ekspertlar komissiyasi tomonidan xulosa tuziladi va imzolanadi. Unda ekspertizani o'tkazish asosi, vaqti va joyi, uni tayinlagan organ yoki shaxs, ekspert va ekspertiza tashkiloti haqidagi ma'lumotlar, qo'yilgan savollar, tadqiqot obyektlari, ish materiallari, qo'llanilgan usullar hamda ular asosida berilgan javoblar aks ettiriladi.

Ekspert xulosasiga tadqiqot natijalarini tasdiqlovchi materiallar ilova qilinib, ular xulosaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar tadqiqot obyektlari, materiallar yoki ekspertning maxsus bilimlari qo'yilgan savollarga javob berish uchun yetarli bo'lmasa, bu holat xulosada asoslantirilishi lozim. JPKning 185-moddasiga ko'ra, savollarni maxsus bilimlar asosida hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, ekspert xulosa berishning iloji yo'qligi haqida asoslantirilgan hujjat tuzadi [2].

Shu bilan birga, ekspert xulosasini baholashda qo'llanilgan metodikaning ilmiy asoslanganligi, tadqiqot jarayonining to'g'riligi va xulosalarning ishonchliligini maxsus bilimlarsiz xolis baholash qiyin. Amaliyotda ekspert hal etgan masalalar uning vakolati va kompetensiyasi doirasiga kirishini aniqlash ham murakkablik tug'diradi.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda ekspert xulosasini baholashning maxsus tartibi batafsil belgilanmaganligi sababli u umumiy dalillarni baholash mezonlari asosida tekshiriladi. Biroq ekspert xulosasi maxsus bilimlarga asoslangan mustaqil dalil manbai sifatida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uni baholashda aniq, ilmiy asoslangan va differensial yondashuv zarur.

L.O. Barakayevning fikricha, ekspert xulosasini baholashda, eng avvalo, xulosa obyektining ishga daxldorligi, maqbulligi, ishonchliligi, taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi, qo'llanilgan metodikaning ilmiy asoslanganligi, shuningdek xulosaning obyektiv, aniq va tushunarli ifodalangani tekshirilishi shart. Bu yondashuv ekspert xulosasini baholashda universal mezonlar tizimini taklif etadi" [3].

Fikrimizcha, amaliyot uchun L.O. Barakayevning mezonlar tizimi nisbatan samaraliroq, chunki u ekspert xulosasini faqat protsessual shakl nuqtayi nazaridan emas, balki uning ilmiy asoslanganligi va isbotlovchi ahamiyati bilan birga baholash imkonini beradi.

Ekspertiza maxsus bilimga ega shaxs - ekspert tomonidan o'tkaziladi. Hozirgi kunda respublikamizda davlat sud-ekspertiza muassasalari bilan bir qatorda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari ham rivojlanib, ularni jinoyat ishlari yurituviga jalb etish ehtiyoji ortib bormoqda.

Shu bois ekspert xulosasini isbotlash subyektlari tomonidan baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, unda bayon etilgan faktlar tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va sudyaning ichki ishonchini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 187-moddasiga ko'ra, ekspert xulosasi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Ekspertning xulosasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud uchun muqarrar daliliy kuchga ega emas. Xulosaga qo'shilmaslik qarorda yoki ajrimda asoslab berilishi lozim.

Agar jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha bir necha ekspertiza o'tkazilgan va ekspertlar bir xil fikrga kelmagan bo'lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ba'zi ekspertlarning xulosalariga qo'shilish va boshqa ekspertlarning xulosalariga qo'shilmaslik to'g'risidagi o'z fikrini asoslab berishi lozimligi belgilangan.

Bu borada olimlarimiz A.X. Raxmankulov va D.M. Mirazovlar tomonidan ham "ekspert xulosasi tergovchi tomonidan ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtayi nazaridan baholashi" haqida fikr yuritgan [4].

Ekspert xulosasini jinoyat ishi bo'yicha boshqa dalillar bilan tahlil qilish va taqqoslashda isbotlash subyektlari barcha dalillarni baholash natijasi ularning jinoyat ishini mazmunan hal qilish uchun yetarli ekanligi to'g'risidagi xulosani inobatga olishlari lozim.

Y.V. Kudryavsev ekspert xulosasini baholashda, avvalo, uning ekspertiza o'tkazishga oid qonunchilik va idoraviy talablarga muvofiqligini tekshirish, keyin xolislik, to'liqlik va ishonchlilik mezonlari asosida baholash, yakunda esa xulosaning rasmiylashtirilishini tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [5].

Fikrimizcha, A.X. Raxmankulov va D.M. Mirazovlarning yondashuvi ekspert xulosasini jinoyat ishidagi boshqa dalillar bilan birgalikda baholash zarurligini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. Bu yondashuv dalillar tizimida ekspert xulosasining o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. Y.V. Kudryavsevning qarashi esa nisbatan kengroq bo'lib, unda ekspert xulosasini baholashda avvalo uning qonuniyligi, so'ng xolisligi, to'liqligi, ishonchliligi hamda rasmiylashtirilish sifati tekshirilishi lozimligi asoslanadi.

Shu sababli, amaliyot uchun Kudryavsev tomonidan ilgari surilgan yondashuv samaraliroq hisoblanadi. Chunki u ekspert xulosasini faqat boshqa dalillar bilan taqqoslash bilangina cheklanmay, balki uning protsessual tartibga muvofiqligi, ilmiy asoslanganligi va daliliy kuchini kompleks baholash imkonini beradi.

Sud amaliyoti ham ekspert xulosasini boshqa dalillardan ajratilgan holda qabul qilish noqonuniy va asossiz qarorlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, Buxoro viloyati sud amaliyotiga oid ishda birinchi instansiya sudi dastlabki va qo'shimcha sud-tibbiy ekspertiza xulosalarini maqbul dalil sifatida baholagan. Apellyatsiya instansiyasi qayta va komission sud-tibbiy ekspertizalarni tayinlaganidan so'ng, burun suyagi sinishi yangi emas, balki eski jarohat ekani aniqlangan. Natijada dastlabki ekspert xulosalari nomaqbul deb topilib, ayblov hukmi bekor qilingan va shaxs oqlangan [6].

Keyingi bosqichda ekspertning mutaxassisligi tayinlangan ekspertiza turiga muvofiqligi, uning protsessual huquq va javobgarlik to'g'risida ogohlantirilgani hamda ekspertiza o'tkazishga oid qonunchilik talablariga amal qilingani baholanadi. Baholovchi subyekt maxsus bilimlarga ega bo'lmagan hollarda tadqiqot jarayonini to'liq ilmiy baholay olmasligi mumkin, biroq qo'llanilgan metodikaning ilmiy asoslanganligi, amaliyotda tan olinganligi va ilmiy manbalar bilan tasdiqlanganligini umumiy tarzda tekshirishi mumkin.

Shuningdek, ekspert oldiga qo'yilgan savollar va berilgan javoblar o'rtasidagi muvofiqlik, javoblarning to'liqligi, xolisligi va mantiqiy izchilligi baholanishi zarur. Ekspert xulosalari tadqiqot jarayoni va uning natijalariga bevosita asoslangan bo'lishi lozim.

Masalan, E.P. Potsinkaya va E.I. Galyashina ekspert xulosasini baholashni bir nechta o'zaro bog'liq bosqichlarda amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydilar [7]. Unga ko'ra, dastlab ekspertiza tayinlashda qonun talablariga rioya etilgani, tadqiqot obyektlari va namunalarning haqiqiyliigi hamda yetarliligi tekshiriladi. Keyin qo'llanilgan metodikaning ilmiy asoslanganligi va muayyan holatda qo'llashga muvofiqligi baholanadi.

Bizningcha, ekspert xulosasini baholash uni bevosita bir nechta o'zaro bog'liq bo'limlar kesimida tahlil qilish orqali amalga oshirilishi lozim.

Baholashning har bir bosqichiga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Protsessual talablarga rioya etilgan-etilmaganligini tekshirish.

Ekspert xulosasini baholashda, avvalo, ekspertizani o'tkazgan subyektning shaxsi, kasbiy malakasi, xolisligi va protsessual maqomi tekshirilishi lozim.

Fikrimizcha, mazkur masala ekspertizani tayinlashga tayyorgarlik bosqichida hal etilishi maqsadga muvofiq. Chunki ekspert nomzodining maxsus bilimi, vakolati va qonun talablariga muvofiqligini oldindan aniqlash kelgusida xulosaning ishonchliligiga oid shubhalarni kamaytiradi, takroriy ekspertiza tayinlash ehtimolini cheklaydi hamda jinoyat protsessi asossiz cho'zilishining oldini oladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 64-moddasiga muvofiq, xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs ekspert sifatida jalb etilishi mumkin. Davlat sud ekspertining malakasi esa "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning 11-moddasida belgilangan talablar orqali aniqlanadi. Unga ko'ra, davlat sud eksperti tegishli ma'lumotga, muayyan sud-expert ixtisosligi bo'yicha tayyorgarlikka va belgilangan tartibdagi attestatsiyaga ega bo'lishi lozim [8].

Biroq amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi va "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunda nodavlat sud ekspertlari uchun aniq malaka mezonlari yetarlicha belgilanmagan. Ushbu huquqiy bo'shliq ularning jinoyat protsessidagi maqomi, ekspert tadqiqotlari sifati va xulosalarining ishonchliligiga oid nazariy hamda amaliy muammolarni yuzaga keltiradi.

Ekspert xulosasining maqbulligini ta'minlovchi muhim protsessual kafolatlardan biri ekspertni rad etish asoslarini tekshirishdir. JPKning 78-moddasiga ko'ra, ekspert ishda ishtirok etayotgan shaxslarga xizmat yoki boshqa jihatdan tobe bo'lsa, uning xolisligiga shubha tug'diruvchi holatlar mavjud bo'lsa, kasbiy noliyqligi ayon bo'lsa yoki ish qo'zg'atilishiga asos bo'lgan taftish yoxud idoraviy tekshiruvda ishtirok etgan bo'lsa, jinoyat ishini yuritishda ekspert sifatida qatnashishi mumkin emas.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan namunaviy nizomda nodavlat sud eksperti tomonidan tadqiqot o'tkazishni istisno etuvchi holatlar belgilangan. Unga ko'ra, qarindoshlik, mulkiy, tashkiliy yoki boshqa manfaatdorlik, shuningdek, ekspertning xolisligi va beg'arazligiga shubha uyg'otuvchi holatlar mavjud bo'lsa, ekspertiza o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday vaziyatda ekspert rahbarni xabardor qilishi, rahbar esa tadqiqotni boshqa ekspertga topshirishi yoki materiallarni ijrosiz qaytarishi lozim. Mazkur talablarni buzish qonunchilikda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi [9].

Ekspert xulosasini baholashda qiyosiy tadqiqot uchun namunalar olishning protsessual tartibiga rioya etilgani ham muhim ahamiyatga ega. Bunda nafaqat dastlabki tergov jarayonida olingan namunalar, balki ekspert tadqiqotining tayyorgarlik va eksperimental bosqichlarida shakllantirilgan namunalar ham baholanadi. Shu sababli isbotlash subyektlari jinoyat-protsessual talablar bilan bir qatorda kriminalistik qoidalarini ham inobatga olishlari zarur.

Ayniqsa, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tintuv yoki olib qo'yish jarayonida olingan izlar va ashyoviy dalillarning protsessual taqdiri alohida baholanishi lozim. Ularni aniqlash, olib qo'yish, bayonnomada aks ettirish, qadoqlash, tashish, keyinchalik ko'zdan kechirish va ashyoviy dalil sifatida tan olish tartibiga rioya etilgani ekspert xulosasining maqbulligiga bevosita ta'sir qiladi. Agar ekspert xulosasi qonun buzilishi bilan olingan dalillarga asoslangan bo'lsa, u maqbul dalil sifatida e'tirof etilmasligi mumkin.

Shuningdek, tadqiqotda foydalanilgan namunalarning yetarliligi, yaroqliligi, tekshiruv vaqtidagi holati, ularning aynan qaysi obyektlarga tegishli ekani, ashyoviy dalillar bilan aralashtirilmagani hamda ekspert tomonidan eksperimental namunalar olish tartibi tekshirilishi lozim. Bunda ashyoviy dalillarning individual belgilari bayonnoma va qarorlardagi ma'lumotlar bilan ekspert xulosasidagi tadqiqot obyektlari tavsifi orqali solishtiriladi.

Tadqiqot obyektlarining haqiqiyliigi va yetarliligini baholash, qo'llanilgan ekspert metodikalarining ilmiy asoslanganligi, tadqiqotning to'liqligi va har tomonlamaligini baholash.

Ekspert xulosasining maqbulligini baholash ekspertiza obyektlarining qonuniy manbalardan va protsessual tartibga muvofiq olinganligini aniqlashdan boshlanadi. Obyektlarni g'ayri-prosessual usulda olish, ekspertizani vakolatsiz shaxs tomonidan tayinlash yoki ekspert vakolatiga kirmaydigan masalalar yuzasidan xulosa berish uning daliliy ahamiyatini shubha ostiga qo'yadi.

Ekspertizani tayinlash va o'tkazishda ayblanuvchining qaror yoki ajrim bilan tanishish, iltimosnoma kiritish, ekspert xulosasi yuzasidan bayonot va tushuntirish berish huquqlari ta'minlangan bo'lishi lozim. Shu bilan birga, xulosani baholashda qo'llanilgan metodikaning ilmiy asoslanganligi, tadqiqotning to'liqligi, xolisligi va ekspert ixtisosligi doirasida amalga oshirilgani muhim mezon hisoblanadi.

Ekspert metodikasi tadqiqot obyektini o'rganish tartibi, qo'llaniladigan usul va vositalar, natijalarni baholash mezonlari hamda metodikani qo'llash chegaralarini qamrab olgan ilmiy asoslangan tizimdir. Ayniqsa, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida qo'llaniladigan metodikalarning aprobatsiyadan o'tganligi, amaliyotda tan olinganligi va tadqiqot predmetiga muvofiqligi xulosaning ishonchliligini belgilaydi.

Shu bois ekspert xulosasida foydalanilgan manbalarning aniq, zamonaviy va ilmiy asoslangan bo'lishi uning xolisligi, to'liqligi va isbotlovchi ahamiyatini baholashda muhim mezondir. Noaniq, eskirgan yoki ilmiy jihatdan asoslanmagan manbalarga tayanish esa ekspert xulosasining maqbulligi va ishonchliligiga nisbatan asosli shubha tug'diradi.

Xalqaro tajriba ekspert xulosasini baholashda sud faqat uning rasmiy tuzilganligi bilan cheklanmasligi, balki metodikaning ilmiy ishonchliligi va muayyan ish holatlariga to'g'ri tatbiq etilganini ham tekshirishi zarurligini ko'rsatadi. AQSH Federal dalillar qoidalarining 702-qoidasiga ko'ra, ekspert ko'rsatuvi yetarli fakt yoki ma'lumotlarga asoslangan, ishonchli prinsip va metodlar

mahsuli bo'lgan hamda ushbu metodlar ish holatlariga ishonchli tatbiq etilgan bo'lishi kerak. "Daubert v. Merrell Dow Pharmaceuticals" ishida esa sud metodikasining tekshirilganligi, ilmiy nashrlarda muhokama qilinganligi, xatolik darajasi, standartlar mavjudligi va ilmiy jamoatchilikda qabul qilinganligi kabi mezonlarni hisobga olishi lozimligi belgilangan [10].

S.V. Xomutov ta'kidlaganidek, yangi turdagi ekspertizalarni o'tkazishda nostandart tadqiqot usullari va vositalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Zero, bunday yondashuv ishonchsiz xulosalar xavfini oshirib, ekspert tadqiqoti natijalarining ilmiy asoslanganligini baholashni murakkablashtirishi mumkin [11].

Ekspert xulosalarining aniqligi va asoslanganlik darajasini tekshirish, qo'yilgan savollarga muvofiqligi va ish bo'yicha boshqa dalillar bilan taqqoslanishi nuqtayi nazaridan baholanishi.

Ekspert xulosasini baholashda uning aniqligi, to'g'riligi, mantiqiy izchilligi, to'liqligi, qo'yilgan savollarga muvofiqligi hamda ishdagi boshqa dalillar bilan uyg'unligi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Xulosaning aniqligi fikrlarning bir ma'noli bayon etilishida, to'g'riligi esa aniqlangan holatlar bilan yakuniy xulosalar o'rtasidagi muvofiqlikda namoyon bo'ladi. Mantiqiy izchillik tadqiqot jarayoni, oraliq natijalar va yakuniy xulosalarning o'zaro bog'liqligini anglatadi. To'liqlik esa tadqiqotning metodik talablarga muvofiq o'tkazilishi va qo'yilgan savollarga yetarli javob berilishi bilan belgilanadi. Shuningdek, ekspert xulosasi boshqa dalillar bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning ishonchliligi, yetarliligi va dalillar tizimidagi o'zaro muvofiqligi aniqlanadi.

O.V. Chelishcheva va A.I. Borsov ekspert xulosasiga qo'yiladigan muhim talablardan biri sifatida uning tushunarli bo'lishini asosli ravishda ta'kidlaydilar [12]. Bu ekspert xulosasi mazmuni sud protsessi ishtirokchilari uchun maxsus izohlarsiz anglashilarli bo'lishi lozimligini anglatadi.

Fikrimizcha, ochiqlik talabi ekspert xulosasining faqat yakuniy qismi bilan cheklanmasdan, uning butun mazmuniga tatbiq etilishi lozim. Xususan, tadqiqot jarayoni, qo'llanilgan usullar, olingan natijalar va ularning ilmiy asoslari sud protsessi ishtirokchilari uchun, maxsus bilimga ega bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, tushunarli tarzda bayon etilishi, shuningdek xulosaning tadqiqot qismida maxsus atamalar izohlanishi hamda tadqiqot borishi va natijalari aniq qayd etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat protsessida ekspert xulosasini baholash rasmiy-protsessual va mazmuniy mezonlar asosida amalga oshiriladi. Rasmiy mezonlar ekspertizani tayinlash va o'tkazish tartibiga, xulosani rasmiylashtirish talablariga rioya etilgani hamda ekspert ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud emasligini qamrab oladi. Mazmuniy mezonlar esa obyektlarning maqbulligi, materiallarning yetarliligi, xulosalarning tadqiqot natijalari bilan asoslanganligi va ularning isbotlovchi ahamiyatini belgilaydi.

Shu bois tergovchi, prokuror va sud tomonidan, jumladan nodavlat sud eksperti xulosasini baholash amaliyotini bixillashtirish maqsadida ushbu mezonlarni normativ-metodik jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Shu munosabat bilan ekspert xulosasini baholashda quyidagi mezonlarni qo'llash maqsadga muvofiq: ekspertiza tayinlash va o'tkazishda protsessual talablarga rioya etilganligi, ekspertning maxsus bilim va vakolatga egaligi, tadqiqot obyektlari hamda qiyosiy namunalarning haqiqiyliigi va yetarliligi, qo'llangan metodikalarning ilmiy asoslanganligi, tadqiqotning to'liqligi, xulosaning aniqligi, asosliigi va boshqa dalillar bilan uyg'unligi.

Mazkur mezonlarni amaliyotga joriy etish barcha toifadagi sud eksperti xulosalarini, jumladan, nodavlat sud-ekspertlik tashkilotlari tomonidan berilgan xulosalarni baholashda subyektiv yondashuvlarni kamaytirish, protsessual xatolarning oldini olish, dalillarning maqbulligi va ishonchliligini aniqlash samaradorligini oshirish, shuningdek, sud-tergov amaliyotida huquqni qo'llash bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES:

1. Bazarova D., Astanov I.R. Kriminalistika va ekspertiza: darslik. Toshkent: TDYU, 2020. 618 b. Elektron kutubxona: <https://proacademy.uz/uz-lat/e-library/index?alias=478>.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-111460>.
3. Barakayev L.O. Jinoyat ishlarini yuritishda maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanishning nazariy-huquqiy va amaliy muammolari: yurid. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. Toshkent, 2025. ProAcademy avtoreferatlar bazasi: <https://proacademy.uz/ru/menu/avtoreferat>.
4. Raxmankulov A.X., Mirazov D.M. Dastlabki tergov: darslik. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. 455 b. Elektron manba: <https://www.yumpu.com/id/document/view/49837747/dastlabki-tergov-raxmankulov-ax-mirazov-dm-darslik>.
5. Кудрявцев Ю.С. Об оценке экспертного заключения // Судебная власть и уголовный процесс. 2018. № 3. С. 102–106. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ob-otsenke-ekspertnogo-zaklyucheniya>.
6. "Ekspertni chalg'itgan dalil nohaq jazo tayinlanishiga sabab bo'ldi." O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti — Sud.uz. URL: <https://sud.uz/news-2025-03-26-1>
7. Россинская Е.Р., Галяшина Е.И. Настольная книга судьи: судебная экспертиза. Москва: Проспект, 2010. 464 с. URL: https://tse.expert/upload/iblock/c15/Nastolnaya-kniga-sudi.-Sudebnaya-ekspertiza_Rossinskaya-E.R._Galyashina-E.I_2010-464s.pdf.
8. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-1633102>.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6388692>.
10. Federal Rules of Evidence. Rule 702. Testimony by Expert Witnesses. Legal Information Institute, Cornell Law School. URL: https://www.law.cornell.edu/rules/fre/rule_702
11. Хомутов С.В. О некоторых особенностях оценки заключения эксперта следователем и судом // Юристъ-Правовед. 2018. № 4(87). С. 183–188. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-nekotoryh-osobennostyah-otsenki-zaklyucheniya-eksperta-sledovatelem-i-sudom>.
12. Чельщикова О.В., Борсов А.И. К вопросу об оценке заключения судебной экспертизы // Актуальные проблемы науки и практики: гатчинские чтения – 2019: сборник научных трудов. 2019. URL: <https://lawinfo.ru/articles/2690/osobennosti-ocenki-sudebno-ekspertnogo-zaklyucheniya-na-primere-avtoekspertizy>.

YUNUSOV Xaydarali Muratovich

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
Tadqiqot markazining yetakchi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar doktori (DSc)
ORCID: 0000-0002-3945-3491
E-mail: yunusovkm@gmail.com

MARKAZIY OSIYODA ATROF-MUHITGA TRANSCHEGARAVIY TA'SIR MASALALARI: XALQARO-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): YUNUSOV X. M. Markaziy Osiyoda atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir masalalari: xalqaro-huquqiy tartibga solish muammolari va yechimlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 148-157.



3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-015>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir yetkazish muammolari va ularni xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish masalalari tahlil qilingan. Mintaqada transchegaraviy ekologik xavf-xatar manbalari sifatida suv resurslari taqsimotidagi nomuvofiqlik, Orol dengizi inqirozi, sanoat chiqindilari va uran qoldiqxonalari radiatsiyasi ko'rsatilgan. Muallifning fikricha, Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid nufuzli xalqaro hujjatlar (Espo, Xelsinki, Nyu York, Orxus konvensiyalari va ularning protokollari)ning bir xilda ratifikatsiya qilinmagani yagona huquqiy majburiyatlar maydonini yaratish va nizolarni samarali hal etishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, muallif transchegaraviy zararni baholash va kompensatsiya qilishning murakkabligini xalqaro sud amaliyoti ("Treyl Smelter", "Gabchikova-Nadmarosh", "Lanu ko'li" ishlari) va Yevropa Ittifoqi tajribasi asosida ochib beradi. Maqolaning xulosa qismida ekologik xavfsizlik masalalarini siyosiyashtirmasdan, yagona transchegaraviy monitoring tizimini joriy etish, milliy qonunchiliklarda "transchegaraviy ta'sir yoyilgan hudud" tushunchasini mustahkamlash zarurligi ko'rsatilgan. Muallif muammoning amaliy yechimi sifatida mintaqada ekologik sug'urta bozorini rivojlantirishni, shuningdek, Davlatlararo kotibiyat, Mintaqaviy ekspertiza byurosi va Transchegaraviy zararni qoplash bo'yicha ko'ptomonlama moliyaviy jamg'arma ta'sis etish takliflarini ilgari suradi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, transchegaraviy ta'sir, ekologik ekspertiza, ekologik zarar, xalqaro-huquqiy javobgarlik, ekologik sug'urta, kompensatsiya, restoratsiya, sud amaliyoti.

ЮНУСОВ Хайдарали Муратович

Ведущий научный сотрудник Исследовательского центра
факультета Международного права и сравнительного правоведения
Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук (DSc)
ORCID: 0000-0002-3945-3491
E-mail: yunusovkm@gmail.com,

ВОПРОСЫ ТРАНСГРАНИЧНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются проблемы трансграничного воздействия на окружающую среду в регионе Центральной Азии и вопросы их международно-правового регулирования. В качестве источников трансграничных экологических рисков и угроз в регионе указаны диспропорции в распределении водных ресурсов, кризис Аральского моря, промышленные отходы и радиация урановых хвостохранилищ. По мнению автора, неравномерная ратификация государствами Центральной Азии авторитетных международных документов в области экологии и охраны окружающей среды (Эспо, Хельсинкской, Нью-Йоркской, Орхусской конвенций и протоколов к ним) препятствует созданию единого пространства правовых обязательств и эффективному разрешению споров. Также автор на основе международной судебной практики (дела "Трейл Сметтер", "Габчиково-Надьмарош", "Озеро Лану") и опыта Европейского Союза раскрывает сложность оценки и компенсации трансграничного ущерба. В заключительной части статьи указывается на необходимость внедрения единой системы трансграничного мониторинга без политизации вопросов экологической безопасности, а также закрепления в национальных законодательствах понятия "зона трансграничного воздействия". В качестве практического решения проблемы автор предлагает развитие рынка экологического страхования, а также выдвигает предложения по учреждению Межгосударственного секретариата, Регионального экспертного бюро и Многостороннего финансового фонда по возмещению трансграничного ущерба.

Ключевые слова: окружающая среда, трансграничное воздействие, экологическая экспертиза, экологический ущерб, международно-правовая ответственность, экологическое страхование, компенсация, ресторация, судебная практика.

KHAYDARALI YUNUSOV

Leading Research Fellow at the Research Center of the
Faculty of International Law and Comparative Legal Studies,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Legal Sciences (DSc)
ORCID: 0000-0002-3945-3491
E-mail: yunusovkm@gmail.com

THE ISSUES OF TRANSBOUNDARY ENVIRONMENTAL IMPACT IN CENTRAL ASIA: PROBLEMS AND SOLUTIONS OF INTERNATIONAL LEGAL REGULATION

ANNOTATION

This article analyzes the problems of transboundary environmental impacts in the Central Asian region and the issues of their international legal regulation. As sources of transboundary ecological risks in the region, the imbalance in water resource distribution, the Aral Sea crisis, industrial waste, and radiation from uranium tailings are highlighted. According to the author, the uneven ratification of authoritative international environmental and environmental protection instruments (the Espoo, Helsinki, New York, and Aarhus conventions and their protocols) by Central Asian states hinders the creation of a unified legal obligation space and the effective resolution of disputes. Furthermore, the author sheds light on the complexity of assessing and compensating for transboundary damage based on international judicial practice (such as the *Trail Smelter*, *Gabčíkovo-Nagymaros*, and *Lake Lanoux* cases) and the experience of the European Union. In the conclusion of the article, it is emphasized that without politicizing environmental security issues, it is necessary to introduce a unified transboundary monitoring system and to enshrine the concept of “transboundary impact zone” in national legislations. As a practical solution to the problem, the author proposes the development of the environmental insurance market, as well as the establishment of an Interstate Secretariat, a Regional Expertise Bureau, and a Multilateral Financial Fund for Compensation of Transboundary Damage.

Keywords: Environment, transboundary impact, environmental expertise, environmental damage, international legal liability, environmental insurance, compensation, restoration, judicial practice.

Markaziy Osiyoda atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir muammosi mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni belgilovchi eng murakkab masalalardan biridir. Mintaqa davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston) umumiy ekotizim va o'xshash iqlim sharoitida geografik va gidrologik jihatdan bir-birlariga chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, bir davlat hududida yuzaga keladigan ekologik muammolar zudlik bilan qo'shni mamlakatlar xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri transchegaraviy ta'sir ko'rsatadi va buning natijasida zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, so'nggi yillarda Qirg'iziston va Tojikistonda qurilayotgan Qambarota-1 va Rog'un gidroelekt stansiyalari (GES) hamda Qozog'iston va O'zbekistonda barpo etilishi rejalashtirilayotgan atom elektr stansiyalari (AES) bilan bog'liq holatlar Markaziy Osiyodagi transchegaraviy ta'sir borasidagi xavotirlarni kuchaytirmoqda.

Transchegaraviy ta'sir deganda, 1991-yil 25-fevralda qabul qilingan va 1997-yil 10-sentabrdak uchga kirgan “Atrof-muhitga transchegaraviy ko'lamda yetkaziladigan ta'sirni baholash to'g'risida”gi Espo konvensiyasining 1.viii-moddasiga muvofiq, “moddiy manbasi boshqa bir Tomonning yurisdiksiyasi ostidagi hududda qisman yoki butunlay joylashgan holda rejalashtirilayotgan faoliyatning boshqa bir Tomon yurisdiksiyasi ostidagi hududda yoki uning ma'lum bir qismida keltirib chiqaradigan har

qanday ta'siri" tushuniladi [1]. Oddiy qilib aytganda, transchegaraviy ta'sir bir davlat hududidan boshqa davlat hududiga ko'chib o'tuvchi va muayyan oqibat tug'diruvchi ta'sirdir.

Konvensiyaning I Ilovasida zararli transchegaraviy ta'sirni keltirib chiqaruvchi faoliyat turlari va obyektlari sanab o'tiladi. Atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi eng keng tarqalgan obyektlar ro'yxatiga masalan quyidagilar kiradi: neft tozalash zavodlari, issiqlik elektr stansiyalari, yadro yoqilg'isini ishlab chiqarish yoki to'yintirish va ularni yo'qotish uchun mo'ljallangan maxsus moslamalar, rangli metallurgiya korxonalari, sement zavodlari, kimyoviy kombinatlar, avtomagistral, katta diametrdagi neft va gaz quvurlari; savdo portlari. I Ilovaning 6 va 10-bandlarida kimyoviy kombinatlar va toksik hamda zaharlovchi chiqindilarni kimyoviy qayta ishlash moslamalari ham atrof-muhitga ta'sir qiluvchi obyektlar turkumiga kiritilgan [2, B.12-13].

Atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sirning turi va ko'lami ta'sir ko'rsatuvchi obyektning tabiati va faoliyat shakliga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Ilovaning 11-bandida yirik to'g'onlar va suv omborlari transchegaraviy ta'sirga ega obyektlar sifatida malakalangan. Mazkur obyektlardan kutiladigan xavfning turiga qarab, ularni "aralash ta'sir qiluvchi obyektlar" deb atash mumkin. Bunday inshootlarning transchegaraviy daryolarda qurilishi ularning transchegaraviy ta'sirini yanada oshirib yuboradi.

Markaziy Osiyoda atrof-muhitga transchegaraviy ta'sirning asosiy manbalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Suv resurslarining transchegaraviy taqsimoti va suvdan foydalanish rejimining nomuvofiqligi. Mintaqadagi eng yirik transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryo yuqori oqim davlatlari – Tojikiston va Qirg'iziston hududida shakllanib, quyi oqim davlatlari – O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston orqali oqib o'tadi. Daryolarning yuqori oqimida joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston suvdan asosan qishda elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun energetik rejimda, quyi oqimdagi O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston esa yozda vegetatsiya va qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan ta'minlash uchun agrar sug'orish (irrigatsiya) rejimida foydalanadi. Yuqori oqimda yirik gidroelektr stansiyalari (GES)ning qurilishi va suvning energetik rejimda oqizilishi quyi oqimdagi davlatlarda vegetatsiya (sug'orish) davrida suv taqchilligini, qish faslida esa mavsumiy suv bosish xavfini tug'diradi.

2. Orol dengizi inqirozi. Bir necha o'n yilliklar davomida transchegaraviy daryolar oqimining noto'g'ri boshqarilishi natijasida yuzaga kelgan global ekologik fojia tufayli dengizning qurigan tubidan yiliga millionlab tonna tuz va chang zarralari shamol vositasida qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Turkmaniston) hududiga, hatto Pomir va Tyan-Shan muzliklariga qadar etib borib, ularning erishini tezlashtirmoqda.

3. Sanoat korxonalarining atmosfera va daryolarni ifloslantirishi. Transchegaraviy kontekstda havo massalarining ko'chishi natijasida kimyoviy va metallurgiya sanoati chiqindilari qo'shni davlatlar ekologiyasiga zarar etkazadi. Masalan, Tojikiston alyuminiy kompaniyasi (TALCO) chiqindilarining transchegaraviy havo oqimlari orqali O'zbekistonning chegaradosh hududlari (ayniqsa, Surxondaryo viloyati) atrof-muhiti va aholi salomatligiga ko'rsatgan transchegaraviy ta'siri uzoq yillar davomida ikki tomonlama bahsli mavzulardan biri bo'lib kelgan.

4. Uran qoldiqlari va radiatsiyaviy zaharlanish xavfi. Markaziy Osiyoda (xususan, Qirg'izistonning Mayлуу-Suu, Tojikistonning Istiqlol va Qozog'istonning bir qator hududlarida) sobiq Sovet davridan qolgan uran chiqindixonalari mavjud. Mazkur obyektlarning aksariyati transchegaraviy daryolar qirg'oqlariga yaqin sel va zilzila xavfi yuqori bo'lgan seysmik faol hududlarda joylashgan bo'lib, ularning shikastlanishi butun mintaqa suv tizimining radiatsiyaviy zaharlanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, kuchli sel yoki zilzila oqibatida ushbu zaharli moddalarning daryolarga qo'shilishi butun Farg'ona vodiysi va undan quyidagi hududlar uchun to'g'ridan-to'g'ri radiatsiyaviy xavf tug'diradi.

So‘nggi yillarda mintaqa davlatlari o‘rtasidagi konstruktiv muloqot va yaxshi qo‘shnichilik siyosati sezilarli darajada yaxshilangan bo‘lsa-da, atrof-muhitga transchegaraviy ta‘sir sohasida tizimli muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Ularni shartli ravishda 4 ta guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi toifadagi muammolar Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida huquqiy majburiyatlarning bir xil emasligida namoyon bo‘ladi. Mintaqa davlatlarining barchasi ham ekologiyaga oid xalqaro konvensiyalarni birdek ratifikatsiya qilmagan (masalan, Espo konvensiyasiga hamma davlat ham a‘zo emas). Bu esa yagona huquqiy majburiyatlar maydonini yaratishda qiyinchiliklar tug‘diradi hamda transchegaraviy nizolarni yagona xalqaro huquq me‘yorlari asosida hal etishda huquqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltiradi.

Ikkinchi turdagi muammolar tabiiy omil, ya‘ni iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Haroratning ko‘tarilishi natijasida Markaziy Osiyo muzliklarining tez sur‘atlar bilan erishi transchegaraviy suv resurslari hajmining kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa yaqin kelajakda transchegaraviy suv tanqisligini yanada kuchaytirishi va resurslar uchun raqobatni chuqurlashtirishi mumkin.

Uchinchi turdagi muammolar asosida manfaatlar qarama-qarshiligi va to‘qnashuvi yotadi: yuqori oqim davlatlarining energetik ehtiyojlari bilan quyi oqim davlatlarining irrigasiya (qishloq xo‘jaligi) ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash hamon murakkab muzokaralar talab etadigan masala bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchi turdagi muammolar ekologik ekspertizalarning sustligi bilan izohlanishi mumkin: yirik iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqish bosqichida mustaqil va xolis transchegaraviy ekologik baholash (Environmental Impact Assessment) mexanizmlaridan to‘liq foydalanilmayapti.

Transchegaraviy ta‘sir oqibatida atrof-muhitga keltirilgan zarar transmilliy xarakter kasb etganda, xalqaro-huquqiy javobgarlik vujudga keladi. Havo va suv oqimlari transchegaraviy zararni tarqatuvchi vositalar hisoblanadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy qoidalaridan biri – transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanishda atrof-muhitga keltirilgan zarar uchun javobgarlikka tortish va keltirilgan zararni qoplash tamoyilidir. Mazkur tamoyil, ayniqsa, “Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi BMT Xelsinki konvensiyasining 2.5.(v)-moddasi [3] hamda “Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovlaridan boshqa yo‘nalishlarda foydalanish huquqi to‘g‘risida”gi Nyu York konvensiyasining 7-moddasida o‘z aksini topgan [4]. Xususan, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining “Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Xelsinki konvensiyasiga ilova qilingan 2003-yildagi “Transchegaraviy daryolarga sanoat avariylarining transchegaraviy ta‘siri oqibatida yetkaziladigan zararga nisbatan fuqaroviy javobgarlik va zararni qoplashga oid” Kiev Qo‘shimcha Protokolida transchegaraviy suv oqimlariga yetkazilgan zararni tiklash yo‘lidagi xarajatlarning qoplanishi ko‘zda tutilgan [5].

Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun ekologik javobgarlikning ayrim jihatlari “Atrof-muhitga transchegaraviy ko‘lamda yetkaziladigan ta‘sirni baholash to‘g‘risida”gi Espo konvensiyasi va unga qo‘shimcha qilingan 2003-yildagi “Strategik ekologik baholash” to‘g‘risidagi Protokolda hamda “Atrof-muhitga oid masalalarda ma‘lumot olish, qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovga murojaat qilish huquqi to‘g‘risida”gi 1998-yilda qabul qilingan Orxus konvensiyasi va unga qo‘shimcha qilingan 2003-yildagi “Chiqindilarni ro‘yxatga olish va ifloslantiruvchi ashyolarni tashishga oid Protokol”da bayon etilgan.

Espo konvensiyasida mazkur shartnoma normalarini buzganlik uchun tegishli davlatga sanksiya qo‘llash, shubha ostidagi faoliyatni to‘xtatib qo‘yishgacha bo‘lgan choralar ko‘rish imkoniyatlari belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, Konvensiya normalarini implementasiya qilish bo‘yicha nazorat organi – Ijroiyy qo‘mita reglamentiga muvofiq, huquqbuzar davlatga nisbatan chora ko‘rish masalasi Konvensiyaning oliy organi – Ishtirokchi tomonlar kengashiga taqdim etiladi va ovozga qo‘yiladi [1].

Davlatlarni ekologik zarar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortish sohasidagi hamkorlik 1969-yilda qabul qilingan va 1992-yilda o'zgartirilgan "Neftdan ifloslanish uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risida"gi xalqaro konvensiya misol bo'la oladi. Unda sohilbo'yi davlatlarining tegishli kompensatsiya olishlari uchun yuridik to'siqlarni bartaraf etish, huquqning umumiy qoidalariga asoslangan javobgarlikka tortish tartibini muvofiqlashtirish va ifloslanish manbai tomonidan yetkazilgan zarar uchun to'lov to'lanishini ta'minlash masalalari ko'tarilgan [6].

1989-yil 22-martda qabul qilingan va 1992-yil 5-mayda kuchga kirgan "Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo'q qilishni nazorat qilish to'g'risida"gi Bazel konvensiyasi" va uning 1999-yildagi "Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo'q qilish oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik va kompensatsiya to'g'risida"gi Protokoli transchegaraviy zararni kompensatsiyalash qoidalarini o'rnatadi [7].

Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik masalasi bir qator xalqaro konferensiyalarning ham bosh mavzusi bo'lgan hamda ularning yakunlovchi hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, xalqaro huquq tizimida yetkazilgan ekologik zarar uchun huquqiy javobgarlikning asosiy tamoyillari 1972-yildagi Stokgolm deklaratsiyasi va 1992-yildagi Rio-de-Janeyro deklaratsiyasida sanab o'tiladi. Ayniqsa, 1992-yil 5-iyundagi Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha BMT konferensiyasining Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi davlatlararo hamkorlikning 27 ta prinsipini ilgari surar ekan, keltirilgan ekologik zararning salbiy oqibatlarini kompensatsiyalash va javobgarlikka tortishga oid xalqaro huquq normalarini takomillashtirish borasidagi hamkorlik (13-prinsip) tamoyillarini e'lon qiladi [8].

Xalqaro sudlar amaliyotida atrof-muhitga yetkazilgan transchegaraviy ta'sir va uning oqibatlarini bartaraf etish choralari uchirish mumkin. Bunga Kanada kombinati "Treyl Smelter"ning zararli chiqindilari yuzasidan 1938–1941-yillardagi "AQSh Kanadaga qarshi" sud ishi bo'yicha xalqaro arbitraj qarori yorqin misol bo'lishi mumkin. Qarorda "xalqaro huquq tamoyillari, shuningdek, Qo'shma Shtatlar huquqi bo'yicha hech qaysi davlat o'z hududidan uning o'zi yoki boshqa birovning zarar yetkazuvchi tarzda yoki boshqa davlatning hududidagi mulkka va shaxslarga zarar yetkazish maqsadida foydalanishiga ruxsat berishga haqli emas" degan qoida ilgari suriladi [9].

Keyinchalik, mazkur tamoyilga asoslangan holda Xalqaro odil sud Vengriya va Slovakiya o'rtasidagi Dunay daryosi oqimida GES qurilishi bilan bog'liq nizoni ko'rib chiqar ekan, "Gabchikova-Nadmarosh" sud ishida quyidagicha qaror qabul qilgan edi: "...zarar ko'rgan davlat xalqaro huquqbuzarlik sodir etgan davlatdan keltirilgan zarar uchun kompensatsiya talab qilishga haqlidir" [10].

Transchegaraviy ta'sirdan kelib chiqadigan zararni hisoblash va unga differensial yondashish tamoyili Fransiya va Ispaniya o'rtasidagi nizoga oid Lanu ko'li bo'yicha arbitraj qarorida o'z aksini topgan [11].

Xalqaro tashkilotlarning xalqaro-huquqiy hujjatlari va normativ aktlarida davlat o'z xo'jalik faoliyatiga o'z yurisdiksiyasi yoki nazorati chegarasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni ta'minlashga mas'ulligi to'g'risidagi qoidalarni topish mumkin. Ushbu qoidalar BMT Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyasining qator rezolyutsiyalari bilan mustahkamlangan.

BMTning Atrof-muhit dasturi (United Nations Environment Programme – UNEP) doirasida ekspertlar guruhi tomonidan tayyorlangan va 1992-yilda qabul qilingan "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi Konvensiyaning 3-moddasiga muvofiq, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq, davlatlar o'zlarining atrof-muhit sohasidagi siyosatiga binoan o'z tasarrufidagi zaxiralardan foydalanishning suveren huquqiga egalar va ularning yurisdiksiyalari yoki nazorati ostidagi faoliyat milliy yurisdiksiya doirasidan tashqaridagi boshqa davlat yoki hududlarning atrof-muhitiga zarar etkazmasligi uchun javobgardirlar" [12].

Mintaqaviy tashkilotlar orasida Yevropa Ittifoqining ekologik javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari namunaviy andoza bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jumladan, Yevropa Parlamenti va Kengashning 2004-yil 21-apreldagi 2004/35/YeK-sonli "Atrof-muhitga yetkazilgan zararning oldini olish va tiklashga nisbatan ekologik javobgarlik to'g'risida"gi Direktivasi ekologik zararga ta'rif beradi, ekologik zararni undirishning ma'muriy va fuqarolik-huquqiy tartiblarini belgilaydi, obyektiv ekologik javobgarlik shartlarini izohlaydi, zararni hisoblash, uning moddiy qiymatini aniqlash, zarar oqibatlarini bartaraf etish usullarini taqdim etadi, solidar va individual javobgarlik holatlarini aniqlashtiradi [13]. Direktivaning II Ilovasida zararni bartaraf etish bo'yicha maqsadga muvofiq choralar tanlashning mezonlari, III Ilovasida esa operatorlarni obyektiv javobgarlikdan ozod etuvchi xavfli faoliyat turlari sanab o'tiladi. Bunday faoliyat turlari uchun kompleks ruxsatnoma olinishi lozimligi qayd etiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar dunyo mamlakatlaridagi ekologik zararni qoplash bilan bog'liq holatlarni qiyoslash imkoniyatini beradi [14].

Keltirilgan zararni qoplash masalasi xalqaro-huquqiy javobgarlik tushunchasi bilan bog'liqdir. Chunonchi, xalqaro-huquqiy javobgarlikning moddiy va nomoddiy (ma'naviy, siyosiy) turlari e'tirof etiladi. Nomoddiy javobgarlikning eng tarqalgan turlari satisfaksiya, repressaliya, retorsiya, restoratsiya, sanksiyalar shaklida amalga oshiriladi. Moddiy xalqaro-huquqiy javobgarlik yetkazilgan moddiy-ashyoviy zararni qoplash (kompensatsiyalash) majburiyatida o'z ifodasini topadi va huquqbuzarlikka qadar bo'lgan moddiy holatni tiklash (restitutsiya) hamda keltirilgan zararni unga teng qiymatdagi pul yoki boshqa ko'rinishdagi boylik bilan qoplash (reparatsiya) orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro huquqda javobgarlikka tortiladigan transmilliy zararning bir necha turi bor. Bugungi kunda transmilliy zarar kompleks xarakterga ega bo'lib, shaxsiy (shaxsning jismoniy sog'lig'i va psixologik-ruhiy holatiga keltirilgan zarar, mehnatga layoqatsizlikni keltirib chiqaruvchi zarar), mulkiy (ko'char va ko'chmas mulkka ziyon, bevosita yoki bilvosita iqtisodiy zarar) hamda ekologik zararni o'z ichiga oladi.

Transchegaraviy ta'sir ostida atrof-muhitga yetkaziladigan ekologik zararni malakalash va uning qiymatini aniqlash ancha murakkabdir. Atrof-muhit va ekologik zararning barcha tomonidan qabul qilingan ta'rifi bo'lmaganligi sababli, bugungi kunda bu kabi zararning mohiyatini, kompensatsiya tomonlarini, ekologik zararni belgilash uchun qanday mezonlar qo'yilishi lozimligini aniqlash qiyin kechmoqda. Masalan, AQSh qonunchiligida tabiiy zaxiralarga ziyon yetkazish, ularni tugatish yoki butunlay yo'q qilish hamda mazkur harakatlarning zararini asoslantirilgan holda aniqlash xarajatlari ekologik javobgarlikni anglatasa, Yevropa Ittifoqi huquqida qonun bilan muhofaza etiladigan tabiiy atrof-muhit va biologik turlar, suv obyektlari va tuproqqa keltirilgan zarar, agar inson sog'lig'iga xavf solayotgan bo'lsa, ekologik zarar sifatida ko'riladi. Sharqiy Yevropa va Osiyo davlatlarining milliy qonunchiligida ham turlicha qarashlar mavjud.

Ta'rifdagi farqlar va yondashuvlar xilma-xilligi kompensatsiya qilinishi lozim bo'lgan transchegaraviy zararni baholashni murakkablashtiradi. Xalqaro amaliyotda atrof-muhitga yetkazilgan zarar ta'sir yo'naltirilgan obyektlar, tabiiy zaxiralar va omillar vositasida belgilanadi. Ular sirasiga flora, fauna, tuproq, tabiiy qazilmalar, landshaft, iqlim va boshqalar kiradi. Odatda, faqat tabiiy zaxiralarga yetkazilgan zarar – tor doiradagi zarar, tabiiy zaxiralar bilan birga madaniy merosni tashkil qiluvchi mulklar, tabiiy landshaft va muayyan atrof-muhitga yetkazilgan zarar – keng doiradagi zarar, tabiiy zaxiralarga, madaniy merosni tashkil qiluvchi tabiiy zaxiralarga, shuningdek, tabiiy landshaftga hamda unga uzviy bo'lgan atrof-muhitga yetkazilgan zarar – yoyiq doiradagi zarar sifatida qabul qilinadi [15].

Qoida tariqasida, mulkiy zarar alohida ko'rib chiqiladi, biroq uni, ba'zan, atrof-muhitga

yetkazilgan boshqa turdagi ekologik zarardan ajratib olish oson kechmaydi. Aksariyat holatlarda, atrof-muhitga yetkazilgan sof iqtisodiy zararni baholashda jiddiy muammolar yuzaga chiqadi, chunki zararning kompensatsiyasini pul muqobilida ifodalashning ilojisi bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, ziyon ko'rgan davlat tomonidan asoslantirilgan da'voga muvofiq ushbu zararning o'zni qoplanishi lozim [16]. Bunday holatlarda, sud va arbitrajlar atrof-muhitga salbiy ta'sirning pul qiymatini adolat mezonlarini qo'llagan holda mustaqil belgilashi lozim.

Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortish va uning oqibatlarini bartaraf etish kuchli institutsional va normativ-huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda salmoqli moliyaviy zaxiralarni ham talab etadi.

Odatda, atrof-muhitga zarar etkazish holatlari kuchaygan paytda ekologik zarar uchun moliyaviy javobgarlikni kuchaytirish talab etiladi yoki zararni qoplab berish qobiliyatiga ega bo'lmagan korxonalar uchun atrof-muhitga zarar keltirishi ehtimoli yuqori bo'lgan faoliyat turi bilan shug'ullanish ma'lum doirada cheklanadi. Zararni qoplashga qaratilgan to'lov qobiliyatining yo'qligi javobgarlikni ta'minlashning samarali mexanizmi mavjud emasligini ko'rsatadi.

Zararni qoplash va uni bartaraf etish bo'yicha yirik moliyaviy javobgarliklardan xalos bo'lishning keng tarqalgan mexanizmlaridan biri ekologik sug'urtalashdir. Biroq, u atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini ta'minlovchi yagona vosita emas. Xalqaro amaliyotda bank kafolati, o'z-o'zini sug'urtalash, jamoaviy kafolat kabi tajribalar ham uchraydi. Ispaniya va Chexiyada ekologik zararni qoplashni kafolatlovchi istalgan moliyaviy vositadan foydalanish imkoniyati mavjud.

Markaziy Osiyo mintaqasida atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir oqibatida yetkazilayotgan zararni aniqlash va kompensatsiyalash sohasida mukammal dasturlar ishlab chiqilmagan. Mana shunday vaziyatda, Markaziy Osiyoda atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir orqali yetkazilayotgan zarar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish zarurati sezilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir oqibatida yetkazilayotgan zararni aniqlash va kompensatsiyalash sohasida mukammal dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Shu bilan birga, atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir orqali yetkazilgan zarar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlikni ko'zda tutuvchi bir qator nufuzli xalqaro shartnomalar hanuzgacha Markaziy Osiyoning barcha davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilinmagan. BMTning "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi konvensiyasi (Xelsinki konvensiyasi) va "Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovlaridan boshqa yo'nalishlarda foydalanish huquqi to'g'risida"gi Nyu York konvensiyasi, "Atrof-muhitga transchegaraviy ko'lamda yetkaziladigan ta'sirni baholash to'g'risida"gi Espo konvensiyasi va uning qo'shimcha protokollari, "Atrof-muhitga oid masalalarda ma'lumot olish, qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovga murojaat qilish huquqi to'g'risida"gi Orxus konvensiyasi va uning qo'shimcha protokollari shular jumlasidandir. Xususan, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston Xelsinki konvensiyasiga a'zo bo'lib qo'shilgan holda Tojikiston mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilmagan. Konvensiyaga qo'shimcha qilingan "Suv va sog'liq" London protokoli hamda "Transchegaraviy daryolarga sanoat avariylarining transchegaraviy ta'siri oqibatida yetkaziladigan zararga nisbatan fuqaroviy javobgarlik va zararni qoplashga oid" Kiyev Protokoliga Markaziy Osiyo respublikalarining hech biri a'zo emas. Nyu York konvensiyasiga Markaziy Osiyo Respublikalaridan faqat O'zbekistongina 2007-yil 4-sentabrda qo'shilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, universal va mintaqaviy shartnomalarga nisbatan mintaqaviy davlatlarining yakdil yondashuvi va ularning muvofiqlashtirilgan huquqiy siyosatigina aniq natijalar beradi. Xalqaro shartnomalarning milliy huquqiy tizimlarga to'liq implementatsiya qilinishi xalqaro-huquqiy majburiyatlarning to'liq ijro etilishiga imkon yaratadi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, transchegaraviy ta'sirga ega obyektlardan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda atrof-muhitga transchegaraviy ta'sir orqali yetkazilgan zarar uchun

javobgarlikni belgilash sohasida xalqaro huquq normalarini va milliy qonunchilikni takomillashtirish mintaqamizni ekologik bo‘hronlardan saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu sohada *quyidagi tavsiyalarni* ilgari surish mumkin:

- Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan transchegaraviy ta’sirga ega obyektlarning tugal ro‘yxatini tuzish va reestrini yuritish;

- xalqaro-huquqiy shartnomalar va milliy qonunchilikda “transchegaraviy ta’sir yoyilgan hudud” (“the extended effect zone”) tushunchasiga ta’rif berish va uning chegarasini belgilashning rasional mexanizmlarini ishlab chiqish;

- transchegaraviy ta’sir oqibatlarini bartaraf etishda mintaqa mamlakatlarining xalqaro-huquqiy hamkorligini kuchaytirish, universal va mintaqaviy shartnomalarga nisbatan mintaqa davlatlarining yakdil yondashuvi va muvofiqlashtirilgan huquqiy siyosatini qaror toptirish;

- transchegaraviy ta’sirga ega obyektlarni boshqarish va ulardan foydalanishda tegishli davlatlar, kompaniyalar, mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish, keltirilayotgan bevosita va bilvosita ekologik zararni moddiyLashtirish, hisoblash, javobgarlikka tortish va zararni qoplash mezonlarini xalqaro shartnomalarda va milliy qonunchilikda aniq aks ettirish muhimdir. Keltirilgan ekologik ziyonlarni qoplash va qarzlarni to‘lashga oid qoidalarni amalga oshirish bo‘yicha ikki va ko‘p tomonlama huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, ziyon keltiruvchi tomonning zararni to‘liq qoplashga qaratilgan majburiyatini ta’minlash amaliyotini takomillashtirish taqozo etiladi.

Odatda, atrof-muhitga zarar etkazish holatlari kuchaygan paytda ekologik zarar uchun moliyaviy javobgarlikni ko‘zda tutuvchi huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish talab etiladi yoki zararni qoplab berish qobiliyatiga ega bo‘lmagan korxonalar uchun atrof-muhitga zarar keltirishi ehtimoli yuqori bo‘lgan faoliyat turi bilan shug‘ullanish ma’lum doirada cheklanadi.

Markaziy Osiyo sharoitida, iqtisodiy va atrof-muhitni ekologik rivojlantirish nuqtai nazaridan, mintaqa mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini cheklash emas, balki ekologik sug‘urta bozorini takomillashtirish manfaatliroqdir. Chunki, birinchidan, ekologik sug‘urta ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy himoyalabgina qolmay, shu bilan birga, ekologik zararni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarning oldini olishga undaydi. Natijada xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasida ekologik ong va tarbiya ta’siri kengayadi. Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofazalovchi va javobgarlikni ta’minlovchi kuchli huquqiy tartibot xo‘jalik subyektlari uchun yuqori iqtisodiy tavakkalni keltirib chiqaradi va, shu orqali, ekologik sug‘urtaga talabni kuchaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqada ekologik sug‘urta bozori va uning moliyaviy infratuzilmalari rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Shuningdek, hozirgi bosqichda Markaziy Osiyoda atrof-muhitga transchegaraviy ta’sir muammosini hal etishning yagona samarali yo‘li – ekologik xavfsizlik masalalarini siyosiyLashtirmasdan, “inson huquqlari va barqaror rivojlanish” tamoyillari asosida, ilmiy asoslangan monitoring va transchegaraviy ekologik ekspertiza mexanizmlarini to‘liq ishga solishdir. Kelajakda Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlash uchun ekologik xavfsizlikni siyosiy manfaatlardan ustun qo‘yish, milliy qonunchiliklarni xalqaro ekologik standartlar bilan uyg‘unlashtirish va yagona transchegaraviy monitoring tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda atrof-muhitga zararli transchegaraviy ta’sirni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish choralarini ta’minlovchi mintaqaviy institutsional monitoring va nazorat mexanizmlarni kuchaytirish talab etiladi. Hozirda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi mintaqaviy darajadagi eng muhim tuzilma sifatida ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish va transchegaraviy suvlardan foydalanishni muvofiqlashtirish uchun xizmat qilmoqda. Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo‘jaligi komissiyasi transchegaraviy daryolarning yillik suv limitlarini taqsimlashni nazorat qiluvchi organ vazifasini bajarib kelmoqda. Biroq Markaziy Osiyodagi transchegaraviy ekologik muammolarni hal etish uchun mazkur institutsional tuzilmalar yetarli emas. Shu maqsadda Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan transchegaraviy ta’sirga ega obyektlarning

tugal ro'yxatini tuzish va reestrini yuritishga mas'ul bo'lgan Davlatlararo kotibiyat, transchegaraviy ta'sirni oldini olish va oqibatlarini o'rganish bo'yicha Mintaqaviy ekspertiza byurosi hamda Transchegaraviy zararni qoplab berishga qaratilgan ko'ptomonlama moliyaviy jamg'arma ta'sis etish maqsadga muvofiq.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES:

1. "Atrof-muhitga transchegaraviy ko'lamda yetkaziladigan ta'sirni baholash to'g'risida"gi Espoo konvensiyasi (Espoo Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context): https://unece.org/fileadmin/DAM/env/eia/documents/legaltexts/Espoo_Convention_authentic_ENG.pdf
2. Espo konvensiyasining I Ilovasi. Faoliyat turlar. 12-13-bet. (Appendix I of Espoo convention. P.12-13. List of Activities): https://unece.org/fileadmin/DAM/env/eia/documents/legaltexts/Espoo_Convention_authentic_ENG.pdf
3. "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Xelsinki konvensiyasi (Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes – Helsinki, 1992): <http://www.unece.org/env/water/text/text.html>
4. "Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovlaridan boshqa yo'nalishlarda foydalanish huquqi to'g'risida"gi Nyu York konvensiyasi (Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of the International Watercourses – New York, 1997): http://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/8_3_1997.pdf
5. "Transchegaraviy daryolarga sanoat avariylarining transchegaraviy ta'siri oqibatida yetkaziladigan zararga nisbatan fuqaroviy javobgarlik va zararni qoplashga oid" Kiev Qo'shimcha Protokoli (Protocol on Strategic Environmental Assessment to the Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context): <https://unece.org/fileadmin/DAM/env/eia/documents/legaltexts/protocolenglish.pdf>
6. "Neftdan ifloslanish uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risida"gi Xalqaro konvensiya (The International Convention on Civil Liability for Oil Pollution Damage, 1969, renewed in 1992): <http://www.imo.org/en/About/Conventions/Pages/Home.aspx>
7. "Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo'q qilishni nazorat qilish to'g'risida"gi Bazel konvensiyasi va uning "Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo'q qilish oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik va kompensatsiya to'g'risida"gi Protokoli (*Basel Convention on the control of transboundary movements of hazardous wastes and their disposal of 22.03.1989 and its Protocol on Liability and Compensation for Damage Resulting from Transboundary Movements of Hazardous Wastes and their Disposal of 1999*): <http://www.basel.int/Portals/4/Basel%20Convention/docs/text/BaselConventionText-r.pdf>
8. Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (*Rio declaration on environment and development*): http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/riodecl.shtml
9. Xalqaro arbitraj qarorlari to'plami. "Treyl Smelter" sud amaliyoti (Reports of International Arbitral Awards/Recueil des Sentences Arbitrales. Trail Smelter Case (United States, Canada) 16 April 1938 and 11 march 1941. Volume iii pp. 1905–1982: http://legal.un.org/riaa/cases/vol_III/1905-1982.pdf
10. "Gabchikova-Nadmarosh" sud ishi amaliyoti (Case concerning the Gabčíkovo – Nagymaros Project (Hungary/Slovakia), Judgment of 25 September 1999): <http://www.fao.org/DOCREP/005/W9549E/w9549e00.htm>
11. Lanu ko'li bo'yicha arbitraj qarori (Lake Lanoux arbitration (France v. Spain) (1957) 12 R.I.A.A. 281; 24 I.L.R. 101 Arbitral Tribunal. November 16, 1957): <http://www.ecolex.org/server2.php/libcat/docs/cou/full/en/cou-143747e.pdf>
12. "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi Konvensiya (UN Convention on Biological Diversity): http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/biodiv.shtml
13. "Atrof-muhitga yetkazilgan zararining oldini olish va tiklashga nisbatan ekologik javobgarlik to'g'risida"gi Direktiva (Environmental Liability Directive 2004/35/EC of the European Parliament and of the Council of 21 April 2004 on environmental liability with regard to the prevention and remedying of environmental damage): ec.europa.eu/environment/legal/liability/index.htm
14. Environmental Risk and Insurance: A Comparative Analysis of the Role of Insurance in the Management of Environment-Related Risks, DAFNE/AS/WD (2002) 27/REV1, Organization for Economic Co-operation and Development, Paris, 2003.; Environmental Liability for Damage to Natural Resources in OECD Countries: The Concept and Key Approaches, Discussion Paper, ENV/EPOC/EAP/REPIN (2009)1, Organization for Economic Co-operation and Development, Paris, 2009.
15. Basel Protocol on Liability and Compensation for Damage Resulting from Transboundary Movements of Hazardous Wastes and their Disposal: <https://treaties.un.org>
16. Interpretation of Peace Treaties, Advisory Opinion //I.C.J. Reports. – The Hague, I.C.J., 1950.

ABDUSALOMOVA Durdonaxon G'anijon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0006-8179-6654

E-mail: durdonaabdusalomova7@gmail.com

XALQARO HUQUQDA TRANSCHEGARAVIY TA'SIR TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL-HUQUQIY TAHLIL

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): ABDUSALOMOVA D.G'.
Xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sir tushunchasining shakllanishi va evolyutsiyasi: konseptual-huquqiy tahlil // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 158-166.

 3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-016>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sir tushunchasining shakllanish jarayoni hamda uning evolyutsiyasi konseptual-huquqiy jihatdan keng qamrovli tahlil qilinadi. Maqolada transchegaraviy ta'sirning nazariy asoslari, uning xalqaro ekologik huquq tizimidagi o'rni, davlatlararo munosabatlardagi ahamiyati va huquqiy tartibga solish mexanizmlari chuqur o'rganilgan. Shu bilan birga, mazkur tushunchaning xalqaro shartnomalar, xalqaro sud amaliyoti hamda doktrinal yondashuvlar asosida bosqichma-bosqich rivojlanishi ochib beriladi. Maqolada Trail Smelter arbitraj ishidan to zamonaviy xalqaro sud amaliyotigacha bo'lgan tarixiy bosqichlar qiyosiy tarzda tahlil etiladi. Maqolada 1941-yildagi Trail Smelter arbitraj qarori, 1949-yildagi Xalqaro Sud Korfu kanali ishi va 1972-yildagi Stokgolm Deklaratsiyasining 21-prinsipi tushunchaning huquqiy negizlarini belgilagan va 1992-yildagi Rio Deklaratsiyasi zamonaviy me'yoriy bazani shakllantirgan asosiy hujjatlar sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada Filipp Sands, Alan Boyl, Kristina Voigt kabi yetakchi xalqaro huquqshunoslarning nazariy qarashlari tahliliy nuqtai nazardan baholanadi. Shuningdek, maqolada transchegaraviy ta'sir tushunchasining an'anaviy davlat suvereniteti tamoyillari bilan o'zaro aloqasi va ekologik huquq, inson huquqlari sohalarida kengayib borayotgan tatbiq doirasi ilmiy asoslab beriladi. Maqolada asosiy ilmiy muammo sifatida transchegaraviy ta'sir tushunchasining yagona universal ta'rifi mavjud emasligi va turli huquq tarmoqlarida har xil talqin etilishi ko'rsatilgan. Maqola natijasi sifatida xalqaro shartnomalarni uyg'unlashtirish, milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish hamda profilaktik mexanizmlarni mustahkamlash takliflari ilgari suriladi. Maqola O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, Orol dengizi havzasi va Markaziy Osiyo suv resurslari bo'yicha xalqaro huquqiy pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: transchegaraviy ta'sir, xalqaro ekologik huquq, zararning oldini olish, xalqaro mas'uliyat, davlat suvereniteti, "sic utere tuo" prinsipi, huquqiy doktrina, Stokgolm deklaratsiyasi, Espoo konvensiyasi, xalqaro sud amaliyoti.

АБДУСАЛОМОВА Дурдона

Базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета
ORCID: 0009-0006-8179-6654
E-mail: durdonaabdusalomova7@gmail.com

ФОРМИРОВАНИЕ И ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ ТРАНСГРАНИЧНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ: КОНЦЕПТУАЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится концептуально-правовой анализ процесса формирования и эволюции понятия трансграничного воздействия в международном праве. Исследование охватывает теоретические основы трансграничного воздействия, его место в системе международного экологического права, значение в межгосударственных отношениях, а также механизмы его правового регулирования. Кроме того, раскрываются этапы развития данного понятия на основе международных договоров, судебной практики и доктринальных подходов. Статья содержит сравнительный анализ исторических этапов от арбитражного дела Трейл Сметтер до современной международной судебной практики. В качестве основополагающих документов, заложивших правовые основы концепции, рассматриваются арбитражное решение по делу Трейл Сметтер 1941 года, решение Международного суда ООН по делу о проливе Корфу 1949 года, а также Принцип 21 Стокгольмской декларации 1972 года и Декларация Рио 1992 года рассматриваются как документы, сформировавшие современную нормативно-правовую базу. В статье критически оцениваются теоретические взгляды ведущих специалистов в области международного права Филиппа Сэндса, Алана Бойла, Кристины Фойгт. Кроме того, научно обосновывается взаимосвязь концепции трансграничного ущерба с традиционными принципами государственного суверенитета, а также расширяющаяся сфера её применения в области экологического права и прав человека. В статье в качестве основной научной проблемы обозначается отсутствие единого универсального определения концепции трансграничного ущерба и её неоднозначная трактовка в различных отраслях права. В качестве результатов исследования выдвигаются предложения по гармонизации международных договоров, модернизации национального законодательства, а также укреплению превентивных механизмов. Статья актуальна и для Узбекистана, она способствует укреплению его международно-правовой позиции по водным ресурсам бассейна Аральского моря и Центральной Азии.

Ключевые слова: трансграничное воздействие, международное экологическое право, предотвращение вреда, международная ответственность, государственный суверенитет, принцип "sic utere tuo", правовая доктрина, Стокгольмская декларация, Конвенция Эспоо, международная судебная практика.

DURDONAKHON Abdusalomova

Doctoral student of Tashkent State University of Law

ORCID: 0009-0006-8179-6654

E-mail: durdonaabdsalomova7@gmail.com

FORMATION AND EVOLUTION OF THE CONCEPT OF TRANSBOUNDARY IMPACT IN INTERNATIONAL LAW: A CONCEPTUAL AND LEGAL ANALYSIS

ANNOTATION

This article provides a comprehensive conceptual and legal analysis of the formation and evolution of the notion of transboundary impact in international law. The study examines the theoretical foundations of transboundary impact, its position within the framework of international environmental law, its significance for international relations, and the mechanisms of its legal regulation. The article further traces the stages in the development of this concept through international treaty practice, judicial decisions, and doctrinal approaches. The article offers a comparative historical analysis of key milestones, ranging from the Trail Smelter arbitration to contemporary international judicial practice. It examines the 1941 Trail Smelter Arbitral Award, the 1949 International Court of Justice decision in the Corfu Channel Case, and Principle 21 of the 1972 Stockholm Declaration as instruments that established the legal foundations of the concept, while the 1992 Rio Declaration is considered as document that shaped the modern normative framework. The article critically evaluates the theoretical perspectives of leading international legal scholars, including Philippe Sands, Alan Boyle, Christina Voigt. The article identifies the absence of a single universal definition of the concept of transboundary harm and its varying interpretation across different branches of law as the principal scientific problem. As the outcomes of the research, proposals are advanced for the harmonization of international treaties, the modernization of national legislation, and the strengthening of preventive mechanisms. The study is of particular relevance for Uzbekistan, as it serves to reinforce the country's international legal position with regard to the Aral Sea basin and the water resources of Central Asia.

Keywords: transboundary harm, international environmental law, prevention of harm, international responsibility, state sovereignty, sic utere tuo principle, legal doctrine, Stockholm Declaration, Espoo Convention, international judicial practice.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ekologik hamda texnologik aloqalarning tobora kengayib borishi natijasida transchegaraviy xususiyatga ega ta'sirlar zamonaviy xalqaro munosabatlarning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyatning bir davlat hududidan tashqariga chiqib, qo'shni davlatlar hududi va manfaatlariga ziyon yetkazishi xalqaro huquqiy tartibga solish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Bu hodisaning huquqiy jihatlar uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: qaysi huquqiy mezonlar asosida davlat o'z hududidagi faoliyatning boshqa davlatlarga salbiy ta'sir va oqibatlarini cheklashga majbur hisoblanadi, transchegaraviy zararni keltirib chiqargan davlatning xalqaro huquqiy mas'uliyati qanday shaklda amalga oshiriladi va bunday ta'sirning oldini olish uchun xalqaro hamkorlik mexanizmlari qanday tashkil etilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sir tushunchasining shakllanishi va evolyutsiyasini o'rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiya dastlab xalqaro ekologik huquq doirasida shakllanib, keyinchalik davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlari, ehtiyotkorlik tamoyili, barqaror rivojlanish g'oyasi hamda qo'shni

davlatlarga zarar yetkazmaslik prinsipi bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. Mazkur tushuncha xalqaro shartnomalar, sud organlari qarorlari va ilmiy doktrina orqali bosqichma-bosqich takomillashib, bugun xalqaro huquqning muhim kategoriyalaridan biriga aylangan. Transchegaraviy ta'sir tushunchasining mazmuni va qo'llanish doirasi turli davrlarda turlicha talqin etilganligini inobatga olsak, uning konseptual-huquqiy jihatdan chuqurroq tahlil qilinishi zaruriyati o'z-o'zidan ko'rinib turadi.

Xalqaro munosabatlar rivojlanib borishi bilan davlatlar faoliyatining hududiy chegaralar bilan cheklanib qolmasligi tobora ravshanroq namoyon bo'la boshladi. Sanoatlashuv, transport va kommunikatsiya vositalarining jadal o'sishi fonida bir davlatda amalga oshirilgan faoliyat boshqa davlat hududiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligi xalqaro huquq doirasida alohida e'tiborni talab qiladigan masalaga aylandi. Aynan shu jarayonda transchegaraviy ta'sir tushunchasi shakllana boshladi va u davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda muhim konseptual kategoriya sifatida o'z o'rnini topdi.

Transchegaraviy ta'sir tushunchasining shakllanishi, avvalo, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy normalarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Klassik xalqaro huquqda davlatlar o'z hududida amalga oshiriladigan faoliyat ustidan mutlaq suverenitetga ega deb qaralgan. Bu yondashuv hududiylik tamoyiliga tayanib, unga ko'ra davlat o'z hududi doirasidagi shaxslar, mulk va hodisalar ustidan eksklyuziv yurisdiksiyani amalga oshiradi [1]. Keyinchalik esa mazkur mutlaq suverenitet doktrinasi boshqa davlatlarga zarar yetkazmaslik majburiyati orqali cheklanib bordi. Buning natijasida davlatlar o'z hududlarida olib boriladigan faoliyat natijasida qo'shni davlatlarga yoki umumiy foydalaniladigan tabiiy resurslarga zarar yetkazmaslik majburiyati shakllandi. Ushbu tamoyil transchegaraviy ta'sir tushunchasining nazariy poydevorini tashkil etadi.

Ilmiy doktrinada transchegaraviy ta'sir turlicha talqin etiladi. Bir guruh olimlar uni bir davlat hududida amalga oshirilayotgan faoliyatning boshqa davlat hududiga ekologik, iqtisodiy yoki ijtimoiy oqibatlar keltirib chiqarishi sifatida izohlaydi. Boshqa yondashuvlarga ko'ra esa transchegaraviy ta'sir faqat salbiy oqibatlar bilan cheklanmay, muayyan ijobiy ta'sirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro huquq amaliyotida bu tushuncha asosan salbiy ekologik oqibatlar bilan bog'liq holda qo'llaniladi, bu esa mazkur kategoriyaning xalqaro ekologik huquq doirasida shakllanganligini tasdiqlaydi.

Espoo konvensiyasida "ta'sir" va "transchegaraviy ta'sir" tushunchalariga xalqaro-huquqiy ta'riflar belgilangan. Unga ko'ra, "ta'sir" deganda rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof-muhitga, jumladan, inson salomatligi va xavfsizligiga, flora va faunaga, tuproq, havo, suv, iqlim, landshaft va tarixiy yodgorliklarga yoki boshqa jismoniy tuzilmalarga ko'rsatadigan har qanday natijasi yoki ushbu omillar o'rtasidagi o'zaro ta'siri; shuningdek, mazkur omillarning o'zgarishi natijasida madaniy merosga yoki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'rsatiladigan ta'sirlar tushuniladi [2]. Transchegaraviy ta'sir esa quyidagicha ta'riflanadi: "Kelib chiqish manbai to'liq yoki qisman bir ahdlashuvchi tomonning yurisdiksiyasi ostidagi hududda joylashgan rejalashtirilayotgan faoliyat natijasida boshqa bir ahdlashuvchi tomonning yurisdiksiyasi ostidagi hududda yuzaga keladigan har qanday ta'sir; bunda mazkur ta'sir faqat global xarakterga ega bo'lgan holatlar bilan cheklanib qolmaydi" [3].

Transchegaraviy ta'sir konsepsiyasining nazariy asoslaridan yana biri davlatlarning hududiy suvereniteti va xalqaro majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati bilan bog'liqdir. Bir tomondan, davlatlar o'z hududlaridagi tabiiy resurslardan mustaqil ravishda foydalanish huquqiga ega bo'lsalar, ikkinchi tomondan, bu huquq boshqa davlatlarga zarar yetkazmaslik majburiyati bilan chegaralanadi. Shu ma'noda, transchegaraviy ta'sir tushunchasi davlat suverenitetining mutlaq emas, balki xalqaro huquq normalari doirasida amalga oshirilishini ko'rsatuvchi muhim dalil sifatida namoyon bo'ladi.

Transchegaraviy ta'sir tushunchasi xalqaro huquqda davlatlar o'z hududlarida amalga oshiradigan faoliyatning boshqa davlat hududlariga ta'siri bilan bog'liq majburiyatlar rivojlanishi jarayonida mustaqil kategoriya sifatida shakllandi. Ushbu tushuncha dastlab umumiy xalqaro huquq tamoyillaridan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik xalqaro sud amaliyoti va xalqaro shartnomalarda o'ziga xos huquqiy maqom kasb etdi. Hozirgi xalqaro ekologik huquqda transchegaraviy ta'sir davlatlar huquq va majburiyatlarini belgilashda asosiy konseptual vositalardan biri hisoblanadi.

Transchegaraviy ta'sir muammosining huquqiy ildizlari Rim huquqidagi "sic utere tuo ut alienum non laedas" tamoyiliga, ya'ni "o'z mulkingdan shunday foydalan-ki, boshqalarning mulkiga zarar yetkazma" prinsipiga borib taqaladi. Bu tamoyil xalqaro huquqda davlatlararo munosabatlarga tatbiq etilganda davlatning o'z hududidan shunday foydalanishi kerakligini anglatadiki, natijada boshqa davlatlar yoki ularning fuqarolari zarar ko'rmasin [4]. Ushbu tamoyilning xalqaro huquqdagi ilk rasmiy ifodasini biz 1941-yilgi Trail Smelter arbitraj ishida ko'ramiz.

Trail Smelter arbitraj ishi xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sir doktrinasining poydevori sifatida keng e'tirof etiladi. Ushbu ishda Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi shtatidagi mis eritish zavodi atmosferaga chiqargan oltingugurt dioksidi (SO_2) gazi AQSHning Vashington shtatiga zarar yetkazayotgani aniqlandi. Trail Smelter ishi xalqaro huquqda "Transchegaraviy zarar yetkazmaslik" tamoyilini odat huquqi darajasiga ko'tardi. U davlatlarga nafaqat o'z hududida iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish huquqini, balki ushbu faoliyat qo'shni davlatlar muhitiga va aholisiga jiddiy zarar yetkazmasligini ta'minlash bo'yicha "lozim darajadagi ehtiyotkorlik" (due diligence) majburiyatini yukladi. Arbitraj sudi 1941-yil 11-martdagi yakuniy qarorida quyidagi fundamental tamoyilni mustahkamladi: xalqaro huquq tamoyillari asosida hech bir davlat o'z hududidan boshqa davlat hududiga zarar yetkazuvchi tarzda ta'sirlarni amalga oshirishga ruxsat berish huquqiga ega emas, agar bunday holat zarur isbot bilan, jiddiy oqibatlar bilan va aniq zarar bilan tasdiqlangan bo'lsa [5]. Ushbu qaror uchta fundamental mezonni belgilab berdi: 1) faoliyatning bir davlat hududida amalga oshirilishi; 2) zararining boshqa davlat hududida ro'y berishi yoki u yerga ta'sir ko'rsatishi; 3) zararining jiddiyligi va isbotlanganligi. Bundan tashqari, sud davlat uchun "due diligence", ya'ni zarur ehtiyotkorlik ko'rsatish majburiyatini ham birinchi marta aniq ifoda etdi.

1972-yil 5-16-iyunda Stokgolmda bo'lib o'tgan BMT atrof-muhit bo'yicha konferensiyasi xalqaro ekologik huquqning rivojlanishida tarixiy burilish nuqtasi bo'ldi. Konferensiyada qabul qilingan Deklaratsiyaning 21-tamoyili transchegaraviy ta'sirga oid birinchi universal xalqaro normative hujjat ifodasi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tamoyil ikki qismdan iborat: birinchi qism davlatning o'z tabiiy resurslarini boshqarishdagi suveren huquqini tan oladi, ikkinchi qism esa bu suverenitetni "boshqa davlatlarga zarar yetkazmaslik" mas'uliyati bilan chegaralaydi [6]. Shu tarzda bu tamoyil davlat suvereniteti bilan qo'shni davlatlarni himoya qilish majburiyatini o'zaro muvofiqlashtiradigan normativ asosni mustahkamladi. Doktrinada 21-tamoyilning huquqiy tabiati masalasida ilmiy bahslar mavjud. A. Boyle va P.M. Dupuy kabi bir qator huquqshunolar ushbu tamoyilni "yumshoq huquq" (soft law) kategoriyasiga kiritadi, chunki Deklaratsiyaning o'zi huquqiy jihatdan majburiy bo'lmagan hujjat hisoblanadi. Biroq ko'pchilik tadqiqotchilar 21-tamoyil mazmunini xalqaro odat huquqining bir qismi sifatida talqin etadi.

1992-yil Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMT Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCED, "Yer sammiti") Stokgolm Deklaratsiyasining 21-tamoyilini Rio Deklaratsiyasining 2-tamoyili orqali yangiladi va mazmunini kengaytirdi [7]. Rio Deklaratsiyasining 2-tamoyili asosan Stokgolm tamoyilining mohiyatini saqlab qolgan holda unga "va rivojlanish siyosatiga muvofiq" iborasini qo'shdi. Bu o'zgartirish rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlarini aks ettirgan bo'lib, sanoat rivojlanishi bilan ekologik javobgarlik o'rtasidagi muvozanat masalasini yangi bosqichga ko'tardi. Biroq ko'pgina huquqshunolar 2-tamoyilning Stokgolm 21-tamoyiliga nisbatan normativ kuchini ma'lum darajada kamaytirganiga e'tibor qaratadi. Xususan, "rivojlanish siyosatiga muvofiq"

iborasi davlatlarning sanoat faoliyatiga bo'lgan manfaatlarini muhofaza qilish vositasiga aylanishi mumkinligi tanqid predmetiga aylandi. Bu muammo rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshi manfaatlarining xalqaro ekologik huquqqa ta'sirini ko'rsatuvchi muhim misoldir.

1979-yil 13-noyabrda Jenevada imzolangan Konvensiya transchegaraviy ta'sirni tartibga soluvchi birinchi yuridik jihatdan majburiy ko'p tomonlama xalqaro shartnoma sifatida tarixiy ahamiyatga ega [8]. Konvensiyaning 1-moddasida "Transchegaraviy havo ifloslanishi" quyidagicha ta'riflanadi: "Transchegaraviy havo ifloslanishi bu- jismoniy kelib chiqish manbai to'liq yoki qisman bir davlatning yurisdiksiyasi ostida bo'lib, boshqa davlat yurisdiksiyasi ostida salbiy oqibatlar keltirib chiqaradigan havo ifloslanishidir". Bu ta'rif uchta asosiy elementni o'z ichiga oladi: manba, chegaradan o'tish va boshqa davlat hududida ro'y beradigan salbiy ta'sir [9].

Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risidagi Konvensiya-Espoo Konvensiyasi 1991-yil 25-fevralda Finlyandiyaning Espoo shahrida imzolangan va 1997-yilda kuchga kirgan [10]. Mazkur Konvensiya davlatlardan o'z hududida rejalashtirgan va boshqa davlatlar hududiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyatlar uchun oldindan atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) jarayonini o'tkazishni talab qiladi. Konvensiyaning 2-moddasi taraf davlatlarga bunday baholash bo'yicha huquqiy, ma'muriy yoki boshqa zarur chora-tadbirlarni joriy etish majburiyatini yuklaydi. Espoo Konvensiyasi transchegaraviy ta'sir muammosiga protsessual yondashuv nuqtai nazaridan, ya'ni axborot almashish, maslahatlar o'tkazish va jamoatchilikni jarayonga jalb qilish mexanizmlarini birinchi marta tizimli tarzda tartibga solgan hujjat sifatida xalqaro huquq tarixida muhim o'rin egallaydi.

Xalqaro navigatsiya maqsadlari uchun xizmat qilmaydigan suv yo'llaridan foydalanish huquqi to'g'risidagi BMT Konvensiyasi 1997-yil 21-mayda qabul qilingan [11]. Konvensiyaning 7-moddasi "sezilarli zarar yetkazmaslik" (no significant harm rule) tamoyilini mustahkamlaydi: suv yo'li davlatlari o'z hududidan xalqaro suv yo'lidan foydalanishda boshqa suv yo'li davlatlariga sezilarli zarar yetkazmaslik uchun zarur barcha choralarni ko'rishlari lozim [12]. Ushbu qoida transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda muhim normativ hujjat sifatida e'tiborga molikdir.

BMT Xalqaro huquq komissiyasi 2001-yilda "Xavfli faoliyatdan kelib chiqqan transchegaraviy zararining oldini olish to'g'risida"gi Modda loyihalarini qabul qildi [13]. Loyihaning 1-moddasi "transchegaraviy zarar" tushunchasini belgilab, uni bir davlatning hududi yoki nazorati ostidagi faoliyat natijasida boshqa davlat hududida, dengiz kengliklarida, havo fazosida yoki biror-bir hududda yetkazilgan zarar sifatida ta'riflaydi. Muhim jihat shundaki, loyihada "sezilarlilik" (significance) mezonini ham belgilab o'tildi, har qanday minimal ta'sir "transchegaraviy zarar" deb hisoblanmaydi. Modda loyihalarining 3-moddasi davlatning asosiy majburiyatini quyidagicha ifodalaydi: kelib chiqaruvchi davlat o'z hududida yoki nazorati ostida amalga oshiriladigan xavfli faoliyatdan kelib chiqqan transchegaraviy zararining oldini olish yoki uni minimallashtirish uchun zarur barcha ehtiyotkorlik choralari ko'rish lozim. Bu "due diligence" majburiyatining kodifikatsiya jihatidan eng yirik ifodasidir. Ayni paytda, "due diligence" majburiyatining mutlaq (absolyut) yoki nisbiy tabiati masalasida ham ilmiy doktrinada keng munozaralar mavjud. Xalqaro Sud Palatasining (XSP) *Pulp Mills* ishida bu majburiyatni "natijaga oid majburiyat" (obligation of result) emas, balki "xatti-harakatga oid majburiyat" (obligation of conduct) sifatida talqin etildi [14].

Modda loyihalari doktrinada muhim ilmiy muhokama predmetiga aylangan hujjat hisoblanadi. P. Sands va J. Peel kabi tadqiqotchilar ushbu hujjatni xalqaro atrof-muhit huquqining "poydevor arxitekturasini" sifatida baholaydi. Boshqa mualliflar esa hujjatning huquqiy majburiyligi yo'qligini va "sezilarlilik" mezonining noaniqligini asosiy kamchilik sifatida ko'rsatadi [15]. P. Birnie, A. Boyle va C. Redgwell ushbu mezonni baholashda uchta yondashuvni ajratib ko'rsatadi: a) ekologik standartlarga asoslangan yondashuv; b) iqtisodiy zarar hajmiga asoslangan yondashuv; c) inson

hayoti va salomatligi uchun yuzaga keladigan xavflar asosidagi yondashuv. Mualliflar metodologik jihatdan birinchi yondashuvni eng mos deb baholaydi.

2001-yilda BMT Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan qabul qilingan “Transchegaraviy zararlarning oldini olish to’g’risidagi modda loyihalari” xalqaro ekologik huquqda muhim kodifikatsiya bosqichini tashkil etgan bo’lsa-da, ushbu tushunchaning evolyutsiyasi keyingi yillarda ham izchil davom etdi. Mazkur davr transchegaraviy ta’sir konsepsiyasining chuqurlashuvi, uning qo’llanish doirasining kengayishi hamda yangi huquqiy mexanizmlar bilan boyitilishi bilan tavsiflanadi. 2006-yilda BMT Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Transchegaraviy zarar natijasida yuzaga kelgan yo’qotishlarni taqsimlash tamoyillari” ushbu sohadagi normativ rivojlanishning mantiqiy davomi bo’ldi. Ushbu hujjat 2001-yilgi modda loyihalarida aks etgan preventiv yondashuvni to’ldirib, e’tiborni zarar yuzaga kelgan holatlarda javobgarlikni taqsimlash masalasiga qaratdi. Xususan, unda davlatlar bilan bir qatorda xususiy operatorlarning ham javobgarligi masalasi ko’tarilib, transchegaraviy zarar konsepsiyasi kompleks javobgarlik tizimi doirasida talqin etila boshladi [16]. 2018-yilda BMT Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Atmosferani muhofaza qilish bo’yicha qo’llanma prinsiplari” transchegaraviy ta’sir tushunchasining yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur prinsiplarda davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha hamkorlik majburiyati, ehtiyotkorlik (precautionary) yondashuvi va zarar yetkazmaslik prinsipi global miqyosda mustahkamlandi. Bu esa “sic utere tuo ut alienum non laedas” prinsipining yanada universal xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi. Zamonaviy davr transchegaraviy ta’sir tushunchasiga preventiv yondashuvning ustuvorligi, ekologik majburiyatlarning kuchayishi hamda “umumiy manfaat” konsepsiyasining shakllanishi bilan ajralib turadi. Davlatlar tomonidan monitoring, axborot almashish, xavflarni baholash va xalqaro hamkorlik mexanizmlariga tobora ko’proq e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, mazkur sohada soft law hujjatlarining ko’payishi transchegaraviy ta’sir konsepsiyasining moslashuvchan va dinamik rivojlanayotgan institut ekanligini ko’rsatadi. Transchegaraviy ta’sir tushunchasining taraqqiyotida xalqaro ekologik hamkorlikning o’sib borishi muhim rol o’ynaydi. Havo ifloslanishi, suv resurslaridan foydalanish va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish singari transmilliy muammolar davlatlarning o’zaro yaqinlashuvini taqozo etadi. Natijada transchegaraviy ta’sirni baholash, oldini olish va salbiy oqibatlarini kamaytirish masalalari xalqaro huquqiy tartibga solishning mustaqil predmetiga aylandi va tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Transchegaraviy ta’sir tushunchasi bilan bog’liq bo’lgan ilmiy muammolarni aniqlash va chuqur tahlil qilish uchun bu boradagi huquqshunos olimlar fikrlarini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Sands o’zining Xalqaro Ekologik Huquq Tamoyillari (Principles of International Environmental Law, 2003, 2018) asarida transchegaraviy ta’sirni xalqaro ekologik huquqning markaziy tushunchalaridan biri sifatida ko’rib chiqadi. U sic utere tuo ut alienum non laedas prinsipini transchegaraviy ta’sir doktrinasining tarixiy asosi deb belgilaydi. Sands ta’kidlashicha, transchegaraviy ta’sir tushunchasi ekologik chegaralarni huquqiy jihatdan tartibga solishning universal mexanizmi sifatida shakllanib bormoqda. U iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o’lchamlarni ham ta’kidlaydi. Fikrimcha, Sandsning bu boradagi yondashuvi juda to’g’ri, lekin bu yondashuvni zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning kibermakon orqali transchegaraviy ta’sirlarini ham chuqur o’rgangan holda, ushbu doktrina doirasida ko’rib chiqilishi lozim deb hisoblayman. Edinburg universiteti professori Alan Boyl Xalqaro Huquq va Atrof-Muhit (International Law and the Environment, 2009) asarida transchegaraviy ta’sirning sezilarli zarar (significant harm) mezonini batafsil tahlil qiladi. U ilmiy noaniqlik (scientific uncertainty) muammosini alohida o’rganadi. Transchegaraviy ta’sir uchun mas’uliyatni qat’iy mas’uliyat (strict liability) tamoyili asosida qurishni tavsiya etadi, ya’ni zarar yetkazishda aybning mavjudligini isbotlash talab qilinmasligi kerak. Boylning qat’iy mas’uliyat tamoyilini qo’llab-quvvatlagan holda

O'zbekiston qonunchiligida ham shunga o'xshash mexanizmlar joriy etilishi zarur deb hisoblayman. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun umumiy lekin farqlanadigan mas'uliyat prinsipi bilan o'zaro munosabatlarni muvozanatlash kerak. Oslo universiteti professori Kristina Voigt o'zining tadqiqotlarida transchegaraviy ta'sir tushunchasini iqlim o'zgarishi kontekstida yangicha talqin qiladi. U umumiy lekin farqlanadigan mas'uliyat (CBDR) prinsipini transchegaraviy ta'sir doktrinasi bilan sintezlashtiradi. Voigt transchegaraviy iqlim ta'sirlari uchun hozircha yetarli xalqaro huquqiy mexanizmlar mavjud emasligini ta'kidlaydi va Parij bitimining kamchiliklarini ko'rsatib beradi. Voigt tanqidiy xulosasida to'la haqli, mintaqaviy shartnomalar tizimini, jumladan Markaziy Osiyo uchun, global shartnomalarni to'ldiruvchi mexanizm sifatida yaratish va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Olimlar fikrlarini tadqiq va tahlil qilgan holda bugungi kundagi transchegaraviy ta'sir bilan bog'liq eng asosiy ilmiy muammolar sifatida quyidagilarni tahlil qilishimiz zarur:

- Tushunchaning yagona, universal tan olingan ta'rifi mavjud emas. Xalqaro ekologik huquqda, inson huquqlari sohasida, investitsion huquqda va dengiz huquqida tushuncha har xil mazmun va qo'llanilish doirasiga ega. Bu huquqiy tarqoqlik (fragmentation) davlatlar o'rtasida nizolar uchun qulay zamin yaratadi.

- Sezilarli zarar (significant harm) mezonining aniq miqdoriy yoki sifat ko'rsatkichlari yo'qligi tushunchaning amaliy qo'llanilishini cheklaydi. Davlatlar o'z harakatlarining transchegaraviy ta'siriga baho berishdan qochish uchun ushbu noaniqlikdan foydalanadi.

- Ilmiy noaniqlik (scientific uncertainty) sharoitida sababiyat bog'lanishini aniqlash nihoyatda murakkab. Iqlim o'zgarishi, radioaktiv ifloslanish, kiberhujumlar kabi zamonaviy ta'sirlarda ushbu muammo yanada o'tkir namoyon bo'lmoqda.

- Transchegaraviy ta'sirni oldini olish bo'yicha majburiy xalqaro mexanizm mavjud emas. Stokgolm va Rio deklaratsiyalari majburiy kuchga ega bo'lmagan yumshoq huquq (soft law) hujjatlari bo'lib qolmoqda.

- Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va kibermakondagi transchegaraviy ta'sirlar mavjud huquqiy me'yorlar doirasida yetarlicha tartibga solinmagan.

Transchegaraviy ta'sir tushunchasi xalqaro huquqda dastlab odat huquqi va arbitraj amaliyoti zaminida shakllanib, keyinchalik xalqaro ekologik huquqning muhim konseptual va normativ institutlaridan biriga aylandi. Amalga oshirilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ushbu tushunchaning rivojlanishida Trail Smelter arbitraj ishi, *sic utere tuo* prinsipi, Stokgolm deklaratsiyasining 21-prinsipi va Rio deklaratsiyasining 2-prinsipi fundamental huquqiy asos vazifasini bajargan. Ushbu asoslar keyinchalik Espoo konvensiyasi hamda BMT Xalqaro huquq komissiyasining 2001-yildagi Modda loyihalarida preventiv yondashuv, oldindan ogohlantirish, atrof-muhitga ta'sirni baholash va xalqaro hamkorlik mexanizmlari shaklida o'z ifodasini topdi.

Maqolada o'rganilgan masalalar tahlili, shuningdek, shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy ta'sir tushunchasi faqat zarar yuzaga kelgandagi xalqaro javobgarlik masalasi bilan cheklanib qolmay, balki zararining oldini olishga yo'naltirilgan mustaqil huquqiy tamoyil sifatida shakllangan. Zamonaviy xalqaro sud amaliyoti va doktrinal yondashuvlar ushbu tushunchaning ekologik xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surish hamda davlatlarning muvozanatli manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyatini tobora kuchaytirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, transchegaraviy ta'sir konsepsiyasi xalqaro ekologik huquqning evolyutsion rivojlanishini aks ettiruvchi, davlatlarning ekologik mas'uliyati va hamkorligi uchun normativ poydevor yaratuvchi fundamental huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Iqlim o'zgarishi, transchegaraviy resurslardan foydalanish va ekologik xavflarning globallasuvi sharoitida mazkur institutning yanada rivojlantirilishi xalqaro huquq oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Amalga oshirilgan konseptual-huquqiy tahlil asosida xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sir

tushunchasini takomillashtirish va O'zbekiston qonunchiligini ushbu sohada rivojlantirish bo'yicha quyidagi aniq ilmiy va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, BMT doirasida Transchegaraviy ta'sirni tartibga solish to'g'risida yangi xalqaro konvensiya ishlab chiqish zarur. Tushunchaning to'rtta asosiy elementi aniq belgilanishi va sezilarli zarar mezonining miqdoriy ko'rsatkichlari kodifikatsiya qilinishi lozim.

Ikkinchidan, qat'iy mas'uliyat tamoyilini kengaytirish, yuqori xavfli faoliyat (yadroviy, kimyoviy, biotexnologik) uchun qat'iy mas'uliyatni barcha transchegaraviy ta'sirlarga kengaytirish va majburiy arbitraj bilan birlashtirib kodifikatsiya qilish.

Uchinchidan, Transchegaraviy ta'sirni oldindan baholash (transboundary EIA) majburiyatini universal shartnomaviy me'yor sifatida belgilash va mustaqil xalqaro ekspertiza organini tuzish.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun transchegaraviy ta'sirni tartibga soluvchi mintaqaviy konvensiya ishlab chiqish, O'zbekiston ushbu jarayonda faol rol o'ynashi mumkin.

Beshinchidan, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunga (1992) Transchegaraviy ta'sirga oid alohida bob kiritish: qo'shni davlatlarga ma'lumot berish majburiyati, birgalikda monitoring tartibi, zararni qoplash mexanizmlarini joriy etish zarur.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES:

1. Brownlie I. Principles of Public International Law. 7th ed. Oxford: Oxford University Press, 2008. P. 289-290.
2. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo, 1991). Art. 1(vii). URL: <https://digitallibrary.un.org/record/4082667>.
3. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo, 1991). Art. 1(viii). URL: <https://digitallibrary.un.org/record/4082667>.
4. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo Convention), Espoo, 25 February 1991. UNTS, vol. 1989, p. 309. URL: <https://unece.org/environment-policy/eia/espoo-convention>.
5. Convention on Long-Range Transboundary Air Pollution, Geneva, 13 November 1979. UNTS, vol. 1302, p. 217. URL: <https://unece.org/environment-policy/air/convention-long-range-transboundary-air-pollution>.
6. Convention on Long-Range Transboundary Air Pollution, Art. 1(b).
7. Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses, New York, 21 May 1997. UN Doc. A/RES/51/229. UNTS, vol. 2999. URL: <https://legal.un.org/avl/ha/clnuiw/clnuiw.html>.
8. Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses, Art. 7(1).
9. Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment, Stockholm, 16 June 1972, Principle 21. UN Doc. A/CONF.48/14/Rev.1. URL: <https://www.un.org/en/conferences/environment/stockholm1972>.
10. ILC Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities, 2001. UN Doc. A/56/10. URL: https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_7_2001.pdf
11. International Law Commission. "Draft Principles on the Allocation of Loss in the Case of Transboundary Harm Arising out of Hazardous Activities", 2006.
12. Pulp Mills on the River Uruguay (Argentina v. Uruguay), Judgment of 20 April 2010, ICJ Reports 2010, p. 14.
13. Rio Declaration on Environment and Development, Rio de Janeiro, 14 June 1992, Principle 2. UN Doc. A/CONF.151/26 (Vol. I). URL: https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_CONF.151_26_Vol.I_Declaration.pdf.
14. Sands P., Peel J., Fabra A., MacKenzie R. Principles of International Environmental Law. 4th ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2018. P. 692-720.
15. Sic Utere Tuo Ut Alienum Non Laedas: Legal Definition // US Legal Forms. URL: <https://www.uslegalforms.com/definitions/sic-utere-tuo-ut-alienum-non-laedas/>.
16. Trail Smelter Arbitration (United States v. Canada), Award of 11 March 1941, 3 RIAA 1905 (1941). URL: https://legal.un.org/riaa/cases/vol_III/1905-1982.pdf.

ERGASHEVA Shohista O'ktam qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

E-mail: shohistaabdurahmonova09@gmail.com

UNIDROITNING “RAQAMLI AKTIVLAR VA XUSUSIY HUQUQ” TAMOIYILLARINING MILLIY QONUNCHILIKGA IMPLEMENTATSIYA QILISH MASALALARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): ERGASHEVA SH.O'. Unidroitning “raqamli aktivlar va xususiy huquq” tamoyillarining milliy qonunchilikga implementatsiya qilish masalalari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 167-174.

3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-017>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada UNIDROIT tomonidan ishlab chiqilgan “Raqamli aktivlar va xususiy huquq” tamoyillarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur maqolaning maqsadi UNIDROITning “Raqamli aktivlar va xususiy huquq” tamoyillarini tahlil qilish hamda ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish istiqbollari va muammolarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda xususiy huquq institutlarining transformatsiyasi, kollizion normalarning roli hamda xalqaro huquqiy majburiyatlar bilan uyg'unlik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada turli davlatlar tajribasi asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilib, raqamli aktivlarni fuqarolik huquqi obyektlari tizimiga kiritish, ularning huquqiy ta'rifini belgilash va alohida normativ-huquqiy hujjat qabul qilish zarurati asoslab beriladi. Maqolada raqamli aktivlarni fuqarolik huquqining alohida obyekti sifatida e'tirof etish, ularning huquqiy ta'rifini milliy qonunchilikka kiritish hamda “Raqamli aktivlar to'g'risida” alohida qonun qabul qilish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 81-moddasiga raqamli aktivlarni fuqarolik huquqlari obyektlari tarkibiga kiritishga oid qo'shimcha norma kiritish taklif etilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi UNIDROIT tamoyillarining milliy huquq tizimiga implementatsiyasi bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqilgani, raqamli aktivlarga nisbatan lex rei sitae prinsipini qo'llashning o'ziga xos jihatlari ochib berilgani hamda muallifning raqamli aktivlarni alohida fuqarolik-huquqiy obyekti sifatida tan olish zarurligi haqidagi ilmiy pozitsiyasi asoslanganida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: raqamli aktivlar, UNIDROIT tamoyillari, xususiy huquq, kollizion huquq, fuqarolik huquqi obyektlari, mulkiy huquqlar, lex rei sitae.

ЭРГАСHEVA ШохистаДокторант Ташкентского государственного
юридического университетаE-mail: shohistaabdurahmonova09@gmail.com

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ПРИНЦИПОВ УНИДРУА «ЦИФРОВЫЕ АКТИВЫ И ЧАСТНОЕ ПРАВО» В НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО

АННОТАЦИЯ

В данной статье с научно-правовой точки зрения анализируются вопросы имплементации в национальное законодательство принципов «Цифровые активы и частное право», разработанных

УНИДРУА. Цель статьи – анализ принципов «Цифровые активы и частное право» УНИДРУА и выявление перспектив и проблем их имплементации в национальное законодательство. Особое внимание уделяется трансформации институтов частного права, роли коллизионных норм и совместимости с международно-правовыми обязательствами. В статье также рассматриваются пути совершенствования национального законодательства на основе опыта различных стран и обосновывается необходимость включения цифровых активов в систему объектов гражданского права, установления их правового определения и принятия отдельного нормативно-правового акта. В статье обосновывается необходимость признания цифровых активов отдельным объектом гражданского права, включения их правового определения в национальное законодательство и принятия отдельного закона «О цифровых активах». Также предлагается ввести дополнительную норму о включении цифровых активов в качестве объектов гражданского права в статью 81 Гражданского кодекса. Научная новизна статьи проявляется в том, что разработан комплексный подход к имплементации принципов УНИДРУА в национальную правовую систему, раскрыты специфические аспекты применения принципа *lex rei sitae* к цифровым активам, а также обоснована научная позиция автора относительно необходимости признания цифровых активов отдельным объектом гражданского права.

Ключевые слова: цифровые активы, принципы УНИДРУА, частное право, коллизия права, объекты гражданского права, права собственности, *lex rei sitae*.

SHOKHISTA Ergasheva

Doctoral student of Tashkent State University of Law

E-mail: shohistaabdurahmonova09@gmail.com

IMPLEMENTATION ISSUES OF THE UNIDROIT PRINCIPLES OF “DIGITAL ASSETS AND PRIVATE LAW” INTO NATIONAL LEGISLATION

ANNOTATION

This article analyzes the issues of implementing the principles of “Digital Assets and Private Law” developed by UNIDROIT into national legislation from a scientific and legal perspective. The purpose of this article is to analyze the principles of “Digital Assets and Private Law” of UNIDROIT and identify the prospects and problems of their implementation into national legislation. The study pays special attention to the transformation of private law institutions, the role of conflict of laws norms, and compatibility with international legal obligations. The article also considers ways to improve national legislation based on the experience of different countries, and justifies the need to include digital assets in the system of objects of civil law, establish their legal definition, and adopt a separate regulatory legal act. As a result of the study, the need to recognize digital assets as a separate object of civil law, include their legal definition in national legislation, and adopt a separate law “On Digital Assets” is substantiated. It is also proposed to introduce an additional norm on the inclusion of digital assets as objects of civil law in Article 81 of the Civil Code. The scientific novelty of the article is manifested in the fact that a comprehensive approach to the implementation of UNIDROIT principles into the national legal system is developed, the specific aspects of the application of the *lex rei sitae* principle to digital assets are revealed, and the author’s scientific position on the need to recognize digital assets as a separate civil law object is based on it.

Keywords: digital assets, UNIDROIT principles, private law, conflict of law, civil law objects, property rights, *lex rei sitae*.

Global iqtisodiyotning jadal raqamlashtirilishi natijasida yangi nomoddiy aktivlar toifalari shakllanib, ular orasida raqamli aktivlar alohida o‘rin egallamoqda. Markazlashmagan va

transchegaraviy texnologik muhitda faoliyat yurituvchi ushbu aktivlar an'anaviy huquqiy doktrinalar, ayniqsa xususiy huquq sohasiga jiddiy chaqiriqlar tug'dirmoqda. Ularning gibrid tabiati – mulk huquqi, majburiyat huquqi hamda axborot elementlarini birlashtirganligi – ularni huquqiy tasniflash, o'tkazish (transfer) va himoya qilish bilan bog'liq murakkab masalalarni, ayniqsa transchegaraviy munosabatlar doirasida yuzaga keltiradi.

UNIDROIT tomonidan "Raqamli aktivlar va xususiy huquq tamoyillari" (keyingi o'rinlarda – Tamoyillar) loyihasi qabul qilingan. Ushbu Tamoyillar kriptovalyutalar va non-fungible tokenlar (NFTlar) kabi raqamli aktivlar bilan bog'liq bitimlarga oid qonunchilik yo'riqnomalari va ilg'or amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Mazkur Tamoyillar majburiy yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, ularning milliy huquq tizimlariga ta'siri sezilarli bo'lishi mumkin, ayniqsa raqamli aktivlar tartibga solinishi hali shakllanish bosqichida bo'lgan davlatlarda. Ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalasi bir qator nazariy va amaliy muammolarni yuzaga keltiradi. Jumladan, mavjud fuqarolik-huquqiy institutlarning raqamli aktivlar konsepsiyasi bilan mosligi, mulk va majburiyat huquqini moslashtirish zarurati hamda kollizion-huquqiy masalalarni hal etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida, raqamli aktivlar sohasidagi huquqiy tartibga solish hali rivojlanish bosqichida ekanligini hisobga olsak, xalqaro e'tirof etilgan yondashuvlarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Milliy qonunchilikni takomillashtirish va global iqtisodiy jarayonlarga integratsiya sharoitida raqamli aktivlarni izchil va tizimli tartibga solish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, UNIDROIT tamoyillari normativ islohotlar va huquqiy doktrinaning rivoji uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

UNIDROIT barcha davlatlarga ushbu Tamoyillarga mos keluvchi qonunchilikni qabul qilishni tavsiya etadi. Bu esa raqamli aktivlar bilan bog'liq ichki va transchegaraviy bitimlarda aniq qoidalarini belgilash hamda huquqiy noaniqliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. UNIDROIT – 65 a'zo davlatdan iborat mustaqil hukumatlararo tashkilot bo'lib, ular orasida G20 davlatlarining barchasi mavjud. Uning asosiy maqsadi turli huquqiy tizim va madaniy an'analarga mansub davlatlar o'rtasida xalqaro xususiy huquqni uyg'unlashtirish va modernizatsiya qilishdan iborat. UNIDROIT raqamli aktivlarga oid 19 ta tamoyillardan iborat. Ushbu Tamoyillar ikki asosiy vazifani bajaradi:

1. Raqamli bitimlarga oid aniq qoidalar va yo'riqnomalarni taqdim etish;

2. Davlatlarni ushbu Tamoyillarga mos qonunchilikni qabul qilishga rag'batlantirish.

Tamoyillar keng qamrovli tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, ular texnologiyaga, yurisdiksiyaga va tashkiliy shaklga nisbatan neytral hisoblanadi. Shu bilan birga, ular faqat xususiy huquq masalalarini (asosan mulk huquqi va unga oid munosabatlarni) qamrab oladi hamda ma'muriy tartibga solish, intellektual mulk yoki iste'molchilar huquqlarini o'z ichiga olmaydi. 2(2)-prinsipga ko'ra, "raqamli aktiv" keng ma'noda "nazorat qilinishi mumkin bo'lgan elektron yozuv" sifatida ta'riflanadi. 2(1)-prinsip esa "elektron yozuv"ni "(i) elektron muhitda saqlanadigan va (ii) qayta olinishi mumkin bo'lgan axborot" deb belgilaydi. Law Commission of England and Wales o'zining raqamli aktivlarga oid yakuniy hisobotida "raqamli aktiv" tushunchasini juda keng ma'noda talqin qiladi. Unga ko'ra, raqamli aktiv – bu raqamli yoki elektron shaklda ifodalangan har qanday aktiv hisoblanadi [1].

Shu yondashuv asosida Komissiya raqamli aktivlar doirasiga quyidagi obyektlarni ham kiritadi:

- kripto-tokenlar (kriptovalyutalar va shunga o'xshash aktivlar);
- raqamli fayllar;
- raqamli yozuvlar (records)
- elektron pochta (email) akkauntlari;
- domen nomlari;
- o'yin ichidagi (in-game) raqamli aktivlar;
- raqamli karbon kreditlar;
- NFTlar (non-fungible tokens).

Bu ta'rifning asosiy xususiyati — uning texnologiyaga neytral va keng qamrovli ekanligidir. Ya'ni, u faqat kriptovalyutalar bilan cheklanmaydi, balki **iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan barcha raqamli shakldagi obyektlarni** qamrab oladi. Kollizion huquq nuqtayi nazaridan, bunday keng ta'rif qaysi davlat huquqi qo'llanilishi masalasini murakkablashtiradi. Turli davlatlarda turli xil raqamli aktivlar turlicha huquqiy maqomga ega bo'lishi mumkin. Bu esa ayniqsa transchegaraviy (cross-border) munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaradi. 6-prinsip “nazorat” tushunchasini aniqlab, u amalda raqamli aktivdan foyda olish va uning ustidan nazoratni boshqa shaxsга o'tkazish imkoniyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu keng ta'riflar kriptovalyutalar, tokenlar va blokcheyn kabi taqsimlangan reyestr tizimlarini ham qamrab oladi. 4-prinsipga muvofiq, “bog'langan aktivlar” ham (moddiy yoki nomoddiy bo'lishidan qat'i nazar) ushbu doiraga kiradi, masalan, raqamli aktiv bilan bog'langan qimmatli qog'ozlar [2].

Tamoyillarga ko'ra, raqamli aktivlar mulkiy huquqlar obyekti bo'lishi mumkin. Bu ayrim yurisdiksiyalarda ularni “mulk” sifatida tan olish yoki yangi mulk toifasini yaratishni talab qilishi mumkin, biroq bu masala har bir davlat ixtiyoriga qoldirilgan. Bu juda muhim huquqiy oqibatlarga ega, chunki:

- raqamli aktivlar erkin o'tkazilishi mumkin;
- halol egallab oluvchilarni himoya qilish zarur;
- ta'minot (garov) huquqlari shakllanishi mumkin [3].

Singapurning raqamli aktivlarga nisbatan ilg'or yondashuvi Monetary Authority of Singapore (MAS) tomonidan qo'llanilayotgan moslashuvchan tartibga solish siyosatida yaqqol namoyon bo'ladi. MAS raqamli aktivlarni ularning xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflaydi va ularni mulk yoki qimmatli qog'oz sifatida baholaydi. Singapur Parlamenti tomonidan 2019-yil 14-yanvarda qabul qilingan “To'lov xizmatlari to'g'risida”gi Qonun – Payment Services Act 2019 (PSA) – raqamli to'lov tokenlari xizmatlari uchun tartibga soluvchi huquqiy asosni yaratdi. Mazkur qonun ilgari mavjud bo'lgan, ammo zamonaviy FinTech innovatsiyalarini hisobga olmagan turli normativ hujjatlarni yagona tizimga birlashtirdi. PSAning muhim yutuqlaridan biri shundaki, u virtual valyutalar va kriptovalyutalarni aniq tarzda “raqamli to'lov tokenlari” (Digital Payment Tokens – DPTs) sifatida belgilaydi. Monetary Authority of Singapore PSAni “umumlashtiruvchi (omnibus) huquqiy asos” sifatida ta'riflaydi, chunki u zamonaviy va an'anaviy to'lov tizimlarini birgalikda qamrab oladi [4]. Ushbu muvozanatli yondashuv bir tomondan DPT iste'molchilarini himoya qilishni ta'minlasa, ikkinchi tomondan biznes uchun qulay muhit yaratadi. ByBit Fintech Ltd v Ho Kai Xin and others ishida (2023-yil) Singapur Oliy sudi kriptoaktivlar ishonch (trust) asosida ushlab turiladigan mulk sifatida e'tirof etilishi mumkinligini belgiladi. Bu qaror Singapurda raqamli aktivlar huquqshunosligining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Shu tariqa, Singapurning moslashuvchanligi, tezkor adaptatsiyasi va ilg'or siyosati uni raqamli aktivlar innovatsiyalari markazlaridan biriga aylantirmoqda.

Raqamli aktivlar nomoddiy bo'lib, ko'pincha aniq jismoniy joylashuvsiz muomalaga kiradi. Shu sababli, qo'llaniladigan huquqni aniqlash murakkab hisoblanadi. Tamoyillar bu yerda taraflar irodasiga ustuvor ahamiyat beradi va quyidagi **“kaskad” (waterfall)** modelini taklif qiladi:

1. Avvalo, raqamli aktivning o'zida ko'rsatilgan davlat huquqi qo'llaniladi;
2. Agar bu mavjud bo'lmasa, aktiv qayd etilgan tizim huquqi qo'llaniladi;
3. Keyin aktiv emitenti (agar mavjud bo'lsa) bilan bog'liq huquq ko'rib chiqiladi;
4. Oxirida esa sud joylashgan davlat huquqi qo'llanilishi mumkin [5].

Buyondashuv kelgusida tizimlarda qo'llaniladigan huquqni oldindan ko'rsatishni rag'batlantiradi. UNIDROITga ko'ra, raqamli aktivlar bilan bog'liq eng muhim operatsiyalar — bu mulkiy huquqlarni o'tkazish va ta'minot huquqlarini yaratishdir.

Tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

- “halol egallovchi” qoidasi (innocent acquirer rule);
- nazorat orqali ta’minot huquqlarini uchinchi shaxslarga nisbatan kuchga kiritish.

Shuni ham ta’kidlash joizki, UNIDROIT bu borada juda qiziqarli, ammo bahsli taklifni ilgari surgan. Ushbu taklifga ko’ra, mulkiy masalalarga nisbatan qo’llaniladigan huquq, avvalo, raqamli aktivning o’zida aniq ko’rsatilgan davlat huquqi asosida belgilanadi. Agar bunday ko’rsatma mavjud bo’lmasa, u holda raqamli aktiv qayd etilgan tizimda aniq belgilangan huquq qo’llaniladi. Shu tarzda, raqamli aktivni sotib olish, o’tkazish yoki undan boshqa tarzda foydalanish ushbu usulda ko’rsatilgan huquqqa rozilik bildirish sifatida talqin etiladi.

Shunga o’xshash tarzda, 2022-yildagi UCC (Yagona savdo kodeksi)ga kiritilgan o’zgartirishlar moliyaviy aktivlarga nisbatan mavjud kollizion normalarni davom ettiradi. Qo’llaniladigan huquq, odatda, CER (nazorat qilinadigan elektron yozuvlar) sotib olinayotgan paytda aniq ko’rsatilgan yurisdiksiya huquqidan yoki tizim orqali bog’liq yoki biriktirilgan boshqa yozuvlarda ko’rsatilgan yurisdiksiyadan kelib chiqadi. Aks holda, AQShda Kolumbiya okrugi huquqi qo’llaniladi. Garchi bunday kollizion yechim mantiqan to’g’ri ko’rinsa-da, u har doim ham samarali bo’lavermaydi. Raqamli aktivlar o’zining “joylashuvi” nuqtai nazaridan odatiy mulk obyektlariga qaraganda intellektual mulk huquqlariga yaqinroqdir [6].

18-prinsipga ko’ra, agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo’lsa, protsessual masalalarda davlatning umumiy protsessual huquqi qo’llaniladi (masalan, sud jarayonlari va ijro). 19-prinsipga ko’ra, agar raqamli aktiv ustidan mulkiy huquq bankrotlikdan oldin uchinchi shaxslarga nisbatan amal qilgan bo’lsa, u bankrotlik jarayonida ham o’z kuchini saqlab qoladi. Masalan:

- likvidator aktiv ustidan nazoratni amalga oshirishi mumkin;
- ta’minot kreditori o’z huquqini amalga oshirishi mumkin [5].

Rossiyada raqamli aktivlar bo’yicha milliy qonunchilik 2020-yil 31-iyulda qabul qilingan va 2021-yil 1-yanvardan kuchga kirgan 259-FZ-sonli Federal qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun “raqamli moliyaviy aktivlar” tushunchasini joriy etadi, ular huquqiy huquqlar sifatida e’tirof etiladi va mulk huquqiga doir talablar uchun asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, raqamli valyutalarning o’zi qonuniy to’lov vositasi sifatida tan olinmaydi. Qonun, shuningdek, platforma operatorlari uchun litsenziyalash talablarini belgilaydi, ammo raqamli valyutalardan to’lov qat’iy vositasi sifatida foydalanishni taqiqlaydi. Rossiyada raqamli moliyaviy aktivlar huquqiy jihatdan mulkiy huquqlar sifatida tan olingan [7]. Ular an’anaviy pul hisoblanmaydi, biroq egalik qilish, o’tkazish (transfer qilish) va muomalada foydalanish mumkin bo’lgan huquq shakli sifatida qaraladi, albatta, bu jarayonlar Rossiyaning raqamli aktivlar to’g’risidagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi shart.

2025-yil 2-dekabr kuni Property (Digital Assets etc) Act 2025 qonuni qirollik roziligini (Royal Assent) oldi va kuchga kirdi. Ushbu qonun Angliya huquq tizimini isloh qilishga qaratilgan bo’lib, u raqamli aktivlarni zamonaviy texnologiyalar rivojlanishiga mos ravishda tartibga solishga imkon yaratadi. England, Wales va Northern Ireland dunyoda birinchi bo’lib kriptovalyutalar yoki NFTlar kabi raqamli aktivlarni qonun darajasida shaxsiy mulk (personal property) sifatida tan olgan davlatlar qatoriga kirdi [8]. Mazkur qonunning kuchga kirishi natijasida millionlab kriptoaktiv egalari kuchliroq huquqiy himoyaga ega bo’ldi va bu Buyuk Britaniyaning dunyodagi eng yirik kripto bozorlaridan biri sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashi kutilmoqda. UK Law Commission tavsiyalariga asoslanib, ushbu qonun “raqamli yoki elektron tabiatga ega bo’lgan har qanday narsa” mulkiy huquq obyekti bo’lishi mumkinligini belgilaydi, hatto u ingliz huquqida an’anaviy ravishda tan olingan shaxsiy mulkning ikki toifasiga kirmasa ham:

- things in possession (odatda moddiy narsalar),
- things in action (faqat sud orqali talab qilinadigan huquqlar, masalan, qarzlar, aksiyalar yoki shartnomaviy huquqlar) [10].

Ma'lumki, kriptoaktivlar ushbu ikki toifaga to'liq mos kelmaydi. Shu sababli, yangi qonun ularning huquqiy maqomiga oid noaniqliklarni bartaraf etadi va ingliz sudlariga shaxsiy mulkning uchinchi yangi toifasini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa raqamli aktivlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni mulk huquqi obyekti sifatida himoya qilishni ta'minlaydi. Natijada:

- kripto-firibgarlikka qarshi kuchliroq himoya choralari qo'llash mumkin (masalan, mulkiy taqiq qo'yish yoki aktivlarni muzlatish),
- raqamli aktivlar meros sifatida o'tishi mumkin,
- ular bankrotlik holatida kreditorlar tomonidan undirilishi mumkin – xuddi an'anaviy mulklar kabi.

Raqamli aktivlarning huquqiy maqomini aniq belgilash va noaniqliklarni bartaraf etish orqali ushbu qonun ular bilan bog'liq nizolarni soddalashtiradi hamda Buyuk Britaniyaning fintech innovatsiyalar markazi sifatidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi [9].

Raqamli aktivlarning huquqiy tabiati masalasi zamonaviy xususiy huquq doktrinasida eng bahsli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, kontinental va anglo-sakson huquq tizimlarida raqamli aktivlarning mulkiy huquq obyekti sifatidagi maqomi turlicha talqin qilinadi. Kontinental huquq tizimi tarafdorlari raqamli aktivlarni klassik ashyoviy huquq institutlari orqali tartibga solish imkoniyatini ilgari sursalar, common law vakillari ularni an'anaviy "things in possession" yoki "things in action" kategoriyalariga sig'maydigan alohida huquqiy obyekt sifatida baholaydilar.

Shuningdek, ushbu nazariya bo'yicha olimlarning turli nazariyalarini ham tahlil ostiga olishimiz mumkin, asosan UNIDROIT tamoyillari va ayrim davlatlar qonunchiligi bayon qilinganligi bois, biroq nazariy yondashuvlar yetarli darajada ochilmagan. Shu sababli quyidagi mazmundagi ilmiy tahlilni kiritish maqsadga muvofiq, "Raqamli aktivlarning huquqiy tabiati yuzasidan xorijiy huquqshunos olimlar o'rtasida yagona yondashuv mavjud emas. Xususan, M. Lehmann raqamli aktivlarni an'anaviy mulk obyektlariga emas, balki intellektual mulk obyektlariga yaqin hodisa sifatida talqin qiladi va blockchain tizimida "joylashuv" kategoriyasining nisbiy xarakterga egaligini ta'kidlaydi [6]. Uning fikricha, lex rei sitae tamoyilini raqamli aktivlarga nisbatan to'liq qo'llash amaliy jihatdan murakkab hodisadir. Ya'ni, blokcheyn asosidagi aktivlarda "joylashuv" tushunchasi shartli xarakterga ega bo'lib, kollizion bog'lovchi omillarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli u "functional connecting factor" modelini qo'llashni taklif qiladi. D. Zetsche, R. Buckley va D. Arner esa raqamli aktivlarni iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan yangi turdagi mulkiy resurs sifatida e'tirof etadi hamda ularni tartibga solishda texnologik neytrallik prinsipiga asoslanish lozimligini qayd etadi [2]. Ularning fikricha, davlatlar raqamli aktivlarni ortiqcha ma'muriy cheklash emas, balki moslashuvchan xususiy-huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solishi kerak.

L. Vasilevskaya esa tokenlarni fuqarolik huquqlarining mustaqil obyekti sifatida ko'rib, ular klassik ashyoviy huquq institutlarini transformatsiyaga uchratayotganini qayd etadi [10].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar o'zaro qiyoslanganda, ularning umumiy jihati raqamli aktivlarning an'anaviy fuqarolik-huquqiy obyektlardan farqli xususiyatga egaligini tan olishida namoyon bo'ladi. Biroq ular orasida muhim farqlar mavjud.

Masalan, Lehmann kollizion-huquqiy jihatga urg'u berib, asosiy muammo sifatida qo'llaniladigan huquqni aniqlash masalasini ko'rsa, Zetsche va Arner iqtisodiy-huquqiy yondashuvni ilgari surib, innovatsion muhitni saqlab qolishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Vasilevskaya esa masalaga fuqarolik huquqi obyektlari tizimi nuqtayi nazaridan yondashib, tokenlarni alohida mulkiy kategoriya sifatida tan olish zarurligini asoslaydi.

UNIDROIT tamoyillari mazkur doktrinal qarashlarni muayyan darajada sintez qilgan holda, raqamli aktivlarni "nazorat qilinishi mumkin bo'lgan elektron yozuv" sifatida funksional yondashuv asosida ta'riflaydi. Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u texnologiyaning o'zgaruvchan tabiatiga moslashuvchan bo'lib, muayyan texnologiyaga bog'lanib qolmaydi.

Shu bilan birga, ayrim olimlar UNIDROIT yondashuvini haddan tashqari keng deb baholaydilar. Chunki juda keng ta'rif huquqni qo'llash amaliyotida aniqlik yetishmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, qaysi raqamli obyekt mulk huquqi himoyasiga loyiq ekanligini aniqlash masalasida murakkabliklar yuzaga keladi.

Bizning fikrimizcha, raqamli aktivlarni faqat mavjud fuqarolik-huquqiy institutlar doirasida tartibga solish yetarli emas. Chunki ularning markazlashmagan, transchegaraviy va texnologik jihatdan o'zgaruvchan tabiati klassik mulk huquqi konsepsiyalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli milliy qonunchilikda raqamli aktivlarni fuqarolik huquqining alohida obyekti sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki raqamli aktivlar bir vaqtning o'zida mulkiy, axborot va majburiyat elementlarini mujassamlashtiradi. Shu sababli ularni klassik ashyoviy huquq institutlari doirasida to'liq tartibga solish yetarli emas. O'zbekiston qonunchiligida raqamli aktivlarning maxsus huquqiy rejimini belgilovchi alohida qonun qabul qilinishi hamda Fuqarolik kodeksida "raqamli aktiv" mustaqil fuqarolik-huquqiy obyekt sifatida mustahkamlanishi lozim.

Ushbu maqoladan shunday xulosaga kelishimiz mumkin, raqamli aktivlar tushunchasi gibridd xarakterga ega bo'lib, uning global nazorati bugungi kunda ko'plab qiyinchiliklarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois xalqaro UNIDROIT tashkiloti raqamli aktivlar va xususiy huquq tamoyillarini qabul qildi, ushbu hujjat raqamli aktivlar bilan bog'liq bo'lgan muammoli vaziyatlar uchun ma'lum bir darajada yechim beruvchi tavsiyaviy hujjat xarakteriga egadir. Shu bois ushbu qonun asosida milliy qonunchilikga kiritilishi kerak bo'lgan, yuqoridagi izlanishlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga to'xtaldik:

UNIDROIT tamoyillari, muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yutuq hisoblanadi ya'ni xalqaro xususiy huquq sohasida UNIDROIT birinchilardan bo'lib, raqamli aktivlar bilan bog'liq mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi moddiy huquq normalarini ishlab chiqdi. Tamoyillar doirasida raqamli aktivlarning keng va funksional tushunchasi ilgari surilib, ular mulk huquqi hamda boshqa ashyoviy huquqlarning obyekti sifatida e'tirof etiladi.

UNIDROIT tamoyillaridan kelib chiqqan holda, Raqamli aktivlar konsepsiyasini ishlab chiqish va ushbu konsepsiya asosida milliy qonunchilik bazasini yaratish, shuningdek, milliy qonunchilikni takomillashtirishning **yondashuvi** sifatida qonunchilikdan **"raqamli aktivlar"** modelini joriy qilish taklif etiladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, **Raqamli aktivlar** tushunchasining huquqiy ta'rifini UNIDROIT hujjatidan kelib chiqqan holda, milliy qonunchilikka kiritish va konsepsiyaning huquqiy tartibga solishning alohida obyektlari (token, raqamli mulk, raqamli valyuta, kriptovalyutalar va boshqalar) bo'yicha qonun hujjatlarini unifikatsiya qilish tavsiya etgan holda, "Raqamli aktivlar to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish taklif etiladi.

UNIDROIT tamoyillariga muvofiq, raqamli aktivlar alohida huquqiy obyekt sifatida tan olinishi lozim. O'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda, raqamli aktivlarni milliy qonunchilikda raqamli aktivlarni fuqarolik huquqiy ashyo sifatida belgilab, unga egalik qilish mulk huquqi asosida amalga oshirilishi ya'ni ular fuqarolik huquqi obyektlari ichida ashyolar toifasiga kirishini belgilash taklif etiladi. Shuningdek, Fuqarolik kodeksining, 81-moddasini quyidagicha tahrir qilish taklif etiladi: *"Fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar **raqamli aktivlar** va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi"*. Ushbu norma transchegaraviy munosabatlarda huquqiy aniqlikni ta'minlaydi. Raqamli aktivlarni fuqarolik huquqlari obyektlari tizimiga alohida element sifatida kiritish ularning huquqiy tabiatini aniqlashtirish va huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKH/REFERENCES

1. Law Commission, Digital Assets: Final Report, England and Wales, 2023, para. 1.7–1.10. URL <https://lawcom.gov.uk/project/digital-assets/>
2. Zetzsche, Dirk Andreas and Buckley, Ross P. and Arner, Douglas W. and Föhr, Linus, The ICO Gold Rush: It's a Scam, It's a Bubble, It's a Super Challenge for Regulators (July 24, 2018). University of Luxembourg Law Working Paper No. 11/2017, UNSW Law Research Paper No. 17-83, University of Hong Kong Faculty of Law Research Paper No. 2017/035, European Banking Institute Working Paper Series 18/2018, Harvard International Law Journal, Vol. 63, No. 2, 2019, Available at SSRN: URL <https://ssrn.com/abstract=3072298> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3072298>
3. Ergasheva Shokhista Uktam kizi. LEGAL STATUS AND THEORETICAL APPROACHES OF DIGITAL ASSETS. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 7, pp. <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>
4. Singapore, Payment Services Act 2019 (Act 2 of 2019) URL <https://sso.agc.gov.sg/Acts-Supp/2_2019/Published/20190220?DocDate=20190220> accessed 1 April 2024
5. UNIDROIT (2023). Principles on Digital Assets and Private Law. URL <https://www.unidroit.org/wp-content/uploads/2024/01/Principles-on-Digital-Assets-and-Private-Law-linked-1.pdf>
5. Lehmann, Matthias, Who Owns Bitcoin? Private Law Facing the Blockchain (June 11, 2019). 21 Minn. J.L. Sci. & Tech. 93 (2019), European Banking Institute Working Paper Series 2019 – no.42, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3402678> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3402678>
7. FEDERAL LAW NO. 259-FZ OF JULY 31, 2020 (AS AMENDED ON OCTOBER 25, 2024) "ON DIGITAL FINANCIAL ASSETS, DIGITAL CURRENCY, AND AMENDMENTS TO CERTAIN LEGISLATIVE ACTS OF THE RUSSIAN FEDERATION" URL <https://rt-union.com/rules-tur/federal-law-259-fz>
8. Law Commission of England and Wales, Digital assets: Final Report (Law Com No 412, 2023) ix<URL https://s3-eu-west-2.amazonaws.com/lawcom-prod-storage_11jsxou24uy7q/uploads/2023/06/Final-digital-assets-report-FOR-WEBSITE-2.pdf> accessed 31 July 2023 (LCEW Digital Assets Final Report)
9. RATIONALIZING ENFORCEMENT IN THE U.S. FINANCIAL SYSTEM – 2026 UPDATE <https://capmktreg.org/wp-content/uploads/2026/03/CCMR-Enforcement-Report-Update-03.23.26.pdf>
10. Василевская Л. Токен как новый объект гражданских прав: проблемы юридической квалификации цифрового права // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 5. С. 111–119 [Vasilevskaya L. Token as a New Civil Right Object: Issues of Legal Classification of Digital Law, 5 Advanced Topics of Russian Law 111 (2019)]. URL https://cyberleninka.ru/article/n/token-kak-novyy-obekt-grazhdanskih-prav-problemy_yuridicheskoy-kvalifikatsii-tsifrovogo-prava

ГАФУРОВА Нозимахон Эльдаровна

И.о. профессора Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан, доктор юридических наук (DSc)
E-mail: gafurovanozimakhon@mail.ru

КОРРУПЦИОННЫЕ РИСКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА: МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ И ПРЕВЕНТИВНЫЕ МЕРЫ

Для цитирования (iqtibos keltirish uchun, for citation): ГАФУРОВА Н.Э. Коррупционные риски в обеспечении прав человека: международно-правовые механизмы и превентивные меры // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) С. 175-187.

 3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-018>

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются современные теоретико-правовые и международно-правовые аспекты коррупционных рисков в сфере обеспечения и защиты прав человека. Актуальность темы обусловлена тем, что коррупция в современных условиях рассматривается международным сообществом не только как уголовно-правовое и социально-экономическое явление, но и как одна из наиболее серьезных угроз реализации фундаментальных прав и свобод человека, принципов правового государства, верховенства права и демократического управления. Коррупционные проявления оказывают деструктивное воздействие на деятельность государственных институтов, препятствуют доступу граждан к правосудию, социальным услугам, здравоохранению и образованию, а также способствуют росту социального неравенства и снижению доверия общества к государственным органам. Статья направлена на проведение комплексного анализа сущности коррупционных рисков в сфере прав человека, выявление их основных признаков и факторов возникновения, а также изучение международно-правовых механизмов и превентивных мер противодействия коррупции, направленных на укрепление гарантий прав и свобод человека. В рамках статьи рассматриваются доктринальные подходы к определению коррупционных рисков, их взаимосвязь с нарушением прав человека, а также особенности формирования международных стандартов антикоррупционной политики. Значительное внимание уделено исследованию международно-правовых механизмов противодействия коррупции, а также универсальным и региональным международным инструментам. В статье также установлено, что современная международная практика характеризуется переходом от преимущественно репрессивной модели противодействия коррупции к превентивной модели, ориентированной на предупреждение коррупционных проявлений.

Ключевые слова: коррупция, коррупционные риски, права человека, международное право, международно-правовые механизмы, превентивные меры, противодействие коррупции, верховенство права, прозрачность государственного управления, международные организации, цифровизация, гражданское общество.

G'AFUROVA Nozimaxon Eldarovna

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
E-mail: gafurovanozimakhon@mail.ru

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDAGI KORRUPSIYAVIY XAVFLAR: XALQARO-HUQUQIY MEXANIZMLAR VA PREVENTIV CHORALAR

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish sohasidagi korrupsiyaviy xavflarning zamonaviy nazariy-huquqiy hamda xalqaro-huquqiy jihatlarini tadqiq etilgan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda korrupsiya xalqaro hamjamiyat tomonidan nafaqat jinoyat-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisa, balki insonning fundamental huquq va erkinliklarini amalga oshirishga, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi va demokratik boshqaruv tamoyillariga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Korrupsion holatlar davlat institutlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, fuqarolarning odil sudlovga, ijtimoiy xizmatlarga, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimiga bo'lgan imkoniyatlarini cheklaydi, shuningdek, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga hamda jamiyatning davlat organlariga bo'lgan ishonchi pasayishiga olib keladi. Maqola inson huquqlari sohasidagi korrupsiyaviy xavflarning mohiyatini kompleks tahlil qilish, ularning asosiy belgilari va yuzaga kelish omillarini aniqlash, shuningdek, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy mexanizmlari hamda preventiv choralarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada korrupsiyaviy xavflarni aniqlashga oid doktrinal yondashuvlar, ularning inson huquqlari buzilishi bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi siyosatning xalqaro standartlarini shakllantirish xususiyatlari tahlil qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy mexanizmlari, universal va mintaqaviy xalqaro vositalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy xalqaro amaliyot korrupsiyaga qarshi kurashning asosan repressiv modelidan korrupsion holatlarning oldini olishga qaratilgan preventiv modeliga o'tayotgani aniqlangan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaviy xavflar, inson huquqlari, xalqaro huquq, xalqaro-huquqiy mexanizmlar, preventiv choralar, korrupsiyaga qarshi kurash, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi shaffofligi, xalqaro tashkilotlar, raqamlashtirish, fuqarolik jamiyati.

NOZIMAKHON Gafurova

Professor of the Training Institute for Lawyers
under the Ministry of Justice of the Republic of
Uzbekistan, Doctor of Law (DSc)
E-mail: gafurovanozimakhon@mail.ru

CORRUPTION RISKS IN ENSURING HUMAN RIGHTS: INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS AND PREVENTIVE MEASURES

ANNOTATION

This article examines contemporary theoretical, legal, and international legal aspects of corruption risks in the field of the protection and promotion of human rights. The relevance of the study is determined by the fact that corruption is currently regarded by the international community not only as a criminal-law and

socio-economic phenomenon but also as one of the most serious threats to the realization of fundamental human rights and freedoms, the rule of law, democratic governance, and the principles of a legal state. Corruption has a destructive impact on the functioning of public institutions, impedes citizens' access to justice, social services, healthcare, and education, and contributes to growing social inequality and declining public trust in state authorities. The article aims to provide a comprehensive analysis of the nature of corruption risks in the field of human rights, identify their main characteristics and contributing factors, and examine international legal mechanisms and preventive measures aimed at strengthening guarantees for the protection of human rights and freedoms. The study explores doctrinal approaches to defining corruption risks, their relationship with human rights violations, and the specific features of developing international anti-corruption standards. Particular attention is devoted to the analysis of international legal anti-corruption mechanisms, as well as universal and regional international instruments. The findings demonstrate that contemporary international practice is characterized by a gradual shift from a predominantly punitive approach to an increasingly preventive model of anti-corruption policy focused on preventing corruption-related offenses and minimizing corruption risks.

Keywords: corruption, corruption risks, human rights, international law, international legal mechanisms, preventive measures, anti-corruption policy, rule of law, transparency of public administration, international organizations, digitalization, civil society.

Коррупция является одной из наиболее серьёзных угроз современному обществу и международной безопасности. Как говорится в Конвенции ООН Против коррупции от 2003 года, проблемы и угрозы порождаемых коррупцией, seriously влияют на стабильность и безопасность общества, подрывают демократические институты и ценности, этические ценности и справедливость и наносят ущерб устойчивому развитию и правопорядку во всем мире [1]. Она оказывает разрушительное воздействие на систему государственного управления, препятствует социально-экономическому развитию и нарушает фундаментальные права и свободы человека. Международное сообщество рассматривает коррупцию не только как уголовно-правовое явление, но и как фактор, препятствующий реализации прав человека.

В современной международно-правовой доктрине коррупция рассматривается не только как уголовно-правовое или экономическое явление, но и как серьёзная угроза системе обеспечения прав и свобод человека. Международные организации всё чаще подчёркивают, что коррупция подрывает основы демократического управления, нарушает принцип верховенства права, ограничивает доступ граждан к правосудию и препятствует реализации социально-экономических прав.

С научной точки зрения коррупция представляет собой злоупотребление публичной властью, должностными полномочиями либо служебным положением в целях извлечения личной выгоды, что приводит к нарушению принципов законности, равенства и справедливости. В условиях системной коррупции государственные институты утрачивают способность эффективно обеспечивать и защищать права человека.

Международные организации рассматривают коррупцию как комплексную угрозу, оказывающую негативное влияние практически на все категории прав человека, гражданские и политические права, социально-экономические права, среди которых больше всего страдают такие права, как право на справедливое судебное разбирательство, право на равенство перед законом, право на доступ к государственным услугам, право на эффективные средства правовой защиты и др.

В последние годы особое внимание уделяется взаимосвязи между коррупцией и нарушением прав человека. Коррупционные действия в судебной системе, правоохранительных органах, сфере образования, здравоохранения и государственных услуг ограничивают доступ граждан к справедливому правосудию, медицинской помощи, образованию и социальным гарантиям.

В связи с этим возрастает значение международно-правовых механизмов предупреждения коррупции и внедрения эффективных превентивных мер на национальном уровне.

Коррупционные риски представляют собой совокупность условий и факторов, способствующих возникновению коррупционных правонарушений в деятельности государственных органов и должностных лиц.

Коррупционные риски в сфере прав человека представляют собой совокупность правовых, институциональных, организационных, социально-экономических и управленческих факторов, создающих условия для возникновения, распространения и реализации коррупционных практик, способных прямо или косвенно нарушать, ограничивать либо препятствовать эффективному осуществлению и защите прав и свобод человека.

С научно-правовой точки зрения коррупционный риск следует рассматривать не только как вероятность совершения коррупционного правонарушения, но и как потенциальную угрозу деформации механизма реализации прав человека, при которой государственные органы, должностные лица или иные субъекты публичных полномочий используют предоставленные им властные ресурсы в личных, корпоративных либо политических интересах вопреки принципам законности, справедливости, равенства и верховенства права.

Akademik A.Saidovning fikricha, korrupsiya davlat va jamiyat rivojiga tizimli tahdid soluvchi ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, u Konstitutsiya va qonunlarning samarali amalga oshirilishini cheklaydi hamda inson huquqlari va erkinliklariga to'sqinlik qiladi [5]. Olim korrupsiyaviy xavf-xatarlarning asosiy sabablarini normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosida uzilishlar, davlat organlarida ochiqlik va hisobdorlik mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlaydi. Shuningdek, u korrupsiyani iqtisodiy va boshqaruv tizimlarning samaradorligini pasaytiruvchi murakkab omil sifatida baholaydi. Uning fikricha, xavf-xatarlarni kamaytirishning eng samarali yo'li – oldini oluvchi huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqni qo'llash amaliyotida yagona standartlarni joriy etish va davlat organlari faoliyatida ochiqlik hamda javobgarlikni ta'minlashdir. Bu yondashuv tashkilotlar yuridik xizmatlari uchun korrupsiyaga qarshi tizimli choralarni shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur yondashuvni professor O.Zokirovaning qarashlari ham qo'llab-quvvatlaydi va yanada kengaytiradi. U korrupsiyani faqat jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sifatida emas, balki aholi va davlat tuzumining asosiy huquqiy prinsiplari – qonun ustuvorligi hamda adolat tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lgan negiziy ijtimoiy-huquqiy tahdid sifatida ko'radi. Olimning fikricha, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning asosiy sababi mexanizmlarning yetarlicha chuqur va aniq amalga oshirilmassligida, shuningdek, javobgarlikning to'la joriy etilmayotganligida yotadi [6].

Yuqoridagi yondashuvlardan farqli ravishda, professor Sh.Kabilov [7] korrupsiyaviy xavf-xatarlarni xalqaro huquqiy standartlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Olimning nazarida, yuridik xizmatlar uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri – xalqaro huquq normalarini milliy huquqiy tartibga chuqur joriy etish, ya'ni konvensiya talablarini normativ-huquqiy hujjatlarga to'liq moslashtirish va ularning ijrosi ustidan samarali monitoring

mexanizmlarini yo'lga qo'yishdir. Shuningdek, u milliy mexanizmlarda huquqiy nomuvofiqliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirishni taklif qiladi, bu esa yuridik xizmatlar faoliyatida korrupsiyaviy xavfni barqaror oldini oluvchi poydevor yaratadi. Ushbu yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tajribaning ahamiyatini ochib berishi bilan ajralib turadi.

Ayrim olimlar korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avtomatlashtirish darajasi bilan ham bog'lashadi. A.Dusmuhamedov tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar raqamli shaklga o'tkazishning yetishmasligi va analitik monitoring mexanizmlarining zaifligi bilan tushuntirish barobarida, bu holatni yuridik xizmatlar faoliyati uchun muhim xavf sababi sifatida ko'rib, mamlakat miqyosida kompleks raqamli tizimlar joriy etilmasligini korrupsiya risklarni oldindan aniqlash va nazorat qilish imkoniyatlarini cheklovchi omil, deb baholaydi [8].

Professor B.Aliyev milliy tajriba bilan bir qatorda Singapur, AQSh va boshqa ilg'or mamlakatlardagi shaffof hamda mustaqil institutlar tajribasini tahlil qilib, korrupsiyaviy xavflarni oldini olish uchun kompleks siyosatni belgilash zaruratini ko'rsatadi [9].

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish masalasi bir yoqlama emas, balki ko'p qatlamli va kompleks yondashuvni talab qilishini yaqqol ko'rsatadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish mexanizmlarini chuqur anglashda xorijiy ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida korrupsiyaga qarshi kurash faqatgina normativ-huquqiy choralar bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv, tashkiliy nazorat, elektronlashtirish va jamoatchilik ishtiroki kabi kompleks mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

F.Ceschel, A.Hinna va F.Hombergning tadqiqotiga ko'ra [10], tashkilotlar ishida korrupsiyaviy xavf-xatarlar yakka mansabdor shaxslarning xulqigagina bog'liq bo'lmay, balki "tashkiliy va tizimli sharoitlar" bilan ham bevosita bog'liq ekanligi ilmiy ravishda tasdiqlangan. Mualliflar tomonidan korrupsiyaning kompleks ko'rinishlari asosan huquqiy tartib, ochiqlik va mas'uliyatlilik mexanizmlarining to'la tatbiq etilmasligi bilan bog'liq bo'ladi; ayniqsa, huquqiy xizmatlar ichki nazorat tizimi va standartlashtirilgan ish jarayonlariga ega bo'lmasa, bu "tashkiliy sharoitlar korrupsiya imkoniyatlarini kengaytiradi, chunki ochiqlik va me'yoriy cheklar yetarli emas", deb ta'kidlanadi. Shuning uchun korrupsiyani oldini olish xalqaro standartlarga asoslangan mexanizmlarni joriy etish, ichki risk-baho yondashuvni kuchaytirish va sohaviy nazorat mexanizmlarini mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi.

Bu yondashuv yuridik xizmatlar uchun nafaqat shaffof boshqaruv, balki ichki monitoring, audit va xodimlar faoliyatining mustaqil baholanishi orqali korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish mexanizmlari sifatida muhim ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

A.Zarychta, M.Benedum, E.Sanchez va K.Andersson esa, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tushinishda tashkiliy nazorat va turli mexanizmlarning rolini chuqur tahlil qilishadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat xizmatlarida, "vakolatlarni markazlashtirishdan uzoqlashtirish" ko'pincha chekka darajadagi nazoratning kamayishi, mansabdor shaxslar tomonidan diskretion vakolatning ortishi va shaffoflik mexanizmlarining bo'sh qolishi kabi omillar orqali korrupsiya xavfini oshiradi, degan xulosaga kelib, xavfni kamaytirish uchun tashkiliy yechimlar sifatida tashqi nazorat, fuqarolik jamiyati ishtiroki va mustaqil monitoring mexanizmlarini joriy etishni taklif qiladilar [11].

So'nggi yillarda esa korrupsiyaga qarshi kurashishda raqamli shaklga o'tkazish omilining o'zni tobora ortib bormoqda. I.Zhyhalkin va Yu.Chuprynaning fikriga qaraganda [12], elektronlashtirishning korrupsiyani kamaytirishdagi rolini huquqiy kontekstdan tahlil qiladi: ular ilmiy dalillarga asoslanib, avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish subyektivligini kamaytiradi, avtomatlashtirilgan monitoring va HR tizimlari korrupsiyaviy "inson omili"ni sezilarli darajada pasaytiradi, deb ta'kidlaydilar.

Ushbu yondashuvlar O'zbekiston amaliyoti uchun ham dolzarb bo'lib, ayniqsa yuridik xizmatlar faoliyatida ichki nazorat va audit tizimlarini kuchaytirish, vakolatlarning aniq chegaralanishini ta'minlash hamda tashkiliy va raqamli mexanizmlarni kompleks ravishda uyg'unlashtirish orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Mamlakatimizda, yuqorida ta'kidlaganimiz, yuridik xizmatlar sohasiga oid qabul qilingan qaror bilan yuridik xizmatlarning roli va funksiyalari tizimli mustahkamlandi hamda ularning tashkilotlar faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash bo'yicha korrupsiyaviy xavflarni oldini olish mexanizmlari aniq belgilandi. Yuridik xizmatlar har bir normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini qonunchilikka muvofiqligi, yuridik texnika qoidalari va korrupsiyaga sabab bo'luvchi omillar yuzasidan ekspertizadan o'tkazish majburiyatiga ega bo'ldi, ya'ni qonunga zid qarorlar qabul qilinishidan oldin huquqiy tahlil qilish, ya'ni, nazorat funksiyasi sifatida joriy etildi. Bundan tashqari, yuridik xizmat mansabdor shaxslar tomonidan imzolanilayotgan qarorlar, buyruqlar yoki shartnomalar loyihalari bo'yicha majburiy ekspertiza xulosalarini beradi va ularning huquqiy oqibatlarini baholaydi, shikoyatlar va qonuniylikni buzilishiga oid holatlarni o'rganadi, hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Qayd etilgan mexanizmlar yuridik xizmatlarni tashkiliy, malaka va ekspertiza nuqtai nazaridan mustahkamlab, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va oldini olish bo'yicha jarayonlarni normativ asosda tartibga soladi hamda yuridik xizmat faoliyati orqali korrupsiya xavfini profilaktik ta'sir orqali kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaviy omillar bo'yicha tizimli tahlil qilish uchun kompleks mexanizmlar joriy etishga qaratilgan [13]. Ushbu mexanizmlarning asosiy elementi – normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibini qo'llash orqali, yuridik xizmatlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Qarorga ko'ra, Adliya vazirligi muvofiqlashtirish va uslubiy yordam ko'rsatish funksiyasini amalga oshiradi. Tayyorlanayotgan hujjatlar loyihalari ishlab chiqilganda, ularda korrupsiyaviy omillarni aniqlash uchun maxsus savolnomalar (cheklistlar) joriy etilib, ular to'ldirilmasdan loyiha adliya organlarining huquqiy ekspertizasidan o'tkazilmaydi va qaytariladi. Bu mexanizm yuridik xizmatlar faoliyatida prevencion yondashuvni kuchaytiradi, chunki har bir normativ hujjat korrupsiya risklari bo'yicha tahlil qilinadi va bu risklar qonun qabul qilinishidan avval bartaraf etiladi.

Ba'zan, yuridik xizmat "xavfli bo'g'in"mi, degan savollar ham uchrab turadi. Aslida, yuridik xizmat qonunchilikka muvofiqlikni ta'minlovchi "gatekeeper" bo'lib, qaror qabul qilishdan oldin huquqiy xulosa berish, tender va shartnoma hujjatlarini ekspertiza qilish, sud ishlari strategiyasini belgilash, loyihalarda korrupsiogen omillarni ko'rish kabi vazifalar tufayli axborot asimmetriyasiga ega bo'ladi. Shuningdek, manfaatli tomonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar (kontragent, advokat, sud jarayoni ishtirokchilari) kesishuvida ishlaydi. Fikrimizcha, aynan qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, yuridik xizmat xodimining ham ishi ustidan nazorat o'rnatilishi muhim hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida korrupsiogen omillarni "qonuniylashtirish"ga qaratilgan harakatlar eng qaltis masala bo'lib, bunday holatlarning oldini olish uchun qonun kuchidan samarali foydalanish zarur bo'ladi. Xususan, yuridik xizmatga korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazishi kerak bo'lgan holda, aksincha, manfaatdor guruhlar uchun qulay "noaniq vakolat", "shaffof emas protsedura", "istisno" normalarini saqlab qolish yoki kiritishga urinuvchi ehtimoliy ta'sir nuqtasi sifatida ham qaralishi lozim. Shu bois, qonunda belgilab qo'yilganidek, ekspertizani mustaqil baholash va cheklistlar bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi [14].

2025-yil 30-dekabrda qabul qilingan Prezident farmoni bilan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining funksional mustaqilligini kuchaytirish va faoliyatda risklarni kamaytirish maqsadida "Raqamli komplaens/E-Komplaens" orqali raqamlashtirish kabi mexanizmlarni takomillashtirish nazarda tutildi. Shuningdek, 2027-yildan boshlab davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarining korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish faoliyatini baholash normativ-huquqiy hujjat loyihalariga nisbatan Adliya vazirligi tomonidan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan mustaqil amalga oshiriladigan bo'ldi [15].

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan olib borilgan tekshiruvlar me'yoriy hujjatlar ichida qarama-qarshiliklar mavjudligi, ma'muriy jarayonlarning etarli emasligi yoki to'liq bo'lmashligi hamda huquqiy erkinlik vakolatlarining kengligini ko'rsatib, hamon korrupsiyaga moyil elementlar yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan tashvish bildirilgan [16].

Yuridik xizmatlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish masalasi ko'p jihatdan ularning funksional vazifalarini samarali amalga oshirish bilan bog'liqdir. Amaliyotda ular avvalo, da'vo ishlarini yuritish, shartnomaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan ta'minlash hamda sudgacha nizolarni hal etish orqali huquqiy tartibni mustahkamlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi.

Xususan, yuridik xizmatlarning da'vo ishlarini yuritish faoliyati davlat manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda huquqiy asoslangan pozitsiyani ishlab chiqish va sudda uni himoya qilish orqali korrupsiyaviy xavflarning oldi olinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqiy nizolarni sudgacha bosqichda hal etish mexanizmlarining rivojlanishi korrupsion kelishuvlar ehtimolini kamaytiradi hamda davlat organlarining ortiqcha sud xarajatlarini qisqartiradi.

Shuningdek, yuridik xizmatlar tomonidan shartnomalar tuzish, ularni bajarish, o'zgartirish va bekor qilish jarayonlari ustidan nazorat o'rnatilishi ham korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, davlat xaridlari sohasida shartnomaviy munosabatlarning shaffofligi va qonuniyligini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, davlat xaridlari jarayonlarida huquqiy nazoratning sustligi korrupsion sxemalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, yuridik xizmatlar debitor va kreditor qarzdorliklarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ham faol ishtirok etadi. Bu jarayonda shartnoma intizomini mustahkamlash, majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash hamda moliyaviy intizomni nazorat qilish orqali iqtisodiy korrupsiya risklari sezilarli darajada kamayadi.

Davlat xaridlari tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish masalasi alohida e'tibor talab qiladi. So'nggi ilmiy ishlarda ta'kidlanishicha, raqamlashtirish va elektron platformalarni joriy etish inson omilini kamaytirish orqali korrupsiyani sezilarli darajada qisqartiradi [17]. Shu nuqtai nazardan, yuridik xizmatlar tomonidan elektron tender hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish, shaffof tanlov mezonlarini ishlab chiqish hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik xizmatlar faoliyatida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning yana bir muhim yo'nalishi – xodimlarning huquqiy madaniyati va kasbiy malakasini oshirishdir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, korrupsiyaning oldini olishda inson omili hal qiluvchi rol o'ynaydi va xodimlarning huquqiy savodxonligi darajasi past bo'lsa, eng mukammal normativ mexanizmlar ham etarli natija bermaydi. Shu sababli, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalangan holda, ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish, xodimlar uchun muntazam antikorrupsiya treninglari, huquqiy seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish zarur. Bu esa o'z navbatida ularning ishida nafaqat normativ-huquqiy yo'naltirilgan bilimlarni, balki professional etika va halollik tamoyillarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tahlillar tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar asosan uchta asosiy yo'nalishda – institutsional nomukammallik, normativ-huquqiy mexanizmlarning yetarlicha darajada ishlamasligi hamda tashkiliy va texnologik kamchiliklar doirasida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Xususan, yuridik xizmatlarning mustaqil qaror qabul qilish ta'siri darajasining pastligi, manfaatlar to'qnashuvi ehtimolining yuqoriligi hamda ichki nazorat mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi korrupsiyaviy risklarning yuzaga kelishiga sharoit yaratmoqda. Bu holat, o'z navbatida, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish jarayonlarida formal yondashuvlar ustunligini kuchaytirib, huquqiy filtrning samaradorligini pasaytirmoqda. Shu bois, elektron boshqaruv va muvofiqligini nazorat qilish tizimlarini yuridik xizmatlar bilan integratsiyalash, fuqarolik jamiyati hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuridik xizmatlar uchun korrupsiyaviy xavflarni tizimli ravishda aniqlash, oldini olish va monitoring qilish imkonini beradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yuridik xizmatlarni tashkil etishning institutsional modernizatsiyalash jarayonlari tashkilotlar faoliyatida qonuniylikni ta'minlanishida alohida o'rin tutmoqda. Mazkur qaror bilan tuman (shahar) darajasidagi davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish maqsadida adliya organlari tizimida Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etildi. [18].

Umuman olganda, o'rganishlar yuridik xizmatlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish kompleks, tizimli va ko'p darajali yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. Bunda huquqiy, institutsional, tashkiliy hamda texnologik choralarni o'zaro uyg'unlashtirish orqali samarali va barqaror korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni shakllantirish mumkin.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5495529>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, <https://lex.uz/docs/-3098964>.
4. M.Yuldasheva, (2022) "Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi muammolar", CyberLeninka elektron kutubxonasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-xizmatida-korrupsiyaga-qarshi-muammolar>.
5. A.Saidov, Anti-Corruption Policy of the Republic of Uzbekistan: International Standards and National System, Uzbekistan Anti-Corruption Digest, 2022, pp. 3–7.: <https://uacd.uz/index.php/journal/article/view/49>.
6. O. Zokirova, "The Constitution and the Legal Foundations of Combating Corruption," International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, Vol. 15 No. 02, pp. 49–54, 2026.: <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/2856>.
7. Sh.Kabilov, "The Implementation of the Requirements of the United Nations Convention Against Corruption in Uzbekistan," International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, Vol. 14 No. 12 (2025), pp. 146–154.: <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/2808>.
8. A. Dusmukhamedov, L. Mukhiddinova & A. Saidov, "The Problem of Corruption Risk Management and Issues of Its Digitalization," Digital Transformation and Artificial Intelligence, Vol. 1 No. 2 (2023).: <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v1i217/v1i217>.
9. B.Aliyev, Issues of Improving State Policy in the Field of Combating Corruption in Uzbekistan, Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences, Vol. 3, No. 6 (2025), pp. 39–44; B.Aliyev & S.Umarjonov, Corruption in Uzbekistan, Political and Legal Strategy for the Fight Against It, Pubmedia Social Sciences and Humanities, Vol. 3, No. 1 (2025).: <https://scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/article/view/112/96>; <https://digital-science.pubmedia.id/index.php/pssh/article/view/440/470>.

10. F.Ceschel, A.Hinna & F.Homberg, Public Sector Strategies in Curbing Corruption: A Review of the Literature, *Public Organization Review*, 22 (3), 571–591 (2022).: <https://link.springer.com/article/10.1007/s11115-022-00639-4>.
11. A.Zarychta, M.Benedum, E.Sanchez & K.Andersson, Decentralization and Corruption in Public Service Delivery: Local Institutional Arrangements That Can Help Reduce Governance Risks, *Journal of Public Administration Research and Theory*, 34 (2), 238–254 (2024). : <https://doi.org/10.1093/jopart/muad022>.
12. I.Zhyhalkin & Yu.Chupryna, *Digitalization of labor procedures as a mechanism for reducing corruption risks*, *Law and Innovations*, (2025).: [https://doi.org/10.37772/2518-1718-2025-4\(52\)-9](https://doi.org/10.37772/2518-1718-2025-4(52)-9).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, <https://lex.uz/docs/-5691402>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/docs/5691402>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/7962922>
16. Anti-Corruption Agency of the Republic of Uzbekistan, 2024-yilda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi natijalari, Anti-Corruption Agency, 22 January 2025.: <https://aca.uz/storage/WzJYsdOI89ByRmE8vwFN6PgGOIN5di-meta0JDQs9C10L3RgtC70LjQuiAyMDI0INC50LjQuyArINC70L7RgtC40L3Rh9CwLnBkZg%3D%3D-.pdf>.
17. M.Imomaliyeva, Raqamli O'zbekiston – korrupsiyadan xoli hudud, 2025.: <https://www.innoist.uz/index.php/ist/article/view/790>.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/docs/5482934>.

NASULLAYEV Mubin Nutfullayevich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi, dotsent
E-mail: nasullaevmubin@gmail.com

IQTISODIY SOHADA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNING OLDINI OLISH: MEXANIZMLAR VA ILMIY ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): NASULLAYEV M.N. Iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish: mexanizmlar va ilmiy zamonaviy yondashuvlar // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 197-207.

 3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-020>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning nazariy-huquqiy mohiyati, ularning kelib chiqish omillari va oldini olish zamonaviy mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Maqolada korrupsiyaning davlat boshqaruvi, davlat xaridlari, soliq, bojxona va moliyaviy munosabatlarga salbiy ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy ilmiy yondashuvlar risk-menejment, raqamlashtirish, komplaens nazorat, ochiq ma'lumotlar tizimining ahamiyati institutsional islohotlar kabi vositalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali usullari yoritilgan va ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu borada O'zbekistonlik olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Milliy va xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, respublikamizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar o'zaro taqqoslangan holda tahlil qilinib, O'zbekiston sharoiti uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, elektron davlat xizmatlari, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va jamoatchilik ishtirokining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun huquqiy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvni taklif etiladi. Ilmiy maqoladagi tahlillar huquqiy va iqtisodiy sohada shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirishga xizmat qilishi ko'rinadi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, iqtisodiy xavf, korrupsiyaga qarshi kurashish, antikorrupsion siyosat, risk-menejment, komplaens-nazorat, davlat boshqaruvi, raqamlashtirish, shaffoflik, elektron hukumat, institutsional islohotlar, manfaatlar to'qnashuvi, jamoatchilik nazorati, huquqiy mexanizmlar, iqtisodiy munosabatlar.

НАСУЛЛАЕВ Мубин Нутфуллаевич

Доцент Института переподготовки и повышения
квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан,
кандидат юридических наук, доцент
E-mail: nasullaevmubin@gmail.com

ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ: МЕХАНИЗМЫ И СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье систематически анализируется теоретическая и правовая сущность коррупционных рисков в экономической сфере, факторы их возникновения и современные механизмы их предотвращения. В статье раскрывается негативное влияние коррупции на государственное управление, государственные закупки, налоговые, таможенные и финансовые отношения. Также освещаются и научно обосновываются эффективные методы борьбы с коррупцией, основанные на современных научных подходах, управлении рисками, цифровизации, контроле соблюдения законодательства, важности систем открытых данных и институциональных реформах. Анализируются научные взгляды узбекских ученых в этом контексте. Изучается опыт национальных и зарубежных стран, проводится сравнительный анализ правовых реформ, реализуемых в нашей республике, и разрабатываются практические предложения и рекомендации для условий Узбекистана. В частности, подчеркивается роль электронных государственных услуг, автоматизированных систем контроля и участия общественности в борьбе с коррупцией. В статье предлагается комплексный подход, объединяющий правовые, экономические и институциональные механизмы для эффективной борьбы с коррупцией. Анализ, представленный в научной статье, призван обеспечить прозрачность в правовой и экономической сферах и минимизировать коррупционные риски.

Ключевые слова: коррупция, экономический риск, борьба с коррупцией, антикоррупционная политика, управление рисками, контроль за соблюдением законодательства, государственное управление, цифровизация, прозрачность, электронное правительство, институциональные реформы, конфликт интересов, государственный надзор, правовые механизмы, экономические отношения.

MUBIN Nasullaev

Associate Professor at the Training Institute
for Lawyers, Candidate of Legal Sciences,
Associate professor
E-mail: nasullaevmubin@gmail.com

PREVENTION OF CORRUPTION RISKS IN THE ECONOMIC SPHERE: MECHANISMS AND MODERN SCIENTIFIC APPROACHES

ANNOTATION

This scientific article systematically analyzes the theoretical and legal nature of corruption risks in the economic sphere, the factors that lead to their emergence, and modern mechanisms for their prevention. The article examines the negative impact of corruption on public administration, public procurement, tax, customs, and financial relations. It also highlights and scientifically substantiates effective methods for

combating corruption based on modern scientific approaches, risk management, digitalization, compliance monitoring, the importance of open data systems, and institutional reforms. The scientific views of Uzbek scholars in this context are analyzed. The experience of national and international countries is examined, a comparative analysis of legal reforms implemented in our country is conducted, and practical proposals and recommendations for the conditions of Uzbekistan are developed. In particular, the role of electronic government services, automated control systems, and public participation in the fight against corruption is emphasized. The article proposes a comprehensive approach that combines legal, economic, and institutional mechanisms for effectively combating corruption. The analysis presented in the scientific article is intended to ensure transparency in the legal and economic spheres and minimize corruption risks.

Keywords: corruption, economic risk, fight against corruption, anti-corruption policy, risk management, control over compliance with legislation, public administration, digitalization, transparency, e-government, institutional reforms, conflict of interest, state supervision, legal mechanisms, economic relations.

Korrupsiya bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon banki ekspertlarining baholashicha, korrupsiya oqibatida har yili jahon iqtisodiyoti trillionlab dollar yo'qotishlarga uchramoqda.

Korrupsiya iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar davlat resurslarining samarasiz foydalanishiga va taqsimlanishiga, investitsiya muhitini yomonlashtirilishiga, bozor raqobatini cheklanishi va buzilishiga olib keladi. Shu bois, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga mazkur sohada korrupsiyaning oldini olish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, korrupsiya oqibatlariga qarshi kurashishdan ko'ra, uning kelib chiqish sabablari va xavf-xatarlarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuvlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq qilish, xorijiy tajribani tahlil qilish hamda mazkur sohada korrupsiyaning oldini olishning samarali mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish mexanizmlari va ilmiy zamonaviy yondashuvlar to'g'risida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda korrupsiyaviy xavf-xatarga tushuncha berib, uning iqtisodiy va huquqiy tabiatiga aniqlik kiritishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatar deb, davlat boshqaruvi va iqtisodiy munosabatlar jarayonida mansab vakolatlari, moliyaviy resurslar yoki boshqa imkoniyatlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish ehtimolini yuzaga keltiruvchi huquqiy, institutsional, tashkiliy va iqtisodiy omillar yig'indisiga aytiladi. Bunday xavflar korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilishi uchun qulay muhit shakllantiradi hamda davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Iqtisodiy sohada bu xavflar davlat xaridlari jarayonidagi manfaatlar to'qnashuvi, litsenziya va ruxsat berish jarayonlaridagi suiiste'molchiliklar, soliq va bojxona imtiyozlaridan noqonuniy foydalanishda, davlat aktivlarini xususiyashtirishda adolatsizlik shakllarda namoyon bo'ladi. Bu holatlar bozor mexanizmlarini izdan chiqaradi va iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi.

Korrupsiya muammosi xorijiy va milliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, S.Rouz-Akkerman korrupsiyani davlat boshqaruvidagi institutsional nuqsonlarning oqibati sifatida baholaydi. Uning fikricha, davlat xizmatlari qanchalik shaffof bo'lsa, korrupsiya xavfi shunchalik kamayadi [1]. Fikrimizcha, mazkur yondashuv korrupsiyaning tizimli sabablarini aniqlash nuqtai nazaridan ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Chunki iqtisodiy sohada korrupsiya aksariyat hollarda

alohida shaxslarning xatti-harakatidan ko'ra, boshqaruv tizimidagi huquqiy va tashkiliy bo'shliqlar natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga, Rouz-Akkerman S. nazariyasida insonning shaxsiy manfaatdorligi va axloqiy omillarining ta'siri yetarlicha hisobga olinmagan deb hisoblash mumkin. Binobarin, korrupsiyaga qarshi siyosat institutsional islohotlar bilan bir qatorda huquqiy madaniyat va xizmat etikasini rivojlantirish choralari ham qamrab olishi lozim.

G.S.Bekker esa korrupsiyani iqtisodiy tanlov nazariyasi orqali izohlab, huquqbuzarlik sodir etishdan kutiladigan foyda va jazo ehtimoli o'rtasidagi nisbat muhimligini ta'kidlaydi [2]. Mazkur yondashuv korrupsiyaning iqtisodiy mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy ahamiyatga ega. Ayniqsa, iqtisodiy sohada nazoratning kuchsizligi va jazoning muqarrar emasligi korrupsiya xavfini oshirishi haqidagi xulosa amaliyotda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Biroq G.S.Bekkerning nazariyasi inson xatti-harakatlarini faqat iqtisodiy manfaat bilan izohlashi bilan cheklangan. Amalda esa korrupsiyaga madaniy muhit, xizmat odobi, jamoatchilik nazorati va institutsional qadriyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli korrupsiyani faqat iqtisodiy tanlov natijasi sifatida emas, balki huquqiy, ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shunday fikrga kelish mumkinki, S.Rouz-Akkermannning institutsional yondashuvi va G.S.Bekkerning iqtisodiy tanlov nazariyasi bir-birini to'ldiradi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishda bir tomondan shaffof va hisobdor institutlarni shakllantirish, ikkinchi tomondan esa korrupsiyadan olinadigan manfaatni kamaytirish va jazoning muqarrarligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois iqtisodiy sohada korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali modeli mazkur ikki yondashuvning uyg'unlashuviga asoslanish lozim.

Milliy olimlardan A.X.Saidov, O.B.Qudratov, B.B. Abdullaev va boshqalar korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini tadqiq qilganlar. Biroq iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarishning profilaktik mexanizmlari yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

Shu sababli, fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi ko'p jihatdan huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin javobgarlik choralari qo'llashga emas, balki korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqaruvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga bog'liq. Shu sababli iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavflarni boshqarishning profilaktik mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish bugungi kun tadqiqotlarining muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Demak, mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni kompleks tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston huquqshunos olimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o'rganishda asosan uchta yo'nalish shakllangan:

1. huquqiy-institutsional yondashuv;
2. iqtisodiy tahlil;
3. boshqaruv va komplaens mexanizmlari.

Mazkur yondashuvlar o'zaro bog'liq bo'lib, korrupsiyani faqat huquqiy emas, balki kompleks ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Korrupsiyaning huquqiy tabiati va institutsional yondashuvlar yuzasidan olimlarning qarashlaridan shuni ko'rsatish lozimki, A.X.Saidov korrupsiyani "huquqiy davlat tamoyillariga tahdid soluvchi tizimli illat" sifatida baholab, uni bartaraf etishda institutsional islohotlar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [3].

Fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashish faqat jazo choralari bilan emas, balki davlat institutlarini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. A.X.Saidovning huquqiy madaniyat

va huquqiy davlatchilikni rivojlantirishga oid qarashlari korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy ildizlarini bartaraf etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Biroq iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishda mazkur yondashuvni zamonaviy risk-menejment, komplaens nazorat va raqamli boshqaruv mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazarni O.B.Qudratov ham qo'llab-quvvatlab, davlat organlari o'rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmagani korrupsiya xavflarini oshirishini qayd etadi [4]. Biroq, B.B.Abdullaev boshqacha pozitsiyani ilgari suradi. U korrupsiyani iqtisodiy jinoyat sifatida baholab, "Jazo muqarrarlari ta'minlanmas ekan, profilaktik choralar samara bermaydi" deb ta'kidlaydi [5].

Fikrimizcha, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishda O.B.Qudratov va B.B.Abdullaev larning qarashlari o'zaro raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida baholanishi lozim. Chunki korrupsiyaga qarshi samarali kurashish bir tomondan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi institutsional sabablarni bartaraf etishni, ikkinchi tomondan esa korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun jazoning muqarrarligini ta'minlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korrupsiyaning oldini olish siyosati profilaktik va repressiv choralarning o'zaro uyg'unligiga asoslanishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy munosabatlarda korrupsiya xavflari bo'yicha ilmiy yondoshuvlarga e'tiborimizni qaratganimizda, H.R.Raxmonqulov iqtisodiy islohotlar jarayonida korrupsiya xavflari kuchayishini ta'kidlab, ayniqsa davlat ishtirokidagi iqtisodiy sub'ektlarda xavf yuqori ekanligini ko'rsatadi [6]. N.N.Qodirov esa korrupsiyaning makroiqtisodiy oqibatlarini tahlil qilib, uni "investitsion muhitni zaiflashtiruvchi va yalpi ichki mahsulot o'sishini sekinlashtiruvchi omil" sifatida baholaydi [7].

Nazarimizcha, H.R.Rahmonqulov va N.N.Qodirov qarashlari o'zaro mantiqiy bog'liqlikka ega. Birinchi yondashuv korrupsiyaviy xavflarning kelib chiqish sabablarini ochib bersa, ikkinchisi ushbu xavflarning iqtisodiyotga ta'sirini ko'rsatadi. Shu bois iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida korrupsiyaviy xavflarni oldindan baholash, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining shaffofligini oshirish va raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Sh.N.To'rayev soliq tizimi misolida inson omilining yuqori ulushi korrupsiya xavfini oshirishini qayd etib, avtomatlashtirish darajasi past bo'lgan tizimlarda korrupsiya ehtimoli yuqori bo'lishligiga e'tibor qaratadi [8]. Shu sababli, Sh.N.To'rayevning qarashlarini rivojlantirgan holda ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishning samarali mexanizmi davlat xizmatlari va soliq ma'muriyatchiligini keng raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosida tahlil tizimlarini joriy etish hamda inson omilini minimallashtirish bilan bir qatorda, kuchli institutsional nazorat va huquqiy kafolatlarni ta'minlashdan iboratdir. Bu esa korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan profilaktik yondashuvlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korrupsiyaviy xavflarni keltirib chiqaruvchi omillar ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, nazorat mexanizmlarining zaifligi, qonunchilikdagi bo'shliqlar, javobgarlik mexanizmlarining samarasizligi bilan bog'liq **institutsional**, bozorda monopoliyaning mavjudligi, resurslar taqsimotida markazlashuv, iqtisodiy notenglikda ko'rinadigan **iqtisodiy** va xizmat odobining past darajasi, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlarining yo'qligi kabi **inson omillari** bilan yaqqol bog'liq ekanligi ko'rinadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va oldini olish mexanizmlaridan risk-menejment tizimini joriy etish muhimdir. Bu tizim xavflarni identifikatsiya qilish, ularni baholash, kamaytirish choralari ishlab chiqishlarni o'z ichiga oladi. Bu tizim orqali tashkilotlarda korrupsiya ehtimoli yuqori bo'lgan sohalar aniqlanadi va ularga nisbatan profilaktik choralar belgilanadi.

Shuningdek, **komplaens nazorat mexanizmi** ham tashkilotlarda qonunchilik va ichki qoidalarga rioya etilishini ta'minlash tizimi bo'lib, u ichki audit, etika kodekslari, xabar berish tizimi kabi elementlarni qamrab oladi. Ushbu tizim manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, xodimlarning axloqiy

standartlarga rioya qilishini nazorat qilish, ichki audit orqali tekshiruvlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Risk-menejment va komplaens tizimlarida ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, Sh.M.Mirzaev komplaens tizimini korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy instrumenti sifatida baholaydi va komplaens-nazorat ichki xavflarni barvaqt aniqlash imkonini beradi deb ta'kidlaydi [9]. R.S.Matchanov xalqaro tajribani tahlil qilib, komplaens tizimi korporativ boshqaruvning ajralmas qismiga aylanganini ta'kidlaydi [10].

D.Q.Normatov esa manfaatlar to'qnashuvini korrupsiyaning asosiy manbasi sifatida ko'rsatib, "Conflict of interest holatlari aniqlanmagan tizimda korrupsiya muqarrar" deb qayd etadi [11].

Mening fikrimcha, Sh.M.Mirzayev, R.S.Matchanov va D.Q.Normatov qarashlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy institutsional modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Agar D.Q.Normatov korrupsiyaning asosiy manbalaridan biri sifatida manfaatlar to'qnashuvini ko'rsatgan bo'lsa, Sh.M.Mirzayev va R.S.Matchanov ana shu xavflarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishning samarali vositasi sifatida komplaens tizimining ahamiyatini asoslab beradi. Shu sababli iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, komplaens-nazoratni kuchaytirish va korporativ boshqaruvning xalqaro standartlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir mexanizmlardan **raqamlashtirish va elektron hukumat tizimi** bo'lib, raqamlashtirish inson omilini kamaytiradi va shaffoflikni oshirsa-da, elektron hukumat tizimi orqali elektron davlat xaridlari, onlayn litsenziya berish, avtomatlashtirilgan soliq mexanizmlari amalga oshiriladi.

Shular bilan birga, **ochiqlik va shaffoflikda** ma'lumotlarni ochiq e'lon qilish orqali korrupsiya xavflari kamayadi. Bu o'rinda byudjet shaffofligi va davlat qarorlarining ochiqligi eng muhim ahamiyatga egadir.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish mexanizmlaridan raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflik, inson omili va elektron hukumat tizimlaridagi ham ilmiy qarashlar shundan iboratki, F.G'. Karimov raqamlashtirishni korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali vositasi sifatida ko'radi va inson omilini kamaytirish orqali korrupsiya imkoniyatlari qisqaradi degan xulosaga keladi [12]. Fikrimcha, raqamlashtirish korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishning muhim mexanizmi hisoblansa-da, uni korrupsiyaga qarshi kurashishning yagona va mutlaq vositasi sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi.

Chunki, raqamli texnologiyalar korrupsiyaning ayrim shakllarini kamaytirishi mumkin bo'lgani holda, ularning samaradorligi huquqiy tartibga solish, institutsional nazorat va axborot xavfsizligi tizimlarining qay darajada shakllanganligiga ham bevosita bog'liq. Aks holda raqamli tizimlarda ma'lumotlarni soxtalashtirish, algoritmlarga noqonuniy ta'sir ko'rsatish yoki raqamli resurslardan manfaatdorlik maqsadlarida foydalanish bilan bog'liq yangi xavflar paydo bo'lishi mumkin.

Shu sababli, F.G'.Karimovning qarashlarini rivojlantirgan holda ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun raqamlashtirishni komplaens-nazorat, korrupsiyaviy risklarni baholash, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va jamoatchilik nazorati mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish zarur. Faqat kompleks yondashuvgina korrupsiyaga qarshi kurashishning barqaror va uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashi mumkin.

Demak, raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim va istiqbolli vositasi hisoblanadi, ammo uning haqiqiy samarasi zamonaviy texnologiyalarni institutsional islohotlar va samarali boshqaruv mexanizmlari bilan birgalikda qo'llash orqali namoyon bo'ladi. Bu esa iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik yondashuvlarni yanada kuchaytirish imkonini beradi.

Q.A.Ismoilov esa ochiq ma'lumotlar siyosatiga alohida urg'u berib, jamoatchilik nazorati kuchaygan sari korrupsiya darajasi pasayadi, deydi [13]. Bunda aytish joizki, ochiq ma'lumotlar

siyosatikorruptsiyaviyxavf-xatarlarningoldiniolishgqaratilganengsamaraliprofilaktikvositalardan biri hisoblanadi. Chunki axborotning oshkoraligi davlat boshqaruvi jarayonlarida shaffoflikni ta'minlaydi, qaror qabul qilishning asoslarini kuzatish imkonini beradi hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Natijada korruptsiyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilish ehtimoli pasayadi.

Biroq jamoatchilik nazoratining samaradorligi faqat ma'lumotlarni oshkor qilish bilan cheklanmaydi. Ochiq ma'lumotlar o'z vaqtida, ishonchli, to'liq va foydalanish uchun qulay shaklda taqdim etilgan taqdirdagina ularning amaliy ahamiyati yuqori bo'ladi. Aks holda ma'lumotlarning rasman e'lon qilinishi jamoatchilik nazoratining real ta'sirini ta'minlamasligi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, Q.A.Ismoilov ning qarashlarini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy sohada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun ochiq ma'lumotlar siyosati, raqamli shaffoflik, jamoatchilik nazorati va hisobdorlik mexanizmlari o'zaro uyg'un holda amal qilishi lozim. Faqat shunda davlat organlari va iqtisodiy subyektlar faoliyatining ochiqligi ta'minlanib, korruptsiyaga qarshi kurashishning profilaktik samaradorligi oshadi.

Demak, jamoatchilik nazorati va ochiq ma'lumotlar siyosati korruptsiyaga qarshi kurashishning yordamchi emas, balki iqtisodiy sohada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va cheklashga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizmlardan biri sifatida baholanishi lozim. Bu esa davlat boshqaruvida shaffoflik, hisobdorlik va fuqarolar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq, A.A.Tursunov raqamlashtirishni mutlaq yechim sifatida baholamaydi, raqamli tizimlarda ham inson omili to'liq yo'qolmaydi degan g'oyani ilgari suradi [14]. Mazkur yondashuv raqamlashtirishning imkoniyatlari va cheklovlarini xolis baholash imkonini beradi. Darhaqiqat, elektron davlat xizmatlari, avtomatlashtirilgan soliq ma'muriyatchiligi va raqamli davlat xaridlari inson omilining ta'sirini sezilarli darajada kamaytirsada, korruptsiyaviy xavflarni to'liq bartaraf eta olmaydi. Ayrim hollarda korruptsiyaning an'anaviy shakllari o'rniga raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yangi xavflar, jumladan ma'lumotlar manipulyatsiyasi, algoritmlarga noqonuniy ta'sir ko'rsatish yoki axborot tizimlaridan g'arazli maqsadlarda foydalanish holatlari paydo bo'lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, A.A.Tursunovning qarashlari F.G'.Karimovning raqamlashtirish korruptsiya imkoniyatlarini qisqartiradi degan xulosasini ma'lum darajada to'ldiradi. Agar F.G'.Karimov raqamlashtirishning afzalliklariga e'tibor qaratgan bo'lsa, A.A.Tursunov uning cheklovlarini ko'rsatib beradi. Bu esa korruptsiyaga qarshi kurashishda texnologiyalarga ortiqcha ishonib qolmasdan, ularni huquqiy, tashkiliy va institutsional mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini anglatadi.

Demak, iqtisodiy sohada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun raqamlashtirish muhim vosita bo'lib xizmat qilsada, uning samaradorligi komplains-nazorat, jamoatchilik nazorati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va hisobdorlik mexanizmlari bilan birgalikda qo'llanilgan taqdirdagina yuqori natija beradi. Shu bois raqamlashtirish korruptsiyaga qarshi kurashishning maqsadi emas, balki samarali boshqaruvga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholanishi lozim.

I.I.Safarov davlat xizmatida korruptsiya xavflarini tahlil qilib, axloqiy standartlar va xizmat intizomi past bo'lgan joyda korruptsiya xavfi yuqori deb ta'kidlaydi [15]. Bu fikr korruptsiyaning faqat huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki ma'naviy-axloqiy xususiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Chunki, hatto mukammal huquqiy mexanizmlar va zamonaviy nazorat tizimlari mavjud bo'lgan sharoitda ham davlat xizmatchilarining halollik, xolislik va vijdonlilik tamoyillariga amal qilmasligi korruptsiyaviy xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan davlat xizmatida yuqori axloqiy madaniyatni shakllantirish korruptsiyaga qarshi kurashishning muhim profilaktik vositasi hisoblanadi.

Biroq korruptsiya xavfini faqat axloqiy standartlar darajasi bilan izohlash ham yetarli emas. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, korruptsiyaviy huquqbuzarliklar ko'p hollarda nazoratning yetarli

emasligi, vakolatlarning noaniq taqsimlanganligi, manfaatlar to'qnashuvi va shaffoflikning pastligi kabi institutsional omillar ta'sirida ham yuzaga keladi. Shu bois axloqiy tarbiya va xizmat intizomini mustahkamlash tashkiliy va huquqiy mexanizmlar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

Nazarimda, I.I.Safarovning qarashlari korrupsiyaga qarshi kurashishning inson kapitaliga asoslangan yondashuvini ifoda etadi. Davlat xizmatchilarida halollik madaniyatini shakllantirish, xizmat etikasi kodekslariga rioya etilishini ta'minlash, muntazam malaka oshirish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Demak, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishda huquqiy, tashkiliy va raqamli mexanizmlar bilan bir qatorda davlat xizmatchilarining kasbiy etikasi, xizmat intizomi va axloqiy mas'uliyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham kuchaytirish zarur. Faqat kompleks yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashishning barqaror va uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashi mumkin.

Iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish mexanizmlariga to'xtalib o'tish bilan unga **zamonaviy ilmiy yondashuvlar** ham katta rol o'ynaydi. Bunday yondashuvlarga Vehavioral (xulq-atvor), Data-driven (ma'lumotlarga asoslangan) va institutsional islohotlar kiradi.

Vehavioral (xulq-atvor) yondashuv inson psixologiyasiga asoslanib, korrupsiyani kamaytirish uchun rag'batlantirish mexanizmlari ishga solish va ijtimoiy normalarni kuchaytirishga qaratilgandir.

Data-driven (ma'lumotlarga asoslangan) yondashuv bilan katta ma'lumotlar tahlili orqali shubhali operatsiyalarni aniqlash, korrupsiya sxemalarini prognoz qilish orqali amalga oshiriladi.

Institutsional islohotlarda davlat boshqaruvida vakolatlarni aniq taqsimlash, hisobdorlikni kuchaytirish va mustaqil nazorat organlarini shakllantirish hamda samarali institutlar korrupsiyani kamaytiradi. Bunda mustaqil sud tizimi va hisobdorlik mexanizmlarini misol tariqasida ko'rsatilsa bo'ladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslariga "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiq byudjet tizimi kabilar kiradi. Bu chora-tadbirlar iqtisodiy sohada korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy tajriba tahlili sifatida bu yo'nalishda qator davlatlarda samarali mexanizmlar joriy etilgan. Masalan: Singapurda qattiq javobgarlik va yuqori maosh tizimi joriy etilgan bo'lsa, Estoniyada to'liq raqamlashtirilgan davlat xizmatlari, Janubiy Koreyada ochiq ma'lumotlar siyosati amalga oshirilgan.

Bu tajribalar korrupsiyani tizimli ravishda kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish kompleks yondashuvni talab etadi. Faqat jazo choralari emas, balki profilaktika, raqamlashtirish, institutsional islohotlar, jamoatchilik nazorati birgalikda qo'llanilganda samara beradi.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha quyida ko'rsatib o'tilgan takliflarni bildirsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korrupsiyaviy xavflarni baholashning yagona milliy metodikasini joriy etish zaruriyatidir. Bunda barcha davlat organlari va iqtisodiy sub'ektlar uchun korrupsiyaviy xavflarni baholashning yagona standartlari ishlab chiqilishi lozim. Bu xavflarni erta aniqlash va profilaktik choralarni kuchaytirish imkonini beradi.

Manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish tizimini kuchaytirish lozimdir. Chunki, davlat xizmatchilari va iqtisodiy qaror qabul qiluvchi mansabdor shaxslar uchun mol-mulk deklaratsiyasi, qarindoshlik aloqalari, biznes manfaatlari haqidagi ma'lumotlarni ochiq e'lon qilish mexanizmi takomillashtiriladi.

Ilmiy tadqiqotlar va korrupsiya indeksini yaratilishi borasida O'zbekiston iqtisodiy sohasi uchun milliy "Korrupsiya xavfi indeksi", "Shaffoflik indeksi"larni ishlab chiqilishi va har yillik tahlillar e'lon qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olgan holda, barcha davlat organlarida korrupsiyaviy xavf xaritalarini joriy etish, komplaens tizimini majburiy tarzda kiritish, davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, ochiq ma'lumotlar platformalarini kengaytirish hamda xodimlar uchun doimiy antikorrupsiya treninglarini o'tkazish kabi tadbirlar iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishiga xizmat ko'rsatadigan zamonaviy ilmiy yondashuv bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonlik olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishda yagona universal yechim mavjud emas. Samarali natijaga erishish uchun institutsional islohotlar, raqamlashtirish, komplaens tizimlari, jamoatchilik nazorati bir vaqtning o'zida qo'llanilishi lozim.

Shu bilan birga, ilmiy bahslar mavjudligi mazkur sohaning hali ham rivojlanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi va kelgusida chuqur tadqiqotlarni talab qiladi.

Mazkur maqoladagi tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi: *Birinchidan*, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasining huquqiy va iqtisodiy mazmuni kompleks tahlil qilinib, uning mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatar davlat organlari va iqtisodiy sub'ektlar faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratuvchi huquqiy, tashkiliy, institutsional va iqtisodiy omillar yig'indisi sifatida asoslantirildi.

Ikkinchidan, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning asosiy manbalari davlat xaridlari, soliq ma'muriyatchiligi, davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat-xususiy sheriklik munosabatlari misolida tizimlashtirildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi asoslab berildi.

Uchinchidan, korrupsiyaviy xavflarni boshqarishning mavjud yondashuvlari tahlili asosida profilaktik ta'sirga ega bo'lgan "korrupsiyaviy risklarni baholash – komplaens nazorat – raqamli monitoring" modeli taklif etildi.

To'rtinchidan, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavflarni baholash uchun xavf ehtimoli, ta'sir darajasi va korrupsiyaviy oqibatlar ko'lamiga asoslangan integral baholash mexanizmini joriy etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslantirildi.

Beshinchidan, davlat ishtirokidagi iqtisodiy sub'ektlarda korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida manfaatlar to'qnashuvini avtomatik monitoring qilish, komplaens-nazoratni majburiy joriy etish va sun'iy intellekt asosida tahlil qilish tizimini qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Shaxsiy xulosalarim shundan iboratki, korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin jazo choralarini qo'llash bilan emas, balki korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisodiy sohada korrupsiyaga qarshi siyosatning asosiy yo'nalishi repressiv mexanizmlardan profilaktik mexanizmlarga bosqichma-bosqich o'tkazilishi lozim.

Tadqiqot natijalari va muallifning ilmiy hissasi shunda ko'rinadiki, natijada iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish sabablari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar tizimli tahlil qilindi. Mavjud ilmiy qarashlar va amaliyotni o'rganish asosida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy e'tibori huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin jazolashga emas, balki korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga qaratilishi lozimligi asoslantirildi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarga mualliflik ta'rifi taklif etildi. Unga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatar davlat organlari va iqtisodiy sub'ektlar faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratuvchi huquqiy, tashkiliy, institutsional va iqtisodiy omillar majmui sifatida talqin qilindi.

Shuningdek, davlat xaridlari, soliq ma'muriyatchiligi, davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat-xususiy sheriklik sohalari iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavflar eng yuqori darajada namoyon bo'ladigan yo'nalishlar sifatida tasniflandi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Muallif tomonidan korrupsiyaviy xavflarni boshqarishning profilaktik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model korrupsiyaviy risklarni baholash, komplaens-nazorat mexanizmlarini qo'llash va raqamli monitoring vositalarini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berildi.

Bundan tashqari, iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida davlat ishtirokidagi tashkilotlarda komplaens tizimini majburiy joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini avtomatlashtirilgan tarzda monitoring qilish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Maqola tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarning mualliflik ta'rifi shakllantirilganligi;
- korrupsiyaviy xavflarning iqtisodiy sohalar kesimida tizimlashtirilgan tasnifi ishlab chiqilganligi;
- korrupsiyaviy xavflarni boshqarishning profilaktik modeli taklif etilganligi;
- komplaens-nazorat, raqamli monitoring va risk-baholash mexanizmlarini integratsiya qilish asosida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Umumiy xulosa qilib olganda, tadqiqot natijalari iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, investitsiyaviy jozibadorlik va davlat boshqaruvi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaning oldini olishga doir mavjud ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur muammoni hal etishda institutsional islohotlar, huquqiy mexanizmlar, iqtisodiy rag'batlantirish choralari va zamonaviy boshqaruv vositalarini o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasining nazariy-huquqiy mohiyati ochib berildi hamda iqtisodiy sohada korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratuvchi huquqiy, tashkiliy, institutsional va iqtisodiy omillar majmui sifatida mualliflik ta'rifi taklif etildi. Shuningdek, davlat xaridlari, soliq ma'muriyatchiligi, davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat-xususiy sheriklik munosabatlari korrupsiyaviy xavflar yuqori darajada namoyon bo'ladigan sohalar sifatida asoslantirildi.

Olimlar qarashlarining qiyosiy tahlili korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat jazo choralari kuchaytirish yetarli emasligini, balki korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatdi. Ayniqsa, komplaens-nazorat, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, korrupsiyaviy risklarni baholash va raqamli monitoring tizimlarining ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavflarni boshqarishning profilaktik modeli taklif etildi. Ushbu model korrupsiyaviy risklarni baholash, komplaens tizimini joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini barvaqt aniqlash va raqamli texnologiyalar asosida doimiy monitoring o'tkazish mexanizmlarini o'zaro bog'liq holda qo'llashni nazarda tutadi. Muallifning fikricha, mazkur yondashuv korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy sohada shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan davlat organlari va iqtisodiy sub'ektlarda korrupsiyaviy risklarni baholashning yagona metodikasini ishlab chiqish, komplaens-nazorat tizimini keng joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarga asoslangan monitoring tizimlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES:

1. S.Rose-Ackerman. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. Cambridge University Press, 1999; revised edition, 2016. https://books.google.co.uz/books/about/Corruption_and_Government.
2. Becker, G.S. *Crime and Punishment: An Economic Approach* // Journal of Political Economy. Vol.76.No.2.2008. <https://www.nber.org/system/files/chapters/c3625/.pdf>
3. Saidov A.X. "Huquqiy davlat va korrupsiyaga qarshi kurash muammolari" Toshkent Adolat, 2019. <https://www.litres.ru/author/akmal-saidov/>
4. Qudratov O.B. "Korrupsiyaga qarshi kurashda institutsional yondashuv" Toshkent 2026. <https://journalss.org/index.php/mod/article/view/>
5. Abdullaev B.B. "Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiya" Toshkent Fan, 2018.
6. Raxmonqulov X.R. "Iqtisodiy islohotlar va huquqiy ta'minlash" Toshkent TDYU, 2020. <https://www.google.com/searchRaxmonqulovX.R>.
7. Qodirov N.N. "Korrupsiyaning iqtisodiy oqibatlari" "Iqtisodiyot va ta'lim", 2019, №5. <https://ilmiyish.uz/product/iqtisodiyot-korrupsiyaning-iqtisodiy-oqibatlari>
8. To'raev Sh.N. "Soliq tizimida korrupsiya xavflarini kamaytirish" "Moliya", 2020, №4. <https://www.google.com/searchToraevSh.N>
9. Mirzaev Sh.M. "Komplaens nazorat tizimini joriy etish muammolari" Toshkent: 2021. <https://www.google.com/searchMirzaevSh.M>.
10. Matchanov R.S. "Korrupsiyaga qarshi komplaens: xalqaro tajriba" Toshkent 2023. <https://www.google.com/searchMatchanovR.S>.
11. Normatov D.Q. "Manfaatlar to'qnashuvi: nazariya va amaliyot" Toshkent 2020. <https://www.google.com/searchNormatovD.Q>.
12. Karimov F.G'. "Raqamlashtirish va korrupsiyani kamaytirish" "Yuridik fanlar axborotnomasi", 2023, №1. <https://www.google.com/searchKarimovF>.
13. Ismoilov Q.A. "Ochiq ma'lumotlar va shaffoflik" Toshkent 2022 <https://www.google.com/searchIsmoilovQ.A>.
14. Tursunov A.A. "Davlat xaridlarida shaffoflik va korrupsiya xavflari" "Huquq va burch" jurnali, 2022, №3. <https://www.google.com/searchTursunovA.A>.
15. Safarov I.I. "Davlat xizmatida korrupsiya xavflari" "Davlat va huquq", 2021, №2. <https://www.google.com/searchSafarovI.I>.

JUMAYEV Shohjahon Begimqul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va

malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza

qilish akademiyasi doktoranti

E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

DAVLAT ORGANLARIDA MUROJAATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI ANIQLASH VA MINIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): JUMAYEV SH.B. Davlat organlarida murojaatlar bilan ishlash jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish mexanizmlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 208-215.

3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-021>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari, ularni uzaytirish hamda qisqartirish tartibi, murojaatlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalariga doir korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni bartaraf etish xususida so'z borgan. Murojaatlarni davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqish holati bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Yangilangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ilgari surilgan murojaatlar bilan ishlash borasidagi istiqbolda ko'zda tutilgan vazifalar yoritilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammoli holatlar qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Nazariyotchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va bir qator xorijiy davlatlarning murojaatlarni ko'rib chiqish muddatiga oid tajribasi o'rganilgan, milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy tahlil qilingan hamda takliflar ilgari surilgan. Murojaatlarni ko'rmay qoldirish asoslarini aniq va qat'iy belgilashning afzalliklari, shuningdek, amaliyotda ham turfa xil talqin etishga, turlicha qarashga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan tushunchalarning mazmun-mohiyati esa qonun darajasida aniq belgilanishining joizligi taklif etilgan. "Mening fikrim" veb-portali orqali elektron jamoaviy murojaatlar berish va ularni rad etish tartibiga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: murojaat, ariza, shikoyat, taklif, korrupsiyaviy xavf-xatar, korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash, javobgarlik, murojaatga javoblar, ustuvor yo'nalish, strategiya.

ЖУМАЕВ Шохжахон

Старший преподаватель Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве Юстиции Республики Узбекистан,
Докторант Правоохранительной
Академии Республики Узбекистан
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

МЕХАНИЗМЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И МИНИМИЗАЦИИ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ В ПРОЦЕССЕ РАБОТЫ С ОБРАЩЕНИЯМИ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются сроки рассмотрения обращений физических и юридических лиц, порядок их продления и сокращения, а также вопросы коррупционных рисков, связанных с ответственностью за нарушение законодательства об обращениях, и пути их устранения. Приводятся официальные статистические данные о рассмотрении обращений государственными органами и организациями. Освещаются перспективные задачи в сфере работы с обращениями, предусмотренные в обновлённой стратегии «Узбекистан – 2030». Проведён сравнительно-правовой анализ отдельных проблемных вопросов, связанных с привлечением к административной и уголовной ответственности за нарушение законодательства об обращениях физических и юридических лиц. Изучены научно-теоретические взгляды учёных-теоретиков, а также опыт ряда зарубежных стран относительно сроков рассмотрения обращений, проведён их сравнительный анализ с национальным законодательством и выдвинуты соответствующие предложения. Предложены преимущества четкого и исчерпывающего определения оснований для оставления обращений без рассмотрения. Также обоснована целесообразность законодательного закрепления содержания и сущности понятий, которые на практике могут вызывать различные толкования и неоднозначные подходы. Кроме того, рассмотрен порядок подачи и отклонения электронных коллективных обращений через веб-портал «Мое мнение» («Mening Fikrim»).

Ключевые слова: обращение, заявление, жалоба, предложение, коррупционный риск, оценка коррупционных рисков, ответственность, ответы на обращения, приоритетное направление, стратегия.

SHOKHJAKHON Djumayev

Senior lecturer of Training Institute for lawyers,
Doctoral student of the Law Enforcement Academy of
Republic of Uzbekistan
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

MECHANISMS FOR IDENTIFYING AND MINIMIZING CORRUPTION RISKS IN THE PROCESS OF HANDLING APPEALS IN GOVERNMENT BODIES

ANNOTATION

This article discusses corruption risks related to the time limits for reviewing appeals of individuals and legal entities, the procedure for extending and shortening such time limits, as well as liability for violations of legislation on appeals, and examines ways to eliminate these risks. Official statistical data on the consideration of appeals by state bodies and organizations are presented. The article also highlights

the prospective tasks envisaged in the field of handling appeals under the updated "Uzbekistan – 2030" Strategy. Certain problematic issues related to administrative and criminal liability for violations of legislation on appeals of individuals and legal entities are analyzed through a comparative legal approach. The scientific and theoretical views of legal scholars, as well as the experience of a number of foreign countries regarding the time limits for considering appeals, are examined, comparatively analyzed with national legislation, and relevant proposals are put forward. The advantages of clearly and strictly defining the grounds for leaving appeals without consideration have been proposed. It has also been suggested that the content and essence of concepts that may give rise to various interpretations and differing approaches in practice should be clearly defined at the legislative level. Furthermore, the procedure for submitting and rejecting electronic collective appeals through the "Mening Fikrim" web portal has been examined.

Key words: appeal, application, complaint, proposal, corruption risk, corruption risk assessment, liability, responses to appeals, priority direction, strategy.

Ma'lumki, mamlakatimizda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan davr mobaynida mazkur sohaga oid 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, yangi tahrirdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari, davlat organlari va tashkilotlarining "Ishonch telefonlari" tashkil etilishi fuqarolarning og'irini yengil qilish bilan bir qatorda, turli xil murojaat qilish bilan bog'liq noqulayliklarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Joriy yil 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda mamlakatimizda har o'n ming kishiga o'rtacha 319 ta ariza va shikoyat to'g'ri kelayotganligi, biroq bu ko'rsatkich Toshkent shahrida 535 ta, Navoiy viloyatida 462 ta, Sirdaryo va Surxondaryoda 452 tadan, Jizzaxda 430 ta, Qashqadaryoda 368 ta, Toshkent viloyatida 350 tani tashkil qilayotganligi ta'kidlandi [1].

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 82-bandida "murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini (shu jumladan, murojaat natijasida mavjud muammolarni aniqlash va ularning qonuniy yechimini topish) ta'minlash lozimligi" ustuvor vazifa sifatida belgilandi [2].

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar hamda belgilangan ustuvor vazifalar murojaatlar bilan ishlash masalasi qanchalar dolzarb ekanligini va borada qonunchilik doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi joizligini ko'rsatadi.

Shuningdek, murojaat qilishga doir bir qancha nazariyotchi olimlarning fikrlarini keltirib o'tishimiz joiz sanaladi. Jumladan, *A.A.Drakov* va *A.P.Lyubimov*ning fikricha, murojaat qilish huquqi – bu fuqaro (chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs) ning og'zaki yoki yozma ravishda taklif, ariza, iltimosnoma, shuningdek, shikoyat bilan ushbu masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlarga murojaat qilish huquqi hisoblanadi [3]. Mazkur ta'rifda murojaat qilish huquqining maqsadi va xususiyatlari to'liq ochib berilmagan deb hisoblaymiz. Qolaversa, ushbu ta'rifda murojaatning shakli sifatida elektron murojaat keltirib o'tilmagan. E'tiborli jihati shundaki, ta'rifda iltimosnoma murojaatning alohida turi sifatida keltirilgan. Vaholanki, bir qancha davlatlar qonunchiligi bo'yicha, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan iltimosnoma murojaatning alohida turi sifatida qayd

etilmagan, balki murojaatning turi hisoblangan arizaning bir elementi sifatida keltirib o'tilgan.

Y.Xrumalova va M.Mixaylovskiyning qayd etishicha esa, murojaatlar davlat uchun jamiyatning ehtiyoji va zaruratiga o'z vaqtida hamda sifatli ta'sir ko'rsatish maqsadida muhim axborot manbai, shaxs erkinligi va manfaatlarini qanoatlantirish uchun aholi bilan samarali aloqa vositasi hisoblanadi [4].

Mazkur maqolada murojaatlar bilan ishlash borasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlil qilinar ekan, avvalo korrupsiyaviy xavf-xatar o'zi nima ekanligi va unga qonunchilik darajasida qanday ta'rif berilganligiga to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash" Uslubiyotining 3-bandiga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatar bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda *korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli* sanaladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash esa davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat hisoblanadi [5].

Endi esa murojaatlar bilan ishlash sohasidagi ayrim korrupsiyaviy xavf-xatarlar hamda uni bartaraf etish yo'llari va murojaatlarga doir qonunchilikdagi turli sharhlashga sabab bo'ladigan holatlarga to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrda qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-sonli Qonuni 28-moddasiga muvofiq, ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran *o'n besh kun ichida*, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, *bir oygacha* bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi [6].

Ya'ni mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismida ariza yoki shikoyat qancha muddatda ko'rib chiqilishi, muddatni uzaytirish masalasi belgilab berilgan. Ammo mazkur moddaning uchinchi qismiga ko'ra, taklif davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar esa bundan mustasno ekanligi qayd etilgan. Modda mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ariza va shikoyatni ko'rib chiqish muddati hamda bu muddatni uzaytirish masalasi qat'iy belgilangan, ammo qo'shimcha o'rganishni talab qiladigan takliflar qancha muddatda ko'rib chiqilishi lozim ekanligi aniq belgilab berilmagan. Bu holat esa, mazkur huquqiy normani turli xil sharhlanishiga hamda ko'rib chiqishda har xil amaliyot yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Murojaatlarni ko'rib chiqish muddati haqida so'z borar ekan, xorij tajribasiga ham to'xtalib o'tishimiz lozim, deb o'ylaymiz. Misol uchun, *AQShning Texas shtati* qonunchiligiga ko'ra, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddati 10 ish kuni etib belgilangan [7].

Angliya hukumati sayti ma'lumotlariga ko'ra, murojaatlar 20 ish kunida ko'rib chiqilishi lozim. Qo'shimcha o'rganishlarni talab etsa, muddat 12 haftagacha uzaytirilishi mumkin [8]. Shuningdek, Angliya Ombudsmani shikoyatlarni 8 haftagacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqadi [9].

Rossiya Federatsiyasining 2006-yil 2-maydagi 59-FZ sonli "Murojaatlar to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasiga muvofiq, murojaatlar 30 kunlik muddatda ko'rib chiqiladi. Tegishli asoslar bo'lgan taqdirda tashkilot rahbari tomonidan yana 30 kungacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin [10].

Yuqoridagi xorijiy tajribalar sifatida keltirilgan normalar mazmunidan ko'rinib turibdiki, ularda

bir qator milliy qonunchiligimizdan farqli jihatlar mavjud bo'lib, bu Texas shtatida muddatlar "ish kunlari" bilan hisoblanishida, Angliyada uzaytirilgan muddat ancha ko'pligida, Rossiya Federatsiyasida esa, qo'shimcha o'rganishni talab etmaydigan murojaatlar bo'yicha qisqaroq, ya'ni 15 kunlik muddatning belgilanmaganida yaqqol ko'rinadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni 27-moddasi beshinchi qismidagi "Murojaatlarga javoblar mumkin qadar murojaat etilgan tilda bayon qilinadi", degan jumla "Murojaatlarga javoblar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda murojaat etilgan tilda bayon qilinadi" tarzida o'zgartirilishi taklif qilinadi. Chunki ushbu normadagi "mumkin qadar" degan jumla aniq qaysi tilda murojaatga javob berilishi lozimligini qat'iy belgilamaydi. Ushbu taklif amaliyotda murojaat etilgan tilda javob berishdan qochish hamda mazkur huquqiy normani turlicha talqin etishning oldini oladi. Bundan tashqari, hozirgi raqamli makonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida bir tildan boshqa tilga murojaat matnini tarjima qilish ancha tez va sifatli amalga oshirilishi imkoniyati katta. Qolaversa, mazkur norma "mumkin qadar" jumlasining bo'lishi agarda murojaat qiluvchi murojaatni ko'rib chiquvchi davlat organi mansabdor shaxsiga yaqin tanish bo'lsagina yoki murojaat qiluvchi tegishli davlat organiga ma'lum moddiy manfaat ko'rsatsagina murojaatga javob xatlari murojaat etilgan tilda berilishini, ya'ni korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimolining yuzaga kelishini inkor etmaydi. Yuqoridagi tahrirda taklif etgan huquqiy normamiz esa korrupsiyaviy xavf-xatarni oldini oladi va ma'lum darajada bartaraf etadi, deb hisoblaymiz.

Shu kabi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi Namunaviy nizomning 41-bandida *"Ayrim hollarda davlat organi, tashkilotining rahbari yoki uning o'rinbosari murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishlari mumkin"*, deb qayd etilgan[11]. Ushbu huquqiy normadagi *"ayrim hollar"*ga aynan qaysi holatlar kirishi mumkinligi qonunchilikda aniq belgilab qo'yilishi lozim, deb hisoblaymiz. Aks holda bu korrupsiyaviy xavf-xatarni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishning aniq va qat'iy huquqiy asoslari belgilanmasa, davlat organining mansabdor shaxsi faqat o'z yaqin qarindoshlarining murojaatlariga nisbatan muddatni qisqartirib berishi yoki kimdir uni moddiy manfaatdor qilgandagina muddatni qisqartirib berishi mumkin bo'lib qoladi.

Shuningdek, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasida murojaatlarni ko'rmay qoldirishning quyidagi asoslari keltirib o'tilgan:

anonim murojaat bo'lsa;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;

mazkur Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

Murojaat qilish huquqi har bir shaxsning konstitutsiya darajasida muhofaza etilgan huquqi bo'lganligi hamda murojaatni ko'rmay qoldirish asosi qat'iy bo'lmagan taqdirda shaxsning murojaat qilish huquqi muayyan muddatga bo'lsada cheklanishi mumkinligi sababli murojaatlarni ko'rmay qoldirish asoslari barcha uchun tushunarli va qat'iy belgilanishi lozim, deb hisoblaymiz. Shu bois Qonunda "boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar" deganda qanday talablar nazarda tutilayotganligi qayd etib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 12-fevralda qabul qilingan 463-V-sonli Qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "Mening fikrim" veb-portali orqali elektron jamoaviy murojaatlar berish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 11-bandiga asosan quyidagilar murojaat predmeti bo'la olmaydi:

O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o'zgartirish to'g'risidagi;
O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va soliqlar haqidagi;
amnistiya va afv etish to'g'risidagi;
amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish haqidagi;
jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga putur yetkazadigan, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini poymol qiladigan;

urush, zo'ravonlik, shafqatsizlikni targ'ib qilish, millatlararo, irqiy, diniy adovat, ekstremizm, separatizm va fundamentalizmni qo'zg'atish to'g'risidagi;

terrorchilik harakatlarini sodir etishga, qonunga muvofiq jinoiy va o'zga javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir etishga da'vat qilish haqidagi;

giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va ularning analoglarini, shuningdek prekursorlarni targ'ib qilish to'g'risidagi va boshqa masalalar.

Demak, elektron jamoaviy murojaatlarda mazkur masalalarning qayd etilmasligi lozimligini ham murojaatlarga qo'yilgan talab deyish mumkin hamda bu talabga amal qilmaslik esa elektron jamoaviy murojaatning ko'rib chiqilmasligiga olib keladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, basharti jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun huquqbuzarlik natijasida fuqarolarning, jamiyat va davlatning huquqlariga yoxud qonun tomonidan muhofaza qilinayotgan manfaatlariga *jiddiy ziyon* yetkaziladigan bo'lsa, mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 144-moddasi birinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur modda bilan bog'liq bo'lgan, amaliyotda ham turfa xil talqin etishga, turlicha qarashga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan tushuncha aynan "jiddiy ziyon" tushunchasidir. Jinoyat kodeksining ushbu moddasi birinchi qismi bo'yicha javobgarlikka tortish asoslaridan eng zaruriysi aynan jiddiy ziyonning kelib chiqishidir. Ammo amaldagi Jinoyat kodeksining "Atamalarning huquqiy ma'nosi" nomli sakkizinchi bo'limida "jiddiy ziyon" deganda aynan nima tushunilishi lozim ekanligi qat'iy keltirib o'tilmagan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 4-moddasiga asosan, sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlar *faqat Jinoyat kodeksi bilan* belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi asos faqat Jinoyat kodeksida aks etishi lozim.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. *Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar* ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Demakki, qonunchilikda aks etgan hamda turlicha talqin etishga asos bo'ladigan holatlar ham jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan, ayblanayotgan shaxsning foydasiga xizmat qilishi joiz.

Shu bilan bir qatorda, davlat organlarining murojaatlar bilan ishlash jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish yo'llari sifatida yana quyidagilarni keltirib o'tamiz. Birinchidan, **murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish** zarur. Elektron murojaatlar tizimi orqali murojaatlarning qabul qilingan vaqti, ijrochisi, bajarilish muddati hamda ko'rib chiqish natijalari avtomatik qayd etilishi inson omilining ta'sirini kamaytiradi.

Ikkinchidan, **murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va mezonlarini aniq belgilash** lozim. Murojaatlarni qaysi hollarda ko'rib chiqish, qaytarish, boshqa organga yuborish yoki ko'rmasdan qoldirish mumkinligi qonunchilikda batafsil va tushunarli ifodalansa, mansabdor shaxslarning diskretsion vakolatlari ma'lum darajada cheklanadi.

Uchinchidan, **murojaatlar harakatini monitoring qilishning shaffof mexanizmlarini joriy etish** muhimdir. Murojaatchiga o'z murojaatining qaysi bosqichda ekanligini onlayn

kuzatish imkoniyatining yaratilishi mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Shaffoflik darajasi ortgani sari korrupsion harakatlarni yashirish imkoniyati kamayadi.

To'rtinchidan, **ichki nazorat va xizmat tekshiruvlari tizimini takomillashtirish** talab etiladi. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari, qonuniyligi va sifati muntazam ravishda tekshirib borilishi, aniqlangan qonunbuzilishlar bo'yicha muqarrar choralar ko'rilishi korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori korrupsiyaviy xavfga ega bo'lgan yo'nalishlarda riskga asoslangan nazorat mexanizmlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Beshinchidan, **manfaatlar to'qnashuvini oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish** lozim. Agar murojaatni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs murojaat natijasidan shaxsan manfaatdor bo'lsa yoki murojaat qiluvchi bilan yaqin aloqalarga ega bo'lsa, bunday holat majburiy ravishda deklaratsiya qilinishi va ish boshqa xodimga topshirilishi kerak. Bu xolislik va adolatlilikni ta'minlaydi.

Oltinchidan, **murojaatlar bilan ishlash bo'yicha xodimlarning kasbiy malakasi va korrupsiyaga qarshi madaniyatini oshirish** muhim ahamiyatga ega. Xodimlarning qonunchilik, xizmat etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish standartlari bo'yicha muntazam o'qitilishi ularning huquqiy ongini mustahkamlaydi hamda noqonuniy harakatlarga moyillikni kamaytiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan bog'liq faoliyat muayyan davlatning aholi muammolari bilan ishlash darajasini, davlat organlari va tashkilotlari o'z zimmasidagi funksiyalarni qanchalar aniq va to'liq bajarayotganini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar qay darajada samara berayotganini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos indikatoridir. Shu bois, mazkur sohaga doir qonunchilik doimiy ravishda tahliliy ravishda o'rganilishi, ilg'or xorij tajribasi asosida takomillashtirilishi hamda undagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar minimallashtirilib borilishi lozim.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligidagi 2026-yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishidan // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9010>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>.
3. Любимова А.П. Гражданский лоббизм: процедуры и технологии обращения граждан. – М., 1998.; Дворак А.А. Реализация конституционного права граждан на обращения в Российской Федерации: Дис... канд. юрид. наук. – М., 2004.
4. Хрумалова Ю.В. Право граждан на обращение в органы государственной власти как форма обратной связи между населением и государственным аппаратом. // Гражданское общество в эпоху глобальной информатизации: докл. и матер. III Международной молодежн. науч. конф. – М., 2011. – С. 284.
5. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash" Uslubiyoti // <https://lex.uz/docs/-6178891>.
6. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrda qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-sonli Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-3336169>.
7. Complaints overview // URL: <https://www.texasattorneygeneral.gov/opengovernment/governmental-bodies/complaints-overview>.
8. Complaints and appeals: detailed information//URL: <https://www.gov.uk/topic/dealing-with-hmrc/complaints-appeals>.
9. Complaining to an ombudsman // URL: <https://www.citizensadvice.org.uk/consumer/get-more-help/how-to-use-an-ombudsman-in-england/>.

10. On the procedure for consideration of appeals by citizens of the Russian Federation // URL: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/rus_e/wtaccrus48a8_leg_3.pdf.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 341-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-3730228>.

YURIST AXBOROTNOMASI
3-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
HOMEPI 3

LAWYER HERALD
ISSUE 3

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/3
2026-YIL